

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**La'llixon Muhammadjonova  
Sardor Alimov  
Shuxratjon Rajabov**

**NOTIQLIK SAN'ATI  
O'quv qo'llanma**

**Toshkent  
2022**

## **Notiqlik san'ati.O'quv qo'llanma.– 2022 y**

Notiqlik san'ati – amaliy jihatdan chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til me'yorlari, nutqning sifatlari, nutq uslublarini o'rganuvchi va o'rgatuvchi hamda nutqda uchrashi mumkin bo'lgan nuqsonlar, talaffuzga doir muammolarni hal etish yuzasidan bahs yurituvchi fan bo'lib, bugungi kunda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faoliyat yurituvchi insonlar uchun notiqlik mahoratini egallash zaruriyatga aylanib bormoqda.

Ushbu o'quv qo'llanma notiqlik san'atiga qiziquvchi barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, notiqlik san'atining tarixi, nazariyasi, amaliy va texnik jihatlarini yoritib berishga, bo'lajak mutaxassislarning o'z faoliyatlarida notiqlik mahoratidan samarali foydalanish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

**Taqrizchilar:** f.f.n, dotsent N.Agzamova  
PhD, dotsent D.Jumaniyozova

*O'quv qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan (2020 yil 19.12.№4. – bayonnomma) nashrga tavsiya etildi.*

## KIRISH

### “Ritorika – umumqamrovli fan” Arastu

Notiqlik san’ati – insoniyatning taraqqiyoti bilan bir qatorda rivojlanib kelgan soha, insonlarning o`zaro muloqotga kirishishi, axborotni uzatishi hamda qabul qilib olishining eng mukammal shakli bo`lgan notiqliknin tadqiq etuvchi fan hisoblanadi. Notiqlik san’ati – amaliy jihatdan chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til me’yorlari, nutqning sifatlari, nutq uslublarini o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi hamda nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan nuqsonlar, talaffuzga doir muammolarni hal etish yuzasidan bahs yuritadi.

Bugungi kunda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faoliyat yurituvchi insonlar uchun notiqlik mahoratini egallash zaruriyatga aylanib bormoqda. Mamlakatimizdagi oliy ta’lim tizimida tahsil oluvchi talabalarni o‘z sohalarining haqiqiy mutaxassislari, yetuk kadr bo`lib yetishishlarida ularning kommunikativ kompetensiyaga, o‘z fikrlarini aniq, lo‘nda, tushunarli va ta’sirchan usulda bayon eta olish ko`nikmasiga ega bo‘lishlari ham talab etiladi. “Notiqlik san’ati” o‘quv qo‘llanmasi ushbu ijtimoiy ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

“Notiqlik san’ati” o‘quv qo‘llanmasi yordamida mualliflar jamoasi talabiyoshlarning nutqiy mahoratini takomillashtirish, ularda shaxslararo hamda jamoa bilan bo‘ladigan muloqotlarda o‘z fikrini erkin, ravon bayon etish ko‘nikmalarini shakllantirish, notiqlikning san’at sifatidagi mohiyati va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashni o‘z oldilariga maqsad qilishgan. Ushbu o‘quv qo‘llanma notiqlik san’atiga qiziquvchi barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan bo`lib, notiqlik san’atining tarixi, nazariyasi, amaliy va texnik jihatlarini yoritib berishga, bo‘lajak mutaxassislarning o‘z faoliyatlarida notiqlik mahoratidan samarali foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

## **NOTIQLIK SAN'ATINING MAQSADI, VAZIFALARI VA AHAMIYATI**

### **REJA**

1. Notiqlik san'ati fanining predmeti, maqsadi va vazifalari
2. Notiqlik san'atining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati va dolzarbligi
3. Notiqlik va nutq madaniyatining adabiy til qoidalariga asoslanishi
4. Notiqlik san'atining fanlararo bog'liqligi.
5. Nutqda chiroli muomalaning qudrati

**Tayanch tushunchalar: notiq, nutq, notiqlik san'ati, nutq madaniyati, notiqlik san'atining maqsadi, vazifalari, fanning mohiyati, madaniy nutq, notiqlik, voizlik, suxandonlik.**

#### **1. Notiqlik san'ati fanining predmeti, maqsadi va vazifalari**

Notiqlik san'ati ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq tarzda shakllangan, parallel ravishda rivojlanib borgan fan sohasi bo`lib, ham amaliy, ham nazariy ahamiyat kasb etadi. Insoniyat til vositasi muloqotga kirisha boshlagan ilk davrlardanoq chiroli so'zlash, o'z fikrlarini boshqa insonlarga aniq yetkaza olish yuksak qobiliyat sifatida e'tirof etilgan. Ushbu sohaning rivoji amaliy jihatdan ancha ilgarilab ketgan bo'lsada, fan sifatida shakllanishi, nazariy asoslarning yaratilishi bir necha mingylliklardan so'ng qadimgi Yunonistondagi antik jamiyatda yuz berdi. Bir vaqtlar nutq yuksak san'atlar qatoriga ko'tarilgan, uning sirlarini maxsus maktablarda yillar mobaynida o'rganishgan. Notiqlik san'atining mashaqqati shu darajada bo'lganki, nutqidagi nuqsonni yo'qotish uchun hatto quduqlarga tushib o'tirib nutqni mashq qilishgan. Buyuk notiqlar Demosfen va Sitseronning hayoti ushbu fikrimizni tasdiqlaydi.

Notiqlik san'ati (ushbu fan "Ritorika" ham deb ataladi) faniga daxldor bo'lmanan birorta soha, birorta kasb, jamiyatning biror qatlami yoki ijtimoiy guruh mayjud emas. Mashhur yunon faylasufi Aristotel ritorika faniga umumqamrovli fan deya bezizga ta'rif bermagan edi. Rus mutafakkiri Nikolay Koshanskiy "Ritorika – o'ylab topish, fikrlash va fikrlarni ifoda etish ilmidir" degan fikrida ham ayni haqiqat aks etgan. Umuman olib qaraganda, notiqlik san'ati faniga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

**Notiqlik san'ati – notiqlik san'ati nazariyasi, chiroli so'zlash haqida ta'limot, real vaziyatda maksimal darajada to'g'ri va chiroli gapira olishni o'rgatuvchi fan.**

Notiqlik san'ati fanining **asosiy maqsadi** ommani umummadaniy saviyasini yuksaltirishga hissa qo'shishdir. Shu bilan birga, uning maqsadi talabalarga Notiqlik san'ati tarixidan ma'lumot berish, ulkan notiqlar, adiblar, so'z ustalarining

nutq madaniyatini rivojlantirish borasidagi xizmatlarini e'tirof etish va ularning boy merosidan foydalanishdan iboratdir.

Notiqlik san'ati – amaliy jihatdan chiroyli nutq tuzishning qonuniyatları, sirlari, til me'yirlari, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan nuqsonlar va talaffuzga doir muammolarni hal etish yuzasidan bahs yuritadi.

Notiqlik san'ati fan sifatida o‘z tadqiqot predmeti va vazifalariga ega. Uning tadqiqot predmeti nutqning til qurilishi, adabiy til me'yirlari va nutqning kommunikativ (aloqa uchun kerakli) xususiyatidir.

Fan sifatida notiqlik san'ati **4 qism**dan iborat:

1. Notiqlik san'ati tarixi;
2. Notiqlik san'ati nazariyasi;
3. Notiqlik san'ati amaliyoti;
4. Notiqlik san'ati texnikasi.

Shuni alohida aytish kerakki, notiqlik faqat chiroyli so‘zlarni qo‘llay olishdangina iborat emas, balki notiq so‘zning ta’siri, uning ijtimoiy ahamiyatiga ham katta e’tibor berishi kerak. Zero, notiqning saviyasi, iqtidori, salohiyati va insoniyligi u so‘zlagan matnning nechog‘li ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.

## **2. Notiqlik san'atining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati va dolzarbli**

Nutq qaysi mavzu doirasida bo‘lishidan qat’iy nazar nutqda notiqning hayot yo‘li, yillar mobaynida kechirgan jamiki murakkabliklari, chekilgan iztiroblar aks etmog‘i va shunga o‘xshash narsalar hayajon bilan bayon etilmog‘i kerak. Shuning uchun ham odamlar yubileyini nishonlayotgan insonga oxirida so‘z bergenlarida uning so‘zini butun vujudlari bilan eshitishga harakat qiladilar, nutqni gulduros qarsaklar bilan olqishlaydilar. Boisi, yubilyarning nutqida uning hayoti, hayajoni va samimiy mulohazasi aks etgan bo‘ladi.

Uzoq davrlardan buyon kishilarning o‘zaro munosabatlarida, ular bir-birlarini tushunishlarida, fikr almashishlarida nutq, nutqiy munosabatlar hamisha muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bugun zamon talabiga mos ravishda tilning kommunikativ-funksional tamoyiliga asosan nutqiy faoliyatga e’tibor kuchaydi. Nutqiy faoliyat til va nutq dialektikasiga muvofiq tarzda ro‘yobga chiquvchi hodisa bo‘lib, uning har qanday turi so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat vositasi hisoblanadi.

Nutqning mohiyati uning madaniyligi, ommaviyligi va ijtimoiy ahamiyati bilan belgilanadi. «Madaniy nutq», «nutq madaniyati», «notiqlik» degan iboralar bor. Nutqning xarakteri ana shularning mohiyatini bilish bilan izohlanadi. Ularning lingvistik birlik sifatida o‘z xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularni insonlarning o‘zaro

fikr almashishdagi nutqiy jarayonning bosqichli shakllari deyish mumkin. Ana shu shakllar to‘g‘ri nutq, nutq madaniyati hamda notiqlikdir.

Nutq madaniyati, nutqiy mahorat va notiqlik san‘atiga doir qator ilmiy ishlar muallifi, zamonamizning ajoyib notig‘i Rahimboy Jumaniyozov nutqiy faoliyatning bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi, o‘ziga xos turlari hamda og‘zaki nutq va yozma nutq haqida talaygina ijobiy fikrlarni bayon etadi<sup>1</sup>:

“Muloqot vositasi *kommunikatsiya* nutqiy (og‘zaki va yozma), *paralingvistik* (tovush ohangi, gap tezligi, ovoz tembri), *kinetik* (xatti-harakat, mimika, harakatning boshqa shakllari) va *narsa belgili* (haykal, rasmlar) vositalar tarzida amalga oshiriladi. Nutqiy malakaga, ko‘nikmaga ega bo‘lmagan o‘qituvchi yoki talaba tilimizning sofligini ham, boyligini ham namoyish eta olmaydi. Chinakam notiq nutq texnikasi – ovoz, nafas, to‘xtalish, ohang kabi nutqning ifoda vositalari, mashqiy jarayon bilan chegaralanib qolmasdan, balki nutqiy mahorat nutqiy faoliyat qirralarini egallahsga intilishi, nazariy ma’lumot va amaliy mashhg‘ulotni uyg‘unlashtira olishi zarur. Ifodali o‘qish matn mazmunini yetkazishga daxldor texnik va nazariy vositalarni bilish va unga amal qilish har doim ahamiyatlidir”.

R.Jumaniyozov o‘zining fikrini davom ettirib, notiq va voiz tushunchalari bir xil ma’noga ega emasligi, ular mohiyat e’tibori bilan alohida san‘at ekani, ularning bir-biridan farq qiluvchi tomonlari haqida ta’kidlaydi: “Notiqlik qo‘llanish o‘rnii, mavzu doirasi va ma’no qamrovi jihatidan birmuncha keng. Voizlik ham nutqiy mahorat orqali o‘z ro‘yobini ko‘rsatadi. Unda diniy, didaktik va hayotiy mazmun ustuvorlik qilgan, notiqlik dunyoviylik bilan hamma davr va makonlarda har xil g‘oya va maslaklarga xizmat qilgan. Shunday ekan, voizlik notiqlikning bir ko‘rinishi degan fikr haqiqatga yaqin”<sup>2</sup>.

Agar o‘xhatishimiz o‘rinli bo‘lsa, bugungi kunda voiz-va’zxon ataluvchi kishilar diniy bayramlar va marosimlar – Ramazon va Qurbon hayitlari, Amri ma’ruf, Mavlud an-nabiy, Xatmi Qur’on kabi islomiy marosimlarda diniylik bilan zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan holda ilm, ma’rifat, shariat va axloq masalalariga doir mavzular asosida suhbat quruvchilardir.

Voizlik san‘atiga suxandonlik san‘ati yaqin turadi. Suxandonlik mohiyatan so‘z ustasi, so‘zga chechan degan ma’nolarni anglatadi va u direktor so‘zidan farq qiladi. Xalqimiz O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist O‘tkir Sidiqovni suxandon, so‘z ustasi sifatida qadrlaydi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Nasiba Ibrohimovani esa mohir direktor sifatida yaxshi ko‘radi.

Amir Unsurulmaoniy Kaykovus «Qobusnama» asarining «Suxandonlik bila baland martabali bo‘lmoq zikrida» deb nomlangan yettinchi bobda suxandonlikning mohiyati, zarurati, shartlari va xususiyatlari bilan bog‘liq muhim

<sup>1</sup> Qarang: Жуманиёзов Раҳимбояй. Нутқий маҳорат. Т.: Адолат нашириёти. 2005.

<sup>2</sup> O‘sha manba

fikrlarni ilgari suradi. Suxandonlikning muhim shartlari – rostgo‘ylik hamda nomaqbul rostni aytishdan tiyilishda, so‘zni g‘oyatda ulug‘ligini his qilish hamda so‘zni uvol qilmaslikda, so‘zning o‘rnida qo‘llay olish hamda undan oqilona foydalanishda deb biladi<sup>1</sup>. Kaykovusning fikridan xulosa qiladigan bo‘lsak, suxandon nafaqat chiroysi so‘zlashi, balki ma’naviy-axloqiy jihatdan ham tarbiyalı bo‘lishi zarur.

Nutqiy mahorat bu oddiy nutq emas, balki fikrni sodda va chiroysi ifoda eta olishdir. Shu bois nutq madaniyati notiqlik bilan bevosita aloqador bo‘lsa ham, ular aynan bir tushunchalar emas. San’at ma’nosidagi notiqlik nutq madaniyatining eng yuqori nuqtasidan boshlanadi. Xalq orasida «so‘zga chechan», «gapni do‘ndiradi», «gapni qotiradi, kiyvoradi» degan iboralar yuradi. Bu notiqlik alomatlari bor kishilarga nisbatan qo‘llaniladi. Darhaqiqat ular nutqiy mahoratning ilmiy asoslaridan, uning sir-asrorlaridan voqif emas. Muayyan ma’rifiy maqsad yoki mavzuni umumlashtirish, kompozitsion yaxlitlikda taqdim eta olish salohiyati ularda unchalik shakllanmagan bo‘ladi. Biroq har qanday holatda – ulfatchilikda, gap-gashtaklarda, guzarlardagi suhbatlarda so‘z, nazmga va askiyaga moyilligi yuksakligi bilan «ulojni» olib ketadi.

Notiqlik tinglovchi e’tiborini tortish asnosida chiroysi gapirish va mahliyo etish san’atidir. Amma nutqning faqat chiroysi bo‘lishi notiq uchun kifoya qilmaydi: bema’ni safsatalarni ham juda chiroysi qilib gapirish mumkin. Bu esa notiqlik emas, vaysaqilik sanaladi. Notiqlik nutq vositasida kishilarga muayyan g‘oya va maqsadlarni yetkazishni, ularni ma’lum maqsadlarga yo‘naltirishni nazarda tutadi. Notiq nutqi 1-2 kishi uchun emas, keng auditoriyaga qaratilgan bo‘ladi. Shu bilan birga unda nutqning mazmuni, mantiqiy asoslariga, mundarijaviy tuzilishiga diqqat qilinadi. Notiqlikda notiq, oldindan qanday so‘zlash, nimadan boshlab, nimadan tugatish rejalarini tuzib olishi rasm emas. U go‘yo tayyorgarlik ko‘rilmagan nutqqa o‘xshaydi. Unda badihago‘ylik, hozirjavoblik ustunlik qiladi. Nutq madaniyati tugal fikr, go‘zal ifoda demakdir. Izchillik bilan bir-biriga mantiqan bog‘lanmagan tugal fikr va uning ta’sirli ifodasi bo‘lmasa, u kishi qalbi, ongiga sig‘maydi, qabul qilinganda ham chuqr anglashilmaydi.

Shunday qilib, «nutqiy obraz» haqidagi tushunchani o‘quvchilar ongida shakllantirishning prozaik asarni o‘rganishda imkoniyat katta. Ammo «nutqiy obraz»ning poetik asarda roli katta ekanligini nazarda tutish kerak. Nutqiy obrazlar haqidagi tushunchani shakllantira borish orqali o‘quvchida hayot to‘g‘risidagi tasavvur o‘stirib boriladi. O‘quvchilar istiora-o‘hshatishni ongli ravishda tushunib yetmoqlari uchun poetik obraz orqali konkret predmet va hodisalarini yaxshi bilib oladilar. Nutqiy obraz mazmunini ochishda konkret misolardan foydalanish lozim,

<sup>1</sup> Kaykovus. Qobusnoma. T.: “Yangi asr avlodii”. – 2016. 36 bet.

albatta. Bunda har bir shoir yoki yozuvchi ijodidagi originallikni yoritib berishga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarni ifodali o'zlarga qiziqish va e'tibor uyg'otish uchun shu so'zlar mazmunini tushuntirish, so'zlayotgan kishi fikrini anglatishdagi buyoqdorligini anglatish lozim. Badiiy nutq g'oyat ta'sirchan bo'ladi. Undan kim qanday so'zlayotganini, uning g'azab yoki shodlik bilan, qayg'u yoki quvonch bilan fikr bildirayotganini payqab olish oson.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda nutq yorqin va ta'sirchan bo'lishi uchun qo'yidagilarni unutmaslik tavsiya etiladi:

- Nutq yolg'onda yiroq bo'lishi, nutqqa yolg'on aralashmasligi zarur;
- Nutq kuchli mantiqqa asoslangan haqiqat aosida qurilishi kerak;
- Nutq dalil-isbotli faktlarga boy bo'lishi lozim;
- Nutq mazmunidan kelib chiqb, fikr hayotiy misollar orqali yoritilishi maqsadga muvofiq;
  - Eshituvchi uchun noma'lum bo'lgan ma'lumotlarni keltirmagan ma'qul;
  - Nutq hayajon va jo'shqinlik tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan bo'lishi darkor;
  - Nutqda har bir so'zning salmog'iga e'tibor berish, uning ta'siri ko'ra bilish zarur;
  - Nutqda zimmaga yuklangan mas'uliyatni chuqur xis qilish lozim.
  - Har bir nutqda hayotning biror-bir dolzarb masalasi ko'tarilishi kerak.
  - Nutqda mavzu bilan bog'liq biror rivoyat, latifa, hotira yoki obrazli iboralar bo'lishi maqsadga muvofiq;.
  - Nutqda bildiriladigan muammo tinglovchi va jamoatchilikka tanish bo'lishi lozim.

Til, nutq hamda yozuv o'zaro bir butunlikni hosil etibgina qolmay, og'zaki va yozma nutqning asosiy manbai hamdir. Nutqiy bo'linishlar sirasidan o'rin olgan telenutq va radionutq ommaga muayyan tilning jozibasi va boyligini namoyon etuvchi, yetkazuvchi asosiy vositalardandir. Ma'lumki, so'z va nutq vositasida yakka shaxs va jamoa bilan muomalada bo'lishga qaratilgan ixtisosliklar ibtidoiy ko'rinishlarda bo'lsada, qadimdan mavjud. Hozirda esa uning rang-barang, zamonaviy texnika vositalari orqali muloqotda bo'lish shakllari ommalashib bormoqda. Garchi shunday esa-da, so'z, nutq ijtimoiy til birliklariga munosabat hamma davrlarda bir xil bo'lgan. Ajdodlarimiz, so'zni, nutqni ilohiy ne'mat, hikmat deb qarashgan. Uni to'g'ri va o'rinali qo'llay bilish nozikta'b notiqlarga, suhanvarlarga nasib etgani rost.

### **3. Notiqlik va nutq madaniyatining adabiy til qoidalariga asoslanishi**

Nutq - bu til deb ataluvchi, o‘ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining bog‘lash, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan muhim munosabatda namoyon bo‘lishidir. Nutq jarayoni - tilning o‘z vazifasini bajarish hamda amalga oshirish jarayonidir.

Til va nutq bir-biriga bog‘liq hodisadir. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas, Til - bu quroldir. Til nutq uchun moddiy materialdir, lekin shu bilan bir qatorda ular bir-biridan farq ham qiladi. Til kishilarga doimo o‘zaro aloqa, munosabat, madaniy-ma’naviy zaruriyat, jamoa bo‘lib birlashish, kurashish quroli bo‘lib ham xizmat qiladi. Alisher Navoiy ham o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida tilga shunday baho beradi. “Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir”.

Adabiy til va uning me’yorlari, ulardan foydalanish haqidagi qoidalar barcha uchun majburiy, yagonadir. Ularni har kim o‘zicha, o‘zi bilganicha o‘zgartirib qo‘llashi mumkin emas.

Adabiy til ikki xil ko‘rinishga ega: 1. yozma adabiy til; 2.og‘zaki adabiy til. Adabiy tilning bu shakllari nutqiy faoliyat nuqtai nazaridan: yozma nutq va og‘zaki nutq deb ham yuritiladi. Nutqning ikkala shakli ham yagona adabiy til me’yorlariga tayanib ish ko‘radi. Nutq madaniyati sohasidagi yozma nutq madaniyati doirasiga ilmiy nutq, rasmiy nutq, publistik nutq, qisman badiiy nutq, shuningdek radio va televide niye uchun tuzilgan yozma matnlar turi kiradi.

Og‘zaki nutq dastlab ikki tipga ajratiladi: 1.Oddiy so‘zlashuv nutqi; 2. Adabiy so‘zlashuv nutqi. Oddiy so‘zlashuv nutqi o‘zbek tilida tabiiy xolda mavjud bo‘lgan og‘zaki nutq ko‘rinishlaridan iborat. Ularga turli o‘zbek sheva va lahjalari tili, ya’ni dialektik nutq ko‘rinishlari, shevachilik unsurlari ta’sirida bo‘lgan kundalik so‘zlashuvning turli ko‘rinishlari va boshqalar kiradi.

Oddiy so‘zlashuv nutqining til bazasini adabiy til tashkil etmaydi. Shuning uchun oddiy so‘zlashuvdan biz talqin qilayotgan nutq madaniyati talab qilinmaydi. Oddiy so‘zlashuv oldiga qo‘yluvchi nutqiy talablar aniq lahja va shevalarning tabiiy me’yorlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Adabiy so‘zlashuv nutqi – adabiy til madaniyatiga, ya’ni adabiy til me’yorlariga amal qilgan xolda gapirishdir. Adabiy tilda so‘zlash adabiy tilda yozishga nisbatan ancha qiyinchilik bilan erishiladigan jarayondir. Buning sabablari:

- Og‘zaki nutqda shevachilikning ta’siri kuchli bo‘ladi;
- Og‘zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o‘ylab ish tutish imkoni kam bo‘ladi;
- Og‘zaki nutqning o‘ziga xos grammatik tuzilishi, qurilish tartibi mavjud. (Nutqda gap bo‘laklarini tushirib qolishi, qisqarib ketishi, o‘rin almashishi,

aksincha keraksiz unsurlarning, takrorlarning bo‘lishi va b.) M: Qo‘limga qilvoring. Anavi, manavi, masalan, shunday qilib, anaqa, manaqa;

- Og‘zaki nutqda talaffuz, ohang, imo-ishora vositalari muhim rol o‘ynaydi;
- Og‘zaki nutqning yuzaga chiqishi so‘zlovchining kayfiyati, nutq so‘zlanayotgan vaziyatga, so‘zlovchi nutqiy a’zolarining sog‘lomligiga bog‘liq;

Og‘zaki nutqning quyidagi vazifaviy ko‘rinishlari mavjud:

- ✓ Kundalik so‘zlashuv nutqi
- ✓ Lektorlar nutqi
- ✓ Radio va televide niye nutqi.
- ✓ Sahna nutqi

Notiqlik san’ati nazariyasida til me’yori markaziy tushunchalardandir. Til madaniyatining asosiy tekshirish obyekti adabiy til me’yorlari, ushbu me’yordagi ikkilanishlarni bartaraf etish kerak. Til me’yori tushunchasi murakkab muammolardan bo‘lib, ko‘p o‘lchovli, ko‘p rejali, ya’ni obyektiv-tarixiy, madaniy-sotsiologik va sof lingvistik hodisadir.

Notiqlik san’ati va nutq madaniyati tushunchalari bir-biriga chambarchas bog‘liq. Lekin ushbu ikki tushunchani aynanlashtirish kerak emas. Ma’lum ijtimoiy sohada bu tushunchalarning ishlatilishida farqlar mavjud.

Nutq madaniyati:

- adabiy til madaniyati va uning mezonlari bilan bog‘liq
- Nutqning ham og‘zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli tushuncha
- Butun xalqning nutqini madaniylashtirishdan iborat
- Kishilar orasida odatiy suhbatlarni, yakka kishiga qaratilgan nutqlarini ham o‘z ichiga oladi
- Keng xalq ommasini ko`zda tutib ish ko`rvuchi soha
- Faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga tegishli tushuncha
- Ko`proq nutqning til qurilishi – lisoniy tuzilishiga ahamiyat beradi
- Kishilarning nutqiy faoliyatini, nutq madaniyatini ko`zda tutadi
- Jamiyat a’zolarini ona tilining adabiy til boyliklari va vositalaridan o’rinli foydalana olish ko`nikmasini beradi
- Ilmiy muammo va ilmiy yo`nalish sifatida yangi va yosh soha

Notiqlik san’ati esa:

- Adabiy til madaniyati va uning mezonlari asosiy mezon emas
- Faqat og‘zaki nutq bilan bog‘liq hodisa
- Alovida shaxslarning nutqiy mahoratini ifodalaydi
- Asosan keng auditoriyaga mo`ljallangan bo`ladi
- Shaxsiy qobiliyatga asoslanadi
- Ilmiy-normativ faoliyatni ko`zda tutmaydi

→ Asosoan nutqning mazmuniga, mantiqiy asoslariga, mundarijaviy tuzilishiga ahamiyat beradi

→ Notiq yoki notiqlar nutqi haqida qayg`uradi

→ Notiq uchun oldindan qanday so`zlash sxemasi va rejasini bermaydi

→ Bu fan ancha qadimiy tarixga ega

#### **4. Notiqlik san'atining fanlararo bog'liqligi.**

Notiq istalgan mavzu yuzasidan nutq irod etishi uning ko‘plab fanlarni qay darajada yaxshi bilishi bilan chambarchas bog‘liq. Notiqlik san’ati shunchaki tili biyron bo‘lishning o‘zi bilangina egallanib bo‘lmaydigan soha hisoblanadi. Ushbu fan falsafa, mantiq, etika, estetika, psixologiya, adabiyot, tilshunoslik, tarix kabi fanlar bilan aloqador hisoblanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan fanlarning qonuniyatlariga muvofiq so`zlangan nutq san’at darajasiga ko`tarilishiga mumkin.

**Notiqlik san’ati va falsafa.** Falsafa ijtimoiy ong shakli sifatida notiqlik san’atidan foydalanadi, ayni vaqtida uning rivojlanishiga ham yordam beradi. Falsafa inson, jamiyat va borliq to`g`risidagi eng umumiy tushuncha va qonuniyatlarni tadqiq etar ekan, o‘z navbatida ijtimoiy munosabatlarning falsafiy mohiyatini ham o`rganadi. Ijtimoiy munosabatlarning tarkibiga insonlarning o`zar til vositasida aloqaga kirishishi, inson va jamiyatning taraqqiyotida notiqlikning ahamiyati ham jamlanadi. Falsafa notiqlik san’atining vujudga kelish, rivojlanish qonuniyatlarini o`rganadi hamda notiqlik san’ati rivojiga mantiq qonunlari orqali yordam beradi, uning funksiyalari va obyektiv rivojlanish qonunlarini anglash imkonini beradi.

**Notiqlik san’ati va mantiq.** Mantiq – to`g`ri tafakkur qilish qonuniyatlarini, tafakkur shakllarini o`rganuvchi falsafiy fan sohasi hisoblanadi. Mantiq notiqlikning sifatiga, san’at darajasiga ko`tarilishiga xizmat qiladi. Chunki haqiqiy kuchli nutq uchun kuchli emotsiyali bo`lishi yoki insonning ruhiyatiga maksimal darajada ta’sir eta olish yetarli emas, uning mantiqiy jihatdan to`g`ri tashkil etilganligi, argumentlashning mantiqiy jihatdan izchil amalga oshirilganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiq notiqlik san’atining tarkibini aniqlashga, uni tasniflashga, hissiy va aqliy muvofiqlikni, bilish va faraz munosabatini, atamalarning roli va ahamiyati, metodlar va isbotning o`rnini aniqlashga xizmat qiladi.

**Notiqlik san’ati va psixologiya.** Psixologiya notiqlik san’ati mehnatining xususiyatlarini, ijodiy jarayonning shakl va darajalarini aniqlash hamda baholashga yordam beradi. Notiq ushbu san’atga xos bo`lgan omillar, ya’ni tasavvur va ilhom, o`z-o`zini his qilish va boshqarish, jonli nutqning xususiyat va sharoitlari, notiqning auditoriya bilan munosabatlari kabilarni bilishi shart. Notiq

auditorianing kayfiyatini, psixologik holatini his qila olishi kerak. Diqqatni doimiy ravishda notiqda bo`lishiga erishish uchun auditoriyani kuzata olish, uning diqqatini boshqara olish ham talab etiladi. Bunga esa psixologiya orqali erishish mumkin.

**Notiqlik san'ati va estetika.** Estetika notiqlik san'atining badiiy elementlari va estetik mohiyatini aniqlashga, uning go`zalligini nima tashkil qilishini bilishga hamda notiqlik san'atining xususiyatlarini badiiy ijodning turlari bilan qiyoslashga xizmat qiladi. Notiqlik san'atining o`zi ham san'at sifatida atalishi uning estetika bilan aloqador ekanligini yana bir marotaba isbotlaydi. Zero, san'at va nosan'at obyektlarining nafosat bilan munosabatini o`rganuvchi hamda o`rgatuvchi estetika chiroli so`zlashning ham estetik qonuniyatlarini o`rganadi.

**Notiqlik san'ati va etika.** Axloqshunoslik notiqliknинг axloqiy mohiyatini yoritib berishga xizmat qiladi. Notiqning imiji, uning tashqi ko`rinishi, nutqning axloqiy mohiyati, aytilayotgan fikrlarning va manbalarning to`g`ri ekanligi bevosita axloq bilan bog`liq. Nutqning samarador bo`lishligi notiqning kim ekanligiga ham aloqador. Tashqi ko`rinishning umumiy etiket normalari doirasida bo`lishi axloqiy madaniyatning asosiy shakllaridan biri bo`lib, etika ilmining tadqiqot obyekti hisoblanadi.

## 5. Nutqda chiroli muomalaning qudrati

Muomala axloq ko`rki sanaladi. Har bir kishining qanday dunyoqarashga egaligi, bilimliligi, uning boshqalarga qilayotgan muomalasidan ma'lum bo`ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, muomala insonlar o`rtasidagi o`zaro aloqa vositasi hisoblanadi. Bir-birimizga bo`ladigan muomalamiz, munosabatimizning zamirida ham chiroli muomalaning shartlari yotadi.

Muomalada asosiy vosita til hisoblanadi. Shuning uchun ham til aloqa quroli deyiladi. Insonning tili shirin, muomalasi madaniyatli bo`lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro`-e'tibor topadi. Aksincha, sergaplik hech qachon kishiga obro` keltirmaydi. Ayniqsa, mahmadonalik yosh bolaga xos xususiyat bo`lib, kattalar uchun bu qusur insonni doimo obro`sizlantirgan. Shuning uchun ham o`tmishda yashab o`tgan mutafakkirlarimiz tilga, so`zga hurmat bilan yondoshishni ta'kidlaganlar.

Do'st bilan dushmanga qiladigan eng chiroli muomala yo`li shundayki, muomaladan so'ng do'st dilida muhabbat oshishi, dushman dilidagi adovat susayishi lozim. Xalq og`zaki ijodida, ayniqsa ertaklarda mushkulini oson qilish uchun panoh so'rab huzuriga tashrif buyurgan odamning bir og'iz salomi tufayli unga bo`lgan munosabat, yaxshi kutib olishi barorabrida: «Gar saloming bo`lmasa, ikki yamlab bir yutardim» jumlalari turli personajlar tilidan bayon etilgan. «Muqbil

toshotar», «Uch og‘ayni botirlar», «Urto‘qmoq» singari o‘zbek xalq ertaklarida yaxshi so‘zning xislatiga oid g‘oyalar yuksak badiiylik bilan ifodalangan.

Aytish lozimki, inson o‘zining omonligini istasa, tilidan yaramas so‘zlarni chiqarmasligi kerak. Chunki, bilib, tushunib aytilgan so‘z donolikdan dalolat beradi, aksincha nodon-johilning so‘zi esa o‘z boshini yeydi. Donishmandlarning «So‘zni ko‘p so‘zlashdan biroz oz so‘zlagin, ming so‘zli chigalni bir so‘z bilan yengin. Haddan ortiq so‘zlaganlarni ezma deyiladi, shuningdek hech so‘zlamaganlarni gung deb ataladi», degan naqlari doimo ijobiy natija berib kelgan. Darhaqiqat, uzoq va ko‘p so‘zlash, gapirish hech kimga foyda keltirmagan. Ba’zilarga oz so‘z ko‘pdan ko‘ra ko‘proq foydali bo‘ladi. Chunonchi, haddan ziyod qizib, chirsillab turgan tandirga yaqinlashib bo‘lmaganidek, zaif bir chiroqdan minglarcha foyda olish mumkin. Demak, maqsad foydadir. Shundaylar ham borki, ularga ko‘rishning o‘zi kifoya. So‘z ular uchun zararlidir. Oz, lekin foydali bo‘lgan so‘z yonib turgan chiroqning yonmagan boshqa chiroqning o‘chib ketishiga o‘xshaydi. Chunki bu unga yetarlidir, muddaosi shudir va u hosil bo‘lgandir.

Sharqning buyuk notiqlaridan biri Husayn Voiz Koshify so‘z qadri, kamgaplik to‘g‘risida ibratli fikrlarni bayon etgan: «Har zabon tig‘i haq g‘uzorlikda noqildur ango tez-tez tig‘ zaboni birla sazo bermak kerak» yoki «Haq vaqtiki so‘zlar aytursizlar yaxshi so‘zdin bo‘lakni aytmangizlar va ko‘p so‘zlamak ko‘ngilni qaro qilur, xor aylar» yoki «Mumkin ersa, yaxshi so‘z qil oshkor, yaxshi so‘zdin ho‘b yo‘qtur yodgor», «Nasihatni shirin so‘zu muloyimlik birla ibtido qilgay, chunki bu zamonda yumshoqlik va xushho‘ylik ko‘rguzmayin nasihat korga kelmas», -deydi va inson har doim yaxshi so‘zni so‘zlashi lozimligini uqtiradi. Koshify bunday kishilarni hech bir so‘zida qadr-qimmati yo‘q, og‘zidan nima chiqayotganini bilmaydigan kishilardir, deb baxolaydi. Ular e’tiborsiz, so‘z so‘zlovchilardir. Bu kishilar jununga, sherga ittifoqchi sanaladi.

Ko‘p gapirmaslik, so‘zni mensimaslik, qolaversa, faqat yaxshi gapni aytib yodgorlik qoldirish kerakligini ko‘p bor ta’kidlaydi.

Ulug‘ bobomiz Alisher Navoiy chiroyli muomalaning qudrati, madaniyatni hamda shirinso‘zlikning ahamiyati haqida purhikmat fikrlar bayon qilganki, ular bugungi kunimiz uchun ham ahamiyatini yo‘qotgan emas. «Til shirinligi - ko‘ngilga yoqimlidir, muloyimlik esa foydali. Shirin so‘z sof ko‘ngillar uchun asal kabi totlidir», -deydi hazrat Navoiy.

Darhaqqat, so‘z inson qalbini ilitadi va shu bilan birga so‘z inson qalbini jarohatlaydi ham. Shu bois xalqimizda «Tig‘ yarasi ketar, so‘z yarasi ketmas», degan maqol bekorga aytilgan emas. Chunki so‘zning qudrati benihoya katta. Husn jamoli yo‘q odam shirin so‘z bo‘lsa, go‘zal va shirin so‘zi bilan barchani qo‘lga oladi aksincha tili yomon odam xalq ko‘nglini jarohatlaydi.

«Muomala» so‘zi zamirida butun insoniyat taqdiri mujassam» ekanligini e’tirof etgan adabiyotshunos olim N.Bekmirzaev muomala va shirinso‘zlikning inson hayotidagi o‘rni, ahamiyati, qimmatiga doir g‘oyatda qiziqarli ma’lumotlarni keltiradi. Ayniqsa sansirab murojaat qilish odobsizlik ekanligi, do‘q-po‘pisa betayinlik va beburdlik nishonasi ekani haqida ta’kidlab, «Har bir odam o‘zining shaklu-shamoyil go‘zalligiga vaqt va pul sarflash hisobiga erishadi. Agar odamlardagi shakl go‘zhalligiga ma’naviy –axloqiy go‘zallik, muomala madaniyati ham qo‘silsa bormi, nur ustiga a’lo nur bo‘lardi. Bundaylarni komillikka intilish yo‘lidan borib, odamlarga shirin so‘zlari bilan ruhiy madad beradiganlar safiga kiritish lozim»<sup>1</sup> - deydi.

Darhaqiqat, chiroyli muomalaning qudrati inson bilimi bilan ham belgilanadi. Zero, oqilonalik so‘z, nutq bevosita tafakkur mahsuli, tafakkur esa bilimsiz vujudga kelmaydi. Shu bois, bilimsizlik o‘zaro muloqotda, insonlararo munosabatda pand berib qo‘yishi, aksincha, oqil kishining tili so‘zda erkli, mushohadali bo‘lib, ko‘plarga naf keltirganligi haqida pandnomalarda bitilgan.

Xushmuomalalik – insonlar bilan munosabatlarda shirinso‘z, chiroyli muomalali bo‘lish demakdir. Bunday fazilatga ega bo‘lish kishini madaniyatli va chiroyli xulqqa ega ekanligidan dalolat beradi. Xushmuomalalik suhbattoshlarning dilini ravshan qilish, kayfiyatini hushnud qilish, ko‘ngliga taskin berish uchun xizmat qiladi: manzur va ma’qbul muomila samimiylilikning ifodasidir. Mavlono Navoiy chuchuk (shirin) so‘z tavsifini va qattiq (qo‘pol) so‘z ozorini qo‘yidagicha ifodalagan edi:

*Har kimki chuchuk so‘z elga izhor aylar,  
Har nechani ag‘yor durur yor aylar.  
So‘z qattig‘i el ko‘ngliga ozor aylar,  
Yumshog‘i ko‘ngillarni giriftor aylar.*

Xushmuomalalikning aksi qo‘pollik, dag‘allik, badjahllik va dilozorlikdir. Bunday nuqsonlar insonning axloqiy sifatlariga ko‘rk bag‘ishlamaydi, aksincha insonni yanada tubanlashtiradi. Shu bois xushmuomalalikning insonlar, jumladan mo‘minlar uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi Imom al-Buxoriyning «Hadislar» to‘plami keng va atroflicha tilga olinib, rivoyatlar orqali bayon qilgan.

«Inson gapiruvchi hayvondir». Uning xususiyati hayvonlikdan va gapirishdan iborat»-deb ta’kidlagan edi mavlono Jaloliddin Rumi. Hayvonlik unda doimiydir, ayrilmasdir. So‘z ham shundoq. Inson ko‘rinishidan hech narsa demasa ham, ichida hamisha gapiradi. Bu hol go‘yo loy qorishgan suv toshqiniga o‘xshaydi. Toshqinning toza suvi insonning so‘zi (nutqi) balchig‘i esa

<sup>1</sup> Бекмирзаев Н. Нотиқлик санъати асослари. Т.: Университет, 2005. – 14-бет.

hayvonligidir. Biroq, balchiq unda o'tkinchi bo'lib, vaqt kelib ulardan asar ham qolmaydi. Yaxshi yoki yomon bo'lishiga qaramay, so'zlar, hikoyalar va bilimlar qoladi... Odamlarning yomonliklariga sabr qilmoq go'yo o'z nopoligini ularga surtib tozalangan kabitidir. Sening fe'li huying tahammul bilan yaxshilanadi. Ularniki esa zulm va yomon muomala sababli buziladi. Buni eslab olding va endi o'zingni pokla»-deydilar<sup>1</sup>.

Oiladagi va umuman, jamiyatdagi hatarli muammolarni sinchiklab o'rganilsa, ko'pincha ularning kelib chiqishi – o'yamasdan, ehtiyoitsizlik bilan aytilgan qo'pol so'zga borib taqaladi. Chiroyli so'z esa yaxshi muomala, mehr-oqibat kalitidir.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Yozma nutqda muomala madaniyatining ahamiyati nimada?
2. Notiqlik san'atining nodir namunalarini misollarda ifodalang?
3. "Madaniy nutq", Nutq madaniyati" iboralarini sharxlang?
4. Oddiy so'zlashuv nutqining adabiy so'zlashuv nutqidan farqi nimada?
5. Muloqot vositalarini ko'rsating va izohlang?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Encyclopedia of Rhetoric. Oxford University Press, USA. 2011.
2. Muhammadjonova L.A. Ritorika. T.: "Adabiyot uchqunlari", 2019.
3. Бекмирзаев Н. Нотиқлик санъати асослари. –Тошкент: Янги нашр, 2008.
4. Kenneth Burke. A Rhetoric of Motives. 2012.
5. Мухаммаджонова Л.А. Нотиқлик санъати. Услубий қўлланма. –Тошкент: ЎзМУ, 2008.

## **NOTIQLIK SAN'ATI SHAKLLANISHINING TARIXIY ILDIZLARI**

### **REJA**

1. Notiqlik san'atining paydo bo'lishi, Qadimgi Yunoniston notiqligi
2. Rim notiqligining o'ziga xos xususiyatlari
3. Musulmon Sharqida notiqlikning rivojlanishi

**Tayanch tushunchalar: notiqlikning shakllanishi, antik notiqlik, sofistlar, lakonizm, Demosfen, Aflatun, Arastu, Osiyo va Attika maktabi, Sitseron, Musulmon Sharqi notiqligi, va'z, voizlik, Farobi, Beruniy, "Qobusnoma", Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy.**

---

<sup>1</sup> Мавлоно Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадир. Т.: "Ёзувчи". – 1997. 67-бет

## **1. Notiqlik san'atining paydo bo‘lishi, Qadimgi Yunoniston notiqligi**

Notiqlik san'ati eng qadimgi san'at turlaridan biri. Notiqlik san'ati barcha zamonlarda, har qanday jamiyatda alohida qadrlangan. Qadimda Misrda, Yunonistonda, Rimda doimo notiqlar, va’zxonlarning musobaqalari o’tkazilgan. Bu san'at dastlab Misr, Somir, Bobilon va boshqa qadimiy shaharlarda paydo bo‘lgan bo‘lsada, asosan Yunonistonda rivojlandi, ravnaq topdi.

Kishilar chiroyli, mazmundor nutq masalasi bilan juda qadimdan qiziqib keladilar. Qadimgi san'at turlaridan biri notiqlik dastlab Misr, Ossuriya, Bobil kabi qadimiy davlatlarda rivoj topgan bo‘lsa, keyinchalik Gretsya (Yunoniston)da va Rimda rivojlandi, nazariy asoslari yaratildi. Nutq oldiga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqildi. Perikl, Kleon, Lisiy, Demosfen, Gipperid kabi davlat arboblari notiqliknini san'at darajasiga ko‘tardilar.

Qadimgi Yunoniston notiqlik san'ati haqida birinchi va asosli ma'lumotlar beradi. Bu yerda notiqlik san'atining o'sishiga sabab bo‘lgan asosiy omil Afina va boshqa davlatlarni ham qamrab olgan sinfiy kurashning kuchayishidir. Siyosiy arboblari o‘z sinfiy manfaatlarini boshqa ijtimoiy guruuhlar oldida himoya qilishga va ularga ta’sir etishga majbur bo‘lganlar. Afinalik u yoki bu shaxsning siyosiy taqdiri notiqlik mahorati bilan bog‘liq bo‘lgan. Quldarlik demokratiyasi haqida gapirganda, uning sinfiy xarakterini ham esdan chiqarmaslik lozim. Bu demokratiya faqat quldarlar uchun edi, xolos.

Qadim zamonlardan beri jamoat oldida so‘zga chiqib, odamlarga o‘z fikrini tushuntirish, biror narsa, voqeа-hodisa haqida gapirganda ishontirish va isbotlab berishga intilish insonlar orasidan so‘zamol notiqlarning chiqishiga zaruriyat tug‘dirgan hamda notiqlik san'atining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Buning uchun esa, avvalo, ma'lum ijtimoiy sharoit va muhit vujudga kelishi lozim edi. So‘z erkinligi ana shunday sharoitlardan muhimi sanaladi.

Yunonistonda demokratiya tizimining o‘rnatalishi natijasi o‘laroq, xalq yig‘inlarida, senat kengashlarida, davlat ishlarida, sud ishlarida mamlakatning har bir ozod kishisi erkin nutq so‘zlash huquqiga ega bo‘lgan.

Davlat ishlarini boshqarishda qatnashishni istagan, lashkarboshi bo`lishni xohlagan har bir kishi uchun chiroyli va ta’sirchan nutq so‘zlash san'atini egallash majburiy bir ehtiyojga aylangan. Bunday shaxslar xalq yig‘inlarida to‘plangan odamlar oldida nutq so‘zlab yo yutuqqa yoki mag‘lubiyatga erishganlar. G‘oliblarni xalq olqishlab uning ortidan ergashganlar, mag‘lublar esa xalq nazaridan qolgan.

O‘sha davr notiqligi haqida keyingi davr yozuvchilarining guvohlik berishlaricha, Femistikl va Perikllar Afina demokratiyasining yo‘lboshchilari bo‘lishlari bilan birga nihoyatda kuchli notiq bo‘lganlar. Bundan tashqari, Afinada

notiqlik san'atining keng rivoj topishida sud-tartibot qoidalarining ham kuchli ta'siri bo'lgan. O'sha davr sud majlislarida sudlanuvchi yoki da'vogar o'z fikrlarini ishonchli isbotlar asosida gapira olishi lozim bo'lgan. Shuning uchun notiqlik san'atining rivojida yunon sud rasmiyatichilining roli ham katta. Eramizdan avvalgi 594-yilda Solon hukmronligi davrida chiqarilgan qonunga ko'ra, afinalik har bir fuqaro sudda o'zini-o'zi himoya qila bilishi kerak edi. Bu hol kishilarning chiroyli va ta'sirchan gapirishni o'rganishga majbur qildi.

Ammo hamma ham bunga ko'nika olmadi, hamma ham sudda yaxshi so'zlay bilish usulini egallay olmadi. Natijada Yunonistonda logograflar (nutq matnini yozuvchilar), mohir notiqlar, yuristlar sud qilinuvchilardan haq olib, nutq matnini yozib bera boshlaydilar. Sud qilinuvchi o'z navbatida, uni o'rganib, sudda o'zini himoya qiladi. Umuman gapirishga qobiliyatsiz kishilar esa, sudning ruhsati bilan o'rniga boshqa kishini so'zlash uchun tavsiya qilishi mumkin edi. Demak, ularga maslahat berib ko'maklashadigan, ular ishi yuzasidan sudda gapirishi kerak bo'lgan gaplarni yozib beradigan zukko shaxslarga ehtiyoj paydo bo'ladi. Natijada qadimgi yunon tilida "logograflar" deb ataladigan, tajribali, qonunni biladigan "advokatlar"ga ehtiyoj tug'iladi. Logograflar sudda qatnashayotgan jinoyatlar va da'vogarlarga nimani gapirishi lozimligini yozib bergenlari va shu mehnatlari evaziga haq olganlar.

Afinada eramizdan oldingi V asr o'rtalarida notiqlik san'ati shakllangan bo'lsa-da, adabiy faoliyat o'rnida qabul qilinmagan va u nutqlarning matnlari keng tarqalmagan. Bu san'atni ilk bor adabiy janr darajasiga ko'targan hamda notiqlikka ilmiy yondoshgan kishilar sofistlar (*yunon. sophists – usta, mohir. "Donishmandlik" va "fasohat" muallimlari sifatida voizlik qiluvchi qadimgi yunon faylasuflari*) hisoblangan. Ular o'zlaridan oldin o'tgan notiqlarning faoliyatlarini nazariy asoslashga kirishib, ritorika ilmini yaratganlar. Oldin notiqlarni "ritor" so'zi bilan atashib, so'ngra notiqlik san'atidan saboq o'rgatuvchilarni "ritorlar" deb ataydilar.

Sofistlarning ritorikadagi eng asosiy mafkuralari sifatida quyidagilarni ajratib ko`rsatish mumkin:

- Asosiy mafkura tinglovchilarni manipulyatsiya qilish, o'z fikrlarining to`g`ri ekanligiga ishontirishga harakat qilishgan;
- Sofistlar notiqligining asosi – bahs-munozara. Bir tomon g`olib, ikkinchi tomon mag`lub bo`ladigan og`zaki musobaqalar hisoblangan. Asosiysi bahslarda haqiqatni topish emas, g`alaba qozonish, nutqning mazmuni emas, shakli muhim, nimani aytish emas, qanday aytish muhim.

Umuman Yunonistonda notiqlik san'atini yaxshi egallagan insonlar judayam qadrlanar edi. Yunonlar faqat chiroyli nutqnigina yuqori baholab qolmay, uning mazmundorligiga ham alohida e'tibor berardi. Shu tufayli ular kishilarga notiqlik

san'atini o'qitishni, o'rgatishni birdan-bir vazifa deb bilardilar. Yunonistonda maxsus maktablar tashkil etilib, ularda tajribali notiqlar yoshlarga nutq so'zlash malakasini egallash bo'yicha dars berardilar. Yunonistonda notiqlik san'ati nazariyasi – ritorika yaratildi va bir qator taniqli notiqlar paydo bo'ldiki, ularning tajribasi hozirga qadar ham o'rganilib kelinmoqda.

Gomerning «Illiada» va «Odisseya» asarlari bizga Yunonistonning birinchi notiqlari haqida ma'lumot beradi. Taniqli Rim notig'i, nazariyachi va pedagog Kvintellian Gomer asarlarida chiroyli gapirish va nutq so'zlashning dastlabki namunalarini ko'rdi.

«Illiada» turli tipdagi notiqlar haqida ma'lumot beriladi. Unda chol Nastor nutqida ko'tarinkilik va da'vatkorlik, nasihat va murosasozlik, shirinsuhanlik va ma'yuslik sifatlari xos. “Illiada” – Troya jangnomasining “O'lat, g'azab” deb nomlagan ‘Birinchi qo'shiq”da Nestor quyidagicha irod qiladi:

*“Binobarin, siz ham tinglang o'gitlarim – naf ko'pdir bunda.  
Sen, Atreyon, bo'lsang hamki sohibqiron, Bris qizini  
Tinch qo'y. Chunki ul hushruxsor Axillesga tortiq etilgan.  
Sen ham, Axill podsho ila o'chakishma: Zevs ardoqlagan  
Shoxlar ichra bo'lman hech mo'tabar zot Agamemnondek.  
Bo'lsang hamki eng qudratli, bo'lsa hamki onang ma'buda,  
Bu dargohda beqiyos kuch sohibi – shu Agamemnondir.  
Hovringdan tush, Agamemnon, sen ham qulog os kalomimga,  
Axillesni hafa qilma; bu battarin urush paytida  
Yunonlarga shul pahlavon bo'lur rukn, yakkash madadkor”<sup>1</sup>.*

Asardagi ikki buyuk qahramon – Odissey va Menelay nutqi boshqacha namoyon bo'ladi. Ya'ni Menelay qisqa va aniq so'zlashni yoqtiradi, ko'p so'zlashni, asosiy mavzudan chetga chiqishni yoqtirmaydi. Odisseyda esa jo'shqinlik kuchli: «nutqlar qor quyunidek og'zidan otilib chiqadi». Ayrim tadqiqotchilarni ko'rsatishicha, Gomer poemalarida notiqlik san'atining asosiy tiplari o'z ifodasini topgan. Yunonistonning qadimiyligi Gomer davri notiqlari haqidagi ma'lumotlar, shu kunlar uchun ham muhim bo'lgan ayrim xulosalar chiqarishga asos bo'ladi. Yunoniston – lo'nda, jozibador nutqning vatani. Greklar Menelay nutqi kabi qisqa – lakonizm (fikrni qisqacha, lo'nda qilib ifodalash) usulidagi nutqni juda yaxshi tinglar va yoqtirardilar.

*Lakonizm* – «lakoniya» so'zidan kelib chiqqan bo'lib asli bu so'z qadimgi grek davlatlaridan Spartadagi bir tumanining nomi bo'lgan. Bu yerning aholisi o'z fikrlarini ravshan va qisqa shaklda aytishga layoqatli bo'lganlar. Shundan

<sup>1</sup> Хомер. Иллиада. –Тошкент: F.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1988. -32 6.

«lakonchasiga» so‘zlash usuli – lakonizm kelib chiqqan. Fikrni qisqa, lo‘nda qilib ifodalash hozirgi vaqtida ham og‘zaki va yozma nutqning muvoffaqiyatli tomoni hisoblanadi.

Ellinizm davrining olimlari Afinada yashab, shu yerda ijod qilgan bir talay mashhur so‘z ustalari orasidan eng ulug‘lari deb faqatgina o‘nta notiqni tanlaganlar va ritorika ilmini o‘rganishda ularning asarlarini tavsiya etganlar. Ular qatoriga Antifont, Andokid, Lisiy, Isokrat, Isey, Likurg, Demosfen, Esxin, Giperid va Dinarxlar kirgan.

Sofistlar so‘z va tilning nazariy asoslarini ham ishlab chiqdilar. Ularning ilmiy izlanishlari asosida tilshunoslik fanining ikki sohasi – orfoepiya (grammatika) va ritorika (notiqlik nutqlarini tuzish haqidagi ta’limot) shakllandi. Orfoepiya bilan asosan Protagor va Prodik shug‘ullangan bo‘lsalar, ritorikaga Gorgiy va Frisimaxlar asosiy hissalarini qo‘shdilar. Umuman olib qaraganda, keyinchalik yunon notiqlik san’ati siyosatchilar va faylasuflar tomonidan rivojlantirilgan. Ayniqsa, quyida to`xtalib o`tiladigan yunon notiqlarining ritorikaning nazariy va amaliy asoslarini yaratishdagi o`rni beqiyos bo`lgan.

**Perikl.** Perikl – Afinaning miloddan avvalgi V asrda strategi bo`lgan siyosatchi. U yirik siyosiy arbobgina bo‘lib qolmay, ko‘zga ko‘ringan notiq ham edi. Perikl nutqlarining birorta teksti ham bizgacha yetib kelmagan. Lekin uning usta, ko‘zga ko‘ringan notiq bo‘lganligi haqida yunon tarixchisi Fukidid ma’lumot beradi. Perikl nutqi fikrning chuqurligi, formaning soddaligi, samimiyligi bilan, tinglovchilar psixologiyasini e’tiborga olganligi bilan xarakterlanadi.

Periklning tajribasicha, yaxshi notiq faqat yaxshi gapirish bilan kifoyalanmay, balki aydoriyani ham o‘ziga jalb eta biladigan kishi bo‘lishi kerak.

**Protagor** (eramizdan avvalgi 481-411) - Sofistlar ichida eng mashhuri bo‘lgan Abderlik Protagor insonga bo‘lgan yangicha qarashni ilgari suradi. “Inson, - deydi u, - barcha narsalarning o‘lchovidir”. Bunday qarash asosida sofistlarning asosiy nuqtai nazari shakllanadi: “har qanday narsa haqida ikki bir-biriga qarshi fikrni aytish mumkin”. Protagor baxsda o‘z oldiga faqat yagona maqsadni ko‘yish – auditoriyani notiqning xaq ekanligiga ishontirish; va shu maqsadni amalga oshirishda har qanday yo‘ldan foydalanish lozim, deb hisoblar edi.

**Gorgiy** (taxminan m.a. 483 - 376). Gorgiy m.a. 427-yili o‘z shahri Leotina uchun harbiy yordam so‘rab maxsus elchi sifatida Afinaga keladi va xalq majlisida gapirgan nutqi Afina yoshlarida juda kuchli taassurot qoldiradi. Ko‘p o‘tmay Gorgiy butunlay Afinaga ko‘chib keladi va shu yerda ritorika maktabini ochadi. O‘z shogirdlariga so‘z san’atini o‘rgatish barobarida notiqlik bilan shug‘ullanadi. Gorgiyning aytishicha, notiqning eng muhim vazifasi tinglovchini ishontirish, uni maftun etish, rom qilishdir.

Tantanali notiqlikning eng yorqin vakillaridan biri Gorgiyning shogirdi **Isokrat** (eramizdan avvalgi. 436-338) bo‘lib, Afinada ritorika maktabiga asos solgan. Aytish lozimki, bu maktabda ritorika faqat notiqlik san’atiga o‘rgatuvchi fan bo‘libgina qolmay, balki haqiqatni anglash va tarqatish vositasi vazifasini o‘tagan. Isokrat o‘zi nutq so‘zlamagan, balki notiqlikdan saboq bergan va Yunoniston bo‘ylab tarqatilgan nutqlarni yozgan. Isokrat uslubi o‘z hashamadorligi bilan ajralib turadi. U nutqning ohangiga, chiroyli shakliga alohida e’tibor qaratadi. Isokrat maktabining tajribasi IV asrdagi ommaviy notiqlikka katta ta’sir o‘tkazdi. Bu davrda notiqlar ijtimoiy hayotda yetakchi o‘rinni egalladi. Notiq xalq yig‘inlarida nutq so‘zlar, o‘z qaror loyihamalarini muhokamaga qo‘yar va shu tariqa davlat (polis)ning siyosiy yo‘lini belgilab berardi. Davlatni boshqarish ana shunday siyosiy arboblar – “demagoglar” (xalq sardorlari) qo‘liga o‘tdi.

**Demosfen** (eramizdan avvalgi 384 - 322). Afina shahrida badavlat xonadonda dunyoga kelgan. Biroq yetti - sakkiz yoshlarida otasi vafot etadi. Uning bor mol-mulki unga va besh yoshli singlisiga qoldiriladi. Voyaga yetganida unga otasidan qolgan meros deyarli qolmaydi.

Demosfen merosni qaytarib olish maqsadida notiqlik san’atini o‘rganishga kirishadi. U notiqlik san’atini o‘rganish uchun o‘z davrining meros ishlari bo‘yicha advokati Isey maktabida ta’lim oldi. Dars olishning dastlabki yillarini yo tamoman yolg‘izlikda yoxud birgina muallim nazorati ostida mashq qilib o‘tkazdi. Yosh notiqning birinchi nutqi kulgili xolda, to‘palon, kulgi, qiyqiriq, xushtak chalib, masxaralash bilan qarshi olinadi. Unga notiqlik san’ati sohasidagi faoliyatida sharaf keltirgan narsa ulkan siyosiy nutqlaridir.

Demosfen notiqlik san’atini o‘rganish uchun juda ko‘p vaqt sarflaydi. Unda jismoniy kamchiliklar mavjud edi – ovozi past va diksiyasi yomon bo‘lgan, o`ng kifti asabiy ravishda titrab turgan, qattiq hayajonlanganida duduqlanib qolgan. Ma’lumotlarga qaraganda, Demosfen ovozini jarangdor qilish uchun og‘ziga mayda toshlarni solib, dengiz qirg‘og‘ida nutq so‘zlardi va to‘lqin shovqinsuroni bosib ketishga harakat qilardi. Kiftning titrashidan qutulish uchun shiftga qilichni shunday ildiradiki, uning o‘tkir uchi kiftga yaqin turadi va kifti titragudek bo‘lsa, qilichning uchi tegib og‘ritardi. Shu yo‘sinda olib borilgan uzluksiz mashqlar Demosfenga jismoniy kamchiliklarni bartaraf qilishga imkon bergen.

Demosfen nutqi uning xarakterini aks ettiruvchi oyna edi. Undagi kuchli vatanparvarlik tuyg‘usi nutqlarida o‘z fodasini topardi. Uning ko‘pgina nutqlari makedoniyalik shox Filippga qaratilgan bo‘lib, uni Afina davlatining birdan-bir dushmani deb biladi va afinaliklarni dushmanga qarshi birlashishga chaqiradi. Demosfen nutqlari juda ham jo‘shqin va shiddatkorligidan, dushmanlari uni «yovvoyi hayvon» deb atashardi. U nutq so‘zlashda maksimal ifodalilikka erishishga harakat qilardi. Demosfen nutqi qo‘l va butun gavda harakati, imo-

ishoralar bilan uzviy bog‘lanib ketardi. (*Masalan «O, u bunday emas!», «Ha, bunday emas!», degan so‘zlarni aytganda qo‘l harakatlari va yuz qiyofasi o‘zgarishi mumkin. Bu so‘zlarni jo‘ngina aytish ham uni kuchaytirib aytish ham mumkin.*)

Demosfen Xalq majlisidan birida shunday degandi: “Afinaliklar, Siz istamasangiz ham men maslahatchi bo`lamani, lekin Siz istagan taqdiringizda ham men lagabardor, xushomadgo`y bo`lolmayman”. Filipp Yunonistonga hujum qilganida Demosfen nutqlari bilan unga qarshi ittifoq tuza olgandi. Filipp yunonlarni yengdi. Fors hukmdori Demosfenni o`zining ittifoqchisi sifatida ko`rib, unga ko`plab oltin jo`natadi. Demosfen ularni oladi va “U ajdodlarining ezguliklarini eng ko`p maqtay oldiyu, lekin ularga taqlid qila olmadi” degan ekan. Uning sharafiga qo`yilgan haykal ostida shunday so`zlar bitilgan: “Demosfen, agarda Sening kuching aqlingga teng bo`lganida edi, makedonlar Yunonistonga abadiy egalik qila olmasdilar”.

**Lisiy** (m.a. 459-380). Eramizdan avvalgi V asr oxiri va IV asr boshlarida yashab o‘tgan Afinadagi ko‘zga ko‘ringan sud notiqlaridan biri Lisiy edi. Lisiyning notiq sifatidagi xususiyatlaridan biri, hamma notiqlar uchun zarur bo‘lgan usul – fikrni yangicha shaklga solishni juda oson egallaganligidir. U gapirishi lozim bo‘lgan kishinining xarakterini, ijtimoiy ahvolini juda ham aniq tasvirlab beruvchi nutq matnini ishlab chiqishga usta ediki, bu nutq faqat o‘sha so‘zlovchigagina xos bo‘lardi.

Lisiyning notiq sifatidagi ikkinchi xususiyati, hikoyachilik san’atini egallab olganligidir. U har qanday voqelikni sodda, jonli, qiziqarli shaklda qiziqarli hikoya qilishga usta edi. Uning notiqlik san’atidagi uchinchchi xususiyat – uslubidagi aniqlik, soddalik va tabiiylik edi. Uning fikricha, biror masala bo‘yicha so‘zlangan nutq ikkinchi takrorlanmasligi kerak, agarda shu nutqni avvalgi tinglovchilar bir necha marta takror eshitsalar, nutq o‘z kuchini va ifodalilagini yo‘qotadi. Bir kuni Lisiy o‘z himoyasidagi kishilardan biriga nutq matnini yozib berayotgan vaqtida quyidagi fikrni aytgan edi: «Sen bir narsani unutyapsan, sud sening nutqingni faqat bir marta eshitadi». Bu juda to‘g‘ri ko‘rsatma. Har bir ma’ruzachi shuni bilishi zarurki, bir auditoriyada ikki-uch marta bitta ma’ruzani takror o‘qish mumkin emas.

**Arastu** (m.a. 384-322). Chiroyli so‘zlash san’atiga katta uslubiy hissa qo‘shgan buyuk faylasuf Arastudir. Arastu o‘zining "Tonika" asarida dialektika, falsafa, mantiq fanlarining notiqlik bilan bog‘liq xususiyatlarini ko‘rsatgan. Arastu notiqlik san’ati nazariyasi haqidagi yaxlit asar - «Ritorika» asarini yaratdi. "Ritorika" asarida u butun diqqat e’tiborini bevosita notiqlikka, notiqlik mahorati va san’atiga, notiqning o‘zini tutishi hamda davlat va jamiyat hayotidagi o‘rniga qaratadi.

Bu asar uch qismdan iborat:

1. Nutq xizmat qilishi lozim bo‘lgan prinsiplar tahlili.
2. Notiq uchun zarur bo‘lgan shaxsiy xususiyat va qobiliyat.
3. Notiq nutqida qo‘llaniladigan nutq texnikasi, nutq usullari.

Arastu “Ritorika” asarida oldingi notiqlar insonlarning hissiyotiga qarab xulosa chiqartirishga majburlagan, aniq faktlardan qochirishga harakat qilganligi, notiqlar har qanday muhokama vaqtida tinglovchilar yoki hakamga ehtiros uyg‘otuvchi so‘zlar bilan emas, balki dalil, isbotlar bilan ta’sir etishi zarurligi, sillogizmlar butunicha yoki ba’zi qismlari bilan dialektikaga taalluqli ekanligi haqida fikrlarni ilgari surgan. Arastu ishontirishning usullarini ikkiga bo`ladi:

- “Texnikaviy” (mahoratga bog‘liq bo‘lgan);
- “Notexnikaviy” (guvohlar, ularning ko`rsatmalari, iqrornomalar va boshqalar).

Arastu notiqning auditoriyani o‘ziga jalb etishi uchun hazil-mutoyiba so‘zlar bilan lirik chekinish qilib, tinglovchilarni hayajonlantira bilishi zarurligini, agar turli ko‘rgazmali qurollardan foydalansa, har xil epitet, chog‘ishtirish va metaforalarni qo‘llasa nutqining ta’sirchanligi yanada oshishini, ammo keltirilgan misollar ko‘payib ketib, tinglovchini zeriktirib qo‘ymasligi kerakligini ham ta’kidlaydi.

Arastuning fikricha, ritorika fanining birinchi asoschisi Empidokl bo‘lgan. Lekin uning bu sohadagi ishi bizgacha umuman yetib kelmagan. Empidoklning shogirdi Koraks ritorika haqida yangi ish yozgan bo‘lib, u ham bizgacha yetib kelmagan. Eng muhimmi Koraks chiroyli nutqni «Ishontiruvchi xizmatkor» deb ta’riflaydi.

Notiqlik san’atining rivojlana borishi uning prinsip va usullarini kashf etishga ham urinishga olib keldi. Natijada chiroyli so‘zlash nazariyasi – ritorika maydonga kela boshladi.

## **2. Rim notiqligining o‘ziga xos xususiyatlari**

Qadimgi Yunonistondan keyin ritorika taraqqiyotining keyingi odimini qadimgi Rim mutaxassislari qo‘yishdi. Ular Ellada ustalarining tajribalarini o‘z izlanishlarining natijalari bilan to‘ldirgan holda o‘rganishdi. Munozara grek polislarida bo‘lganidek Rimda u darajada tarqalmadi. Rim notiqligi lotin notiqligi nomi bilan shuhrat qozondi.

Yunon ritorikasidan rimliklarga quyidagilar kirib keldi:

- Yumor
- Mantiq
- Masalada tortishuv
- Nutqning mukammal tuzilmasi

- Intonatsiya
- Xatti-harakat
- Mimika

Rim imperiyasida quldorlik siyosati kuchaygan bir davr edi. U davr qul va quldor o‘rtasidagi keskin kurashlar, qullarning noroziligiga sabab bo‘lgan davr sifatida tarixda muxrlanib qolgan. Ana shunday keskin kurashlar jarayonida ijtimoiy-siyosiy hayotda so‘z san’atiga e’tibor kuchaydi. Xalq orasida erkin fikrlash demokratik ruh faollasha boshladi. Davlat arboblari shunday sharoitda harbiy qurol aslahalardan ko‘ra, notiqlik – so‘z san’ati bilan qurollanishni afzal deb bildilar. Natijada notiqlik san’atiga ehtiyoj tug‘ilib, bu san’at tez rivojlana boshladi.

Qadimgi Rim maktabida ritorika 2 usulga bo`linadi: Osiyo va Attika notiqlik maktabi. **Osiyo usuli** Rimda m.a. I asrning 50-yillariga qadar hukmronlik qilib kelgan. Bu usulning namoyondalari o‘z chiqishlarini yorqin hamda ehtirosga to‘la teatr tomoshasiga aylantirar edilar, ularning yordamida o‘z g‘oyalarini ommaga unumli tarzda yetkazganlar.

**Attika usuli** respublika tizimining qulashi hamda jamiyatda demokratik chiqish erkinligi udumlarining yo’qolishi davrida ustunlikka ega bo‘lgan usulga aylandi. Attika usuli bir maromlilik va asoslarning qiyin masalalariga sodda yo‘l bilan yondashuvi, notiqlarning xatti-harakati va imo-ishorasi, ifodali o‘qishi bilan farqlanadi. Notiq o‘z nuqtai nazarini auditoriyaga hech qanday e’tibor bermagan xolda, bepisandlik, xotirjamlik va vazminlik bilan ifodalar edi.

Rim ritorik maktabalarida eng asosiy uslub deklamasiyalarni ya’ni qadimgi yunon va rimlik mashhur notiqlarning ritorika texnikasi bo`yicha namunaviy matnlarni tahlil qilish va nutqning strukturasini bo`yicha turfa xildagi vazifalarni bajarishdan iborat bo`lgan.

**Mark Tulliy Sitseron.** Eramizdan avvalgi 106 – 43-yillarda yashagan. Rim yaqinidagi Arpina qishlog`ida badavlat suvoriy xonadonida tug`ilgan. Ilk bolaliligidanoq yunon tilini to`la-to`kis o`rganadi. Sitseron Rim notiqlarining yalovbardoridir. Sitseron mukammal bilim oldi va notiqlik san’atining muhim maktabini bitirdi. Yunonistonda ta’lim olgan vaqtlarida ustozи “Afsuski, Yunistonning so`nggi shuhrati rimliklar tomonga ketadi” degan ekan. Sitseron ijodida ikki an’ana asosiy rol o‘ynadi. Bulardan biri, grek so‘z ustalari maktabi keng bilim maydoni bo‘lsa, ikkinchisi, eski Rim notiqlari tajribasi, birinchi navbatda Katon tajribasi edi.

Sitseronning notiqlik san’atidagi muvoffaqiyatida uning tabiiy qobiliyati – ta’sirchanlik, hayotiy idrok, chuqur sezgirlik muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Lekin u hamma vaqt birinchi planga tug‘ma qobiliyatni emas, mehnatni qo‘yardi: «Kishi shoir bo‘lib tug‘iladi, notiq bo‘lib yetishadi», -deydi.

Sitseron so‘z san’atining ajoyib vakili sifatida, tamomila yangicha yo‘ldan bordi va birinchi bo‘lib Rim respublikasida notiqlik nazariyasini mustaqil rivojlantirdi. Sitseron so‘z san’ati nazariyasiga atab «Brut», «Notiq haqida», «Notiq», «Mashhur notiqlar haqida» va boshqa shunga o‘xhash asarlar yozgan. Sitseronning yuqoridagi asarlaridan tashqari bizgacha 58 ta nutqi, 900 ta xati yetib kelgan.

U ommaga tushunarli bo‘lgan sodda va ravon gapisishni o‘rganishga, balandparvoz, tumtaraqay jumlalar, chet el so‘zlaridan voz kechish, ommaga hali tushunarli bo‘limgan shiorlar, tushunchalar, xulosalardan, birovlar aytib kelgan siyqa, tayyor so‘zlarni takrorlashdan qat’iy voz kechishga chaqirar edi. Sitseron so‘zning aytilayotgan mavzu zalvoriga mos bo`lgan ifodalash uslubini tanlashga chaqiradi. “Kimki jo‘n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o‘rta darajada, ulug‘ hodisalar haqida esa zavq - shavq bilan gapirsa, shu odam so‘z san’atining chinakam ustasi bo‘ladi” – degan fikrida aynan shu narsaga urg`u berilgan.

Sitseronning bo`lajak notiqqa maslahatlari ham tahsinga sazovor bo`lib bugungi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan:

- Notiq o‘z nutqini mavzusini chuqur bilishi va o‘ziga ishonchi mustahkam bo‘lishi ustuvor masaladir;
- Nutq jarayonidagi fikr-mulohazalar tinglovchiga o‘rinsiz savol tug‘dirmaydigan holda dalillangan bo‘lishi lozim;
- Nutqqa tayyorgarlikning boshi yetarli material to‘plashdir;
- Nutqda fikr o‘rinli joylashishi, kompozitsiyaga e’tibor muhim rol o‘ynaydi.

Sitseron serqirra notiq bo`lgan, xususan, notiqlik san’atining nazariyasiga oid qator asarlari bilan bir qatorda, ham siyosiy, ham sud notiqligida ham muvaffaqiyat qozona olgan. Sitseronning siyosiy faoliyatidagi jo`shqin nutqlarining ba’zilari bizgacha yetib kelgan. Masalan, Sitseron o‘z siyosiy raqibi bo`lgan Katilinaga qarshi Rim senatida so‘zlangan to`rtta nutqi, ayniqsa, ilk nutqi tasvirlash uslubining boyligi, o`xshatishlarning o‘rinli ishlatishi, nutqni argumentlashda mantiqiy uslublarning mukammal foydalanilganligi bilan yaqqol ajralib turadi. Yoki do`sti Tit Anniy Milon himoyasiga so‘zlangan nutqida sud notiqligining mumtoz durdonasiga aylana olgan.

### **3. Musulmon Sharqida notiqlikning rivojlanishi**

O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi ham qadimdan so‘zga chechan, badiiy didli kishilarni qadrlab kelganlar. O‘sha davrda notiqlik san’ati - voizlik, notiqlar – voiz, nutq esa – va’z deb atalgan.

O‘rta asr voizlik san’atida har bir so‘z, tushuncha, ohangning ta’sirchanligiga erishish, muayyan bir fikr, mulohaza, hukm, g‘oya, mafkura va xulosani o‘z

tinglovchilariga yetkazish maqsadida suhandonlik (ritorika) fani o‘qitilgan. Hozir ham madrasalarda bu fan o‘qitilmoqda. Bu davr voizlik san’atida jarangdorlik, farmondorlik ohangi yetakchi bo‘lgan. Shu tufayli ular ijtimoiy salmoq, siyosiy qudrat kasb etgan, badiiy sayqal topgan.

O‘rtal Osiyo xalqlari, xususan, IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi, yetakchi saflarida turish darajasiga ko‘tarila oldi. O‘rtal asr fani madaniyati Xorazmiy, Farg‘oniy, Farobi, Ibn Sino, Beruniy, Maxmud Qoshg‘ariy, Jomiy, Navoiy kabi ulug‘ siymolarning nomlari bilan xarakterlanadi. Bu mutafakkirlar yashagan davr Sharq tarixida Uyg‘onish davri deb ataladi. Bu davrda madaniyat ilm-fan ravnaq topdi. Fan va madaniyat targ‘ibotchilari – voizlar yetishib chiqdi.

O‘tmish sharq notiqligining ko‘zga ko‘ringan namoyondalari juda ko‘p bo‘lgan. Ulardan bir qismi voizlikdan tashqari, voizlik haqida yozgan asarlari bilan ham mashhur bo‘lganlar. Chunonchi, “Abvobul jinon” risolasining muallifi Voiz Muhammad Vafil, “Zilolu maqol”ning muallifi Voiz Qazviniy, “Axsanul ahodis”ning muallifi Voiz Shirvoniy, “Hidoyatul takvil”ning muallifi Muhammad Bobir Binni Muhammad Voiz, “Anisud voizin”ning muallifi Mulla Kalon Voiz Samarqandiy, “Miftaxun najrox”ning muallifi Qozi O‘shiy va boshqalar shular jumlasidandir. Shuningdek, o‘tmishning Baxouddin Valad, Jaloliddin Rumiy, Abulfayz Zunnun, Anas Junayd, Shibliy, Sirriy, Ruzbexon Nisaviy, Sheraziy, Xo‘ja Muayyad Mexnagi, Mavlono Irshod, Ibroxim Balxiy, Xotam Asom, Muhammad Bobur, Mavlono Riyoziy, Husayn Voiz Koshifiy, Muin Voiz kabi o‘nlab notiqlarning nomini tilga olish maqsadga muvofiqdir. Ma’lumki, madaniy meros, ya’ni o‘tmish darvlar madaniyati keyingi avlodlar madaniyatiga asos bo‘lib, uni rivojlantiradigan qismi hisoblanadi. Shu jihatdan olganda mustabid davrida qadrsizlantirib yuborilgan insonparvarlik axloqi xalqlarimizningadolatsizlarcha va takabburlarcha nazardan chetda qoldirilgan o‘tmishi, ilg‘or axloqiy merosining yutuqlari, qadriyatları, afzallikkari bilan boyitilishi ayniqsa muhim. Zero, O‘rtal Osiyo xalqlarining tarixdagi o‘rni, o‘ziga xosligi, ularni jahon madaniyati hazinasiga qo‘shegan xissasi bag‘oyat ulug‘. Notiqlik va notiqlik san’ati borasida ham Sharq, xususan Mavorounnahr va Xuroson maktabi namoyondalari jahon madaniyatining gultojisi sifatida ajralib turadi.

**Abu Nasr Farobi.** Farobi “Fozil odamlar shahri” asarida fozil shahar hukmdori egallashi zarur bo‘lgan 12 muhim sifatini ko‘rsatadi va shundan beshinchisi sifatida tilga olingan notiqlik haqida gapirib: “so‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin“, – deydi. Farobiyning chiroyli, tartibli, ta’sirchan qilib so‘zlash masalalari haqidagi mulohazalari ritorika, poetikaga oid asarlarida uchraydi. Farobiyning o‘zi ham,

manbalarda zikr etilishicha, shirinso‘z, hozirjavob, har qanday qiyin masalalarini ham bir zumda hal etib beruvchi faylasuf - notiq bo‘lgan.

**Abu Rayhon Beruniy.** Beruniy nutqning ikki hil nasr, nazm ko‘rinishi borligini ko‘rsatadi. Nutqning bu turlari ma’lum qoidalar asosida shakllanadi. Nazm naxv qonun-qoidalari, nazm aruz talablariga binoan tuziladi. Aruzga qaraganda naxvning ta’sir doiralari keng, u nasr uchun ham, nazm uchun ham zarur. Beruniy yozadi: “Naxv (grammatika) nasrda va aruz (she’r o‘lchovi) nazmda (aytilgan) so‘zning me’yorini o‘lchovchi va xatosini aniq ikkita mezon bo‘lib qoladi, lekin naxv bular ikkisining umumiyyrog‘idir, chunki u nasrni ham, nazmni ham birgalikda o‘z ichiga qamrab oladi”.

**Kaykovus.** Kaykovusning Sharq pedagogikasi tarixida g‘oyat qimmatli asarlar qatorida turuvchi «Qobusnom»sida ham notiqlik sharxlari uchun alohida bob ajratilganligi bu san’atga bo‘lgan, uning san’atkoriga bo‘lgan qiziqishning orta borganligini ko‘rsatadi. «Qobusnom»ning «Suhandonlik bilan baland martabaga ega bo‘lish haqida» deb nomlangan yettinchi bobida va hunarni egallahsha bag‘ishlangan oltinchi bobida notiqlik sirlariga doir o‘gitlar bildiriladiki, bu fikrlar o‘sha davrda ham hozir ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

«Bilgilkim, hamma hunardan so‘z hunari yaxshi».

Alloma notiqliknegi egallahshning muhim yo‘li bu – mashaqqatli mehnat, nutq go‘zalligi, tinglovchi qalbiga to‘g‘ri yo‘l topish ekanligini ta’kidlaydi. «Ya’ni bir so‘zi bir ibora bilan aytsa eshitgan kishining ko‘ngli parishon bo‘ladi, shu so‘zni boshqa bir ibora bilan aytsa, eshitgan kishining ko‘ngli bahra oladi».

**Alisher Navoiy.** Navoiy notiqning so‘zi bilan ishi bir bo‘lmog‘i lozimligini uqtiradi. Aks holda nutqning ta’siri bo‘lmaydi. «Ulki buyurib o‘zi qilmag‘ay, hech kimga foyda va asar aning so‘zi qilmag‘ay».

Alisher Navoiy davrida ham notiqlik yuksak darajaga ko‘tarildi. U “Mahbub ul qulub” asarining 24-bobini asosan voizlikka bag‘ishlagan edi. Alisher Navoiy notiqlikda qisqalik va ravshanlikni yoqtiradi. Bu jihatdan uning «Mahbubul qulub»idagi 60 tanbehi o‘rinlidir. «Chin so‘z mo‘tabar, yaxshi so‘z muhtasar. Ko‘p deguvchi mumil, muqarrar deguvchi loya‘qil» (Ya’ni: Chin so‘z e’tiborli, yaxshi so‘z qisqa bo‘ladi. Ko‘p so‘zlovchi zeriktiruvchi, qayta gapiradigan – aqldan ozgan), - deydi.

Navoiy so‘zning hashamadorligidan ko‘ra haqqoniyligini ulug‘laydi. Bu borada uning quyidagi misrasi g‘oyatda o‘rinlidir:

*Fasona boisi g‘aflatdur elga voizdin,  
Nedinki keltirur afsonavash kalom uyqu.*

**Voiz Irshod.** Fahriddin Safiyning shohidlik berishicha, Voiz Irshod minbarga chiqib, shunday mahorat va ehtiros bilan nutq so‘zlar ekanki, uning nutqlari jome masjidiga yig‘ilganlarni yig‘latib yuborar, o‘rni kelganda vaziyatni

tezdan boshqa mazmunga burib, kuldirib ham yuborar ekan. Uning nutqidan ta'sirlanib ho'ng-ho'ng yig'laganlar. Shunda u o'z nutqining jozibador, maftunkor yana bir qirrasini namoyish qilgan: u o'z ma'ruzasi jarayonida shunday bir burilish yasaganki, yig'lab o'tirganlarning barchasi beihtiyor qahqaha otib yuborganlar.

Irshod o'z bilimining kengligi, siyosiy ongingin teranligi hamda nutqining ta'sir kuchi bilan o'sha davrning mohir diplomati darajasiga ko'ratila olgan. Bu ulug' zot voizlik mahorati bilan ikki muholif davlat orasidagi nizolarni bartaraf etib, ular o'rtasida do'stona, madaniy aloqalarni qaror toptirishga erishgan.

**Qozi O'shiy.** Tarixchi Muhammad Majdiyning "Ziynat ul-majolis" asarida ta'kidlanishicha, O'shiy voizlik san'atida mislsiz mahorat sohibi sifatida dong taratgan va el nazariga tushgan.

Qozi O'shiy "Miftoh un Najoh" ya'ni "So'z kaliti" risolasida voizlik san'atining sir-asrorini mohirona ochib bergen. Bu esa uning o'tkir voizgina emas, balki nutq madaniyati bo'yicha yetarli bilim sohibi ekanligidan ham dalolat beradi. Masalan, u Eron mamlakatimining janubidagi Sinston viloyatining aholisi o'sha davrlarda qattiqqo'lligi bilan nom chiqargan bo'lib, xatto tilanchiga ham bir burda non bermas ekan. Bu ziqlilikni eshitgan Qozi O'shiy o'sha viloyatga boradi: vaziyatni o'rganadi, ularning ko'nglini topib ma'ruza qiladi, dardlarni va'z aylaydi. Natijada sinstonliklar allomani duolar qilib, hadyalar bilan birga 5.000 dinor tilla to'plab berishadi. Mazkur rivoyatdan shu narsa ayon bo'ladiki, xalqning dardini topib unga malham bo'ladigan so'z aytilsa, uning qulfi dili ochilib siz bilan murosa qilishi mumkin.

**Husayn Voiz Koshifiy.** U taxminan 1440-yillarda Xuroson viloyatidagi Sabzovor shaxrining Bayxaki kentida tug'ilgan. Yoshligidanoq voizlik – so'z san'ati bilan mukammal shug'ullanadi. Natijada Sabzavorda o'zi yosh bo'lsada ko'zga ko'ringan voiz bo'lib taniladi. Uning o'g'li Faxriddin Ali Safiy ham olim, shoir, yozuvchi, islom dinining targ'ibotchisi sifatida butun Xuroson muzofatida mashhur bo'lган.

Koshifiyning nutqlari o'zining jozibadorligi bilan har qanday kishini jalg qila olgan. Aytishlaricha, uning bunday so'z san'atidagi mahoratini Navoiy bilan birga Sulton Husayn Bayqaro ham yuksak baxolagan va ular o'z asarlarini axoli o'rtasida rasmiy ijro etish lozim bo'lgan paytlarda, bu ishga Husayn Voizni munosib ko'rganlar. Misol uchun 1492-yil 8-noyabr kuni buyuk shoir, Navoiyning ustozи Abdurahmon Jomiyning dafн marosimida Alisher Navoiy o'zining 7 band, 140 misradan misradan iborat purhikmat marsiyasini o'qib eshittirishni Koshifiydan iltimos qilganligi Koshifiyning notiqlik san'atini yuksak mahorat bilan egallaganligini ko'rsatadi.

Husayin Voiz Koshifiy o'zining "Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" pandnomasining beshinchи bobida tariqat ahlining odobi

haqida so‘z yuritilgan. Asarning birinchi faslida tariqat ahlining ko‘nglini asrash va yetti a’zo - ko‘z, qulqoq, til, qorin, og‘iz, qo‘l va farjni asrash va saqlash odobi haqida so‘z borsa, uning ikkinchi fasli tariqat arbobi yoki ular toifalarining odobi haqda mulohaza qilinadi. Ayniqsa, oltinchi faslda suhbat odobi haqida so‘z yuritar ekan, odamzodning sharafi nutqi bilan va nutq odobiga rioya qilmagan inson bu sharafdan bebahra ekanligini uqtiradi. So‘z hamma vaqt savob uchun ishlatilishi, to‘g‘ri va haqqoniy bo‘lishi kerak. Agar shunday bo‘lmasa, jum turgan ma’qul deb ta’kidlaydi mutafakkir.

Alloma qaysi sohaga qo‘l urmasin, o‘sha sohani puhta egallar va o‘z g‘oyalari, qarashlari va mahoratini ko‘rsatishga intilgan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek. u hazrat Alisher Navoiyning yaqin do‘sti va muhlisi bo‘lgan. Alisher Navoiy ham o‘z navbatida Koshifiyni juda hurmat qilgan va “Majolis un-nafois” asarida unga alohida o‘rin ajratib, iste’dodini yuqori baholagan. Alisher Navoiyning zamondoshi Xondamir “Habib us-siyar” nomli kitobida Navoiy tariflarini to‘ldirib, Koshifiyni mana bunday tavsiv etadi: “Voiz Koshifiy chiroyli ovoz va dilkash ohangda va’z va nasihatlar bilan shug‘ullanardi.” Darhaqiqat, va’z va nasihatda ham o‘z davrida Husayn Koshifiyga tenglasha oladigani bo‘lмаган. Shuning uchun unga “voiz” (va’z aytuvchi) degan unvon berilgan.

Aytish kerakki, O‘rta asrlarda voizlik ulkan san’at hisoblangan, katta maydonlar, masjid va madrasalarning sahnalarida odamlar yig‘ilishib, donishmand allomalar, ulamo va ruhoniylarning va’zlarini tinglaganlar. Voiz Koshifiy (“Koshifiy” - kashf etuvchi demak) har jum’a kuni namozdan so‘ng Hirotning masjidi jome’sida va’z aytgan, ming-ming odamlar uning nasihatlarini berilib tinglaganlar, o‘zlariga foyda olganlar. Allomaning va’zlariga qiziqish ortib borishining sababi uning g‘oyat ko‘p hikoyat va rivoyatlarni, hadislarni, Qur’on suralarini yoddan bilishi va bularni tinglovchilar didi, saviyasiga muvofiqlashtirib, yoqimli va ta’sirchan usulda bayon etib, mohiyatini tushuntirish, zamona voqealariga bog‘lab sharplashida bo‘lgan.

U Navoiyga o‘xshab nozik tabiatli kishi bo‘lgan, qo‘pol hazil-mutoyibaldan ranjigan. “Majolis un-nafois” asarida Navoiy shu munosabat bilan quyidagi voqeani keltiradi: Husayn Voiz Koshifiy va’z aytadigan minbar oldiga shaharning sho‘xlaridan biri Xo‘ja Hofizning quydagi baytini yozib qo‘yadilar:

*Voizon chun jilva dar mehrobu minbar mekunand,  
Gar ba xilvat meravand on kori digar mekunand.*

Ya’ni, voizlar minbar ustida, mehrob oldida jilva qilib so‘zlaydilar, xilvatvatga borgandan keyin esa boshqa ishlar bilan shug‘ullanadilar. Voiz Koshifiy navbatdagi va’zga kelayotib, yuqoridagi baytga ko‘zi tushadi va shartta orqasiga burilib, qaytib ketadi. Arazlab qariyb bir yil va’z aytishga chiqmaydi.

Mutafakkir butun Xuroson viloyatida o‘tkir so‘zli, hozirjavob, bilimi mashhur voiz, olim sifatida tanilgan. U faqat voizlik bilangina shug‘ullanib qolmay notiqlik san’ati nazariyasiga oid “Sahifai Shohi”, “Dah majlis”, “Mahzan ul-insho” kabi qo‘llanmalar ham yozgan.

Husayn Voiz Koshify qaysi mavzuda nutq so‘zlamasin oxir oqibatda odob-axloqqa ta’sir qila oladigan qilib, nasihatnoma, pandnomalardan, Qur’on va Hadislardan, “Axloqi Jaloliy”, “Zahirat ul-mulk”, “Lavome ul-hikoyat”, “Siroj ul-mulk”, “Nigoriston” kabi asarlardan, xalq maqolalaridan ko‘p foydalangan holda so‘zlar edi.

Allomaning shogirdi Zaynidin Vosifiyning “Badoe ul-vaqoe” asariida ta’kidlashicha, ustozi “so‘z aytar bo‘lsa, maydonga ming-minglab erkak-ayollar to‘lib ketardi”.

Koshify asarlariga qiziqish chet mamlakatlarda XVIII-XIX asrlardayoq kuchli bo‘lgan. G‘arbiy Yevropaning X.G.Kin, M. Duayt, D.D. Donalson, E. Broun, A.A.Arberri, E.S Kennedi, E. Rozental, G.Masse, K.S.Lambton, R.Levi A.M.Shasteri kabi olimlar O‘rta Osiyo va Eronnig XIV-XV asrlardagi ijtimoiy-falsafiy taraqqiyotini atroflicha o‘rganishga xarakat qilganlar.

Husayn Voiz Koshify insonlarning tashqi ko‘rinishiga, yuz tuzilishiga ham katta e’tibor qaratgan. “Yuzni o‘qish san’ati” asarida insonlarning tashqi qiyofasini quyidagicha ta’riflaydi: Kishilarining rangi bag‘oyat oq va ko‘zi ko‘k, yoshil bo‘lishi yuzi qattiqlik, besharimlik, xiyonatu, fisqu fasod, kam aqlilik, kajtab (qing‘irtabiatli) qilig‘i yomonlik dalilidir. Sochi sariq bo‘lmoqlik xamqatu (axmoqlik) takabbur va achchig‘i tezlikning nishonasidir. Sochning qora bo‘lishi aql-idrokli va omonatdorlik va adolatparvarlik belgisidir. Quloqning kichikligi esa axmoqlik va duzd (o‘g‘ri)likning nishonasidir. Qosh qaro bo‘lib, uzun yoki qisqa bo‘lmay, me’yorida bo‘lsa, diyonatlilik alomatidir. Ko‘z harakatining tez bo‘lishi va uning qarashi makru xiyalilik nishonidir. Burun yo‘g‘onlik, uzunlik, yassilik orasida bo‘lsa, aqlu fahm nishonasidir. Og‘izning keng bo‘lmog‘i shijoatlik belgisidir. Tishning egri bo‘lmog‘i makru-xiyala, xiyonat belgisidir. Tishning orasi ochuq va silliq bo‘lmog‘i adolat, omonatdorlik, tadbirkorlik nishonidir. Ovozning baland va yo‘g‘onligi shijoatni bildiradi. Ohistalik bilan so‘zlamak xubluk (go‘zallik, yaxshilik) nishonasidir. Qorni katta bo‘lmoqlik johillik va sust ko‘ngillilikni bildiradi. Panjaning yo‘g‘on va go‘shtdar bo‘lishi nodonlik, yuzi qattiq bo‘lmoqlik alomatidir. Ularning me’yorida bo‘lmog‘i ahvoli mo‘tadil (o‘rtacha)ligiga dalildir. Bo‘yinning yo‘g‘on va ingichkaligi, uzun, qisqaligi o‘rtacha, me’yorida bo‘lsa, sidqu adl (adolatparvar) va tadbirkorlikni bildiradi.

Demak, insonning a’zolariga, yuz tuzilishiga qarab ham uning qanday inson ekanligini fahmlash mumkin.

Husayn Voiz Koshify ijidini ko‘zdan kechirar ekanmiz, ularda hazrat Navoiyning tasvir usullari, so‘z qo‘llashi, poetik san’atlardan ustalik bilan foydalanish uslublarini chiroyli o‘zlashtirganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘z navbatida, Koshify ijodidagi insonparvarlik, o‘z fikrini kengroq, soddaroq qilib tushuntirsh uchun ko‘plab hikoyat va rivoyatlar, o‘tmishdagi mutafakkirlarning asarlaridan parchalar keltirish usuli Navoiyda nihoyatda go‘zal tasvirlangan. Mutafakkir asarlarini tushunish uchun ko‘plab tarixiy hikoyat, afsonalarni, rivoyatlarni, tarixiy voqealarni, mashhur shaxslar, diniy asarlarni bilish taqozo qilinadi. Chunki bulardan habarsiz kishi Koshify asarlarini o‘qib, tushunishi juda qiyin. Xuddi shu jihat Alisher Navoiyga ham xos xususiyatdir. Bu yerda biz Navoiy Koshifiydan o‘rganganligini ko‘ramiz. Navoiyning so‘z qo‘llash san’atidan, poetik san’atlardan unumli foydalana olish yo‘llaridan Koshify ham “Axloqi Muhsiniy” asarida ko‘plab foydalanganligini uchratamiz. Mutafakkir Navoiy g‘azallarida qo‘llangan tazod, tajoxu-l-orif, irsolu-l-masal, tanosub o‘xshatishlaridan unumli foydalangan va ularni axloq-odobga bag‘ishlangan asarlariga olib kirgan.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Qadimgi notiqlikning taraqqiyotiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan deb hisoblaysiz?
2. Qadimgi Yunoniston notiqligining jahon notiqlik san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi qanday?
3. Arastuning “Ritorika” asarida nutqning strukturasi qanday tasniflangan?
4. Qadimgi Rim notiqligi va Mark Tulliy sitseron.
5. Sharq notiqligining o‘ziga xos xususiyatlari qanday?
6. Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshifiyning vozlik san’atiga qo‘shgan hissasi qanday?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muhammadjonova L.A. Ritorika. T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2019.
2. Бекмирзаев Н. Нотиқлик санъати асослари. –Тошкент: Янги нашр, 2008.
3. Ҳусанов Б.Е. Бошқарув этикаси. Ўқув қўлланма. Т.: Университет. ЎзМУ, 2017.
4. Жуманиёзов Раҳимбой. Нутқий маҳорат. -Т.: Адолат, 2005.
5. Marcus Tullius Cicero. Rhetorica ad Herennium. 2009.
6. Муҳаммаджонова Л.А. Нотиқлик санъати. Услубий қўлланма. –Тошкент: ЎзМУ, 2008.
7. Арасту. Риторика. –Тошкент: Yangi asr avlod, 2011.
8. Асеренсева С. Оратори Гресии. – М. «Худ. лит» 1985.

## **NOTIQLIK TURLARI VA KO'RINISHLARI**

### **REJA**

1. Qadimgi Yunoniston notiqlig`ining klassifikatsiyasi
2. Musulmon Sharqida notiqlikning turlari
3. Zamonaviy notiqlikning turlari va ko`rinishlari

**Tayanch tushunchalar: ritorikaning klassifikatsiyasi, yunon notiqligi turlari: siyosiy nutq, sud notiqligi, epidektiv notiqlik, g`aribona, jihodiya, sultoniyat, dabirlik, xatiblik, muzakkirlik, nutq ko`rinishlari, nutq turlari, ijtimoiy-siyosiy notiqlik, akademik notiqlik, sud notiqligi, ijtimoiy-maishiy notiqlik, diniy notiqlik.**

#### **1. Qadimgi Yunoniston notiqlig`ining klassifikatsiyasi**

Notiqlik san'atining asosiy muammolaridan biri notiqlikning turli ko`rinishlarini tasniflash hisoblanadi. Notiqlik san'atining klassifikatsiyasi bilan bog`liq bo`lgan ilk qarashlar qadimgi Yunonistonda uchraydi. Ritorikaning nazariy masalalari bilan shug`ullangan turli faylasuflar, ayniqsa, Arastu tomonidan notiqlikning asosiy turlari bir-biridan farqlanadi. Umuman olib qaraganda, Arastuning “Ritorika” asarining birinchi kitobi uchinchi bobি ritorik nutqlarning turlari, har bir nutq turining asoslari va ushbu nutqlarning maqsadlariga bag`ishlangan.

Arastuning fikriga ko`ra, notiqning va nutqning vazifalari qaysi tinglovchilarga talabalarga, majlis qatnashchilariga yoki barcha kitobxonlarga (yozma nutqda) mo`ljallangani bilan belgilanadi: tinglovchilarning uch turiga ko`ra, ritorika (xitoba, murojaat) ham uch turlidir. Nutqning uch tarkibiy qismi bo`lib, bu qismlar bir-biriga muvofiq kelishi kerak: 1. Notiq. 2. Nutq mavzusi. 3. Tinglovchilar.

Mana shu so`nggi, uchinchi tarkibiy qism – tinglovchilarning kimlar ekanligi notiq nutqining mavzuini ham belgilaydi. Nutqni tinglovchilar oddiy (fuqaro), tomoshabin, yo hakam (sudya va hakamlik hay`ati a`zolari) bo`lishi mumkin. Notiq va tinglovchilar bo`lib o`tgan voqeani yoki endi bo`lajak voqeani muhokama qilishi ham nutq mavzuiga ta`sir ko`rsatadi. Misol uchun, endi bo`ladigan voqea haqida xalq yig`ini qatnashchilari muhokamada fikr bildiradi. Avval bo`lib o`tgan voqeani masalan, adliya idorasida hukm chiqaruvchilar (sud a`zolari) muhokama qilib, fikr bildiradilar. Oddiy tinglovchilar (fuqarolar, talabalar) notiqning so`zlash mahoratini baholaydilar.

Arastu ritorik nutqning uch xil ko`rinishini farqlaydi:

1. Kengashuv nutqi (siyosiy notiqlik);
2. Hakamlik nutqi (hukm chiqaruvchi, sudlov notiqligi);
3. Epidektiv nutq (tantanali nutq).

Kengashuv nutqining maqsadi, vazifasi – tinglovchilarga biror taklifni tasdiqlatishi yoki rad ettirish (Notiqning tinglovchilarga biror taklifni tasdiqlatish ko‘proq uchraydi).

Adliya, sudlov nutqining vazifasi, maqsadi – (biror nojo‘ya ish qilgan odamning qilmishini) ayblash yoki oqlashdan iborat. Bu xil nutq shunga xizmat qiladi.

Epidektiv – tantanavor nutqlarda (biror bo‘lib o‘tgan voqeа, qahramonning qilmishi) maqtaladi yoki (dushmanlarning qilmishi) qoralanadi.

Mana shu uch turdagи nutqda muhokama qilinadigan vaqt ham turlichadir.

1. Kengashuv nutqida (yaqin yoki uzoq) kelgusi vaqtda yuz beradigan voqealar muhokama qilinadi. Notiq tinglovchilarni endi bo‘ladigan voqeaga tarafdar, xayrixoh qilish yoki qarshi chiqishini ko‘zlab gapiradi.

2. Adliya, hakamlik nutqlariga kelsak, bu yerda notiqlar muhokama qilinayotgan shaxsni yo ayblab (qoralab) va yo himoya qilib (oqlab) gapiradilar.

3. Epidektiv – tantanavor nutqning vazifasi, maqsadi – (vatan, xalq uchun qilingan yaxshi ishlarni) maqtash yoki (vatanga, mamlakatga, xalqqa zarar keltiruvchi yomon, tuban, yaramas ishlarni) yomonlash (qoralash)dan iborat<sup>1</sup>.

Afinadagi quzdorlik demokratiyasi, garchi cheklangan xarakterda bo‘lsa-da, notiqlik san’atining muhim bir turi – siyosiy notiqlikning ravnaq topishiga, uning Yunoniston va qadimiy Rimda misli ko‘rilmagan darajada yuqori cho‘qqiga ko‘tarilishiga zamin yaratdi. O‘sha davrning buyuk notig‘i Sitseronning aytishicha, insonni oliy darajaga ko‘taruvchi ikki san’at bor: biri yaxshi harbiy sarkarda san’ati, ikkinchisi yaxshi notiq san’ati.

## 2. Musulmon Sharqida notiqlikning turlari

Qadimda Sharq mamlakatlarida hukmdor shaxsan o‘zi jamoat oldiga chiqib, o‘z siyosati, xalqaro ahvol va boshqalar haqida nutq so‘zlagan. El oldiga chiqish, ayniqsa juma namozi, hayit, navro‘z kunlari va boshqalarda, mamlakatlararo urush boshlangandagi yig‘inlarda odat tusiga kirgan. IX asrga kelib, bu muhim ishni xushovoz, ta’sirchan gapiradigan, ishontira oladigan maxsus kishilar — voizlarga topshirganlar. Shunday qilib, Sharqda voizlik san’ati shakllangan. Musulmon notiqligi mazmuni, yetkazish uslubiga ko`ra rang-barang bo`lgan. Xususan, notiqlikning mazmuniga ko`ra, tinglovchilarning ijtimoiy holatiga ko`ra musulmon notiqligini bir qancha turlarga bo`lib tasniflash mumkin bo`lgan.

O‘rta asrlarda voizlik san’ati asosan uch shaklda bo‘lgan:

**1. Dabirlik.** Davlat maqomidagi yozishmalarni yozma bayon etish va qiroat bilan o‘qib berish. Ushbu ko`rinishdagi notiqlik ham davlat yozishmalari orqali

---

<sup>1</sup> Арасту. Ахлоқи кабир. Т.: “Yangi asr avlodи”. – 2016. 254-256 бетлар.

yozma, ham ushbu nutqlarni yetkazish bilan bog`liq og`zaki shaklda olib borilgan. Hukmdor saroyidagi mirzalar hamda xalq yetkazish bilan shug`ullanuvchi jarchilar dabirlik nutqlari bilan shug`ullangan. Bugungi kunda Prezidentning bayram munosabati yoki erishilgan muvaffaqiyat uchun xalqqa yo`llaydigan tabrigiga mos nutq turi bo`lgan.

**2. Xatiblik.** Juma kunlari peshin namozi oldidan xutba o‘qish bilan bog`liq bo`lgan diniy notiqlik. Ushbu notiqlik diniy-siyosiy mayldagi notiqlik bo`lib, musulmon mamlakatlarida hukmdorning ismi juma namozidagi xutbaga qo`shib aytilishi uning qonuniy hukmdor ekanligini anglatgan. Shuning uchun mamlakatning bosh masjidida imom-xatib bo`lish, xutba o`qish katta sharaf hisoblangan.

**3. Muzakkirlik.** Juma kunlari, hayit va boshqa tantanali kunlardagi anjumanlarda xatibdan keyin diniy, axloqiy, huquqiy masalalarni sharhlab berish bilan bog`liq notiqlik turi. Bu mazmundagi nutqlar ham diniy, ham dunyoviy manbalar bilan asoslantirilgan. Muzakkirlik nutqi namoyondalari doimo xalq tomonidan qadrlangan, ular xalq uchun ustoz maqomida qabul qilingan.

Voizlik san’ati tinglovchilarining, voizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqe va lavozimlarini hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olgan xolda ham uchga ajratilgan va uch xil nomlangan. Ularning har biri yozilishi, o‘qilishi, va’z etish shartlari, usuli, ohangi ham turlicha bo`lgan. Bular:

**1. Sultoniyot.** Yuqori tabaqa a’yonlari va zodagonlar uchun mo’ljallangan nutq. Bu turdagи nutqlar davlat majlislari, mashvaratlar, saroy bazmlari, turli davlat elchilarini qabul qilish bilan bog`liq marosimlar va boshqa shu mazmundagi saroy yig`inlarida qo’llanilgan. Sultoniyotda hukmdorlar sha’niga hamd-u sanolar aytilgan, ular ko‘klarga ko‘tarib maqtalgan.

**2. Jihodiya.** Jang ishtirokchilar uchun mo’ljallangan nutq. Jihodiyada jangovarlik, yalovbardorlik, botirlik, qahramonlik, jasurlik, fidoiylik, vatanparvarlik ulug`langan. Bu turdagи nutq qadimiyl ildizlarga ega bo`lib, musulmon sarkardalari ham ajoyib notiq sifatida tarix zarvaraqlarida qolgan. Masalan, ulug` ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur 1526-yil 21-aprelda Dehli sultoni Ibrohim Lo`diy bilan bo`lgan Panipat jangidan oldin ruhlantiruvchi nutq so`zlaganligi, bu esa ushbu jangda Boburning g`alabasini ta’minlagan omillardan biri bo`lganligi ta’kidlanadi. Boburning bu nutqi jihodiya nutqiga misol bo`lsa oladi.

**3. G‘aribona.** Unda mehnat ahlini itoatkorlikka, bo‘ysunishga chaqiruvchi nutq mazmuni ustuvor bo`lgan. G‘aribona nutqi raiyat uchun mo’ljallangan, ularning dunyoqarashi, turmush tarsi, faoliyatidan kelib chiqib misollar bilan

boyitilgan. Xalqni shukur qilishga yo`naltirish, soliq yoki shu kabi majburiy pul yig`imlarini yig`ishga ko`ndirish g`aribona nutqlarining asosiy maqsadi bo`lgan<sup>1</sup>.

### **3. Zamonaviy notiqlikning turlari va ko`rinishlari**

Zamonaviy notiqlikni tasniflash ritorikaning asosiy muammolaridan hisoblanadi. Zamonaviy notiqlik turli millatlarning mentaliteti bilan bog`liq bo`lgan xususiyatlari, har bir tilning morfologik, sintaktik, fonetik, frazeologik jihatlarini hisobga olgan holda turli tillar uchun ma'lum ma'noda farqlanishi mumkin. Bu tabiiy holat. Notiqlikning umumiylarini ham shu o`rinda bir-biridan farqlanishi mumkin. Masalan, itlayan notiqligi badiiy tasviriy vositalarning boyligi, jo`shqinligi bilan farqlanib tursa, yapon notiqligi vazmin tempi bilan xarakterlanadi.

Zamonaviy notiqlikni tasniflashda ikki tushunchaga e'tibor qaratishimiz lozim: nutq turkumlari va nutq turlari. Nutq turkumlari – bir-biriga yaqin bo`lgan, umumiy mazmun, uslub yordamida birlashtirib turiluvchi nutq turlarining yig`indisi. Nutq turlari – mazmun, tuzilish, auditoriya jihatidan bir-biriga yaqin bo`lgan nutqlarni tasniflash uchun ishlatiluvchi tushuncha. Nutq turkumlari nutq turlaridan kengroq tushuncha bo`lib, u nutq turlarini o`zida birlashiradi.

Zamonaviy notiqlikning quyida 5 turkumi mavjud:

1. Ijtimoiy-siyosiy notiqlik
2. Akademik notiqlik
3. Sud notiqligi
4. Ijtimoiy-maishiy notiqlik
5. Diniy notiqlik

**Ijtimoiy-siyosiy notiqlik.** Bu notiqlik turkumi o`zida ijtimoiy-siyosiy va siyosiy-iqtisodiy nutq, hisobot nutqi (konferensiya, majlislarda), siyosiy nutq, siyosiy sharh, miting nutqi, tashviqot nutqi kabi nutq turlarini birlashtirib, u iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-siyosiy mazmunda bo`lishi mumkin. Bu turkumdagagi har bir nutq o`ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Masalan, **ijtimoiy-siyosiy va siyosiy-iqtisodiy nutq** – shu mavzuga oid muayyan axborotlarni yoritib, tinglovchilarini ulardan xabardor qilish va siyosiy-ijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy masalalarda keng fikr yuritishdan iborat. Bunday turdagani nutqlarga Oliy Majlisga Prezidentning murojaatnomalari, xalqaro maydonidagi chiqishlar misol bo`la oladi. Unga keng ko`lamlilik va konkret faktlar xos.

**Hisobot nutqlariga** esa mamlakatimizda vazirlar, mansabdar shaxslarning Oliy Majlisdagagi hisobot nutqlari misol bo`la oladi. Hisobot nutqlari kollektiv xarakterga ega bo`ladi, notiq faqat o`zining emas, balki butun tizim, tashkilot yoki

<sup>1</sup> Ортиков А., Ортиков А. Нотиқлик санъати ва нутқ маданияти /Ўкув-методик қўлланма. -Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар академияси. 2002. Б. 8-15.

korxonaning faoliyatiga oid ma'lumotlarni yetkazadi. Bu nutq turi rahbar shaxsning biror tashkilot, jamoaning ma'lum bir muddat orasidagi faoliyatiga oid rasmiy hisoboti hisoblanib, bunday hisobot, ko'zlangan reja, amalda bajarilgan ish hajmi va mazmuni, erishilgan yutuqlar, nuqsonlar va istiqbolda ko'zlanadigan rejalarining real faktlar asosida qilinadigan tahlilidan iborat.

**Diplomatik notiqlik** – ijtimoiy-siyosiy notiqlikning shunday turi hisoblanadiki, u davlat ahamiyatidagi rasmiy nutq bo`lib, xalqaro mavqega ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Faqatgina diplomatik faoliyat olib borish huquqiga ega bo`lgan shaxslar, davlat va xalq nomidan so`zlay olish vakolatidagi shaxslargina diplomatik notiqlikni taqdim etishlari mumkin. Butun jahonda azal-azaldan mamlakatlar diplomatiyasida ajoyib notiqlarga ehtiyoj mavjud bo`lgan. Yunon faylasuflari va siyosatchilari – Demosfen, Esxil, Rimlik notiq – Sitseron, AQSHning mashhur siyosatchisi – Benjamin Franklin, “Yevropa otasi” nomini olgan XX asr boshidagi Fransiyaning tashqi ishlar vaziri Aristid Brian va boshqalar jahon bo`yicha mohir diplomatik notiqlar hisoblanishadi. Diplomatik nutqning tamoyillari haqida gapirgan fransuz imperatori Napoleon Bonapart o`z elchilariga “qisqa va tushunarsiz qilib gapir” deb maslahat bergen edi. Bu esa diplomatik nutqda doimo ehtiyotkorlik, zukkolik va ayyorlik talab etilishiga nozik ishora berib turibdi.

**Siyosiy sharh** - biror ekspert (notiq) ning muayyan davrda ro`y berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni sharhlab, xulosalashtirib, bayon etib berishidan iborat. Siyosiy sharhlarni televide niye va radioda maxsus ko`rsatuvlardan orqali ko`rishimiz mumkin. Bunday nutqlarda ham tashqi, ham ichki siyosatga oid bo`lgan voqealar sharhanadi. Siyosiy sharh mamlakatning siyosiy bilimlarini oshirishga xizmat qiladi, ma'lum ijtimoiy-siyosiy jarayon haqida mutaxassis nuqtai nazarini bayon etadi.

**Harbiy-vatanparvarlik notiqlik** - eng qadimgi nutq turlaridan biri hisoblanib, jangovar ruhi, siyosiy keskin xarakteri va yuksak pafosi bilan ajralib turadi. Yaxshi sarkarda, qo`sish yoki harbiy qism boshlig`i aksariyat holatda doim yaxshi notiq bo`lishi talab etiladi. Umuman olib qaraganda, harbiy notiqlik askarlarning jangovorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Targ`ibot notiqligi** – nutqning bu ko`rinishi o`zining sodda, oddiy suhbatga yaqin, har bir auditorianing sharoiti va talabiga mosligi bilan xarakterlanadi. Bu nutqda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni xalq ongi va qalbiga yetkazishga yo`nalgan bo`lib, ushbu turdagiligi notiqlik hukumat va xalqni o`zaro yakdil maqsad yo`lida jipslashtirishga yordam beradi. Bu turdagiligi notiqlik agitatorlik nutqi yoki propaganda nutqi deb ataladi. Targ`ibot-tashviqot nutqi tinglovchilarni u yoki bu harakatni amalga oshirishga undaydi, pafos bilan xarakterlanadi, unda lozunglar (shiorlar) ga, hayotiy misollarda ko`proq e'tibor

qaratiladi. Ijtimoiy-siyosiy mazmundan tashqari, madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy-axloqiy mohiyat ham kasb etadi. Targ'ibot va tashviqotchilarining chiqishlari odatda, ma'lum bir masalalarni ommaga singdirish, omma ongidagi tushunmovchilik va chalkashliklarga barham berish, ularni to'g'ri yo'lga solish, omma uchun noma'lum bo'lgan holatlardan ularni xabardor qilish, ayrim narsa-hodisalar mohiyatini to'la ochib berish kabi vazifalar bilan bog'liq bo'ladi.

**Akademik notiqlik.** Bu barcha turdag'i ilmiy konferensiyalardagi, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyasi himoyalaridagi ma'ruzalar, bakalavr talabalari uchun bitiruv malakaviy ish hamda magistr talabalari uchun magistrlik dissertatsiyalari yuzasidan qilingan ma'ruza (axborot) larni qamrab oladi. Akademik notiqlik ilmiy nutq, ilmiy-ommabop nutq, ilmiy axborot va auditoriya notiqligi kabi nutq turlariga ajratiladi.

Akademik notiqliknинг quyidagi o`ziga xos xususiyatlari mavjud:

- Akademizm ya'ni ilmiylik;
- Yuksak talabchanlik;
- Aniq va kuchli argumentlar mavjudligi;
- Muayyan fan yoki ilm tarmog`iga tegishli ekanligi;
- Konkret ilmiy atamalar ishlatalishi.

**Ilmiy nutq** - ilmiy eksperimentlar va tadqiqotlarning xulosalari, gipotezalar bayoni bo`lib, ilmiy konferensiya, simpozium, ilmiy kengashlar, ilmiy seminarlarda nutqlar ilmiy nutqqa misol bo`ladi. Ilmiy notiqlikda tegishli fan yoki ilmiy yo`nalish doirasida ilmiy tortishuvlar ham bo`lishi mumkin. Ilmiy nutqning tinglovchilar auditoriyasi nisbatan tor va aniq bo`ladi, ilmiy nutq keng ommaga mo`ljallanmaydi. Sof ilmiy nutqning ilmiy-ommabop nutqdan asosiy farqi ham shunda. **Ilmiy-ommabop nutq** – fanning u yoki bu tarmog`idagi yutuqlarni keng ommaga yetkazish uchun qo`llaniladigan nutq turi bo`lib, u ilmiy bilimlar va notiqlik mahoratini umumlashtirishni talab qiladi. Ilmiy-ommabop uslubdagi notiqlik ommaning saviyasini oshirish uchun sof ilmiy uslubdagi tor auditoriya bilan munosabatga kirishadigan nutqlardan ko`ra ancha samaraliroq hisoblanadi. Ilmiy-ommabop nutqlar muayyan talablarga javob berishi, ya'ni har bir ma'ruza ilmiy asosga va g'oyaviy yo`nalishga ega bo`lishi, aniq dalil va hujjatlarga asoslanishi masalani tarixiy jarayonga bog'liq holda yoritishi, qiziqarli va ixcham bo`lishi shart.

**Auditoriya notiqligi** – universitet, institut, kollej talabalari hamda litsey va maktab o'quvchilari uchun dars ma'ruzalarini o'z ichiga oladi. Auditoriya notiqligi tarkibiy tuzilishiga ko`ra ilmiy-ommabop uslubga yaqinroq bo`lishi talab qilinadi. Bunday notiqlik turiga o`qituvchi-professorlar, olimlarning darslari misol bo`la oladi. Auditoriya notiqligida har bir nutq ta'sirchan, mazmunan yuksak bo`lishi zarur. Auditoriyada har bir notiq o`ziga xos tushuntirish tilini ishlab chiqishi,

ishlatilishi mumkin. Auditoriya notiqligining yana bir o`ziga xos xususiyati shundaki, bu notiqlikda notiq o`z nutqini tinglovchilarning saviyasiga moslashtirishi kerak bo`ladi.

**Ilmiy axborot** – akademik notiqtikning bu ko‘rinishi avval qilinayotgan ishlar haqida muayyan darajadagi mutaxassis, javobgar va rahbar shaxslarni xabardor qilishni ko‘zda tutadi.

**Sud notiqligi.** Sud notiqligi notiqlik san’atining qadimgi turlaridan hisoblanadi. Qadimgi yurist (faqih)lar orasida o‘z nutqi, notiqlik mahorati bilan mashhur bo‘lgan so‘z san’atkorlari ko‘p bo‘lgan. Mashhur sharq faqih notiqlaridan biri qozi al-Harbavayxiy shu qadar katta e’tiborga ega bo‘lganki, hatto yurtning amiri har kuni ertalab kelib uni ziyorat qilib ketgan.

Sud notiqligi bir necha turga bo‘linadi:

**Qoralovchi nutqi** o‘zining muayyan shaxs yo bir guruhi kishilarining aybini bo‘yniga qo‘yish, o‘zi xizmat qilayotgan ijtimoiy tuzum manfaatini yoqlab, shu tuzum yo davlat siyosatiga qarshi bo‘lgan, qonun-qoidalarga rioya qilmagan fuqarolarni qoralash ruhi bilan xarakterlanadi.

**Jamoatchi qoralovchi nutqi.** Agar davlat prokurori chetdan kelgan kishi sifatida bu ishga aralashsa, jamoatchi qoralovchi jinoyat ishtiropchilari bilan yonma-yon turib, bir jamoada ishlagan bo‘lishi mumkin. Jinoyatchi tarjimai holini jamoatchi-qoralovchi prokurorga qaraganda ko‘proq bilishi tabiiy. Shu yo‘l bilan uning jinoyatini oydinlashtirishi mumkin.

**Oqlovchi nutqi.** Oqlovchi chinakam begunoh odamni emas, balki aybi bo‘lgan jinoyatchini oqlashga urinadi. Uning gunohidan o‘tishni talab qiladi.

**Jamoatchi-oqlovchi nutqi.** Sudlanuvchining gunohini yengillatish, ularning to‘g‘ri yo‘lga tushib olishlari uchun ko‘maklashishga qaratilgan bo‘ladi. Bu toifadagi notiqlar muayyan jamoa nomidan so‘zlaydilar.

**O‘z-o‘zini himoya qilish nutqi** – sud notiqligining tarkibiy qismi. O‘z-o‘zini himoya qilish nutqi siyosiy mavqega ega bo‘lgan jarayonlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday jarayonlarda o‘z-o‘zini himoya qilish nutqi ko‘pincha siyosiy hukm chiqarish, ijtimoiy illatlarni ro‘y-rost ochib tashlash darajasiga ko‘tarilib ketadi.

**Ijtimoiy-maishiy notiqlik** – bunga turli tadbir va yig‘inlarda, yubiley tantanalarida so‘zlanadigan qisqa va lo‘nda nutq yoki suhan so‘zlar kiradi. Kundalik turmush bilan bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p yig‘in va marosimlar borki, ularda notiqlik san’atining o‘ziga xos ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-maishiy notiqlik notiqliknинг xalqqa eng yaqin ko‘rinishi hisoblanadi. Ijtimoiy-maishiy notiqlik madhiya yoki yubiley-maqtov nutqlari, ta’ziya va motam nutqi, o‘rtakashlar nutqi, sahna nutqi, teleradiojurnalistlar nutqi, qadah so‘zi (tost) kabi notiqlik turlarini o‘zida birlashtiradi.

**Madhiya yoki yubiley-maqtov nutqlari.** Bu nutqning bir ko‘rinishi muayyan shaxslar xizmatini tavsiflashga bag‘ishlansa, boshqa biri obyekt madhiyasiga bag‘ishlanadi. Birinchi ko‘rinishdagi madhiyalar jumlasiga tarixiy siymolar (Navoiy, Jomiy, Shekspir, Nyuton) davlat arboblari haqidagi ta’riflar kirsa, ikkinchisiga Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyi yoki shu kabi yuzlab obyektlar bilan bog‘liq nutqlar kiradi.

**Ta’ziya va motam nutqi** ham jahoning ko‘pchilik xalqlariga mansub bo‘lgan nutq ko‘rinishlaridan biridir. O‘rta Osiyo xalqlari orasida ta’ziya nutqlarning saj’ (qofiyali nasr) va she’riy shakllari mavjud. Ular o‘zining yozilishi, ta’ziya bildiruvchi shaxslarning fazilatlarini yorqin ocha olishi kabi xususiyatlari tufayli go‘zal va dilkash hisoblanadi. Ana shunday ta’ziyalarning namunasi sifatida Alisher Navoiyning o‘z ustozi Abdurahmon Jomiy vafotiga bag‘ishlagan marsiyasini ko‘rsatish mumkin. Ta’ziya nutqlarining juda ta’sirchan, mazmunan teran namunalarini O‘rta Osiyo xalqlarining madaniy xazinasidan ko‘plab keltirish mumkin.

**Tabrik nutqi** ham qadimdan mavjud bo‘lgan an’anaviy nutq ko‘rinishlaridan biri.

Tabrik nutqlari 2 xil bo‘ladi:

- rasmiy-diplomatik tabrik;
- kundalik-maishiy tabrik.

Rasmiy-diplomatik tabrik, odatda, davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan anjumanlarda davlat rahbarlari, yirik siyosiy arboblar tomonidan so‘zlanadigan nutq bo‘lib, mazmun jihatdan tabrik bilan birga xalqaro ahvolga, turli mamlakat va davlatlarning o‘zaro munosabatlariga doir masalalarni yoritishga bag‘ishlangan bo‘ladi. Kundalik-maishiy tabrik jumlasiga ziyofatlardagi tabrik nutqlari, to‘yhashamlardagi muborakbodlar kabi nutqlar kiradi.

**Sahna notiqligi** (kino, teatr aktyorlari, konsert boshlovchilari yoki konsertni olib boruvchi aktyorlar nutqi) – bu og‘zaki notiqlikning alohida turi hisoblanib, tinglovchi tomoshabinlar uchun umumtushunarli bo‘lgan adabiy tilda, chiroyli talaffuz orqali amalga oshiriladigan nutqdir. U yana boshqa nutqlardan dialogik xarakteri bilan ham farqlanadi. Har bir nutq turlari o‘ziga xos mas’uliyatni talab qiladi va o‘ziga mos auditoriyani “tanlaydi”. Masalan, bayramlarda kadr ortidan matnni o‘qib turuvchi suxandon akademik ma’ruzada qiynalishi mumkin yoki aksincha.

**Teleradiojurnalistlari notiqligi** – bunda ko‘rsatuvi yoki eshittirish olib borayotgan jurnalist adabiy tilda omma uchun tushunarli bo‘lgan zaylda nutq so‘zlashi, so‘zlarni aniq va ravshan ohang bilan talaffuz etishi muhim. Shuningdek, fakt va voqealarni bayon etishda, o‘z nutqida qaytarqlarga yo‘l qo‘ymasligi uchun oldidagi matndan foydalanishi yoki uni mukammal o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim.

Til, nutq hamda yozuv o‘zaro bir butunlikni hosil etibgina qolmay, og‘zaki va yozma nutqning asosiy manbai hamdir. Nutqiy bo‘linishlar sirasidan o‘rin olgan telenutq va radionutq ommaga muayyan tilning jozibasi va boyligini namoyon etuvchi, yetkazuvchi asosiy vositalardandir.

**To‘y, “o‘rtakash”lari notiqligi** – bu holatda “o‘rtakash”ning notiqligi uning bilim saviyasi bilan bog‘liq. Bu notiqlikning asosiy xususiyatlari bazmning mazmunidan kelib chiqishi, tadbirni mohirlik bilan boshqarish zaruriyati, “bayram ruhiyati”ni ushlab turish kabilar hisoblanadi. Ba’zi “o‘rtakash”larning gaplari tuturuqsiz, ba’zilari ma’noli notiqlik bilan to‘yni boshqaradi.

**Diniy va’zxonlik (notiqlik)** – bunga namoz jum’ada, amri-ma’rufda imom tomonidan qilinadigan ma’ruzalar kiradi. Diniy notiqlik islom dinida xutba hamda va’z, xristian dinida propoved va sobordagi nutq deb aytildi. Islom dini bilan bog`liq bo`lgan notiqlikning juma namozida imom vazxonligi (xutba) va amri ma’rufdagi notiqlik kabi turlari farqlanadi.

**Xutba** musulmon sharqida keng tarqalgan diniy nutq ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, uzoq tarixga ega. Xutba nutqi juma va hayit namozlarida, shuningdek, boshqa katta marosimlardagi nutqdir. Shu rasmiy nutqni so‘zlovchi notiq-arbob xatib deb ataladi. Xutba nutqining diniy, axborot xususiyatlaridan tashqari axloqiy jihatni ham mavjud. Xutba nutqlari quruq rasmiy tilda emas, hikoyat, rivoyat, sarguzasht va boshqa inobatli, ayni paytda qiziqarli, ko‘rgazmali materialllar bilan asoslangan holda so‘zlanadi. Bu esa xutba nutqlarining ritorik va estetik-badiiy qiymatini oshiradi.

Xutba nutqlari kompozitsion jihatdan aniqlikka egaligi bilan diqqatga sazovordir. Har bir xutba tarkiban quyidagi qismlardan iborat bo‘ladi:

1. hamd va na’t (Alloh taolo va payg‘ambar (s.a.v.) sha’niga madhiya);
2. xutbayi avval (diniy pandlar);
3. xutbayi soniya (axborot);
4. xulosa.

**Amri ma’ruf va’zlari** diniy notiqlikka mansub ikkinchi nutq ko‘rinishidir. Va’zlar asosan keng ommaga mo‘ljallanganiigi uchun xutbaga ko‘ra ancha erkin. Badiiylik va estetik emotsiyal tasirchanlik, tilining sodda va ravonligi bilan xutbadan farq qiladi.

Bularga qo‘srimcha notiqlikning yana bir qancha mayda turlariga – og‘zaki suhbat, bahs-munozara, suhbat-seminar, oilada va do‘st-tengqurlar orasidagi notiqlik ham kiradi.

Notiqlik san’atining shakllari ham mavjud bo‘lib, bular – monologik va dialogik notiqlik hisoblanadi. Monologik notiqlikka ma’ruza, muzokara kabilar kirsa, dialogik notiqlik – bahs-munozara, debatlar, suhbat kabilarni qamrab oladi.

Notiq monologik nutqda tayyor matndan foydalanish imkoniyatiga ega, biroq dialogik notiqlik bundan mustasno. Buning ustida munozara va bahs jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan omillarga qat’iy amal qilish talab etiladi. Bular quyidagilar: milliy-madaniy qoidalarga amal qilish, milliy etikaga rioya qilish, raqibining gapini bo‘lmaslik, suhbatdoshga hurmat, reglamentiga rioya qilish, eng muhimmi, sabrli, bardoshli bo‘lish, o‘zini tuta bilish, tiliga to‘g‘ri kelgan har bir so‘zni aytishdan o‘zini tiyish, har bir so‘zni o‘ylab gapirish, ya’ni “yetti o‘lcha bir kesish”.

Shuni alohida aytish kerakki, notiqlik faqat chiroyli so‘zlarni qo‘llay olishdangina iborat emas, balki notiq so‘zning ta’siri, uning ijtimoiy ahamiyatiga ham katta e’tibor berishi kerak. Zero, notiqning saviyasi, iqtidori, salohiyati va insoniyligi u so‘zlagan matnning nechog‘li ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Qadimgi notiqlik turlarining tasnifi
2. Qadimgi Yunonistonda notiqlik turlari
3. Sharq mamlakatlarida notiqlikning turlari: dabirlik, xatiblik va muzakkirlik
4. Zamonaviy notiqlikning ko‘rinishlari

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. Encyclopedia of Rhetoric. Oxford University Press, USA. 2011.
2. Muhammadjonova L.A. Ritorika. T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2019.
3. Бекмирзаев Н. Нотиқлик санъати асослари. –Тошкент: Янги нашр, 2008.
4. Ҳусанов Б. Ғуломов В. Муомала маданияти. Дарслик. –Тошкент: Iqtisodmoliya, 2009.
5. Marcus Tullius Cicero. Rhetorica ad Herennium. 2009.
6. Kenneth Burke. A Rhetoric of Motives. 2012.
7. Мухаммаджонова Л.А. Нотиқлик санъати. Услубий қўлланма. –Тошкент: ЎзМУ, 2008.
8. Апасту. Риторика. –Тошкент: Yangi asr avlod, 2011.

## **NOTIQNING NUTQ MADANIYATI**

### **REJA**

1. Nutq tushunchasi. Nutqning mazmuni
2. Notiqlik san’ati fanining asosiy tushunchalari
3. Nutq uslublari va notiqlik san’atida uslubiyat

#### 4. Yozma muloqot vositalari. Yozma nutqning zamonaviy muammolari

**Tayanch so‘zlar: Nutq, to‘g‘ri nutq, yuqori nutq madaniyati, nutq uslubi, verbal, noverbal, nutq mazmuni, uslublar, so‘zlashuv uslubi, badiiy uslub, ilmiy uslub, rasmiy uslub, publistik uslub.**

##### **1. Nutq tushunchasi. Nutqning mazmuni.**

Ma’lumki, madaniy meros, ya’ni o‘tmish davrlar madaniyati keyingi avlodlar madaniyatiga asos bo‘lib, uni rivojlantiradigan qismi hisoblanadi. Shu jihatdan olganda mustabid davrida qadrsizlantirib yuborilgan insonparvarlik axloqi xalqlarimizningadolatsizlarcha va takabburlarcha nazardan chetda qoldirilgan o‘tmishi, ilg‘or axloqiy merosining yutuqlari, qadriyatları, afzalliklari bilan boyitilishi ayniqa muhim.

San‘atning eng qadimiy turlaridan biri notiqlikdir. Tinglovchilarga biror narsa-hodisani tushuntirish, isbot etish yoki ularning hissiyotiga, tushunchasiga ta‘sir qilish niyatida so‘zlangan nutq notiqlik faoliyatiga kiradi. Bu hodisani san‘at darajasiga ko‘tara olgan kishi haqiqiy notiqlikdir.

Til boyligidan mohirlik bilan foydalana olish, o‘sha boylikni nutqning g‘oyaviy mazmuniga moslab qo‘llay bilish nutq madaniyatidir.

Nutq – inson tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish, avlodlarga uzatish yoki aloqa o‘rnatish, o‘z shaxsiy xarakterlarini rejulashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni. Nutq axborot, xabar, ma’lumot va yangi bilim berish, aqliy topshiriqlarni yechish faoliyatidan iborat. Agar til aloqa vositasi bo‘lsa, nutq aynan shu aloqa jarayonlarini amalga oshirilishidir.

Rim notiqlik maktabining yana bir buyuk vakili Mark Fabiy Kvintiliandir. U o‘zining «Notiq bilimi haqida» kitobida bilimdonlikni notiqliqning birinchi sharti qilib qo‘yadi. Kvintilian notiqlikka doir bilimni juda yoshlikdan o‘rgana borish kerak, deydi. Nutqning tinglovchi uchun tushunarli bo‘lishiga katta ahamiyat beradi. U: «Sen shunday so‘zlaginki, seni har bir kishi tushuna olsin», - degan edi.

Uzoq davrlardan buyon kishilarning o‘zaro munosabatlarida, ular bir-birlarini tushunishlarida, fikr almashishlarida nutq, nutqiy munosabatlar hamisha muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bugun zamon talabiga mos ravishda tilning kommunikativ-funksional tamoyiliga asosan nutqiy faoliyatga e’tibor kuchaydi. Nutqiy faoliyat til va nutq dialektikasiga muvofiq tarzda ro‘yobga chiquvchi hodisa bo‘lib, uning har qanday turi so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat vositasi hisoblanadi.

Xullas, qadimgi Yunoniston va Rimda madaniy notiqlik nazariysi rivojlantirildi. Bu nazariya keyinchalik Yevropada nutq madaniyatiga bag'ishlangan fanning maydonga kelishiga asos bo'ldi.

Nutqning mohiyati uning madaniyligi, ommaviyligi va ijtimoiy qimmati bilan belgilanadi. «Madaniy nutq», «nutq madaniyati», «notiqlik» degan iboralar bor. Nutqning xarakteri anashularning mohiyatini bilish bilan izohlanadi. Ularning lingvistik birlik sifatida o‘z xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular insonlarning o‘zaro fikr almashishdagi nutqiy jarayonning bosqichli shakllari deyish mumkin. Anashu shakllar to‘g‘ri nutq, nutq madaniyati – notiqlikdir.

**To‘g‘ri nutq** - hozirgi adabiy til meyorlariga rioya qilib tuzilgan nutqdir.

**Yuqori nutq madaniyati** - fikrlarni til vositalari bilan to‘g‘ri, aniq va ta’sirchan qilib bera olish mahorati. Notiqlik esa og‘zaki nutq madaniyatining yuqori darajasi, yetuk nutqiy san’atdir. Nutq madaniyati aslida, adabiy til mezonlari asosidagi, nutqiy faoliyat, nutqiy malaka, nutqiy ko‘nikma birligidan iborat. Adabiy tilsiz nutq madaniyatini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Adabiy til nutq madaniyatining to‘g‘ri so‘zlash va yozishning o‘lchovi va mezonidir.

Nutq madaniyati, nutqiy mahorat va notiqlik san’atiga doir qator ilmiy ishlar muallifi, zamonamizning ajoyib notig‘i Rahimboy Jumaniyozov nutqiy faoliyatning bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi, o‘ziga xos turlari hamda og‘zaki nutq va yozma nutq haqida talaygina ijobiy fikrlarni bayon etadi.

Ma’lumki, so‘z va nutq vositasida yakka shaxs va jamoa bilan muomalada bo‘lishga qaratilgan ixtisosliklar ibtidoiy ko‘rinishlarda bo‘lsada, qadimdan mavjud. Hozirda esa uning rang-barang, zamonaviy texnika vositalari orqali muloqotda bo‘lish shakllari ommalashib bormoqda. Garchi shunday esa-da, so‘z, nutq ijtimoiy til birliklariga munosabat hamma davrlarda bir xil bo‘lgan. Ajdodlarimiz, so‘zni, nutqni ilohiy ne’mat, hikmat deb qarashgan. Uni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llay bilish nozikta b notiqlarga, suhanvarlarga nasib etgani rost. Yurtboshimizning Oliy Majlis minbaridan turib, «O‘z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin» - deb ta’kidlashlari bejiz emas. To‘g‘ri ta’kidlanganidek, gap so‘zning soni yoki sifatida emas, balki ularni bilish va o‘z o‘rnida qo‘llay olishdadir.

**Nutq** — tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og‘zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya’ni so‘zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.

Pauza, mantiqiy urg‘u, temp, membr, chastota, ritmika va boshqa tashkiliy qismlar hamda mexanizmlar o‘zida mujassamlashtirilgan, tilning barcha qoidalari,

qonunlari, shartli belgilar sifatida xizmat qilishga asoslanuvchi nutq turi og‘zaki nutq deb ataladi. Og‘zaki nutq jarangdorligi, ta’sirchanligi, axborotlarni qabul qilishdagi qulayligi, uzatishdagi ixchamligi, toliqishning oldini olish imkoniyati mavjudligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Millat madaniyati, ma’naviyati, fan va texnikasi yutuqlari, san’ati va adabiy merosini avlodlarga yetkazib berishda, millatlararo aloqa o‘rnatishda yozma nutqning ahamiyati beqiyosdir.

Jahonga Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiylarni bergen Movarounnahr allomalari orasida munosib o‘ringa ega bo‘lgan Muhammad Abu Homid G‘azzoliy o‘zining «Ixyou ulumid-din» asarining «Hasad mazammati bayoni»da xat va noma orqali hasadning axloqiy illat ekanligini bir rivoyat orqali ko‘rsatib bergen edi. Rivoyatda keltirilishicha, podshohning oldiga kelib yuradigan bir kishi doimo unga «Senga yaxshilik qilganga yaxshilik qil, yomonlik qilguvchiga esa yomonlik qilma, chunki qilgan yomonligi o‘ziga qaytgusidir» der ekan. Bu kishining podshoh huzuridagi obro‘-e’tiboriga bir kimsaning hasadi kelib, uni podshohga yomonlaydi: «U odamlar orasida «Podshohning og‘zi badbo‘y» degan gap tarqatib yuribdi. Agar so‘zimga ishonmasangiz uni oldingizga chaqirib yaqinroq gapiring, shunda u og‘zini berkitadi» deb ig‘vo qiladi. Hasadgo‘yning gapiga ko‘ra, podshoh uni huzuriga chorlaydi va unga yaqinroq turib gapiradi. Bir kun oldin to‘yib sarimsoqpiyoz yegan xaligi odam, o‘z og‘zidan kelayotgan sassiq bo‘ydan uyalib og‘zini berkitadi, podshoh ig‘vogarning gapi «haqiqat» ekanligini anglaydi.

Bu shohning shunday odati bor edi: birovga hadya yoki mukofot bermoqchi bo‘lsa, unga o‘z qo‘li bilan xat yozib berardi. Bu gal ham huddi shunday qildi. Podshoh «Xatimni olib borgan kimsani so‘yib, terisini shil va ichiga somon tiqib mening oldimga jo‘nat» degan mazmunda noma bitib, xatni u kishining qo‘liga tutqazadi. Xat esa taqdir taqazosi bilan hasadgo‘yga hadya qilinadi va yaxshi odam qolib hasadgo‘y o‘limga mahkum bo‘ladi.

Garchand qayg‘uli bo‘lsada ushbu rivoyatni keltirishimizdan maqsad shuki, noma va maktublar madaniy inson kashf etgan muloqotlarning eng go‘zal, eng ta’sirchan va eng qulay vositasidir. Sharqda noma yozish Yevropadagidek keng urf bo‘lмаган, lekin Sharq adabiyoti nomaning go‘zal shakllarini yaratgan. O‘rtal Osiyo adabiyotlarida nomalar garchi mustaqil janr sifatida shakllangan bo‘lsa-da, lekin umuman yozishmalar oddiy xalq o‘rtasida keng tarqalmadi. Noma, maktub va yozishmalarining jahon adabiyotida xususan Sharq adabiyotidagi mavqeい xususida g‘oyatda e’tiborli fikrlarni ilgari surgan adabiyotshunos olim I.G‘afurov deydiki, «Yozishmalar ham davrlar, ham davr odamlarining qiyofalarini kelajak nasllar oldida ravshan qiluvchi shahodatlardir. Xatlarda yozuvchi, ijodkor, uning shaxsi ichki dunyosi shakllanadi. Sharq adabiyotlari bu shahodatning inson

hayotida qanchalar muhimligini hammadan ilgari angladi. Yozishmalarni asarlar ichiga turli shakllar va turli mundarija yo‘nalishlarida olib kirdi».

Maktub madaniyati – yozuv madaniyati, yozma madaniyatning bebah bo‘lagi. Maktub madaniyati e’tiborsiz joylarda yozma adabiyot quloch yozib rivojlanmagan bo‘ladi. Maktub avvalo fikrlashga, atrofga razm solib qarashga, yaxshi-yomonni tanishga, har narsaga mustaqil baxo berishga , o‘z fikriga ega bo‘lishga, kuzatuvchanlikka o‘rgatadi. Shular barobarida maktub yozish inson ijtimoiy faolligining eng yorqin ko‘rinishlaridan biridir.

**Og‘zaki nutq yozma nutqqa nisbatan ancha faol, jonli jarayon. Og‘zaki nutq qo‘llanish usuliga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:**

1. *Oddiy so ‘zlashuv nutqi*. Bu kundalik hayotimizda o‘zaro muomala jarayonida ishlatiladigan nutq.

2. *Adabiy so ‘zlashuv nutqi*. Bu muayyan shaxslar doirasida tilning meyoriy me’zonlarini qo‘llash orqali ro‘yobga chiqadi.

Og‘zaki va yozma nutqning o‘zaro bog‘liqligi ularning shakllanish jarayonidagina emas, balki taraqqiy etishida, sayqal topishida ham muqimdir. Notiq aytmoqchi bo‘lgan fikrini, maqsadini to‘laligicha bo‘lmasa-da, maqsadining homaki, qoralamasini, qog‘ozga tushiradi, rejalashtiradi. Nimadan nimaga o‘tish, qancha to‘xtalish, nimalarni aytish yoki aytmaslik haqida chizgilar notiq so‘zlayotgan paytda ham uning ko‘z oldida huddi qog‘ozdagidek hayoliy su’rati namoyon bo‘lib turadi. Aks xolda nutq meyori buzilib, vaqt cho‘zilib ketishi, notiqni auditoriya yaxshi qabul etmasligi mumkin.

Muloqot vositasi kommunikatsiya nutqiy (og‘zaki va yozma), paralingvistik (tovush oxangi, gap tezligi, ovoz tembri), kinetik (hatti-harakat, mimika, harakatning boshqa shakllari) va narsa belgili (haykal, rasmlar) vositalar tarzida amalga oshiriladi. Nutqiy malakaga, ko‘nikmaga ega bo‘limgan o‘qituvchi yoki talaba tilimizning sofligini ham, boyligini ham namoyish eta olmaydi. Chinakam notiq nutq texnikasi - ovoz, nafas, to‘xtalish, oxang kabi nutqning ifoda vositalari, mashqiy jarayon bilan chegaralanib qolmasdan balki nutqiy mahorat nutqiy faoliyat qirralarini egallahsga intilishi, nazariy ma'lumot va amaliy mashg‘ulotni uyg‘unlashtira olishi zarur. Ifodali o‘qish matn mazmunini yetkazishga daxldor texnik va nazariy vositalarni bilish va unga amal qilish har doim ahamiyatlidir.

## **2. Notiqlik san`ati fanining asosiy tushunchalari**

Zamonamizning e’tiborli notig‘i Rahimboy Jumaniyozov o‘zining «Nutqiy mahorat» nomli risolasida notiq va voiz tushunchalari bir xil ma’noga ega emasligi, ular mohiyat e’tibori bilan alohida san’at ekani, ularning bir-biridan farq qiluvchi tomonlari haqida ta’kidlaydiki, «Notiqlik qo‘llanish o‘rnii, mavzu doirasi va ma’no qamrovi jihatidan birmuncha keng. Voizlik ham nutqiy mahorat orqali

o‘z ro‘yobini ko‘rsatadi. Unda diniy, didaktik va hayotiy mazmun ustuvorlik qilgan, notiqlik dunyovilik bilan hamma davr va makonlarda har xil g‘oya va maslaklarga xizmat qilgan. Shunday ekan, voizlik notiqlikning bir ko‘rinishi degan fikr haqiqatga yaqin».

**Notiq** - nutq so‘zlovchi; gapga chechan, gapga usta, so‘zamol.

**Voiz** (arab.) — jamoat oldida nutq so‘zlovchi, voizlik bilan shug‘ullanuvchi kishi, professional notiq. Voizlar chuqur bilim, yuksak madaniyat va maxsus ijrochilik salohiyati (chiroqli va ta’sirchan ovozi, aniq va ravshan talaffuz, o‘z zamonasi uchun yetakchi tillarni mukammal bilish va b.) ga ega bo‘lgan. Musulmon sharqining yirik olimlari, din arbobi, adib va boshqalar ko‘pincha yetuk voizlar ham bo‘lganlar. Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Husayn Voiz Koshifiy, Mavlono Muin Voiz Hiraviy, Bahouddin Valad, Jaloliddin Rumiy, 20-asrda mufti Ziyovuddinxon Eshon Boboxon o‘g‘li va b. so‘z qudrati va jonli nutq san’ati bilan o‘z zamonasining mashhur voizlari bo‘lganlar.

Agar o‘xshatishimiz o‘rinli bo‘lsa, bugungi kunda voiz-va’zxon ataluvchi kishilar diniy bayramlar va marosimlar – Ramazon va Qurbon hayitlari, Amri ma’ruf, Mavlud an-nabiy, Xatmi Qur’on kabi islomiy marosimlarda diniylik bilan zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan xolda ilm, ma’rifat, shariat va axloq masalalariga doir mavzular asosida suhbat quruvchilardir.

Voizlik san’atiga suxandonlik san’ati yaqin turadi. Suxandonlik mohiyatan so‘z ustasi, so‘zga chechan degan ma’nolarni anglatadi va u direktor so‘zidan farq qiladi. Xalqimiz O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist O’tkir Sidiqovni suhandon, so‘z ustasi sifatida qadrlaydi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Nasiba Ibrohimovani esa mohir direktor sifatida yaxshi ko‘radi.

**Suxandon** - bu ot tojik tilida “nutq” ma’nosini anglatadigan suxan otiga “bil” ma’nosini anglatadigan donistan fe’lining don hozirgi zamon asosini qo‘sib hosil qilingan bo‘lib, “gapga chechan”, “notiq” ma’nosini anglatadi

Amir Unsurulmaoniy Kaykovus «Qobusnama» asarining «Suxandonlik bila baland martabali bo‘lmoq zikrida» deb nomlangan yettinchi bobda suxandonlikning mohiyati, zarurati, shartlari va xususiyatlari bilan bog‘liq muhim fikrlarni ilgari suradi. Suxandonlikning muhim shartlari – rostgo‘ylik hamda nomaqbul rostni aytishdan tiyilishda, so‘zni g‘oyatda ulug‘ligini xis qilish hamda so‘zni uvol qilmaslikda, so‘zning o‘rnida qo‘llay olish hamda undan oqilona foydalinishda deb biladi.

Kaykovusning fikridan xulosa qiladigan bo‘lsak, suhandon nafaqat chiroqli so‘zlashi, balki ma’naviy-axloqiy jihatdan ham tarbiyali bo‘lishi zarur.

**Diktor** (lot. dictor — so‘zlovchi) — radio va televiedeniye da mikrofon oldida, telekamera qarshisida tayyor matnni o‘quvchi shaxs. Diktor xushovoz

bo‘lishi, diksiyasi kuchli va til nor-malarini puxta bilishi zarur. Diktorlikka nutqi, ovozi, qobiliyatiga qarab tanlov yo‘li bilan qabul qilinadi.

Ritorika— ijtimoiy xayotning barcha jabxalari uchun xizmat qiladi. Buni hech kim inkor qila olmaydi. Nutq uslublari aloqaning maqsadga muvofiq so‘zlovchining so‘z boyliklaridan tanlab foydalanishi tufayli nutqning tarixan shaqlangan ko‘rinishidir. Til boyliklarini tanlab ishlatishga qarab nutq ko‘rinishlari bir qancha turga ajratiladi. Ana shu hilma-hilik nutq usullari (stillar) deb ataladi. Usullar – u shunday quroqlik undan to‘g‘ri foydalana olgan notiq juda katta muvoffaqiyatlarga erishadi. Nutq tarixiy tarqqiyot protsessida, ong bilan birga, insonlarda til vositasi bilan aloqa bog‘lash, bir-birlariga biror narsani aytish ehtiyoji tug‘ilishi natijasida paydo bo‘lgan. Nutq – tilning taraqqiyoti, tafakkur taraqqiysi bilan birga rivojiana boradi. O‘z nutqini to‘g‘ri tashkil eta bilish notiqlik san’atini egallashning muhim shartlaridan biridir. Yaxshi notiqning nutqi hamisha mazmunli, tushunarli, ifodali va ta’sirchan bo‘ladi. Nutqni to‘g‘ri tashkil eta bilish buyuk notiqlar tajribasini o‘rganishdan tashqari nutq madaniyatini uqib olishni talab etadi. Nutq madaniyati quyidagi ko‘rinishlarga ega:

Nutqning til madaniyati;

Nutqning psixologik madaniyati;

Nutqning aloqa madaniyati (kommunikatsiyasi)

Nutq vositasi bilan aloqa bog‘lash insonning doimiy ehtiyoji bo‘lib, bu aloqa fikr olishuvga xizmat qiladi. Notiq nutqining ta’sirchanligida intonatsiyani ahamiyati katta. Notiq tinglovchilarga tabiat va turmushdagi biror hodisaga, narsaga qiziqish paydo qilish, nutq qaratilgan predmetning xususiyatlarini ularga to‘laligicha yetkaza bilish uchun nutqga talaffuzga alohida e’tibor berish lozim.

Intonatsiya stilistik ahamiyatta ham egadir. Jumladan, intonatsiya odatdagagi va notiqlik intonatsiyasiga bo‘linadi. Odatdagagi intonatsiya umumiy xarakterga ega bo‘lib, kishilarning bir - birlari bilan nutqiy aloqalarida, bir - birlarini anglab yetishlarnda ko‘llanilsa, notiqlik intonatsiyasi notiq nutqining tinglovchilar ongiga ta’sir etishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Nutqning til madaniyati lug‘at madaniyatini egallashni talab etadi. Bunda notiqning individual lug‘ati faol ravishda kengayib borishi, nutq so‘zlarining to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolari ahamiyatining ortib borishi ko‘zda tutiladi. Sinonimlar, omonimlar va antonimlardan to‘g‘ri foydalanish, terminlar va ularni to‘g‘ri tadbiq eta bilish, chet el so‘zlarini va qisqartirilgan, murakkab so‘zlarini bilish hamda ularni o‘z o‘rnida ishlatish lug‘at madaniyatini egallashning muxim shartidir. Tilda bo‘lgan hamma so‘zlarning jami lug‘at sostavi deb ataladi. Qaysi tilning lug‘at sostavi benihoya boy va hilma - hil bo‘lsa, bu til rivojlangan til bo‘ladi. Har bir notiq foydalanayotgan va foydalanishi mumkin bo‘lgak lug‘at

sostavi qanchalik boy va tarakkiy qilgan bo‘lsa, uning individual lug‘ati va nutqi ham shunchalik boy va taraqqiy qilgan bo‘ladi.

### **3. Nutq uslublari va notiqlik san’atida uslubiyat**

Og‘zaki nutqning stilistik madaniyati tinglovchilarga ta’sir etishning ma’lum vositasidir. Odatdagi nutqlar:

So‘zlashuv uslubi

Ilmiy uslub

Badiy uslub

Rasmiy uslub

Publistik uslub orqali auditoriyaga yetkaziladi.

**So‘zlashuv uslubi.** Bu usul leksikasi, fonemasi, morfologiyasi va sintaksisi bilan xalqning oddiy so‘zlashuv tilini o‘zida aks ettiradi. So‘zlashuv uslubi uchun oddiylik, soddalik, betakalluflik, hayajonlilik hosdir. So‘zlashuvda odatda kundalik muomalada, muloqotda ko‘p ishtirok etadigan, o‘zaro turmush ikir - chiqirlari haqidagi munosabatlarni ta’minlaydigan, kundalik aloqa - aralashuv uchun xizmat qiladigan til birliklari ko‘p uchraydi : xol - axvol so‘rashlarda, o‘zaro samimiy aloqalarda, uy - ro‘zg‘or, qo‘ni - qo‘shnichilik, qarindosh - urug‘chilik aloqalarida, kundalik suhbatlarda uchraydigan birliklardan ko‘p foydalaniladi: mayli, mayliga, xo‘p, kirib turnig, chikib to‘ring, so‘rab qo‘ying, salomat bo‘ling, xudoga shukur, qoyil, boravering, yashavoring, omon bo‘ling, barakalla, o‘rgilay, aylanay, ishqilib, bo‘ptida, keling, ishlab turibmiz, salom ayting, zang‘ar, qurg‘ur, qotirib tashladik, qo‘yavering kabilar ko‘p uchraydi.

So‘zlashuv uslubidagi og‘zaki nutqda ba’zan yozma nutqka, shevaga, vulgarizm va boshqalarga hos va so‘z shakllarining ta’siri bo‘ladi. Bu xususiyat ancha yashovchandir. Har bir sheva vakili jonli so‘zlashuvda o‘z shevasida gapirishga odatlanib qolgan bo‘ladi.

Boshqa tillarga oid, kundalik turmush bilan bog‘liq bo‘lgan lug‘asiy birliklar so‘zlashuvda ko‘p uchraydi. Va aksariyat xollarda u orqali ikkinchi tilga o‘zlashadi (M: ostanovka, tolka, privet, daje, ladno, dom kabilar).

So‘zlashuv nutqida samimiylilik, xalqchillik, soddalik, erkinlik ancha kuchli bo‘ladi. Ana shunga ko‘ra so‘zlar adabiy til meyorlaridan farqlangan xolda qo‘llanadi: olib kel - obke, ko‘yib yubor - ko‘yvor. Nutq jarayonida so‘zlarni, gaplarini, qisqartirgan xolda ko‘llash ham xarakterli bo‘ladi. Dilfuza - Dilfuz, Xa!, yo‘q!, Albatta! Vaziyat suhbatdosh uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bu xolatda suhbatdoshlarning imo - ishoralari, harakatlari, ovozning kuchayishi va pasayishi, to‘xtatish, sukutlar, qisqasi har bir holat muhim o‘rin tutadi.

**Rasmiy uslub.** Bu usul rasmiy xujjalalar til xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi- e`lonlar, qonunlar, sud va davlat idoralari xujjalari shu

uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma'lumotnama, chaqiruv qog'ozi, taqlifnama, shartnama, tarjimaiy xol, e'lon, adres, tavsifnama. hisobot kabi xujjalalar ham rasmiy uslubda bo'ladi. Bunday uslubdagi xujjalalar qisqa, aniq va barcha uchun tushunarli kilib tuziladi. Bu uslubning ham o'ziga hos leksik hamda grammatic xususiyatlari mavjuv: so'zlar o'z ma'nosida qullanadi, ko'pinchalik ma'lum ayrim qisqartma so'zlar ishlatiladi, har bir sohaning o'ziga hos terminlaridan foydalaniladi. Mazkur uslubning asosiy xususiyatlari eng avvalo fikrni aniq ifoda qilinishi va ifodaning bir hil kolipda bayon etilishida ko'rindi. Rasmiy uslub leksikasining yana bir xususiyati unda professional (yuridik, diplomatik, ma'muriy va boshqalar) terminalogiyaning mavjudligidir: akt, guvoxnama, qaror, qidirish, aybni og'irlashtiradigan xato, ahslashuvchi oliy tomonlar, elchi, elchixona, ishonchli vakil, nota, shartnama, bayonot, dekloratsiya, vizit, diplomatik protokol, xalqaro vaziyat va xokazo. Bu uslubda jargonlar, og'zaki so'zlashuv uslubiga hos so'zlar ishlatilmayli.

**Ilmiy uslub.** Ilmiy uslub fanning turli soxalariga aloqador so'z va atamalarni ko'proq tasarruf qilish, bayonning ko'proq mantiqiy dalillarga suyanish bilan boshqa uslublardan aniq, qoidalar, formulalar, asosida ifodalanishi bilan farqlanadi. Ilmiy uslubda so'zlar o'z ma'nosida ko'llaniladi: qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan, ajratilgan bo'laklar, kirish so'z va iboralar, shuningdek qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniladi. Ilmiy nutq asosan ilmiy ishlar nutqi bo'lib, uning aniq ko'rinishlari ilmiy maqola, ilmiy risola, dissertadiyalar, monografiyalar, ilmiy ma'ruzalar shaklida namoyon bo'ladi. Ilmiy uslubning xozirgi zamon taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda quyidagi umumiyl xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

Axborotning obyektivligi, aniqligi.  
nutqning ma'lumotlarga boyligi.  
fikrning qisqa va lo'nda ifodalanishi.

Ilmiy nutqning kitobiy uslubga tegishliligi unda aytildigan fikrinig oldindan o'ylab ko'yilishida, uning monologik xarakterga ega bo'lishida, mantiqiylik, fikr bayonotining qat'iy tartibida, adabiy til meyorlariga qat'iy amal qilishda, uslubiy bir hillik xarakteriga ega ekanligida ko'rindi.

**Publitsistik uslub.** Davrning ijtimoiy-siyosiy dolzarb mavzusini aks etirish publitsistik uslubga hosdir. Publitsistika – so'zi lotincha so'z bo'lib, ijtimoiy yoki xalq, ijtimoiy xalqchil degan ma'nolarni bildiradi.

Publitsistik nutqda ta'sirchan so'z va so'z birikmalaridan, maqol va aforizmlardan ham foydalaniladi. Publitsistik uslubda gap bo'laklari odatdag'i tartibda bo'ladi. Kesimlar, buyruq va xabar maylidagi fellar bilan ifodalaniladi: darak, xis-hayajon va ritorik so'roq gaplardak, yoyiq undalmalardan, takroriy so'z va birikmalardan foydalaniladi. Matbuot nutqi odatda ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy,

ma’naviy - axloqiy, adabiy - tanqidiy mavzulardagi ommaviy nashrlarda, notiqlarning nutqlarida, radio va TV da chiqishlarida namoyon bo‘ladi. Publitsistik va badiiy uslubning ham o‘xhash tomonlari bor. Har ikkala uslubda ham emotsiyonallik, ekspressivlik, obrazli ifodalar, tasviriy vositalar, badiiy til imkoniyatlaridan foydalanishga intilish kuchli. Publitsistik uslubda gazeta tili alohida o‘rin egallaydi. Chunki gazeta va publitsistika bir - biri bilan chambarchas bog‘liq. Shu bilan birga, gazeta uslubi publitsistik uslubning bir tarmog‘i xisoblanadi. Publitsistik uslubda til vositalaridan foydalanishda muallifning individual uslubi deyarli ajralib yoki sezilib turadi. Ayniqsa, bu holat ocherk, felyeton, badiiy publistik maqolada tez ko‘zga tashlanadi.

**Badiiy uslub.** Badiiy uslub nutqning boshqa uslublaridan dastlab o‘zining obrazliligi, estetikligi va ta’sir etish vazifasi bilan ajralib turadi. Badiiy nutqda til leksikalarining hamma qatlamlari ishtirok etadi.

Badiiy uslub uchun shaxsiy obrazli so‘z ishlatish xarakterlidir. Har bir muallif o‘ziga hos usullardan foydalanadi. Bu bilan o‘ziga hoslikka, asarni o‘qimishli bo‘lishini ta’minlashga intiladi. Badiiy nutqda asosan tilning badiiy ta’sir vositalari ishlatilgan bo‘lib, boshqa uslublarga hos hususiyatlar ma’lum maqsad bilan cheklangan miqdorda, shartli ishlatiladi. Badiiy nutq usulining uchta ko‘rinishlari mavjud:

Nasriy nutq

Poetik nutq.

Dramatik nutq.

Bular ichida poetik nutq tilning badiiy tasviriy vositalaridan foydalanishning eng yuksak namunasi xisoblanadi.

#### **4. Yozma muloqot vositalari. Yozma nutqning zamonaviy muammolari.**

Yozma muloqot so‘zlovchi va qabul qiluvchi og‘zaki muloqot vositasisiz amalga oshganda juda asqotadi. Barcha tashkilotlarda ijrochilar yozma xabarlar orqali bo‘limlararo va bo‘limlar ichida samarali aloqani yuritishlari mumkin. Muloqot jarayoni so‘zlar orqali xabarlar yuborishni o‘z ichiga oladi. Yozma muloqot bildirishnomalar, eslatmalar, hisobotlar, moliyaviy hisobotlar, biznes xatlari va shu kabilarning barcha turlarini qamrab oladi. Muloqotning bu turi tashkilotlarda keng qo‘llaniluvchi xabar yozish jarayonini yozishga aylantiradi. Rasmiy muloqot, qoidalar, buyruqlar, ma’lumotnomalar, siyosiy masalalar va hokazolar doimo yozma shaklda bo‘lishi kerak.

Yozma nutq yuqori darajada bo‘lmash ekan, og‘zaki nutq ko‘ngildagidek bo‘lmaydi. Yozma nutqda esa til vositalarini tanlash va qo‘llashga to‘liq imkoniyat bo‘ladi. Yozma nutqni xohlagancha tahrir qilish mumkin. Yozma nutqda og‘zaki

nutqdagi kabi hayajon bo‘lmaydi, notiq shoshilmasdan, o‘ylab nutq tuzadi. Shu sababdan ham yozma nutq og‘zaki nutqdan ko‘ra ravon, aniq va izchilroq bo‘ladi. Yozma nutq barqaror va qat’iy bo‘ladi, u har doim avvaldan o‘ylanadi hamda matnga tushiriladi. Yozma nutq og‘zaki nutqning rivojiga bevosita ta’sir etadi. Og‘zaki nutq esa yozma nutq asosida rivojlanadi. Yozma mashqlar – bamisoli tafakkur mashqlaridir.

Biror voqelik yoki hodisa to‘g‘risida fikrlash yozma mashqlar orqali takomillashadi. Yozma nutq mashqlari muayyan mavzu doirasida bevosita fikrlashga majbur etadi. Yozma nutq bilan doimiy shug‘ullanadigan kishi doim o‘ylab gapirishga odatlanadi. Yozma nutq bilan muttasil shug‘ullanmagan kishining yozma nutqi bilan og‘zaki nutqi hech qachon muvofiqlashmaydi.

### **Yozma muloqot mobaynida quyidagi usullarni egallashni maslahati beriladi:**

1. *Tanish so‘zlardan foydalaning.* Baxtga qarshi, ko‘pchilik biznes sohasida faoliyat yurituvchi kotiblar tanish so‘zlardan foydalanish o‘rniga o‘z fikrlarini qog‘ozga ko‘chirishni boshlasharkan, uning xarakterini o‘zgartirishga moyil bo‘lishadi. Masalan, urinmoq – harakat qilmoq, aniqlamoq – bilmoq, chek qo‘ymoq – tugatmoq, namoyon qilmoq – ko‘rsatmoq, istifoda qilmoq/ qo‘llamoq – foydalanmoq.

2. *Uzun so‘zdan ko‘ra qisqasini tanlang.* Umuman olganda, qisqa so‘zlarda xabar yaxshiroq yetkaziladi, chunki uzun so‘zlarning og‘irlik nisbati o‘quvchini chalkashtiradi. Gipnoz qilish, gippopotam va avtomobil kabi ba’zi uzun so‘zlar bilan oson muloqot qilinadi. Ammo ba’zi vibrofon (vibes), raqobatlashmoq (vie), achchig‘i chiqqan (vex), shtreykbrexer (scab) kabi qisqa so‘zlar faqatgina kamchlik uchun tushunarli bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, uzun so‘zlardan ozgina ehtiyyotkorlik bilan foydalanish donolik bo‘ladi. Bundan tashqari, siz ishlatayotgan so‘zlariningiz o‘quvchingiz uchun tanish bo‘lishiga amin bo‘ling.

3. *Terminologiyadan ehtiyyotkorlik bilan foydalaning.* Barcha sohalarning o‘z terminologiyasi, ya’ni «jargon»i bor, ular kundalik ish leksikasining bir qismini tashkil qiladi. Aslida, ularning idrokimizda shunchalik ko‘p paydo bo‘lganidan, sohaga taalluqli bo‘limgan insonlar ham biladigandek tuyuladi. Va o‘z sohangizdan tashqaridagi insonlarga yozayotganingizda bu muloqotda tushunmovchilikni keltirib chiqaradi.

Aniq yozish qobiliyati faqatgina so‘zlar bilan cheklanib qolmaydi. Bu aniq gaplardan foydalanishni ham anglatadi. Sodda gaplarni yozish qisqaroq gaplarni yozishni anglatadi. Gap da’vo, savol, buyruq yoki his-hayajon shaklida bo‘lishi mumkin. Yozma shaklda, gaplarning uzunligi haqida qaror qilishda qiyin va tez qoidalari yo‘q, ammo qisqa gaplar sodda bo‘lgani uchun oson tushuniladi. Murakkab strukturalarni taqdim etish bilan muammo yaratmaydi. Uzun gaplar

grammatik xatolarga ega bo'lishdek katta o'zgarishlarni qisqa gaplar tuzilishi tasavvur qilinadi. Malakali kotiblar matnda turli xil maqsadlarda birikmalar, qisqa va uzun gaplarni mohirlik bilan qo'llaydilar hamda tajriba qiladilar.

Yozuvdagagi aniqlik faqatgina so'zlarning diqqat bilan tanlanishi va aniq gaplarni yozishga bog'liq bo'lmaydi. Bu yana ehtiyyotkorlik bilan tuzilgan abzatsni talab etadi. So'zlar gaplarga birikkandek, abzatsdagi gaplar ham mantiqiy ketma-ketlikka asoslanadi. Shunday qilib, abzats bir gapdan boshqasiga yo'nalgani va bosqichma-bosqich rivojlangani sababli, abzats kimningdir fikrlash jarayoni bo'ladi.

### ***Abzasning xususiyatlari:***

1. *Jipslashganlik* - gaplar kabi abzats ham jips bo'lishi kerak. Abzatsning mazmuni bir mavzu yoki g'oyaga taalluqli bo'lishi kerak.

2. *Ulanish* - yaxshi abzats gapdan boshqasiga o'tishi kerak. Har bir gap oldingisi bilan mantiqan bog'lanishi kerak. Fikrlarning bir gapdan ikkinchisiga fikrlar harakati bo'lishi kerak.

3. *Uzunlik* - abzatsning uzunligi juda qisqa ham, juda uzun ham bo'lmasligi kerak. Abzats uzunligi uning mazmuniga bog'liq bo'ladi. Qisqa abzatslar xabarlar uchun mos bo'ladi. Qisqa abzats o'quvchiga hujjatlardagi tashkiliy rejaga rioya qilishga yordam beradi. Qo'shimcha tarzda, qisqa abzatslar ko'zni jalb qiluvchi bo'ladi. Odamlar tez-tez tanaffus bo'lishi tufayli ma'lumotlarni o'qishni afzal ko'rishadi. Biroq, tanaffus juda tez bo'lishi kerak emas. Juda ham qisqa abzatslar guruhi yoqimsiz o'zgaruvchan ta'sir ko'rsatadi.

**Yozma kommunikatsiya** — maktublar, eslatmalar, protokollar, belgilar yoki matnlar orqali izohlanishlari juda qiyin, chunki muloqotda bo'lgan odamni ovozini eshitmaymiz va imo-ishoralarini ko'rmaymiz. Lekin fikrni yozma ravishda ifodalash yozuvchiga nima demoqchi bo'lganligini o'ylash va eng yaxshi variantini tanlash imkonini beradi. Har qanday menejerga yozma so'z bilan ishlash qobiliyati juda ham muhimdir. Samarali yozish usullari so'zlar, qisqa jumlalar va qisqa abzatsdan foydalanishda va muvofiqlashtirishda ham soddalikka urg'u beradi. Xabarga ko'ra alohida o'quvchiga murojaat qilishda so'zlarning muvofiqlashtirilishi barcha o'quvchilar ham xabarni tushunishda bir xil qobiliyatga ega emaslar, ularning barchalarining so'z boyliklari bir xil emas, mavzu bo'yicha bir xil bilimga ega emaslar. Shunday qilib, aniq muloqot qilish uchun, biz muloqot qilishni xohlagan kishimizni bilishimiz kerak. Xabar shaxsning ongiga mos bo'lishi kerak.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Yozma nutqda muomala madaniyatining ahamiyati nimada?
2. "Madaniy nutq", Nutq madaniyati" iboralarini sharxlab bering?

3. Oddiy so‘zlashuv nutqining adabiy so‘zlashuv nutqidan farqi nimada?
4. Nutqning ta’sirchanligi nimalarga bog‘liq?
5. Yozma nutqning tarixiy ildizlari.
6. Yozma nutq samarasining muhim shartlari.
7. Nutq madaniyati yuksak san’at sifatida.
8. Notiqlik san’atining badiiy tafakkur rivojiga ta’siri.

### **Foydalanimanligi adabiyotlar ro`yxati**

1. Encyclopedia of Rhetoric. Oxford University Press, USA. 2011.
2. Muhammadjonova L.A. Ritorika. T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2019.
3. Ҳусанов Б. Ғуломов В. Муомала маданияти. Дарслик. –Тошкент: Iqtisod-moliya, 2009.
4. Арасту. Риторика. –Тошкент: Yangi asr avlod, 2011.
5. Muhammadjonova L.A., Ortikova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K.. Professional etika va etiket. Darslik. - Т.: "Adabiyot uchqunlari" 2018 y.
6. Ҳусанов Б.Э. Бошқарув этикаси. Ўкув қўлланма. Т.: Университет. ЎзМУ, 2017.

## **NUTQNING MANTIQIY ASOSI, MAZMUNI VA TUZILISHI REJA**

1. Nutqning mantiqiy asoslari, mantiq qonunlarining nutq sifatiga ta’siri
2. Suhbat va murojaat qilish etiketi
3. Bahslashish san’atining axloqiy talablari

**Tayanch tushunchalar:** nutqda birinchi darajali ma'lumot, ikkinchi darajali ma'lumot, fikrlashning formalari, nutqning mantiqiy asoslari, solishtirish, analiz, sintez, abstraktlashtirish, tushuncha, muhokama, xulosa, suhbat etiketi, murojaat, bahslashish etiketi.

### **1. Nutqning mantiqiy asoslari, mantiq qonunlarining nutq sifatiga ta’siri**

Har qanday nutq *birinchi navbatda ma'lumot* berishi lozim. Ma'lumotning asosiy xususiyati shundan iboratki u aniq bo'lishi lozim. Birinchi ma'lumot ijtimoiy hayotdan olinadi agar u aniq faktlarga asoslangan bo'lmasa, notiqning obro'sizlanishiga olib keladi. Har bir ma'lumotga jiddiy va ilmiy yondoshuv talab qilinadi. Bugungi kunda televide niye, radio, internet hamda gazeta va jurnallar orqali ma'lumotlar tez yetib kelmoqda. Zamonaviy notiqlik san’atidagi muammo - ma'lumotlarni to‘g‘ri ajrata bilish. Notiq qayerdan va qanday ma'lumotni olishi uning nutqini qurilishining asosiy poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Nutqdagi birinchi ma'lumotni olib berish uchun keltiriladigan siyosiy, ilmiy, axloqiy, ma'naviy, ruhiy tahlillar orqali u *ikkinci darajadagi* ma'lumotga aylanadi. Ya'ni birinchi ma'lumot barcha uchun tushunarli bo'ladi, u yangi sifat bosqichiga ko'tariladi, ma'lumotni ma'nosi, haqiqatligi isbotlanadi. Nutq ma'nosi asosini - haqiqat tashkil qiladi. Go'zal so'zlardan tashkil topgan so'zlar yig'indisi bilan insonlarni aldab bo'lmaydi.

Notiqning nutqning ravonligi, ma'noli go'zal nutqi bergan ma'lumotlarining yangilagini, badiiy asarga o'xshatish mumkin.

Birinchi ma'lumotni, ikkinchi ma'lumotga aylantirdik. Endi bu ma'lumotni olib berish uchun *muammoli vaziyatlardan* foydalanish lozim. Auditoriyaga ijtimoiy hayotdagi holatlardan kelib chiqib, masalani o'rta ga tashlash kerak - shunda muammo yuzaga keladi. Shu muammoni xal qilish uchun har xil muammoli vaziyatlarni sharxlab isbotlash kerak bo'ladi. Demak berilgan birinchi ma'lumotni haqiqatga yoki sarobga aylantirish notiqning san'atiga, bilimiga, mahoratiga bog'liq.

Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan taqdirdagina, uning ta'sirchanligi kuchli bo'ladi. Mantiq - fani grekcha "*logos*" so'zidan olingan bo'lib, nutq, fikr, o'y demakdir. U- fikrlash qonunlari, shakllari va usullarini o'rgatuvchi fandir. Aniqlik, izchillilik va dalillilik – to'g'ri fikr yuritishning zaruriy xususiyatidir.

Nutq to'g'ri bo'lishi uchun fikrlar aniq va muayyan, bir - biriga izchil suratda bog'langan bo'lishi lozim, fikr yurgizayotgan mavzudan chetga chiqmaslik zarur, mazmunida mantiqiy ziddiyatlar va poyma-poy, dudmal gaplar bo'lmasligi kerak. Hukmlar va xulosalar asosli bo'lmos'i lozim, yo'ksa, ular ishonarli bo'lmay qoladi.

*Mantiqiy fikrlash usullari bular:* - *solishtirish, analiz, sintez, abstraklash va umumlashtirish.*

*Solishtirish* shunday bir mantiqiy usuldirki, bu usul vositasi bilan ob'ektni olamdagи predmetlar va voqealarning bir-biriga o'xshashligi va bir-biridan farqi aniqlab olinadi. Solishtirish ya'ni taqqoslash natijalarining to'g'riliгини belgilaydigan zaruriy shartlar quyidagilar:

1. Bir-biri bilan xaqiqatdan real tarzda bog'lanishi bo'lgan buyumlarni taqqoslash kerak.
2. Taqqoslashning to'g'riliгини isbotlash solishtirishlikka nimani asos kilib olishlikka bog'liq.
3. Ikki yoki bir necha buyumni bir belgi asosida olib, ayni bir nisbatda taqqoslash kerak.
4. Har qanday solishtirish daf'atan duch kelgan belgilarga qarab emas, balki taqqoslanadigan buyumlar uchun muhim ahamiyati bo'lgan belgilarga qarab qilinmog'i lozim.

*Analiz* - shunday bir mantiqiy usuldirni, uning yordami bilan biz buyumlarni,

hodisalarini fikran qismlarga bo‘lib, ularning ayrim qismlarini, belgilarini, xususiyatlarini ajratamiz.

*Sintez* - shunday bir mantiqiy usuldirki, predmet va hodisaning analiz bilan bo‘lingan ayrim qismlarini shu usul yordami bilan fikran birlashtirib, bir butun xolga keltirish mumkin. Analiz va sintez bir - biri bilan chambarchas bog‘liq xolda olib boriladi. Nutq qaratilgan predmet yoki hodisaning biror tomoni muhim, boshqa tomoni muhim emasligini ham farq qilish lozim bo‘ladi. Bunda abstraksiyalash va umumlashtirish usuli qo‘l keladi.

*Abstraksiyalash* – shunday bir mantiqiy usuldirni, bu usul yordami bilan predmet va voqealarning muhim xususiyatlari fikran ajratiladi va ularni predmetlar, voqealarning ikkinchi darajali va ahamiyati kam xususiyatlardan chetlashtiriladi.

*Umumlashtirish* – shunday bir mantiqiy usuldirni, bu usul yordami bilan biz jinsdosh predmetlarning umumiyligi xususiyatlarini fikran birlashtiramiz. M: Xayvon, inson sut emizuvchi kabi tushunchalar umumiylilik asosida vujudga kelgan. Umumlashtirish predmetlarning o‘zida bo‘lgan umumiyligi narsani bilinga asoslangan taqdirdagina to‘g‘ri bo‘ladi.

*Fikrlashning asosiy formalari* - *tushuncha, muhokama va aqliy xulosalardan iborat*.

*Tushunchada* – predmetlarning umumiyligi va asosiy belgilari aks ettiriladi. Tushuncha so‘z bilan ifodalanadi. So‘z tushunchaning tashqi formasidir. *Tushunchaning mazmuni* - bu predmetdagi asosiy belgilarning umumlashmasi haqidagi bilimdir. Agar tushunchaning mazmuni vokelikni to‘g‘ri aks ettirsa, voqelikka muvofiq kelsa, bunday tushuncha to‘g‘ri tushuncha bo‘ladi. *Tushunchaning hajmi - muhim* belgilari tushunchada aks ettan predmetlar doirasi haqidagi bilimdir. Hajm jixatdan keng bo‘lgan tushuncha, mazmun jixatdan tor bo‘ladi. M: "Daraxt" tushunchasi xajm jixatdan "olma daraxti" tushunchasiga nisbatan keng bo‘lsa-da, mazmun jixatdan tor. Chunki "olma daraxti" tushunchasi mazmunida daraxt tushunchasining barcha belgilari bo‘lishi bilan birga, o‘ziga hos belgilari ham mavjud.

Tushunchalar mazmuniga ko‘ra, konkret va abstrakt tushunchalarga bo‘linadi. Konkret: "Toshkent", "non", "ob-xavo". Abstrakt: "Kattalik", "botirlik", "g‘amxo ‘rlik" kabilardir.

*Ta’rif* - ta’riflashning to‘rt qoidasi bor.

1. Ta’rif mutanosib bo‘lmog‘i kerak. Ya’ni aniqlanuvchi tushuncha bilan aniqlovchi tushuncha teng bo‘lmog‘i kerak.
2. Ta’rifda aylanma bo‘lmasligi kerak. M: "Kulgi qistaydigan narsa – kulgili narsadir".
3. Ta’rifda inkor bo‘lmasligi kerak. M: "Yorug‘lik - qorong‘ilikning yo‘qligidir" kabi ta’rif yorug‘likning ta’rifini tushuntirib bera olmayli.

#### 4. Ta’rif qisqa, ravshan va aniq bo‘lmog‘i lozim.

Tushuncha ta’rifdan ko‘ra mazmundorroqdir. Ta’rif tushunchani toraytiradi. Ta’rifning asosiy vazifasi tekshirish natijalarini yakunlash, olingan bilimlarning, nutq qaratilgan predmet yoki hodisaning qisqa ifodasini berib, mustaxkamlashdir. Ta’rifda tushunchaning asosiy belgilari mustaxkamlanadi. Notiq so‘zlayotgan paytda quyidagilardan foydalanishi mumkin.

1. *Ko‘rsatish* - bevosita idrok qilinayotgan predmet bilan tanishuvning eng sodda usulidir. Ko‘rsatish predmetning xususiyatlarini tushunishda birinchi bosqichdir.
2. *Tasvirlash* - notiq xikoya qilayotgan u yoki bu predmetning belgilarini bir-bir sanab ko‘rsatishdan iborat.
3. *Tavsiflash* - bunda notiq predmet yoki voqealarning ba’zi, alohida harakterli belgilarini ko‘rsatadi.

Buyumlarning va ularning belgilari haqida biror narsani tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr *muhokama* deb ataladi.

• *Aqliy xulosa*. – Bu tafakkurning shunday formasidirki, uning yordamida u yoki bu hildagi muxokamalardan yangi muxokama chiqariladi. Aqliy xulosaning uch turi mavjud: *deduktiv, induktiv va analogiya*.

1. *Deduktiv aqliy xulosa* – fikr umumiyyidan xususiyga qarab rivojlanadi. M: *Hamma planetalar sharsimon. Yer planeta. Demak yer sharsimon.*
2. *Induktiv aqliy xulosa* - fikr xususiydan umumiylikka qarab boradi. M: *O’tgan kuni, kecha va bugun rosa yomg‘ir yog‘di. Shu xافتada yomgir ko‘p yog‘di.* Notiq uchun sochilgan faktlarni hamrab olish va ixcham shaqlida ifodalash muhim rol o‘ynaydi.
3. *O‘xhash aqliy xulosa yoki analogiya* – fikr xususiydan xususiyga qarab boradi. Analogiya dalil emas, avtor undan o‘z fikrini tushuntirish uchun, shuningdek, extimol xulosalar chiqarish, u yoki bu voqeani aniqroq harakterlab berish uchun foydalaniladi. M: *Faraz qilaylik, qandaydir A predmet... V predmet...*

Ishontirish, dalillash, isbotlash har bir nutqning asosiy belgisidir. Odatda, nutqni isbotlash uchun faktik materialdan foydalanish kerak.

*Isbotlash* – maxsus mantiqiy usuldir. Uning yordamida boshqa muxokamalarning haqqoniyligi asoslanadi. *Isbot tezisini haqiqatan asoslab bermoq uchun bir qancha eng zarur qoidalarga rioya qilmoq kerak.*

1. Tezis aniq va ravshan tariflangan muxokama bo‘lmog‘i kerak. Aniq va ravshan ta’riflanmagan tezisi isbotlab bo‘lmaydi.
2. Isbotning boshidan oxirigacha tezis aynan birday bo‘lib qolmog‘i kerak. Ko‘p narsani isbot qilishga o‘ringan kishi hech nimani isbot qila olmaydi.

3. Tezisni mustaxkamlash uchun keltirilgan dalillar shubhadan xoli chin dalillar bo‘lmog‘i kerak.
4. Dalillar tezis uchun yetarli asos bo‘lmogi kerak Tezis dalillardan kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi.
5. Dalillar rostligi tezisdan qat’iy nazar, mustaqil suratda isbot qilinadigan muxokamalardan iborat bo‘lmog‘i lozim.
6. Tezis, xulosa chiqarishning umumiyligi qoidalariga muvofiq, dalillardan mantiqiy suratda kelib chiqadigan xulosa bo‘lmog‘i lozim. Ishontirishdan ko‘ra, qayta ishontirish qiyinroqdir.

*Biror tezisning noto‘g‘riliği yoki asossizligini isbotlash raddiya deb ataladi.* Tezisni quyidagi besh usul bilan rad qilish mumkin.

1. Notiq o‘rtaga tashlagan tezisni rad qilishning eng to‘g‘ri va muvoffaqiyatli usuli faktlar vositasi bilan rad qilishdir.
2. Opponent o‘z tezisiga asos qilib olingan dalillar tanqid qilinadi.
3. Rad qilinuvchi isbot tezisining chinligi tezisni tasdiqlash uchun keltirilgan dalillardan kelib chiqmasligi isbot qilinadi.
4. Rad qilinuvchi tezisga zid bo‘lgan yangi tezis mustaqil ravishda isbot qilinadi.
5. Rad qilinuvchi tezisning noto‘g‘riliği isbot qilinadi.

## **2. Suhbat va murojaat qilish etiketi**

Suhbat - ma’lum bir mavzu, masala yuzasidan diolog (yoki polilog) tarzida ikki yoki bir necha kishi o‘rtasida bo‘lib o‘tgan nutqiy muloqot suhbat deyiladi.

Suhbatlashish muomala madaniyatini shakllantirishning muhim vositalaridan biri sanaladi.Har qanday suhbat avvalo, ma’lumotlar almanishuvdir. Suhbatlashish orqali insonlar bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar, bir-birlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar, bir-birlarini tushunib boradilar, shu bilan birga muomala madaniyatlaridagi ayrim bo‘shliqlarni to‘ldiradilar.

Donishmandlarning —Yuziga boqma, so‘ziga boq – degan hikmatlari ayni haqiqatdir. Til – inson tafakkuri mahsuli. U inson madaniyati fikriy go‘zalligini yaxshi, ibratli, havas qilsa arziyadigan fazilatlarini yuzaga chiqaruvchi vositadir. Muomala esa insonlarni bir-biriga bog‘lovchi, yaqinlashtiruvchi, katta-kichik xayrli ishlarga undovchi fazilatdir. Insonning go‘zal hayot kechirishida, jamiyat orasida o‘z o‘rnini topa olishida, boshqalarning hurmat ehtiromiga erishishda muomalaning o‘rni kattadir. Insonning shirinso‘zligi kishining tarbiyalanganligidan guvohlik bersa, so‘zga boyligi, chechanligi, ma’nodorligi uning o‘qimishli, bilimdonligini ko‘rsatadi. Go‘zal muomala inson dilini qanchalik hushnud etsa, aksincha, achchiq so‘z, qo‘pol muomala inson qalbini larzaga soladi. Shirin muomalada bo‘lish ham katta san‘at. Shirin so‘z bilan kishining ishonchi va

qalbini egallash mumkin. So‘z, yuz va ko‘z, tilning ko‘rki hisoblanadi.

Etiket bo‘yicha muomala qilishni bilish – avvalambor suhbatni olib bora olish qobiliyatidir. Bu yerda ham umumqabul qilingan qoidalar mavjud. Suhbatlashish muomala madaniyatini shakllantirishning muhim vositalaridan biri sanaladi. Har qanday suhbat avvalo ma‘lumotlar almanishuvidir. Suhbatlashish orqali insonlar bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar, bir-birlari haqida ma‘lumotga ega bo`ladilar, bir-birlarini tushunib boradilar, shu bilan birga muomala madaniyatlaridagi ayrim bo`shliqlarni to`ldiradilar. Suhbatdoshni gapini bo`lmasdan uni oxirigacha tinglay olish muhim xususiyat kasb etadi. Zero diqqat va sabr-toqat bilan eshita olish qobiliyati suhbatdoshga nisbatan hamdardlik, layoqatlilik, hayrixohlikni ko`rsatadi. Lekin bu qobiliyat faqatgina tug`ma xususiyat kasb etmaydi – har bir inson uni o`zida hamda farzandlarining tarbiyasida mujassam etib, takomillashtirish mumkin. Bunda axloqiy tarbiya – axloqiy me‘yorlar katta ahamiyat kasb etadi.

Suhbat olib borish mahoratini o‘rganish mumkin, buning uchun qadimgi notiqlar kabi sizga zarur bo‘lgan bilimlarni egallash lozim. Ammo bu degani do‘stona uchrashuvlarni ritorika bo‘yicha musobaqaga aylantirish shart emas. Barcha holat va narsalarga yuzaki qaraydigan jamiyatga bir oz hazil va yengillik bilan ishonchli so‘zlash – bu iste’dodli odamlar ham tan beradigan qobiliyatdir. Har kimga ham aqlii gaplarni osonlik bilan yetkazish qobiliyati berilmaydi.

**Suhbatlashishning umumiyligi qoidalari:**

- Ko`proq tinglang
- Mavzuni suhbatdoshingizni qiziqtiradigan masalalardan keltirib chiqarishga harakat qiling
- O‘z “men”ingizni yashirishga harakat qiling
- Ko`proq kuzating
- Atrofdagilarga notanish tilde suhbatlashmang
- Muloqot zonasiga e’tiborli bo`ling
- Eye-contact (ko‘z bilan muloqot) ga e’tibor bering
- Ob-havo va sog’liq haqida gapirishda me’yorga amal qiling

### **Suhbat etiketining qoidalari**

- Suhbatdoshingizga og‘ir botadigan, xafa qiladigan, noqulay vaziyatga solib qo‘yadigan, gapirishni xohlamaydigan mavzu bo‘yicha suhbatlashish vaziyatni og‘irlashtiradi.

- O‘z fikrini uqtirishdan avval, noqulay vaziyatga tushib qolmaslik uchun suhbatdoshning ijtimoiy kelib chiqishi, shaxs sifatida, aytilayotgan masala yuzasidan qanday ma‘lumotga ega ekanligini bilib olgan yaxshi.

- Suhbatdosh hurmat qilishga, hatto uni fikrini noto‘g‘ri deb hisoblaganda ham oxirigicha eshitish bilan shaxsning so‘z erkinligini ta’minlashga intilish lozim.

- Boshqa insonlarini g‘iybat qilishdan, ularning shaxsiy hayoti, muammosi haqida suhbat qurish ham odobsizlik sanaladi.

- Har qanday suhbat birinchi navbatda ma’lumotlar almanishuvdir. Suhbat jamoat joylarida yoki ko‘chada bo‘lsa, boshqalarni o‘ziga jalb qilmagan xolda, ovoz past ohangda gaplashish lozim. Tez yoki haddan tashqari cho‘zilib gapirish ham ma’lumotni o‘zlashtirishga xalaqit beradi.

- Kam muomala qilinadigan, yaxshi tanimaydigan insonlar bilan muloqotda bo‘lishda barchaga tushunarli engil mavzu tanlanib olinadi. M: Futbol, seriallar, qo‘shiqlar, teleko‘rsatuvlar. Hech qachon oilaviy muammolar, shaxsiy xayotdagি kelishmovchiliklar, o‘zi tushunmagan va ma’lumotga ega bo‘lmagan tor mutaxassislikka oid mavzular haqida gaplashish nojoiz.

- Barcha hursand holatda suhbatlashayotgan vaqtida, kayfiyatni tushuruvchi, qo‘rinchli voqealar, ko‘ngilsiz holatlar haqida gapirish boshqalarni kayfiyatini tushirib yuboradi.

- Bemorni ko‘rgani borganda o‘lim haqida, uning kasal tarixi, mayda-chuyda jihatlari haqida gapirish yaxshi emas. Uning o‘rniga yolg‘on bo‘lsa ham ko‘rinishini yaxshiligi, albatta yaxshi bo‘lib ketishi mumkinli haqida suhbat qurish lozim.

- Dasturxon atrofida ishtahani bo‘g‘uvchi mavzular xaqida gapirilmaydi. Ovqatni yomonlash, kamchilik axtarish yomon odat. Aksincha, uni tayyorlagan insonni ko‘nglini ko‘tarish lozim.

So`z bu o`zingizga qarshi qurolga aylanuvchi kuchdir. Yaqin kishini ayblashtan oldin, o`ylab ko`rgan ma‘qul. Hasadgo`ylik eng yomon illat. U barcha axloqiy xususiyatlarni yo‘qqa chiqaradi. Mardlik yoki ochiqlik bahonasida ko`rolmaslik hissini ochiqchasiga ko`rsatishni odat qilgan kishiga bo`lgan munosabat hech qachon ijobjiy o`zgarish kasb etmaydi. Bu faqat munosabatlarni yomonlashishiga olib keladi. Bundan hech kim yaxshi natijaga erishmaydi.

Suhbatlashish jarayoni nafaqat suhbatlashish balki, tinglash holatiga ham bog`liq. Tinglash faqat eshitib o`tirishi kerak degani emas. Yaxshi suhbatdosh hamsuhbat fikrini mantiqiy tugatgandan so`ng, o‘z fikrini to`liq bayon qilib beruvchi insonga aytildi. Juda ham kerak bo`lib qolgan vaqtida uzr so`rab, M: Kechirasiz, menimcha shu fikringiz...., yoki Fikringizni bo„lganim uchun uzr so`rayman, menimcha... degan iboralarni qo`llagan ma‘qul. Bu vaqtida ushbu iboralarning egasi suhbatdoshiga so`zlashga imkoniyat berishi lozim. Bunda dunyoqarash ham katta ahamiyat kasb etadi. Insonning dunyoqarashi haqida gap ketganda, albatta yoshlar bilan kattalar o‘rtasida tushunmovchiliklar bo`ladi Shunday paytlarda yoshlar o`zlarini fikrlarini yoqlamasdan xo`p deb, mavzuni boshqa yoqqa burib yuborishlari kattalarni dilini og`ritib qo`yishdan asraydi. Muomalada gapning ohangi har-xil bo`lishi mumkin bular: takabburlik bilan,

sovuj, o`ziga qaratgan xolda, achchiq-tirziq tarzdagi ohanglar. Bir xil ya`ni monotonli gapisish ham boshqalar nazdida zerikarli bo`lib, qiziqarli ma`lumotni ham xazm qilish qiyin bo`ladi.

Muomala madaniyatining yana asosiy tavsifnomasi shundan iboratki, bu insonning manerasi, ya`ni xatti-harakatining ohang bilan uyg`unligi. Bularga qomatni turishi, qo`l harakati, yuzdagi imolalar kirib ketadi.

Murojaat qilish – insondan ko`p narsani talab qilmaydi. U kishini tarbiya ko`rganligidan dalolat beruvchi harakatlar majmuasidir. Aslida murojaat qilish har xil kechib, bu insonni qayerda, kim bilan, qay paytda, suhbatdosh bilan o`zaro munosabatdan kelib chiqqan xolda bildiriladi. Murojaat qilib aytilayotgan so`zlar nafaqat unga bo`lgan hurmat balki, maqsadga muvofiqlikda ham qo`llanadi.

Murojaat qilib aytilayotgan so`zlar nafaqat hurmat belgisi, balki, maqsadga erishish vositasi hamdir. Murojaat vaziyatga, sharoitga, jamoaga, muhitga qarab yakka shaxsga yoki jamoaga yo`naltirilgan bo`ladi. Biroq, barcha murojaatlar axloq me`yorlariga bo`ysungandagina ijobiy natija berishi mumkin. Insoniy munosabatlarda aytilayotgan so`zlar faqat axloqiy me`yorlarga tayanadi. Bu esa qarindoshlar, sevishganlar, er-xotin, do`stu-birodar, mansabdor shaxs va xodim o`rtasidagi munosabatlarda qo`llaniladigan so`zlar turlichcha bo`lishini anglatadi. Murojaat ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan munosabat turi bo`lib, ular og`zaki yoki yozma ko`rinishga ega.

Murojaat qilish ham bir necha turlarga bo`linadi: ular – rasmiy, ishonchli, intim va egasiz.

Rasmiy murojaatlarda —Xonimlar va janoblar deb jamoatga murojaat qilinadi. Rasmiy murojaatlар mehnat jamoasida rahbarga, ishlab chiqarish korxonalarida etakchi mutaxassisiga, ta`lim muassasalarida ta`lim beruvchi ustozga, harbiy va huquq tartibot organlarida unvoni katta zabitlarga, davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda jinsga qarab yoki barchaga rasmiy murojaat qilinadi. M: Yakka shaxsga nisbatan janob Toxirov deb murojaat qilish mumkin. Agar familiya ishlatilmasa janob direktor, direktor xonim deb murojat qilish maqsadga muvofiq. O`rtoq Abdullaev, o`rtoq general, ya`ni —o`rtoq deb so`zi harbiylar qo`llaydilar. Elchilar hamda yuqori martabali insonlarga nisbatan “Janobi oliylari” deb murojaat qilinadi. Rasmiy munosabatda faqat sizlab gaplashiladi. Rahbarning qo`l ostidagi barcha kishilar bilan bo`lgan munosabatida ham, 9 yoshdan yuqori bo`lgan maktab o`quvchilardan tortib, talabalar bilan bo`lgan munosabatda ham, notanish insonga murojaat qilganingizda ham sizlab murojaat qilinadi.

Ishonchli munosabatlarda yaqin insonlar, qarindosh urug`, hamqishloq, vatanishlarga qilinadigan munosablarga aytiladi. Bunday munosabatlarda —Sen deb faqat oilada yoki yaqin munosabatlarda murojaat qilish mumkin. «Amaki», “xola”, “tog`a”, “opoqi”, “kelinoyi” va boshqa qarindoshlar o`rtasida shevadan

kelib chiqqan holda murojaat qilish mumkin. “Yaxshi yigit” yoki “yaxshi qiz” degan so`zlar yoshlarga qarata qo`llaniladi. Jamoat joylarida kasbi kor daraja hamda yoshga qarab shofyor, doktor, o`quvchilar, talabalar, yo`lovchilar, qizlar, yigitlar, bolalar kabi nomlarni ishlatish mumkin.

Intim murojaatlarda shaxsga nisbatan chiroyli, yoqimli, erkalash ma‘nosidagi so`zlardan foydalangan holda murojaat etiladi: Azizim, Mehribonim, Jonim, Begim kabi so`zlardan o`rinda va samarali foydalanish zarur. Murojaatning bu turi insonning didli va farosatli ekanligini ham belgilaydi. Biroq, ushbu so`zlarni bemavrid ishlatish insonni bachkanalikka olib keladi. Ayniqsa, “jonim” so`zini barchaga nisbatan ishlatish aslo mumkin emas, bu so`z faqatgina nikohdan o`tgan, hayotini bir-biri bilan bog`lagan kimsalarga nisbatan ishlatilsa maqsadga muvofiq.

Nomsiz murojaatlarda shaxsni kim ekanligini yaqindan bilish katta ahamiyatga ega emas. Bunday murojaat qisqa mazmunda bo`lib, biror noma‘lum obyekt yoki subyektni aniqlash, u haqda muayyan ma‘lumot olish uchun qo`llaniladi. Masalan, “Kechirasiz, Olmazor ko‘chasini ko’rsatib yuborsangiz?”, “Hurmatli yo`lovchilar yo`l haqini o’z vaqtida to’lashni unutmang”, “Doktor bolamni ko’rib qo’ysangiz, issig’i tushmayapti” singari murojaatlarda shaxsning aniq ismi ko’rsatilmasada, u haqdagi ma‘lumotlar va aytildigan fikrlar tushunarli bo’ladi.

Aslini olganda, O’zbekistonda murojaatning aniq bir shakli yo’q. Ko’p holatlarda har bir joyning o’zidan kelib chiqib, shevaga hamda urf-odatga asoslangan xolda murojaat qilinadi.

Yangi tanishgan odam bilan munosabatda tushunmovchilikdan saqlanish uchun tashrifnoma juda qulaydir. Chet mamlakatlarda tashrifnoma juda keng qo’llaniladi. Ularning raqamlari hamda o’lchamlari qat’iy qoida bilan cheklanmagan. Inson o’z tashrifnomasini tutqazar ekan, kelajakda shaxsiy hamda ish bilan bog’liq aloqani qo’llab-quvvatlayotganini bildiradi.

### **3.Bahslashish san’atining axloqiy talablari**

Bahs san’ati –“eristika” (yunoncha oristicos – baxclashuvchi) ilm sifatida shakllanishini mutaxassislar odatda eramizdan avvalgi V asr yunon faylasuflari nomi bilan bog’laydilar. Jumladan, Abderlik Protagor “Bahs san’ati” kitobini yozganligi haqida ma‘lumotlar mavjud.

Amerikalik faylasuf Robert Kuillen “Bahs-munozara – bu bilimlar almashinushi, quruq tortishuv esa nodonlik almashinividir”. – degan edi. Bahs-munozara san’at darjasи chiqishi ham bevosita uning maqsadga yo’nalganligi, insonlarning bilimini, dunyoqarashini oshirishga xizmat qilishi bilan bog’liq. Bahslashishning intellektual sport darjasи chiqqan ko’rinishi mavjud bo’lib, tartibga solingenan bunday munozaralar debatlar deb ataladi.

**Debat** – biror bir voqea, hodisaga yoki mavzuga nisbatan odamlarning turli xil qarashlarni himoya qilishi. Debatlar – bu dolzarb muammo yuzasidan ikki tarafning aniq tarkiblashtirilgan va maxsus tashkillashtirilgan ommaviy o‘zaro fikr almashinuvidir. Bu turdagи ommaviy bahs-munozaralar bir-birlarini emas, balki uchinchи tarafni o‘zining haq ekanligiga ishontirishga qaratilgan.

Debat, ya’ni bahs-munozaralar olami o‘ziga xos va qiziqarli, shu boisdan u turli yosh, irq, din va ijtimoiy kelib chiqishi har xil insonlarni ohanrabodek o‘ziga jalb etadi. Ularning hammasini yagona omil – insonning bor intellektual salohiyatini ishga solishni talab etuvchi yorqin va sport kabi qiziqarli o‘yin – debatlarga muhabbat birlashtiradi.

Debatlar Qadimgi Yunonistonda vujudga kelib, demokratianing muhim omili hisoblangan. Afinada fuqarolar taklif etilayotgan qonunlarning afzalliklari va kamchiliklari yuzasidan muzokaralar olib borishgan; o‘quvchilar esa muammolarni turli tomondan o‘rganib, tahlil qilishni o‘rgangan.

XV asrning oxirida universitetlarda o‘qitish tizimi ma’ruzalar tarzida bo‘lgan. Professor (magistr)lar obro‘li ruhoniy va antik mualliflarning asarlarini o‘qib izohlashgan. Professorlar ishtirokida falsafa va diniy mavzularda munozaralar o‘tkazilgan. Ularda hatto talabalar ham qatnashgan.

Avval boshida debatlar AQSH universitetlarida ildiz otgan. XIX asrning oxirida debatlar sharqiy sohil universitetlarida, g‘arbiy sohilning markaziy qismida va Kaliforniyada o‘tkazilgan. Notiqlar o‘z chiqishlarini bellashuvdan oldin tayyorlashgan va auditoriyaga gapirishgan, ammo u vaqtarda debatga hakamlik qilishning aniq mezonlari bo‘lmagan. 1920-yillarning boshida Amerika universitet debatlari bir vaqtning o‘zida bir qancha ta’lim maskanlarida o‘tkazila boshlangan. Tinglovchilar o‘rnini asta-sekin hakamlar egallagan. 1960-yilda bo‘lib o‘tgan prezident saylovlari mobaynida Jon Kennedy va Richard Nixon o‘rtasidagi televizion debat bahs-munozaralarga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirdi.

Bugungi kunda debatlar dunyo bo‘ylab juda keng tarqalgan. Muzokaraning debat shakli siyosiy kurash hamda maktab va oliygoh ta’lim tizimida keng qo‘llaniladi. Aynan debatlar ommaviy chiqish, tanqidiy fikrlash, muayyan vaziyatni tahlil qilish, o‘z fikrida qat’iy tura olish, isbotlash va berilgan muammo yechimiga ijodiy yondashish kabi ko‘nikmalarning shakllanishiga yordam beradi. Hozirgi paytda AQSH va Yevropada debat klublari deyarli har bir universitetda mavjud.

Maktab o‘quvchilari, talabalar va har xil soha mutaxassislari debatlardan ta’lim jarayonida, o‘zining fikrlash doirasini kengaytirishda hamda muvaffaqiyatli hayot kechirishda keng foydalanadilar. Bundan tashqari, debatlar bu yangi uchrashuvlar va muloqotlar imkoniyatini beruvchi maroqli jarayondir.

Har qanday debat quyidagi uch tamoyilga bo‘ysunishi lozim:

Birinchi tamoyil – **ta’lim olish**. Debatlar sizning bilimingizni boyitishi va bir paytda zavq keltirishga qaratilgan faoliyat sifatida ishlab chiqilgan. Shunga asoslangan holda, debatlar avvalo qo’shimcha ta’lim manbayi bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, yutish unchalik ham muhim emas, bilim olish muhimroqdir, chunki chuqur bilim – bu g‘alabaga eltuvchi asosiy yo‘ldir.

Ikkinci tamoyil – **vijdonlilik**. Bu debatlar doirasida sodir bo‘layotgan barcha jarayonlarning asosidir. Debatlar insonga xos tug‘ma sinchkovlik tufayli paydo bo‘lgan. Biz doim haqiqatni bilishni istaymiz. Haqiqatni oshkora etishning yagona yo‘li – bu izlanuvchan inson aqli oldinga surgan savollarga javob qidirib topishga harakat qilishdan iboratdir.

Uchinchi tamoyil – **hurmat**. Debatlar ishtirokchilarning shaxsiyatiga taalluqli emas, sizning fikringizga qo‘silmagan insonni xafa qilish mumkin emas. G‘oyalar to‘qnashuvida yagona qo‘llaniladigan qurol – bu asosli dalillar bo‘lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, siz raqiblarga emas, balki dalillarga, mulohazalar va isbotlarga “tashlanishingiz” kerak.

Rasmiy debatlarning turlari:

- Linkoln-Duglas debatlari;
- Karl Popper debatlari;
- Parlament debatlari (Amerika formati);
- Parlament debatlari (Britaniya formati);
- Menedjer formati;
- Birlashgan Millatlar Tashkiloti modeli ;
- Prezident formati.

Debatlarga o‘rgatishning texnik uslublaridan biri bu ishtirokchilarga munozarali masalani qarama-qarshi nuqtayi nazarlardan ko‘rib chiqib, fikr bildirishlarini iltimos qilishdan iborat. Ya’ni debatchi avval fikrni tasdiqlaydi, so‘ngra esa inkor etadi.

Qarama-qarshi pozitsiyalarni himoya qilish qobiliyati ishtirokchilarni munofiq insonlarga aylantirmaydi. Bir fikrning “tasdiq” va “inkor” taraflarini himoya qilishning o‘ziga yarasha bir necha ishonarli sabablari mavjud.

O‘yin ishtirokchisi himoya qilayotgan pozitsiyaga qarshi yaxshi dalillar keltirish mumkinligini inkor etish ushbu qatnashchining qaysar va ijodiy fikrlashdan yiroq shaxs ekanligidan dalolat beradi.

Qarama-qarshi fikrlar debatlarida qatnashishning yana bir sababi – yaxshi intellektual odat, ya’ni barcha dalillarni eshitmasdan turib hech qanday fikr bildirmaslikdadir. Muhim savol borasida hech qanday bilim yoki boshqa fikrlarni inobatga olmasdan turib xulosa qilish noto‘g‘ridir.

Debat ishtirokchilarining vazifasi nozik mavzu yoki noto‘g‘ri g‘oyani qo‘llab-quvvatlashda emas. Ularning vazifasi bahsdagi ikkala fikrni ham sinchkovlik bilan ko‘rib chiqib, isbotlashga loyiqligini anglab yetishdan iborat.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Notiq o‘z nutqida ikkinchi darajadagi ma’lumotlardan qanday foydalanadi?
2. Nutqda muammoli masalalardan foydalanish deganda nimani tushunasiz?
3. Mantiqiy fikrlash usullari.
4. Fikrlashning asosiy formalari.
5. Suhbat, murojaat haqidagi fikringiz.
6. Bahslashish qoidalari xaqidagi fikringiz.
7. Talaffuz, muhokama, munozara, tabrik nutqi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Edward P. J. Corbett, Robert J. Connors. Classical Rhetoric for the Modern Student. 2009.
2. Muhammadjonova L.A. Ritorika. T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2019.
3. Мұхаммаджонова Л.А., Абиджанова Ф.Ш. Этикет. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ЎзМУ, 2018.
4. Kenneth Burke. A Rhetoric of Motives. 2012.
5. Мұхаммаджонова Л.А. Нотиқлик санъати. Услубий қўлланма. – Тошкент: ЎзМУ, 2008.
6. Richard A. Lanham. A Handlist of Rhetorical Terms, Second edition. University of California Press. USA, 2010.
7. Арасту. Риторика. –Тошкент: Yangi asr avlodi, 2011.

## **NUTQNI KUCHAYTIRUVCHI VA SALBIY TA’SIR ETUVCHI OMILLAR REJA**

1. Nutqni kuchaytiruvchi omillarning tasniflanishi.
2. Nutq tozaligi notiqlik san’atining muhim asosi sifatida.
3. Nutq tozaligiga ta’sir etuvchi va tinglovchini zeriktiradigan salbiy holatlar
4. Hodisani bayon etish qoidalari

**Tayanch iboralar: Nutqiy obraz, nutqiya, xalqiya, jargon, vulgarizm, varvarizm, nutq ta’sirchanligi, dialektal so’zlar, nutq tozaligi.**

## **1. Nutqni kuchaytiruvchi omillarning tasniflanishi.**

Donishmand ajdodlarimizning naql qilishlaricha, har bir olimda, voizda bilim va iste'dod deb ataluvchi ikki azim daryo o'zaro qo'shilsa, undan kuchliroq omil topilmaydi.

**Nutqiy mahorat** bu oddiy nutq emas, balki fikrni soda va chiroyli ifoda eta olishdir. Shu bois nutq madaniyati notiqlik bilan bevosita aloqador bo'lsa ham, ular aynan bir tushunchalar emas. San'at ma'nosidagi notiqlik nutq madaniyatining eng yuqori nuqtasidan boshlanadi. Xalq orasida «so'zga chechan», «gapni do'ndiradi», «gapni qotiradi, kiyvoradi» degan iboralar yuradi. Bu notiqlik alomatlari bor kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Darhaqiqat ular nutqiy mahoratning ilmiy asoslaridan, uning sir-asrorlaridan voqif emas. Muayyan ma'rifiy maqsad yoki mavzuni umumlashtirish, kompozitsion yaxlitlikda taqdim eta olish salohiyati ularda unchalik shakllanmagan bo'ladi. Biroq har qanday xolatda – ulfatchilikda, gap-gashtaklarda, guzarlardagi suhbatlarda so'z, nazmga va askiyaga moyilligi yuksakligi bilan «uloqni» olib ketadi.

### **Nutqni kuchaytiruvchi va ta'sirlantiruvchi omillar**

- Nutqni turli-tuman shakllar bilan boyitib borish.
- Nutqning stilistik madaniyati tinglovchilarga ta'sir etishning ma'lum vositasidir. sodda, tushunarli tilda gapirish uchun maxsus stilistik usullar: ellipsis, takror, ritorik so'roq, ritorik murojaat, xitob, gradatsiya, antiteza, sintaktik, parallelizmlardan foydalanish.
- Maqol, masal va hikmatli so'zlarni o'z o'rnida ishlatish.
- Imo-ishora, ya'ni qo'l va butun gavda harakatlardan o'rinli foydalanish.

Ular

aytilmoqchi bo'lgan fikrning tinglovchilarga tezroq yetib borishi va kuchliroq ta'sir etishi uchun yordamchi vositadir.

- Intonatsiya. U nutqdagi fikr ta'sirini kuchaytiradi. Notiq o'z tinglovchilariga nima deyayotganligi bilangina emas, balki uni qanday ifoda etayotganligi bilan ham ta'sir etadi. Intonatsiyaning qay tarzda sodir bo'lishi nutq maqsadi, mazmuniga bog'liqdir. Maqsad, mazmun o'zgarsa intonatsiya ham o'zgaradi.

- Xalqning "ilmoqli" iboralari, maqol va hikmatli so'zlarini o'rinli qo'llash.
- Nutqda "kerak", "zarur", "mumkin", "shart", "maqsadga muvofiq" kabi so'zlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Notiqlik tinglovchi e'tiborini tortish asnosida chiroyli gapirish va mahliyo etish san'atidir. Amma nutqning faqat chiroyli bo'lishi notiq uchun kifoya qilmaydi: bema'ni safsatalarni ham juda chiroyli qilib gapirish mumkin. Bu esa notiqlik emas, vaysaqilik sanaladi. Notiqlik nutq vositasida kishilarga muayyan

g‘oya va maqsadlarni yetkazishni, ularni ma’lum maqsadlarga yo‘naltirishni nazarda tutadi. Notiq nutqi 1-2 kishi uchun emas, keng auditoriyaga qaratilgan bo‘ladi. Shu bilan birga unda nutqning mazmuni, mantiiqiy asoslariga, mundarijaviy tuzilishiga diqqat qilinadi. Notiqlikda notiq, oldindan qanday so‘zlash, nimadan boshlab, nimadan tugatish rejalarini tuzib olishi rasm emas. U go‘yo tayyorgarlik ko‘rilmagan nutqqa o‘xshaydi. Unda badihago‘ylik, hozirjavoblik ustunlik qiladi. Nutq madaniyati tugal fikr, go‘zal ifoda demakdir. Izchillik bilan bir-biriga mantiiqan bog‘lanmagan tugal fikr va uning ta’sirli ifodasi bo‘lmasa, u kishi qalbi, ongiga sig‘maydi, qabul qilinganda ham chuqr anglashilmaydi.

**Nutqning to‘g‘riligi**, deganda, dastaval uning adabiy til meyorlariga mos kelishi tushuniladi. Busiz boshqa aloqaviy sifatlar bo‘lishi mumkin emas.

Bir tilga xos xususiyatlarni yoki so‘zlarni ikkinchi tilga qo‘shib so‘zlash yoki adabiy til meyorlariga mos bo‘lmagan so‘z va iboralar (jargon, ko‘cha gaplari)ni qo‘llash nutqning tozaligiga zid. Demak, nutqning tozaligi, uning adabiy til mezonlariga mos kelish-kelmasligi, g‘ayriadabiy til unsurlaridan xoli bo‘lishidir. Ba’zi xollarda kishilar muloqot mavzuini chuqr bilmasdan, fikr ifodalashda qiynaladilar va odatga aylangan «Xo‘s, xaligi, anaqa, o’sha, nimaydi, deylik, demakki» kabi so‘zlarni ishlata dilar. Bular tilshunoslikda «parazit so‘zlar» deyiladi.

**Nutq tozaligiga** salbiy ta’sir etuvchi xolatlardan biri vulgar (qo‘pol so‘zlarni istifoda etishdir. qarg‘ish, haqorat ma’nolarini anglatuvchi bunday so‘zlar oynai jahon orqali namoyish etiluvchi badiiy film va spektakllarda qahramon qiyofasini, sajiyasini, ruxiyasini, ruxiy xolatini ochishda ba’zan qo‘llaniladi.

## **2. Nutq tozaligi notiqlik san’atining muhim asosi sifatida.**

**Nutqning tozaligi.** Nutqning tozaligi deganda unda til elementlarining ishlatilishida adabiy til me’yorlariga amal qilish-qilmaslik tushuniladi. Yaxshi, namunaviy nutq hozirgi o‘zbek adabiy tili talablariga mos holda shakllangan bo‘lishi, turli g‘ayriadabiy va g‘ayriaxloqiy til elementlaridan xoli bo‘lishi kerak. Bu masalaning til jihatni bo‘lib, nutqiy tozalikning tildan tashqari – paralingvistik jihatlari ham undan kam bo‘lmagan ahamiyatga ega. Chunki u boy ma’naviy-axloqiy qadriyat-larga ega bo‘lgan va bugun mustaqillik davrida yashab, dunyo hamjamiyati bilan teng mavqyeda muloqotda bo‘layotgan o‘zbek xalqining madaniy darajasiga mos bo‘lishi lozim.

### **«Nutqimizning sofligiga, asosan, quyidagilar ta’sir qiladi:**

1. Mahalliy dialekt va shevalarga xos so‘z, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so‘z va so‘z birikmalarini ning talaffuzi, urg’usi.
2. O’rinsiz qo‘llangan chet so‘z va so‘z birikmalari.
3. Jargonlar.

4. Vulgarizmlar.

5. Nutqda ortiqcha takrorlanadigan «parazit» so'zlar.

6. Kanselyarizmlar»<sup>64</sup>.

Nutqimizning toza bo'lishiga xalaqit berayotgan ling-vistik elementlar, asosan, dialektizmlar va varvarizm-lardir. To'g'ri, ular tilimizda ishlatalishi kerak, busiz bo'lmaydi. Chunki badiiy adabiyot tilida dialektizm va varvarizmlar ma'lum badiiy-estetik vazifani bajarishi, muallifning ma'lum g'oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Dialektal so'zlarning badiiy adabiyotda o'rni bilan ishlatalishi faqatgina maqsadga muvofiq bo'lib qolmasdan, adabiy tilimizning boyib borishiga, umumxalq tilidagi ayrim elementlarning saqlanib qoli-shiga xizmat qilishi ham mumkin. Shuning uchun ham dia-lektizmlar va adabiy til me'yori doirasida me'yorni belgilash tilimizdagi mas'uliyatli masalalardan biri sanaladi.

Ijtimoiy muhitning tildan foydalanish jarayoniga ta'sir ko'rsatishi tabiiy bir holdir. Kishilar nutqlarida o'zлari bilib-bilmay yoki e'tiborsizlik oqibatida boshqa til elementlaridan ham foydala-nadilar. Boshqa millat vakillari bilan birgalikda yashash, mehnat qilish, ta'lim olish, xullas, muomala jarayonida ana shu hol yuz beradi.

Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish ulardan nutqda zaruriyatga ko'ra foydalanish salbiy hodisa emas. Ammo bunday so'zlar orasida varvarizm deb ataluvchi shunday bir qatlam mavjudki, ularni nutqda qo'llash-qo'llamaslik masalasiga adabiy til me'yorlari nuqtai nazaridan munosabat bildirish lozim.

**Varvarizm** sifatida qaraladigan *nu, tak, vot, Sovsem, voobuъye, tolko, tolko tak, yestestvenno, ob'yazatelno, konechno, uje, pochti, tak chto, znachit, kak raz, neujeli, tem boleye, dokument, oformit qilmoq, organizovat qilmoq, prinimat qilmoq, razresheniye olmoq, podpis qo'ymoq, bo, akun, soni* kabi so'z va birikmalarning o'zbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud. Buning ustiga ular adabiy tilimizga kirgan emas. Demak, bu so'zlar o'zbek tili uchun me'yor emas. Ammo biz ularni, ijtimoiy muhit ta'siridan bo'lsa kerak, albatta, farqiga bormasdan ishlataveramiz, nutqimizni nazorat qilmaymiz. Shu tarzda leksik me'yor ham, nutq ham buziladi.

Shuning uchun ham tilda varvarizmlarning ishlatali-shini ijobiy hodisa sifatida emas, balki me'yorning buzilishi deb qarash va ularni nutqda qo'llamaslik lozim.

**Tildagi kanselyarizm** deb ataladigan rasmiy-idoraviy uslubga xos bo'lган so'zlar ham nutqning tozaligiga hamisha xavf solib turadi. Ular rasmiy uslubda fikrni ixcham va mantiqiy ifodalashga juda qulay. Ilmiy uslubda ham tayyor jumlalar, shablon iboralardan foydalilanadi. Ammo bunday so'z va iboralarni so'zlashuv va badiiy nutq uslubida ishlatish matnga putur yetkazishdan boshqa

narsa emas. Bunga A.Qahhorning «Nutq» hikoyasi qahramonining tabiiylik va samimiyatdan xoli bo’lgan hamda shu yo’l bilan g’oyatda kuchli badiiy obrazni yuzaga keltirgan nutqi misol bo’la oladi. Parcha keltiramiz: *O’rtoq rafiqam! Ijozat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunalik bajarib kelayotganimizga bir yil to’lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga!* E’tibor beraylik: suhbatda o’nlab yoki yuzlab kishi emas, ikki kishi – er va xotin ishtirok etayapti. Avval xotin bu gaplarni hazil deb o’ylaydi, «qiyqirib chapak chaladi». Ammo notiq jiddiy qiyofada so’zida davom etadi. *Birinchidan, ikkinchidan* deb oilada bir yil davomida yuz bergan yutuq-kamchiliklarni rasmiy ravishda sanab o’tadi va nutqni quyidagicha yakunlaydi: - *Lekin bu kamchiliklarga qaramay, turmushimizni a’lo darajada olib borayotganligimizga hyech qanday shubha bo’lishi mumkin emas deb hisoblash mumkin. Shu bilan qisqacha so’zimni tamom qilib, oilamiz bundan keyin ham sharaflar bilan qoplanajagiga to’la ishonch bildirishga ijozat bering!*

Notiq nutqini tugatgandan keyin yana asliga qaytadi. Xotini uning har bir so’zidan zavqlanadi, kuladi. Nima uchun notiq bir vaziyatda o’zini ikki xil tutayapti? Sababi shundaki, u garchi o’zini «keng eshituvchilar ommasiga mo’ljallangan notiq» deb hisoblasa ham, qaysi holatda, vaziyatda qanday gapirish kerakligini bilmaydi. Tilning vazifa va uslub jihatdan amal qilish qonuniyatlarini sayoz tushunadi. Shuning uchun ham uning nutqi notabiyy va kulgildir<sup>65</sup>.

**Parazit so’zlar** deb ataluvchi leksik birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular asosan so’zlashuv nutqida ko’p ishlatilib, notiqning o’z nutqini kuzatib bormasligi, e’tiborsizligi natijasida paydo bo’ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. Masalan, ayrim kishilar o’zlarini sezmagan holda *demak*, xo’sh kabi so’zlarni qaytaraverishga o’rganib qolganlar. «Bir dokladchining bir soatlik nutqida, - deb yozadi A.Ahmedov, - «o’rtoqlar» so’zi 101 marta, «ya’ni» so’zi 73 marta, «demak» so’zi 60 marta tak-rorlanganligining guvohi bo’lganmiz. Qarang, bir soat-lik nutqda 234 ta ortiqcha, «bekorchi» so’z ishlatilgan-a»<sup>66</sup>.

**Vulgar so’zlarning uchrashi** ham nutqimiz tozaligiga salbiy ta’sir qiladi. Og’zaki nutqda ba’zan uchrab qoladigan so’kinish, haqorat so’zlarni ishlatish axloq me’yorlariga, sharqona muomala madaniyatimizga mutlaqo to’g’ri kelmaydigan ishdir. Ammo badiiy adabiyotda personajlarning kuchli hayajonini, g’azabini ifoda etish maqsadida vulgar so’zlarga murojaat qilgan holatlarga duch kelamiz: *Qarg’ash uchun so’z topolmadi, / G’azabini hyech bosolmadi. / «O’ynash» so’zin hadeb hijjalab, / Oxir dedi «Fohisha, jalab...»* (H.Olimjon). Imkonи boricha, badiiy adabiyotda ham vulgarizmlarni ishlatishdan qochish kerak. Chunki badiiy adabiyot kishilarga estetik ta’sir o’tkazish vositasi bo’lish bilan birga tarbiya manbai ekanligini ham unutmasligimiz kerak.

Nutqning tozaligi, ya’ni sof adabiy tilda muloqot qilish o’quvchilar va talabalarning nutq madaniyati hamda mahoratini egallash, notiqlik sifatlariga erishishlari uchun muhim bosqich sanaladi. Bu esa tildan foydalanishda nihoyatda e’tiborli bo’lishni talab qiladi.

### **3. Nutq tozaligiga ta’sir etuvchi va tinglovchini zeriktiradigan salbiy holatlar.**

**Nutqning ta’sirchanligi.** Nutqning ijro etilishida unga ma’lum bir voqyeahodisa haqida ma’lumot berishdan tashqari yana bir maqsad – tinglovchi ongiga va ruhiyatiga ta’sir etish vazifa qilib qo’yiladi. Shuning uchun ham ta’sirchanlik nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi hamda to’g’rilik va aniqlik ham, mantiqiylik va tozalik ham suhbatdoshga, tinglovchiga yoki o’quvchiga ta’sir etishga qaratilgan bo’ladi. Bu sanab o’tilgan xususiyatlarda til omillari birinchi o’rinda tursa, ularning barchasidan foydalangan holda ta’sirchanlik keng doirada tildan tashqaridagi omillarni ham qamrab oladi.

**Nutqning ta’sirchanligi.** Nutqning ta’sirchanligi deganda, asosan og’zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e’tiborga olish ham muhim sanaladi. Ya’ni notiq auditoriyani hisobga olishi – ularning bilim daraja-sidan yoshigacha, hatto nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatigacha kuzatib turilishi, nutqning tinglovchilar tomonidan qabul qilinishi nazorat qilib borilishi lozim bo’ladi. Malakali bilimga ega bo’lgan kishilar oldida jo’n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo’limgani kabi, oddiy, yetarli darajada ma’lumotga ega bo’limgan auditoriya oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga yo’l qo’yib bo’lmaydi. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi. Va butun diqqat-e’tibor ifodalamoqchi bo’lgan fikrni to’laligicha tinglovchilarga yetkazish vazifa qilib qo’yiladi.

Tinglovchining e’tiborini qozongan nutqgina ta’sirchan nutq hisoblanishi mumkin. Buning uchun, yuqorida ta’kidlanganidek, suhbat mavzusini yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq rejasini ham bo’lishi zarur. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o’zaro bog’lab, tinglovchilarga avval nutq rejasini tushuntirib, shundan keyingina gapni boshlash lozim.

So’zlovchining o’z nutqiga munosabati ham muhim. Shunday bo’lgandagina quruq rasmiyat chilikdan qochish mumkin bo’ladi. So’zlovchi va tinglovchi o’rtasida samimiyat paydo bo’ladi. Notiq fikrlarini o’zi yoki auditoriyadagi kishilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir subektiv mulohazalarini bildirsa, nutq yana ham ishonarli va ta’sirli chiqadi.

«Nutq so'zlash amaliyoti sohasidagi mutaxassislar notiq o'z maqsadiga erishishi uchun nutq madaniyati qoidalariga rioya etishi, kerakli o'rirlarda pauza qilishi, "e-e-e", "hm-hm-hm" kabi keraksizlarni hadeb talaffuz qilmasligi, qo'llarini cho'ntakka solmasligi va shu kabilar haqida ko'p yozishadi»<sup>67</sup>.

«Xo'sh, shunday ekan, notiqlik va muloqot san'ati borasidagi an'anaviy qoida va tavsiyalarga rioya etish kerakmi yoki kerak emasmi? Ularni o'rganishdan naf bormi? Albatta, kerak va naf bor. Faqat nutq muvaf-faqiyati notiq shaxsi, uning ichki dunyosi, fikr bilan so'zning uyg'unligiga bog'liq ekanligini unutmaslik lozim. Auditoriyani alohida ta'sirchan ritorik vositalar emas, balki fikrlaringiz bilan yuz-qiyofangiz ifodasining muvofiqligi, nihoyat, tinglovchilar bilan muloqotingiz-ning faolligi darajasi ko'proq inontiradi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, haqiqatda nutqning ta'sirchanligini bu omillarning o'zaro muvofiqlashtirilgan jamlamasi ta'minlaydi. Zero, so'z (verbal vosita) va tana harakatida (noverbal vosita) o'z ifodasini topadigan notiq xatti-harakati uning shaxsini belgilovchi va ichki qoida va ti-zimlargacha bo'ysunuvchi ichki jarayonlarning natijasidir».

«Notiqning auditoriya oldiga har qanday chiqishi ma'lum axborotni uzatish, o'z fikr va g'oyalarini tinglovchilar ongiga yetkazishdan iborat. Ularni qabul qilish, tushunish esa tinglovchining hayotiy tajribasiga, ehtiyojlari va qiziqishlariga, istak va kayfiyatiga bog'liq. Uzatilayotgan axborotning tinglovchi tomonidan qabul qilinishi bir qator subyektiv faktorlarga bog'liq.

Avvalo, bu - tinglovchining eshitishga va axborotni qabul qilishga ichki tayyorgarligi, moyilligi. Ichki tayyorlikka, mayliga qarab kishi o'ziga yetkazilayotgan axborotga salbiy yoki ijobiy munosabat bildiradi, uning ongi va his-tuyg'ulari faolligi oshadi yoki susayadi».

«Ba'zan shunday bo'ladiki, mazmunan boy, shaklan qiziq ma'ruza ham tinglovchilarda chuqur qiziqish uyg'otmaydi. Sababi shundaki, odamlarning diqqatini jalb etish, ma'ruza yoki suhbatga qiziqtirish uchun haq gaplarni, aniq dalillarni izchillik bilan bayon etishning o'zi kifoya qilmaydi. Tinglovchilarni eshitishga ruhan tayyorlash zarur, ya'ni ularni tor nuqtai nazarlari doirasidan chiqarish kerak bo'ladi.

Tinglovchini o'z nuqtai nazari doirasidan chiqarish-ning vositalardan biri - inson tafakkuriga xos bo'lgan axborotni assosiyali o'zlashtirish qobiliyatidan foyda-lanishdir. Notiq tinglovchilarga ma'lum bo'lgan voqyea-hodisa, faktlardan oqilona foydalansa, ularning hayotiy tajribasi, bilimlariga tayansa, ularda ko'tarilgan muam-molarni tushunishga moyillik uyg'otishi osonlashadi.

Notiq bilan auditoriya o'rtasida muloqot o'rnatili-shiga tinglovchilar psixologiyasining ayrim xususiyatlari ham ta'sir qiladi. Ba'zan o'z sohasini yaxshi bilgan mutaxassis ham auditoriya oldida o'zini yo'qotib qo'yadi, natijada

tinglovchilar ham, nutq so'zlovchi ham qoniqish his qilmaydilar. Sababi shundaki, har qanday auditoriya notiqqa alohida talablar bilan yondoshadi va ma'lum ma'noda unga ruhiy ta'sir o'tkazadi.

Notiqda tinglovchilar yetakchini ko'radilar va notiq tashabbusni qo'ldan bermasligi, qanchalik hayajonlanma-sin, tinglovchilar oldida o'zini dadil tutishi, qat'iy ovoz bilan gapirishi kerak».

Tinglovchiga emosional ta'sir o'tkazishga muvaffaq bo'lish esa notiqning yutug'i hisoblanadi. Bu haqda mashhur rus notig'i prof. V.O.Klyuchkovskiy shunday degan edi: «Jamoat orasida gapiranimizda tinglovchilarning qulog'iga, aqliga murojaat qilmang, shundoq gapiringki, ular sizni tinglab turib, so'zlaringizni eshitsin, pred-metlarni siz bilan ko'rib, sizning holatingizga kirish-sin. Tinglovchilar sizning tasviringizsiz ham aqli, yuragi, fikri bilan shu predmetni yaxshiroq kuzatadi.

Nutqda fikrni rivojlantira borib, dastlab uning sxemasini tinglovchining aqliga yetkazish, keyin uning tasavvuriga yaqqol taqqoslarni taqdim etish kerak, nihoyat chiroyli lirik tasvirlar bilan ehtiyyotkorona uni tinglovchining yuragiga jo qiling, o'shanda tinglovchi – asiringiz qochib ketmaydi, hatto siz uni erkin qo'yib yuborsangiz ham sizning abadiy itoatgo'y mijozingiz bo'lib qoladi»<sup>68</sup>.

Nutqning tinglovchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida notiqning nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bilishi, jest va mimikalari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham ahamiyati bor. Samimiylilik, xushmuomalalik, odoblilik, auditoriyaga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning tinglovchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishi-ga sabab bo'ladi.

«Qadimgi dunyoning mashhur notig'i Demosfen ham notiqlik san'atida imo-ishoraning roliga juda yuksak baho bergan edi. Demosfendan yaxshi nutqqa nima kerak, deb so'raganlarida: u: «Imo-ishora, imo-ishora va imo-ishora! – deb javob bergan edi. Nutq ta'sirchanligini oshrish uchun qilinadigan imo-ishora va boshqa xatti-harakatlar me'yorida bo'lishi kerak»<sup>69</sup>.

Nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi haqidagi gap, ma'lum ma'noda, nutq sifatlari haqida aytilgan mulo-hazalarga yakun yasashdir. Chunki yaxshi nutqning fazilat-larini ko'rsatib o'tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatolarni tahlil qilish pirovard natijada ta'sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Nutqning maqsadga muvofiqligi**

Ma'lumki, so'zlovchi tomonidan rejallashtirilgan yoki vaziyatga qarab so'zlanadigan nutq ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Ya'ni so'zlovchi aniq maqsad va manfaatni ko'zlab, til vositalaridan foydalanadi. Adabiy til me'yorlariga amal qilib so'zlangan nutq to'g'ri, aniq, toza, mantiqiy, ta'sirchan, demak, maqsadga muvofiq nutq sanaladi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga asoslanib, «Nutq faoliyatida muallif o’z oldiga qo’yan maqsadni eng aniq, eng to’g’ri, eng yaxshi, eng ta’sirchan, eng tushunarli qilib ifodalaydigan so’zlarni, so’z birikmalarni, gaplarni topishga, tanlashga intiladi. Bu vositalarni yaxlit qilib, «maqsadga muvofiqlik» deb belgilash mumkin».

Xullas, yaxshi nutq so’zlovchi va yozuvchidan savodxon-likni, katta mehnatni talab qiladigan murakkab jarayon-dir. Umuman, nutq aniq va ravon, grammatik jihatdan to’g’ri shakllangan bo’lishi va orfoepik talablar darajasida talaffuz etilishi, boshdan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim bo’ladi. Ana shunday nutqgina tinglovchi va o’quvchi qalbiga borib yetadi. Shunday nutqgina madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun esa yozuvchi va omma oldiga chiqib nutq so’zlaydigan kishidan tinimsiz izlanish va o’z ustida ishslash, muttasil nutqiy mashq talab qilinadi.

Yuqorida ko’rib o’tilgan nutqiy sifatlar bilan bevosita daxldor bo’lgan omillardan biri nutqning ta’sirchanligidir. Nutq ta’sirchanligi, asosan og’zaki nutq jarayoniga tegishli. So’zlayotganiningizda eshituvchining ko’z o’ngida tasviriy manzara hosil qila olsangiz, obrazli fikr yuritsangiz, o’z so’zingizga ishontira olsangiz, qiziqtirsangiz, nutqingiz ravon bo’ladi va ta’sir darajasi oshib boraveradi.

O’xhatish yuzasidan o’quvchilar ongiga singdirilgan bilim keyingi darslarda to’ldirilib, mustahkamlab boriladi.

Eng muhimi esa ifodali o’qish jarayonida o’quvchilardan shoshilmaslikni, o’qilayotgan matn mazmunini to’la oshib berish va tinglovchilarga yetkazishni, darsda o’tilgan g’oyaviy-badiiy omillarga e’tibor berishni talab etish lozim. Toki, bu o’qish shunchaki tez o’qish, umuman o’qish yoki formalistik o’qishga aylanib ketmasin. Buning uchun esa har bir ifodali o’quvchinibutun borlig‘i bilan anashu asarga mahliyo etish, unda ifodali o’qish uchun zavq va Rag’bat uyg’ota olish lozim. Bu faktor har bir o’quvchining mahoratiga bog’liq. Biroq, ifodali o’qish uchun ana shu katta ishtiyoyq bo’lgandagini asarning estetik fazilati yaqqolroq ochilib borishi va adabiyot darslarining estetik badiiy stimuli yuqori bo’lishi har bir o’quvchining diqqat markazida turishi zarur.

Shunday qilib, «nutqiy obraz» haqidagi tushunchani o’quvchilar ongida shakllantirishning prozaik asarni o’rganishda imkoniyat katta. Ammo «nutqiy obraz»ning poetik asarda roli katta ekanligini nazarda tutish kerak. Nutqiy obrazlar haqidagi tushunchani shakllantira borish orqali o’quvchida hayot to’g’risidagi tasavvur o’stirib boriladi. O’quvchilar istiora-o’hshatishni ongli ravishda tushunib yetmoqlari uchun poetik obraz orqali konkret predmet va hodisalarini yaxshi bilib oladilar. Nutqiy obraz mazmunini ochishda konkret misolardan foydalanish lozim, albatta. Bunda har bir shoir yoki yozuvchi ijodidagi originallikni yoritib berishga alohida e’tibor beriladi. O’quvchilarni ifodali o’zlarga

qiziqish va e'tibor uyg'otish uchun shu so'zlar mazmunini tushuntirish, so'zlayotgan kishi fikrini anglatishdagi buyoqdorligini anglatish lozim. Badiiy nutq g'oyat ta'sirchan bo'ladi. Undan Kim qanday so'zlayotganini, uning g'azab yoki shodlik bilan, qayg'u yoki quvonch bilan fikr bildirayotganini payqab olish oson.

**Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqqan xolda nutq yorqin va ta'sirchan bo'lishi uchun quyidagilarni unutmaslik tavsiya etiladi:**

- Nutq yolg'onda yiroq bo'lishi, nutqqa yolg'on aralashmasligi zarur;
- Nutq kuchli mantiqqa asoslangan haqiqat aosida qurilishi kerak;
- Nutq dalil-isbotli faktlarga boy bo'lishi lozim;.
- Nutq mazmunidan kelib chiqb, fikr hayotiy misollar orqali yoritilishi maqsadga muvofiq;
- Eshituvchi uchun noma'lum bo'lган ma'lумотларни келтirmagan ma'qul;
- Nutq hayajon va jo'shqinlik tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan bo'lishi darkor;.
- Nutqda har bir so'zning salmog'iga e'tibor berish, uning ta'siri ko'ra bilish zarur;
- Nutqda zimmaga yuklangan mas'uliyatni chuqur xis qilish lozim.
- Har bir nutqda hayotning biror-bir dolzarb masalasi ko'tarilishi kerak.
- Nutqda mavzu bilan bog'liq biror rivoyat, latifa, hotira yoki obrazli iboralar bo'lishi maqsadga muvofiq;.

Fazilatlarini ikki turkumga bo'lar ekan alloma Abu Nasr Forobiy uni «Nutqiya» va «xalqiya»ga ajratadi. Nutqiya fazilatlari - ruxning gapiruvchi quvvatiga taalluqli bo'lib, ular hikmat, aql, ajin (peshonadagi), fahm afzalligi va zakovatdan iborat... Bilish vositalari va omillarini esa qo'yidagilardan iborat, deb ko'rsatadi, - nutq, tasavvvur, xis. Narsalar to'g'risidagi bilim nutq quvvati hamda tasavvvur orqali, shuningdek, xis-tuyg'u vositasida paydo bo'ladi. Har vaqt bilim hosil qilishga iroda ko'rsatilsa, uning idroki nutq quvvatining sha'nida ya'ni markazidadir. Fozillar shahrining asoschisi bo'lган birinchi Rais 12 ta xislatga ega bo'ladi. Uchinchi o'rribosar bo'lган shaxsga ushbu xislatlardan birinchi oltitasigina shart bo'ladi. Bu shartlarning biri – gapirayotgan gapining salmoqdon va kam bo'lsa ham, ta'sirchan bo'lishidir.

Notiqlik tinglovchi e'tiborini tortish asnosida chiroyli gapirish va mahliyo etish san'atidir. Amma nutqning faqat chiroyli bo'lishi notiq uchun kifoya qilmaydi: bema'ni safsatalarni ham juda chiroyli qilib gapirish mumkin. Bu esa notiqlik emas, vaysaqilik sanaladi. Notiqlik nutq vositasida kishilarga muayyan g'oya va maqsadlarni yetkazishni, ularni ma'lum maqsadlarga yo'naltirishni nazarda tutadi. Notiq nutqi 1-2 kishi uchun emas, keng auditoriyaga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga unda nutqning mazmuni, mantiqiy asoslariga,

mundarijaviy tuzilishiga diqqat qilinadi. Notiqlikda notiq, oldindan qanday so‘zlash, nimadan boshlab, nimadan tugatish rejalarini tuzib olishi rasm emas. U go‘yo tayyorgarlik ko‘rilmagan nutqqa o‘xshaydi. Unda badihago‘ylik, hozirjavoblik ustunlik qiladi. Nutq madaniyati tugal fikr, go‘zal ifoda demakdir. Izchillik bilan bir-biriga mantiiqan bog‘lanmagan tugal fikr va uning ta’sirli ifodasi bo‘lmasa, u kishi qalbi, ongiga sig‘maydi, qabul qilinganda ham chuqr anglashilmaydi.

#### **4.Hodisani bayon etish qoidalari**

Nutqda bildiriladigan muammo tinglovchi va jamoatchilikka tanish bo‘lishi lozim.

Til, nutq hamda yozuv o‘zaro bir butunlikni hosil etibgina qolmay, og‘zaki va yozma nutqning asosiy manbai hamdir. Nutqiy bo‘linishlar sirasidan o‘rin olgan telenutq va radionutq ommaga muayyan tilning jozibasi va boyligini namoyon etuvchi, yetkazuvchi asosiy vositalardandir. Ma’lumki, so‘z va nutq vositasida yakka shaxs va jamoa bilan muomalada bo‘lishga qaratilgan ixtisosliklar ibtidoiy ko‘rinishlarda bo‘lsada, qadimdan mavjud. Hozirda esa uning rang-barang, zamonaviy texnika vositalari orqali muloqotda bo‘lish shakllari ommalashib bormoqda. Garchi shunday esa-da, so‘z, nutq ijtimoiy til birliklariga munosabat hamma davrlarda bir xil bo‘lgan. Ajdodlarimiz, so‘zni, nutqni ilohiy ne’mat, hikmat deb qarashgan. Uni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llay bilish nozikta’b notiqlarga, suhanvarlarga nasib etgani rost. Yurtboshimizning Oliy Majlis minbaridan turib, «O‘z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin»-deb ta’kidlashlari bejiz emas. To‘g‘ri ta’kidlanganidek, gap so‘zning soni yoki sifatida emas, balki ularni bilish va o‘z o‘rnida qo‘llay olishdadir.

«Inson gapiruvchi hayvondir». Uning xususiyati hayvonlikdan va gapirishdan iborat»-deb ta’kidlagan edi mavlono Jaloliddin Rumi. Hayvonlik unda doimiydir, ayrilmasdir. So‘z ham shundoq. Inson ko‘rinishidan hech narsa demasa ham, ichida hamisha gapiradi. Bu xol go‘yo loy qorishgan suv toshqiniga o‘xshaydi. Toshqinning toza suvi insonning so‘zi (nutqi) balchig‘i esa hayvonligidir. Biroq, balchiq unda o‘tkinchi bo‘lib, vaqt kelib ulardan asar ham qolmaydi. Yaxshi yoki yomon bo‘lishiga qaramay, so‘zlar, hikoyalar va bilimlar qoladi... Odamlarning yomonliklariga sabr qilmoq go‘yo o‘z nopolkligini ularga surtib tozalangan kabidir. Sening fe’li huying tahammul bilan yaxshilanadi. Ularniki esa zulm va yomon muomala sababli buziladi. Buni eslab olding va endi o‘zingni pokla»-deydilar.

Oiladagi va umuman, jamiyatdagи hatarli muammolarni sinchiklab o‘rganilsa, ko‘pincha ularning kelib chiqishi – o‘ylamasdan, ehtiyyotsizlik bilan

aytilgan qo‘pol so‘zga borib taqaladi. Chiroyli so‘z esa yaxshi muomala, mehr-oqibat kalitidir.

### **AMALIY TAKLIF VA TAVSIYALAR**

- Notiq quyidagilarga amal qilishi kerak:
- Suhbatdoshning ilm darajasini hisobga olish.
- Nasihatni muloyim ohangda bayon etish va uni yolg‘iz olib borish.
- Fikrni bayon etishda bitta dalil bilan kifoyalanganmaslik.
- Tinglovchini hurmat qilish.
- Nasihatga berilib ketmaslik
- Fikr va g‘oyani qo‘pol ohangda bermaslik.
- Fikr aniq bo‘lishiga erishish.

### **Nutqni muvoffaqiyatli chiqishi quyidagi jihatlarga bog‘liq:**

- Notiqning o‘ziga ishonchi mustahkam bo‘lishi va nutqda olg‘a suriladigan fikrga to‘la ishonch hosil qilishi lozim.
- Nutq to‘liq isbotli dalillarga ega bo‘lishi kerak.
- Materialni to‘g‘ri joylashtirish, ekspozitsiyaga alohida e’tibor berish lozim.
- Notiqning o‘z nutqi qaratilgan sohani yaxshi bilishi zarur.
- Yumor va hozirjavoblik, tez va chiroyli javob qaytarish mahorati bo‘lishi kerak.

### **Nutq so‘zlashning kompozitsiyalari**

1. Muqaddima.
2. Ishning mohiyatini bayon qilish.
3. Rejadagi qismlarni ifodalash.
3. Dalillar (matnning muhim jihat).
5. Asosiy mazmunni ta’kidlash.
6. Xulosa (yakun yasash).

### **Notiqlik san’atidagi zaruriy jihatlar:**

1. Mavzuga mos matn, manbani tanlash.
2. Rejaga ma’lumotlarni joylashtirish.
3. Nutq qurilishini to‘g‘rilash va nutq materialini o‘rganish.
4. Nutqni so‘z bilan ifodalash.
5. Nutqni talaffuz qilish.

### **Notiqlikni egallahsha:**

- Mashaqqatli mehnat.
- Nutq go‘zalligi.

- Fikrni fikrni ifodalashda tinglovchi qalbiga to‘g‘ri yo‘l topish.
- Har bir so‘z to‘g‘ri va asosli bo‘lmog‘iga erishish.
- Har bir nutq ma’lum ilmiy asosga ega bo‘lishiga erishish.
- Nutqqa jiddiy tayyorgarlik ko‘rish.
- Tinglovchining xarakteriga qarab ish tutish.
- Nutqda qisqalik, aniqlikka erishish lozim.

**Voiz quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:**

- Voizning so‘zlari ta’sirchan va foydal bo‘lishi.
- Nutq tinglovchi uchun yangilik berishi.
- Notiqning o‘zi bir sohani egallagan bo‘lishi.
- Notiq olim va bilimdon, har narsadan habardor bo‘lishi.
- Kamtarin bo‘lishi.

**Ma’ruzachi uchun zarur bo‘ladigan xususiyatlar:**

- Chuqur ishonchga ega bo‘lish.
- Mavzuni puxta bilish.
- Nazariyani hayot bilan bog‘lay olish.
- Nutqlarga puxta tayyorlanish.
- Masalani keskin qo‘ya bilish va o‘zining ehtiroslari bilan tinglovchilarni qiziqtira olish.
  - Tinglovchilarni o‘ziga jalb qila olish va ular bilan tegishli hamfikrlikni o‘rnata bilish.
  - O‘z fikrlarini sodda qilib tushuntira bilish, tinglovchilarga o‘rtoqlarcha muomalada bo‘lish.
  - Hodisani bayon etish qoidalari:
  - Ta’rif mutanosib bo‘lmog‘i kerak.
  - Ta’rifda chaynalish va mijg‘ovlanish bo‘lmasligi kerak. Bu bir fikrni tavtalogik bayon etishga olib keladi. Masalan, «Kulgini qistatadigan narsa – kulgili narsalardir».
  - Ta’rifda inkor bo‘lmasligi kerak. Masalan, «Yorug‘lik – qorong‘ulikning yo‘qligidir».
  - Ta’rif qisqa, ravshan va aniq bo‘lmog‘i lozim.
  - Ko‘rsatish.
  - Tasvirlash.
  - Tavsiflash.
  - Tinglovchini zeriktiradigan xolatlar
  - Nutqni bir meyorda so‘zlash.

- Haddan tashqari ilmiy iboralarni qo‘llash.
- Ortiqcha va sun’iy harakatlar.
- Nutqning ichki qurilishini muayyan qolipga tushirib qo‘yish (hamdu sano, shon-sharaf, qulliq qilish, va hokazolar).
- Vulgar (qo‘pol) so‘zlarni istifoda etish.

### **Notiq oldidagi vazifalar**

- o‘z fikrini isbotlash, ya’ni keltirilgan fakt va dalillarning chin, rost ekanligini
- ko‘rsatib berish.
- tinglovchilarga estetik zavq bag‘ishlash.
- tinglovchilarning qalbiga, kayfiyatiga ta’sir etish, kishilarni faollikka undash.
- o‘z ishining xaqligiga astoydil ishonish va har tomonlama ma’rifatli bo‘lish.
- nutqni samimiy va jonli tilda so‘zlash.

### **Notiqlik san’atining zamonaviy xususiyatini belgilovchi omillar**

Har bir masalada o‘z fikrini erkin bildira olish imkoniyatlarining yaratilganligi.

So‘z bilan ishning, nazariya bilan amaliyotning birligi.

**Ilmiylik.** Nutqning ilmiy jihatdan isbotlanganligi, dalillar bilan asoslanganligi, da’volarni aniqligi, ishonchliligi.

4) Ajratish funktsiyasi Bu turli xil intonatsion naqshga ega bo'lgan so'zlarning qarama-qarshi bir xil ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Intonatsiya guruhi, ibora va matn darajasida. Masalan: Agar Maryam kelsa, menga xabar bering → darhol xabar bering.

Bir necha kishi kelishi kutilmoqda, ammo Maryam ma'ruzachiga qiziqadi.

Agar Maryam kelsa, menga ayting → darhol xabar bering. (Faqat Maryam kutmoqda va boshqa hech kim yo'q).

Shunday qilib, intonatsyaning 4 funktsiyasi mavjud. Ularning barchasi jumlalarning semantik tizimi bilan bog'liq va tilshunoslik sohasiga tegishli.

5) Shubhasiz, intonatsiya inson his-tuyg'ularining namoyon bo'lishi bilan bog'liq, shuning uchun intonatsyaning yana bir funktsiyasini hissiy ma'nolar va soyalarini ifoda etish funktsiyasi deb atash mumkin (modallik). "Yiqilish + ko'tarilish" ohangi kontrastni, kamsitishni anglatadi. Har bir ohangdor rasm o'z ma'nosiga ega.

Masalan: Qachon kelding? - Endi (xotirjam, xolis)

Hozir (qiziqaman)

Hozir (suhbatni qo'llab-quvvatlash)

Siz hozir buni qilishingiz kerak. - Endi? (juda hayron)

Intonatsiyaga funktsional yondashuvning asoschisi chek tilshunosi F. Danes hisoblanadi, u o'zining mashhur maqolasida (Danes, 1960) intonatsiya hodisalarining funktsional tomoni to'g'risida savol bergan va intonatsyaning eng muhim funktsiyalarini nomlagan. Intonatsyaning asosiy asosiy vazifasi, Danesh so'zlarni (qo'ng'iroq birliklari) gaplarga (kommunikativ birliklar) o'zgartirishni ko'rib chiqadi. Intonatsiya - bu eng keng tarqalgan, sodda va har doim mavjud bo'lgan bayonet yaratish vositasi. Izolyatsiya qilingan nutqda intonatsiya uning elementlarini birlashtiradi. Nutqning bog'langan segmentida u shuningdek bayonotlarni bir-biridan ajratib turadi. Intonatsyaning yana bir asosiy vazifasi - bu mavzu va burilish o'rtaсидаги aloqani signalizatsiya qilish. Daneshning so'zlariga ko'ra, ikkinchi darajali (modal) funktsiyalarining eng muhim, nutqning maqsadini tavsiflashdir. Qo'shimcha modal funktsiya - hissiy, unga qo'shiladi. Danesch aytganlarning aksariyati tilshunoslik adabiyotida, xususan, bayonetni yaratishda intonatsyaning o'rni, uning bayonning kommunikativ turlarini ajratishda qatnashishi, intonatsiyani hissiyotlarni ifoda qilishning eng muhim vositalaridan biri ekanligi haqidagi fikrlar ilgari eshitilgan. Danesh maqolasi nashr etilgandan keyin intonatsiya funktsiyalari ro'yxatlari paydo bo'lishni to'xtatmadi. Turli mualliflar tomonidan intonatsiya funktsiyalari deb ataladigan narsalarning xilmalligi hayratlanarli emas. Ko'pincha mualliflar tomonidan ixtiro qilingan nomlar

va ularning mezonlari, taqsimlanishi bo'yicha aytib o'tilgan funktsiyalar soni, ularning nomlari turlicha bo'lgan ro'yxatlarni taqqoslash ushbu xilma-xillik nafaqat mualliflarning printsipial jihatdan turli xil nazariy pozitsiyalari bilan izohlanadi, balki ko'p jihatdan "funktsiya" tushunchasining noaniqligi bilan izohlanadi. . Buni L. K. Tseplitis o'zining intonatsion funktsiyalari ro'yxatini quyidagi so'zlar bilan yakunlagan holda ta'kidlaydi: "Ushbu intonatsiya funktsiyalari ro'yxatlarini muhokama qilish qiyin, chunki funktsiyalarni ajratish asosi bo'lgan" funktsiya "va" funktsiyalar o'rtasidagi chegara »tushunchalari aniqlanmasdan nazariy tizimlarga kiritiladi. . Ceplitis shuningdek, o'ziga xos intonatsiya funktsiyalarini ("intonatsiya belgilaridan foydalanish" funktsiyasini anglatadi) taklif etadi: semantik (birlamchi), sintaktik va stilistik (ikkinchi darajali).

Keling, intonatsiya funktsiyalarini aniqlash bilan bog'liq ba'zi asosiy fikrlarga to'xtalib o'tamiz. Ehtimol, ko'pchilik bir ovozdan tadqiqotchilar hissiyotlarni ifodalash bilan bog'liq bo'lgan intonatsiya funktsiyasini ta'kidlab, uni intonatsiyaning eng muhim funktsiyasi (M. Shubiger, A. Krattenden) sifatida tan olish yoki uni lingvistik tavsif doirasidan butunlay chiqarib tashlash uchun ajratib ko'rsatmoqdalar (T. M. Nikolaev, I.G. Torsuev). Ushbu funktsiya odatda hissiy yoki ekspressiv deb ataladi.

Vaziyat ushbu funktsiyaning nomi yoki hissiyotlarga qarshi bo'lgan funktsiyalar bilan yanada murakkablashadi. L. R. Zinder hissiyotlarning intonatsiyasini lingvistik hodisalar bilan bog'lab, "intonatsiyani jumlaning ma'nosi va sintaktik tuzilishi bilan bog'laydigan barcha narsani yagona vazifa sifatida ko'rib chiqishni" taklif qiladi va uni emotsiunal funktsiyadan farqli o'laroq kommunikativ funktsiya deb ataydi. L. R. Zinder o'zining "Umumiy fonetikasi" da intonatsiyaning ushbu kommunikativ tomonini bir qator o'ziga xos funktsiyalar yoki ma'nolar bilan ifodalaydi: "intonatsiya - nutqni jumlalarga ajratish vositasi", "jumlalarning kommunikativ turlarini ajratishda qatnashadi" va jumlalarning haqiqiy bo'linishini ifodalashda. , "Intonatsiya - bu sintagmalarga bo'linish", "nutqning ma'lum bir qismi cheklangan yoki cheklanmagan sintagma bo'ladimi-yo'qmi, intonatsiya qayd etadi."

T. M. Nikolayeva konseptsiyasiga ko'ra, "frazal intonatsiya tovush oqimini so'zlar va sintagmalarga ajratadi" va shu bilan birga "ajratilgan birliklar o'rtasidagi aloqani amalga oshiradi, nutq oqimini (va kengroq ma'noda - kommunikativ aktni) yaxlit bir butunga aylantiradi". T. Nikolaeva haqiqiy bo'linishni amalga oshirish va alohida birlik birliklarini ajratish kabi funktsiyalarni "kengroq kategoriya - semantik munosabatlarning intonatsion vositalarini ajratilgan birliklarga uzatish" ostida ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bunday holda, bitta katta birlikning kichik qismlari orasidagi aloqalar uzatilishi mumkin (masalan, bitta gap ichidagi so'zlar o'rtasidagi); ushbu birliklarning o'zlari o'rtasida (masalan, savol -

javob); Va nihoyat, turli xil katta birliklardagi kichik birliklar (masalan, har xil so'zlar orasidagi so'zlar) » Shunday qilib, Nikolayevning fikriga ko'ra, frazal intonatsiya "uchta til funktsiyasi mavjud: bo'linish funktsiyasi (dizayn orqali), aloqa funktsiyasi va semantik munosabatlarni uzatish funktsiyasi." Ushbu ishda taklif qilingan intonatsiya funktsiyalari tizimi L. R. Zinder tomonidan ishlab chiqilgan "til funktsiyasi" atamasini quyidagi tushunishga asoslanadi: "Ushbu til vositasining vazifasi, albatta, tegishli til toifasini etkazish uchun uning maqsadi sifatida ko'rib chiqilishi kerak".

### **Mavzu bo'yicha savollar**

- 1.** Nutqni kuchaytiruvchi omillar qaysilar?
- 2.** Oddiy so'zlashuv nutqining adabiy so'zlashuv nutqidan farqi nimada?
- 3.** Muloqot vositalarini ko'rsating va izohlang?
- 4.** Nutqning ta'sirchanligi nimalarga bog'liq?

### **Adabiyotlar ro'yxati**

- 1.** Muhammadjonova L.A. Ritorika. T.: "Adabiyot uchqunlari", 2019.
- 2.** Ҳусанов Б. Гуломов В. Муомала маданияти. Дарслик. –Тошкент: Iqtisod-moliya, 2009.
- 3.** Арасту. Риторика. –Тошкент: Yangi asr avlod, 2011.
- 4.** Мухаммаджонова Л.А. Нотиқлик санъати. Услубий қўлланма. – Тошкент: ЎзМУ, 2008.
- 5.** Richard A. Lanham. A Handlist of Rhetorical Terms, Second edition. University of California Press. USA, 2010.
- 6.** Жуманиёзов Р. Ғоявий тарбияда нутқий маҳорат. –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2009.

## **TAQDIMOT MAROSIMIDA NOTIQLIK SAN'ATINING AHAMIYATI REJA**

1. Taqdimot – o'zlashtirish, ma'lumotlarni ko'pchilik oldida ochiq taqdim etish shakli sifatida
2. Taqdimot turlari, taqdimotga to'siq bo'luvchi omillar
3. Taqdimot o'tkazish etiketi

**Tayanch tushunchalar: taqdimot, taqdimot turlari, turlari hisobot, ma'lumotnama, press-relliz, dayjest, axborot, reklama, taqdimot etiketi, taqdimotning texnik jihat, slaydning mazmuni, time-management**

## **1. Taqdimot – o‘zlashtirish, ma’lumotlarni ko‘pchilik oldida ochiq taqdim etish shakli sifatida**

Bugungi kunga kelib tafakkur madaniyatining sifati, zamonaviyligi, qamrovining kengligi, ta’bir joiz bo‘lsa jahon andozalariga mos kelishi haqida ko‘plab fikrlar bildirilmoqda. Tafakkur – insonning noyob xususiyati, miyaning maxsuli, obektiv olamning tushunchalar, muhokamalar, nazariyalar va hokazolardagi in’ikosining faol jarayoni bo‘lib, amaliy faoliyatga bog‘liq bo‘lgan inson faoliyatining alohida ma’naviy shaklidir. Shu bois tafakkur madaniyati insonni jamiyatda mavjud bo‘lgan, ajdodlar va avlodlar tomonidan yaratilgan qadriyatlarni o‘zlashtirish darajasini, insonning ongi bilan faoliyati orasidagi o‘zaro aloqadorlikning mustahkamligini, ma’naviy intellektual faoliyatining o‘ziga xos shakli, ko‘rinishini ifodalaydi

Tafakkur madaniyati inson ijtimoiy qiyofasining muhim ta’rifi bo‘lib, uning sivilizatsiyalashgan xolati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o‘zlashtirish darajasini ifodalaydi, insonning ongliligi, bilimdonligi, madaniyatligidan dalolat beradi. Har bir shaxsning tafakkur madaniyati ijtimoiy muhit, uning sharoitlari, mehnati va turmush tarzi, boshqalar bilan munosabatda bo‘lishi zaminida shakllanadi, mustahkamlanadi.

Taqdimot marosimi etiketi ushbu masalalarni qo‘llay bilish, ulardan foydalanish va tafakkurga asoslanib o‘tkaziladigan ta’lim yoki ma’lumot berishning zamonaviy ko‘rinishidir.

**Taqdimot** - Nimadir (mavzu, mahsulot, xizmat va h.k.) haqidagi ma’lumotlarni kimgargadir (xaridorlar, tinglovchilar, talabalar va b.) qandaydir maqsadda (mahsulot yoki xizmatni sotish, darsni sifatli o‘tish kabi) maksimal samaradorlikda yetkazish.

*Taqdimot* – bu o‘zlashtirish, ma’lumotlarni ko‘pchilik oldida ochiq taqdim etishdir. Taqdimot turlari hisobot, ma’lumotnama, press-reliz, dayjest, axborot, reklama shaklida bo‘lishi mumkin. Ochiq taqdimot deganda odatda, loyihibar, mahsulotlar, dasturlarning ommaviy axborot vositalari orqali taqdim etilishi va taqdim etilayotgan narsaning u yoki bu ko‘rinishda foydalilik mezonlarini ko‘rsatib berish tushuniladi. Aslida taqdimot bugungi kunda tijorat va siyosatda, ma’rifat va madaniyatda, ta’lim va tarbiyada keng qo‘llanilayotgan marosimlardan biridir.

## **2. Taqdimot turlari, taqdimotga to’siq bo’luvchi omillar**

Taqdimot yo‘nalishlariga qarab tijoriy (kommersiya), boshqaruv, reklamali, ilmiy, siyosiy, pablik rileyshnz kabi turlarga bo‘linadi. Shunga kura taqdimot o‘z oldiga tinglovchilar muomalasi va muloqotiga ta’sir ko‘rsatishni asosiy maqsad qilib oladi.

*Tijoriy taqdimot.* Savdo xodimlari o'zlarining tijoratga doir takliflari va ko'rgazmalarini seminar yoki muloqot jarayonlari orqali taqdim qiladilar. Masalan, tibbiyot mahsulotlari bilan savdo qiluvchilar esa yangifarmuskunalar va farmmahsulotlarni taqdimot qiladilar.

*Boshqaruvchi taqdimoti.* Bunda rahbar o'z xodimlariga korxonaning kelajakdagi vazifalari va global muammolarini miting, majlisni va yig'ilish ko'rinishida taqdim etadi. O'rta tabaqa xisoblangan menedjerlar o'zlarining g'oyalari, loyihalari va erishgan natijalarini yuqori tabaqa hisoblangan rahbariyatga taqdim qiladilar.

*PR va reklama taqdimoti.* Mazkur soha mutaxassislari kompaniyalarning axborot almashish strategiyasi va yangi tarmoqlarning istiqbollariga doir masalalarni ilgari suradilar. Jamoat arboblari madaniy va ijtimoiy dasturlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga doir olib boriladigan ishlarni taqdimot qiladilar.

*Ilmiy taqdimot.* Bunda olimlar o'zlarining ilmiy g'oyalalarini, tadqiot o'tkazishga oid ilmiy zahiralar manbaini taqdimot qiladilar.

*Ijtimoiy-siyosiy taqdimot.* Bunday taqdimot marosimi ko'proq siyosatchilar hamda ijtimoiy soha mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday taqdimot davra suhbat, debat, breyn-ring, yuzma-yuz muloqot hamda matbuot konferensiyasi ko'rinishida o'tkazilishi mumkin. Masalan, deputatlar o'zlarining saylovoldi dasturlarini saylovchilarga taqdim etadilar, davlat arboblari esa taqdimot orqali o'z konsepsiyanini bayon qiladilar. Tashabbuskorlik, tadbirkorlik va liderlikning elementlari mavjud bo'lgan barcha sohalarda taqdimot eng samarali vosita vazifasini bajaradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, *taqdimot marosimi* - shaxs va jamoat fikrini, g'oyasini, qarashlari va konsepsiyanini omma oldida ko'rsatish, isbotlash va ishontirishga asoslangan axborot almashuvning vositasidir.

Taqdimot marosimi paytida taqdim qiluvchi o'zi ilgari surayotgan g'oyalardan tinglovchilar xulosa qilish son bo'lishi uchun muayyan imkoniyatlarni tashkil qilishi lozimki, toki ilgari surayotgan g'oyalaringizni tinglovchilar amalda tadbiq eta olishlari, o'z faoliyatlariga qo'llay bilishlari tezlashsin. Shuning uchun ham taqdimot marosimining axborot uzatishning boshqa vositalardan farq qiluvchi jihatlari talaygina. Shulardan eng muhim bilim va ma'lumotlarni uzatish usullaridir.

Avvalo, ma'lumot namadan iborat bo'lishi lozimligini aniqlab olish lozim. Bir qarashda bu jarayon juda oddiy ishdek ko'rinadi, aslida esa ma'lumotni tushunish, uni o'zlashtirish bir qadar murakkab jarayondir. Zero, hech qachon bilmagan, hayotda to'qnash kelmagan narsalarni odamlarga tushuntirish muayan mahorat, bilim va aniqlikni talab etadi. Shuning uchun ma'lumotlarni yetkazishda ayrim to'siqlarga duch kelishimiz shubhasiz.

Taqdimot nutqiga to'siq bo'luvchi omillarni ikki turga bo'lishimiz mumkin:

- Tashqi omillar;
- Ichki omillar.

Taqdimot sifatiga to'siq bo'luvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

- Auditoriyaning taqdimotga tayyor emasligi;
- Texnik muammolar;
- Favqulodda holatlar va boshqalar.

Taqdimot sifatiga to'siq bo'luvchi ichki omillarga quyidagilar:

- Fikrda xatolikka yo'l qo'yish;
- Ikki ma'noli so'zlarga e'tiborsizlik;
- Tayanch iboralarni noto'g'ri talqin etish;
- Muhim masalalarni nazardan chetlashtirish;
- Ma'lumotdagi asosiy jihatlarning esdan chiqishi;
- Axborotning subyekti noo'rin talqin etilishi.

1-to'siq. *Ma'lumotda xatoga yo'l qo'yishi.* Oddiyina bo'lib ko'ringan xato ham aytayotgan fikringizning mazmunini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Olaylik, mehnat bozori shakllanishining O'zbekistonga xos xususiyatlariga doir ma'lumotni taqdim qilmoqdasiz. Ma'lumki, Andijon viloyati aholisining zichligi bo'yicha vodiyydigina emas, respublikada ham birinchi o'rinda turadi. Biroq, 1 kv. km ga nechta odam to'g'ri kelishi haqida xato yo'l qo'yish, ularning raqamini xato ko'rsatish taqdim etayotgan ma'lumotingizning mazmun-mohiyatini o'zgartiradi. Natijada, fikringiz tinglovchilarda shubha uyg'otishi mumkin. Bunday xolatlar tarixiy sanalar, raqamlar, terminlar bilan bog'liq ma'lumotlarda ko'proq uchraydi.

2-to'siq. *Ma'lumotingiz ikki ma'noni aks ettirishi mumkin.* Ayrim so'zlar ikki xil ma'noni anglatishini bilamiz. So'zlardan o'rinali foydalanmaslik natijasida taqdim etilayotgan ma'lumotda jiddiy o'zgarish yuzaga kelishi, ilgari surayotgan g'oyangiz samarasiz yakunlashishi mumkin. Bunday so'zlar, odatda gazeta, jurnal sarlavhalarida va su'ratga berilgan izohlarda uchrab turadi.

3-to'siq. *Ma'lumotingizdagi tayanch so'zlar noto'g'ri talqin etilishi mumkin.* Ma'lumki, o'quvchi kitob o'qiyotib biror-bir ma'lumotga shubha bildirsa, avvalgi betlarni ochib ularni taqqoslash va fikrini to'g'ri yo'naltirish imkoniyatiga ega. O'quvchidan farqli o'laroq, tinglovchida bunday imkoniyat yo'q: "Aytilgan so'z – otilgan o'q". Berilgan ma'lumotni tezlik bilan taxlil qiluvchi, taqqoslovchi tinglovchilar kamchilikni tashkil etadi. Shunday ekan, ma'lumot yetkazilayotganda so'zning mazmuniga, vaziyatning mohiyatiga, jarayonni talqin etishga jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi. Zero, noto'g'ri talqin qilish natijasida qilingan qatiy hukm kelajakda insонning taqdirini salbiy tomonga o'zgartirib yuborishi mumkin.

4-to'siq. *Ma'lumotingizdagi muhim xolatlar noto'g'ri tushunilishi mumkin.* Shunday xolatlar bo'ladiki, ma'lumotning ko'pligidan tinglovchi ularni bir-biri

bilan chalkashtirib yuboradi. Chunki, tinlovchiga ma’ruzachi to‘xtash, ma’lumotlarni taxlil qilish imkoniyatini bermaydi. Shuning uchun taqdim qilinayotgan ma’lumot tushunarli bo‘lishi uchun goxida mavzu doirasiga mos qiziqarli voqealar, latifalar, kayfiyatni ko‘taruvchi hodisalarni aytish, mavzudan chetlashib ketmagan xolda tinglovchilarni biroz chalg‘itish tavsiya etiladi.

5-to‘siq. *Ma’lumotingizga tegishli muhim jihatlar esdan chiqib ketishi mumkin.* Tadqiqotlarga ko‘ra, axborotni odamlarning - 83% ko‘rish orqali, 11% eshitish orqali, 35% xidlash orqali, 15% paypaslash orqali, 1% tatib ko‘rish orqali yaxshi qabul qiladi. Shuningdek, agar tinglovchiga ma’lumotlar yozib olish yoki ko‘z bilan ko‘rish imkoniyatlarisiz faqat og‘zaki taqdim qilinsa, uch kundan so‘ng tinglovchining esida taqdim etilgan ma’lumotning 10 foizigina saqlanib qolishi mumkin ekan. Bunga ma’lumotlardagi muhim jihatlarning o‘rinli joylashtirilmasligi, yo‘nalishni to‘g‘ri belgilanmasligi asosiy sabablardandir. Shu sabab taqdim etilayotgan ma’lumotlarning muhim jihatlarini yozib olish, taqdimotda ko‘rgazmali vositalar – slaydlar, prektorlar, plakatlar, kompyuter grafikasi, shuningdek tarqatma materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

6-to‘siq. *Axborotning subyekti talqin etilishi.* Mazkur to‘siq doim ham ko‘zga tashlanavermaydi, gohida ma’lumotni mensishmay tinglashadi. Yuqoridagi to‘siqlarni bartaraf etganingizda ham mazkur to‘siq o‘zini u yoki bu ko‘rinishda namoyish etadi. Masalan, tinglovchi ko‘zingizga tik qarab turadi, lekin e’tibori boshqa narsada. Yoki so‘zlarizingizni miyig‘ida kulib turib tinglayveradi, doimo kallasini inkor ma’nosida qimirlatib turadi va hokazo. Bu toifa tinglovchilar aytilgan fikrni tinglash haqida emas, balki o‘ylangan fikrni aytish paytini poyleydilar. Bunday paytlarda ular taqdimotchiga qaltis savollar, qtmirona luqmalar, keskin e’tirozlar bilan murojaat qiladilar...

### **3. Taqdimot o’tkazish etiketi**

Ishbilarmonlik muloqotidan farqli o‘laroq, muloqotning taqdimot shaklida taqdimotchi auditoriya uchun ajratilgan vaqtning aksariyat qismida gapiradi, auditoriyani esa jim tinglay olishiga erishishi lozim. Bu taqdimotchidan yuksak muomala san’ati va etiket madaniyatini talab etadi. Shu bois taqdimotchi amal qilishi lozim bo‘lgan ayrim xolatlarni e’tiboringizga tavsiya etamiz.

**1. Taqdimot marosimining mas’uliyatini his etish.** Bunda siz avvalo, taqdimot o’tkazish sizga nasib etganligini, bunday vazifa sizga bildirilgan yuksak ishonch ekanligini ichdan xis eting. Zero, o‘zining g‘oya va qarashlariga ishontirish iqtidori so‘z, ilm va muomalada “pishib yetilgan” insonlargagina nasib etadi.

**2. Taqdim qiluvchi bilan auditoriya o‘rtasida o‘zaro hamkorlik.** Bunda «Men sizlarsiz, sizlar esa mensiz biror natijaga erisha olmaymiz» tamoyili ustuvor

ahamiyatga ega. Chunki auditoriya ma'ruzachi yoki taqdim qiluvchidan o'zi uchun zarur bo'ladigan nimanidir kutadi. Anashu narsa yoki g'oyani taqdimotchi aytal olishi mumkin.

**3. Taqdimot matnini tayyorlash.** Aytmoqchi bo'lgan fikrlaringizni dastlab qog'ozga tushirishingiz, so'ngra matndagi har bir jumla, har bir g'oyani mukammal o'zlashtirib olishingiz zarur. Bu borada qisqacha tarqatma material, ko'rgazmali vositalar tayyorlash hamda turli rasmlar, su'ratlar va chizmalardan foydalanish, mavzuning asosiy g'oyasini tashkil etadigan jihatlarga alohida urg'u berish maqsadga muvofiq.

**4. Taqdimotga tayyorgarlik.** Har bir taqdimot yuksak saviyada o'tishiga, kelajakda samarali hamkorlikni yqlga qo'yilishini istsangiz katami kichikmi har bir taqdimotga jiddiy tayyorgarlik ko'ring, fikru-hayolingiz taqdimot marosmini o'tkazish haqida bo'lsin. Do'stingiz yoki yaqin hamkasabangizdan sizni tinglab ko'rishi iltimos qiling, ma'ruzangizni diktafon yoki magnit lentasiga yozib olib so'ngra uni bir necha bor eshititing, ortiqcha fikrlar bo'lsa qisqartiring.

**5. Taqdimot marosimi vositalari.** Odatda taqdimot marosimlari uchun katta zal yoki kichik auditoriya tanlanadi. Zalda sahna, minbar va shu kabi jihozlarning bo'lishi tabiiy. Siz iloji boricha minbardan kamroq foydalanishga harkat qiling. Chunki minbar:

- A) muloqot jarayonida sizni auditoriya bilan ajratib qo'yadi;
- B) minbardan auditoriyani chalg'ituvchi va keraksiz ma'lumotlar aytib yuboriladi;
- V) ko'pchilik nazdida minbar juda baland joy hisoblanadi...

Agar minbardan foydalanish talab etilsa, undan zinhor o'zingizdan oldin chiqqan ma'ruzachilarни tanqid qilish uchun foydalanmang. Minbarga chiqingda, bir-ikki minutdan so'ng uni tark eting: tanglovchilar bu holatga albatta baho beradilar.

**Taqdimotga tayyorlanishdan oldin** o'zingiz uchun ba'zi savollarning javobini aniqlashtirib olishingiz kerak:

- Aynan nima haqida gapirmoqchisiz?
- Sizning taqdimotingizdagi 3 ta (undan ko'p emas) asosiy fikr qaysilar? (odamlar odatda 3 tadan ortiq ma'lumotni uzoq vaqt eslab qolisha olmaydi).
- Qisqa vaqtida (maksimal 20 daqiqa) Sizning taqdimotingiz mavzusidan mutlaqo bexabar bo'lgan auditoriya uchun sifatli taqdimot tayyorlay olasizmi?
- Taqdimotdan Sizning kutayotgan natijalarining qanday? Ularga qanday erishmoqchisiz?

**Auditoriya.** Dastlabki tayyorgarlikda taqdimotga tinglovchilarning munosabatini ham hisobga olish zarur. Auditoriyadan nimalar kutmoqdasiz? (Yaxshisi hech narsa kutmaslik zarur. Chunki auditoriya taqdimot mavzusini

umuman bilmasligi mumkin). Agar tinglovchilar Sizning taqdimotingizga qiziqishmasa, ularni qanday qilib qiziqtirish kerak? Tinglovchilarning diqqatini qanday qilib ushlab turish mumkin? Auditoriya bilan munosabat o'rnatishdan oldin shu savollarga dastlabki javoblarni toppish lozim.

**Taqdimotning mazmuni** quyidagi talablarga javob berishi maqsadga muvofiq:

1. Taqdimot slaydlarining hajmi maksimum vaqt bo'yicha daqiqasiga 1 tadan qilib tayyorlang. Ya'ni 20 daqiqada – ko'pi bilan 20 ta slayd. Buni ichiga Titul slayddan "E'tiboringiz uchun rahmat" gacha kiradi.

2. Har bir slaydga qisqa sarlavha qo'ying.

3. Birinchi slaydda Siz va Sizning taqdimotingiz haqida umumiylar ma'lumotlar aks etsin.

4. Ikkinchi slaydda taqdimot rejasini kiring. Ko'pi bilan 5-6 ta reja, har biri ko'pi bilan 2-3 ta so'zdan iborat bo'lsin.

5. Eng oxirgi slayddan xulosalar va asosiy fikrlarni eslatish uchun foydalaning. "E'tiboringiz uchun rahmat" slaydidan foydalanmang. Kimgadir rahmat demoqchi bo'lsangiz, og'zaki ayting. Oxirgi slayd savol-javoblarda ochiq holatda turadi. Shuning uchun unda xulosalar turgani ma'qul.

6. Har bir slayd umumiylar kontekstga tegishli alohida mavzu bo'lsin. Bitta mavzuni davom ettiruvchi 2-3 ta slayddan foydalanmang.

7. Slaydlarni ketma-ketligini shunday joylashtiringki, natijada yaxlit bitta mavzu paydo bo'lsin. Hech qachon slaydlarni ortga qaytarmang, hammasi tizimli bo'lsin.

8. Slaydlarning ketma-ketligidan qoniqsangiz, ularning har biri bilan alohida ishlasangiz mumkin. Slayd umumiylar holatda qanday ko'rinishini hisobga oling.

**Taqdimot slaydning texnik tomonlari** ham muhim. Quyidagi elementlar slaydning texnik jihatini mukamallashtirishga xizmat qiladi:

- "Oz bo'lsin, soz bo'lsin". Ma'lumotlar bilan to'lgan, tushunarsiz jadvallardan iborat dizayndan qoching. Slayd tez va oson tushunilishi kerak.

- Murakkab animatsiyalardan foydalanmang.

- Bitta rasm yuzlab so'zlardan ko'proq narsa aytishi mumkin.

Rasmlardan foydalaning.

- Hech qachon to'liq jumlalardan foydalanmang, konkret qisqa, bir satrda joylashgan shakldan foydalaning.

- 1 slaydda maksimal 7 ta gap. Va hech qachon 2 tadan ortiq mazmundagi fikrlar ishlatmang.

- Ma'lumotni uzatish uchun rasm, jadval, grafika, video, infografika kabi vizual elementlardan foydalaning.

- Slaydni Sizsiz tushunib bo'lmasin. Og'zaki tushuntirish talab etmaydigan slayd tayyoramang.

- Matnning minimal shrifti xona hajmiga bog'liq. Ko'pincha, bu 18-20 pt ga to'g'ri keladi. Matn to'liq ko'rinishiga e'tibor bering. Arial, Verdana, Tahoma kabi shriftlar eng qulay (bizda ko'proq Times New Roman modada). Matnni rasm ustiga joylashtirmang.

Taqdimot slaydi uchun umumiy **tasvir va rang tanlashning** ham o'rni katta. Slayd rangini tanlaganda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Slayddagi barcha elementlar uchun har doim yuqori kontrast mavjudligiga ishonch hosil qiling, masalan oq fonda qora yoki to'q ko'k rangli matn yorqin va uyg'un ko'rinadi.

2. Matn uchun och ranglardan foydalanmang, to'q ranglardan foydalaning: masalan, turli matnlarni farqlash uchun har xil to'q ranglardan (qizil, yashil, ko'k, qora) foydalaning.

3. Hech qachon qizil-yashil (~ 10% odamlarni ajrata olmaydi) yoki qizil-ko'k (ekranda miltillaydi) kombinatsiyalaridan foydalanmang.

4. Turli matnlar ranglar juda oson va tez ajralib turadigan tarzda tanlanganiga ishonch hosil qiling.

5. Shuni yodda tutingki, taqdimotdagi ranglar sizning kompyuterlingizga qaraganda ekranda boshqacha ko'rinishi mumkin, ba'zida esa rang umuman ko'rinmasligi ham mumkin.

**Taqdimotga so'nggi tayyorgarlikda** quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- Taqdimotni ovoz chiqarib repititsiya qilib ko'ring. Kamida 2 marta!

- Har bir slaydni oxirgi marta tekshirib, sifatlari formatda saqlang. Bir nechta variant (fleshkada, noutbukda, telegramda va b.) tayyor tursin.

- Taqdimot bo'ladigan muhit bilan tanishing.

- Taqdimotni kompyuterga yuklang va hammasi texnik jihatdan joyida ekanligini tekshirib ko'ring.

- Vaqtini nazorat qilish uchun xonadagi soatdan yoki qo'l soatidan foydalanish mumkin.

Taqdimot jarayonida quyigilarga e'tibor qaratish kerak:

- Kamida taqdimot boshidagi 2-3 ta slaydni yoddan gapiring.

- Auditoriyaga qarab gapiring, slaydga emas.

- Qisqa va tushunarli gapiring. Murakkab jumlalar ishlitmang. O'qimang.

- Auditoriya bilan eye-contact – ko'z bilan aloqa o'rnatung.

- Slaydlardagi grafik elementlarni albatta tushuntiring.

- Eng muhim faktor – vaqtida tugating. Maksimal 1 yoki 2 daqiqagacha o'tib ketishingiz mumkin.

Taqdimotchining sahnada harakatlanishi: *birinchidan* - o‘zining jonli muloqot jarayonida ekanligini eslatib turadi, *ikkinchidan* - kuchli hayajonlanishning oldini oladi, *uchinchidan* – tinglovchilarning diqqatini jalg etadi.

1. **Taqdimotda vaqt masalasi.** Hamma vaziyatda bo‘lgani kabi taqdimotga ham vaqt o‘z hukmini o‘tkazadi: har bir daqiqa hisobli. Dastlabki 90 soniyani tinglovchilarning ko‘ngliga yoqadigan gaplarni aytish bilan boshlang, g‘oyangizni ular bilan o‘rtoqlashayotganligingizdan va muloqot qilayotganligingizdan hursand ekanligingizni bildiring. Aks xolda barcha “mug‘ombirliklaringiz” befoyda.

Taqdimotda auditoriya bo‘ylab harakatlanish, tashqi ko‘rinish, imoshora o‘zining samarali natijasini beradi.

2. **Taqdimotda hayajonning kuchi.** Bu ijobiy xolat, chunki hayajon mas’uliyatni oshiradi. Biroq, hayajonga qarshi kurashish mumkin emas, aksincha uni yo‘naltira bilish lozim. Hayajonni bosish uchun esa:

- So‘zga chiqish oldidan 2-3 daqiqa tez-tez yuring, bu muskullarning zo‘riqishini oldini oladi;
- So‘zga chiqish oldidan oyog‘ingizni chalishtirib o‘tirmang;
- Qo‘llaringizni pastga tushirib, o‘zingizni erkin tuting;
- Boshning kalla, jag‘, og‘iz qismini qattiq-qattiq harakatlantiring;
- Chuqur nafas olish va sehrli so‘zlarni aytish kabi hayot sinovlaridan o‘tgan vositalarni rad etmang.

3. **Tinglovchilarni qiziqtirish.** Dastlab tinglovchilarning ayrim alohida urg‘u berib, iltifot ko‘rsatishingiz «Sizning ishtirop etishingiz, taqdimotning samarali o‘tishini ta’minlashidan umidvorman», “Siz qatnashsangiz o‘zimni doimo himoyachim bordek xis qilaman” va hokazo kabi munosabat tinglovchilarning sizga nisbatan munosabati va qiziqishini orttiradi. Agar notanish auditoriya bilan muloqot qilishingizga to‘g‘ri kelsa, avvalo auditorianing xolati, kontengenti, imkoniyatlarini obdon o‘rganing. Noqulay vaziyatdan chiqish maqsadida tinglovchilarning manfaatlariga mos keluvchi hazil-mutoyiba so‘zlardan foydalaning.

4. **Omma – taqdimotchi uchun oyna vositasi.** Taqdimotingiz qanday chiqqanligini auditoriyada o‘tirgan yoki sizni eshitgan ommagina xolis baxolaydi. Agar taqdimot natijasi qay xolatda ketayotganligini bilishni istsangiz tanaffusni kutib turishning yoki ishtiropchilar bilan suhbatlashishning xojati yo‘q: siz tinglovchilarning ko‘zlariga qarang, vassalom. Agar yuz o‘qish san’atidan habardor bo‘lsangiz, ularning harakatlari, qiyofalaridan taqdimotni qanday o‘tkazganligingizni bilib olasiz.

**5. Taqdimotda savol-javob.** Taqdimotni yakunlar ekanmiz, uning natijasi bilan albatta qiziqib ko‘ramiz. Buni bevosita savol-javob jarayoni orqali bilib olish mumkin. Biroq, savolning bo‘lmasligini tadqiqotni ko‘ngildagidek chiqmaganligiga yo‘yish mumkin. Chunki savolning bo‘lmasligi:

-Taqdimot hech kimga foyda bermaganligini;  
-Taqdimotdagi muammolar bir-biri bilan bog‘lanmaganligi va fikrlar cho‘zilib ketganligini;

-Siz tinglovchilarning “og‘riq nuqtalari”ga tegib ketganligingizni va ular bu og‘riqni qaytalanmasligini xohlaganlarini;

-Sizni tushunmaganlarini;

-Taqdimotingizning tizginini yo‘qotib qo‘yganligingizni bildiradi.

Biroq, savollarning hammasi ham kishini quvontira olmaydi. Muallif savol va javob variantlarni turlarga ajratar ekan, ularning hayotda uchrashi va aksincha mutlaqo uchramasligini tushuntirishga harakat qiladi. Shunga ko‘ra savol berilganda:

- Savollarni yozib oling. Chunki yozishingiz bilan bir paytda javobni o‘ylab olish uchun imkoniyat yaratiladi.

- Agar savolga javob berishga qiyalsangiz, tinglovchilarga bu savolga javob topib, ularga albatta yetkazishga va’da Bering. Buning uchun esa tinglovchilarga Yana bir bor o‘zingizni tanishtirib, ish joyingiz manzilini berishni unutmang.

Umuman olganda, taqdimot marosimi etiketiga doir yuqorida qayd etilgan fikr va tavsiyalarga rioya qilish taqdimot marosimining samarali yakunlanishiga olib keladi.

### **Mavzu bo‘yicha savollar**

1. Taqdimot marosimi – hamkorlikni yo‘lga qo‘yuvchi vosita sifatida.
2. Taqdimotchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlar.
3. Taqdimot o‘tkazish qoidalari.
4. Taqdimotnin vaqt reglamenti deganda nimalarni tushunasiz?
5. Taqdimotga tayyorgarlik ko‘rishning qanday usullari mavjud?

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Muhammadjonova L.A. Ritorika. T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2019.
2. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K.. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018 y.
3. Мухаммаджонова Л.А. Давлат хизматчиси этикаси ва имижи. Ўқув қўлланма - Т.: Университет, 2017.
4. Ҳусанов Б. Бошқарув этикаси. Ўқув қўлланма. Т.: Университет.

ЎзМУ, 2017.

5. Мухаммаджонова Л.А., Абиджанова Ф.Ш. Этикет. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ЎзМУ, 2018.
6. Мухаммаджонова Л.А. Нотиқлик санъати. Услубий қўлланма. – Тошкент: ЎзМУ, 2008.
7. Richard A. Lanham. A Handlist of Rhetorical Terms, Second edition. University of California Press. USA, 2010.

## **NOTIQLIK SAN'ATINING AXLOQIY TAMOYILLARI. NOTIQ IMIJI. REJA**

1. Chiroqli so‘zlashning axloqiy funksiyalari
2. Notiq shaxsiga qo‘yiladigan talablar. Nutq odobi.
3. Tashqi ko‘rinishning inson faoliyatidagi ahamiyati.
4. Taqdimotchining tashqi ko‘rinishida xatti-harakat va imo-ishoraning o‘ziga xos estetik jihatlari.

**Tayanch so‘zlar: axloqiy funksiya, nutq odobi, notiq imiji, shirinsuxanlik, axloqiy madaniyat, imo-ishora, xatti-harakat.**

### **1. Chiroqli so‘zlashning axloqiy funksiyalari**

Insonning muomalasiga qarab, axloqiga ham baxo beriladi. So‘z orqali insonlarning tafakkuri, fikri anglashiladi, muomala madaniyati orqali u kishining odobi, kelib chiqishi, naslu – nasabi, ota – onasi va ustozining bergan ta’lim tarbiyasi namoyon bo‘ladi. Til - inson tafakkurining maxsuli. U inson madaniyati, fikriy go‘zalligini, yaxshi, ibratli, havas qilsa arziyidigan fazilatlarni yuzaga chiqaruvchi vositadir. Uning insonga ta’siri ham shunga yarasha. Har bir so‘zni o‘z vaqtida so‘zlash, so‘zlashdan oldin puxta o‘ylab ko‘rish kerak.

Oldiga kelganin yemak – hayvonning ishi,

Og‘ziga kelganni demak – nodonning ishi

### **A.Navoiy**

So‘z inson tanasiga turlicha ta’sir etadi. Inson har doim navqiron, bardam bo‘lishi uchun boshqa insonlarni ranjitmasliklari, dilini vayron qilmasliklari hamda o‘zlarini ham xushtabiat bo‘lishlari lozim.

### **2. Notiq shaxsiga qo‘yiladigan talablar. Nutq odobi.**

**Notiq shaxsiga qo‘yiladigan talablar.** Notiq birinchi navbatda o‘zini shaxs sifatida shakillantirishga harakat qilishi kerak. Insoniy fazilatlar unda mujassam bo‘lishi lozim. Notiq kamtar, shirin so‘z, odamjonli, sermulohazali,

bamani va diyonatli inson bo‘lishi kerak. Bunday axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan insonlarni fikrlarini to‘g‘riligiga hech kim shubxa qilmaydi.

Shirinsuxan, axloqli insonlarni alohida, maxsus joylarda yetishtirilmaydi. Ular ham bizning jamiyatimizda kamol topib boradilar.

Notiqlik san’atidaadolat va haqiqat masalalari haqida juda ko‘p fikrlarni berish mumkin. Bugungi kunda TV, radio, internet orqali har xil ma’lumotlarni berib kelinmoqda. Lekin bu ma’lumotlarni barchasini ham to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. YA’ni siyosiy informatsion kurash ketmoqda. Bu ma’lumotlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi o‘z ishining yetuk mutaxasislari o‘z nutqlari bilan joylarda, yoki o‘sha TV, radio orqali jamoaga yetkazishlari lozimdir.

Insonning boshqa inson bilan muloqotiga qarab, uning axloqiga ham baxo beriladi. So‘z orqali insonlarning tafakkuri, fikri anglashiladi, muomala madaniyati orqali u kishining odobi, kelib chiqishi, naslu – nasabi, ota – onasi va ustozining bergen ta’lim tarbiyasi namoyon bo‘ladi. Insonning ichki dunyosi, shaxsi, aqli va his – tuyg‘ulari uning tashqi qiyofasi – ko‘zлari, chehrasi, shuningdek qaddi-qomati va yurish-turishida to‘la aks etadi. Insonning ichki dunyosi qanchalik mukammal bo‘lsa, yurish – turishi ham shunchalik madaniyatli bo‘ladi.

Notiqlik san’atida so‘z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo‘lsa ham suyakni tebratadi. **Muomala odobi** boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiy meyoriy talablarini bajarishni taqazo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko‘zga ko‘rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorkin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo‘lishi so‘z, nutq vositasida ro‘y beradi. So‘zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarini tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o‘zini, eng avvalo, shirinsuhanlik, kamsuquqlik, bosiqlik, hushfe’llilik singari axloqiy meyorlarda namoyon qiladi.

Ayniqsa bu axloqiy madaniyatda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uni ko‘proq namoyon qiladigan eng muhim unsurlaridan biri – muomala odobidir. Bu borada mutasavvif olimlarimizdan Imom G‘azzoliy bir qancha o‘rinli fikrlarni bildiradilar: «Hazrati Rasul alayhissalom aytibdurlar: «Haq subhonahu va taolo ochiq yuzlilarni do‘st tutar». Va yana aytibdurlar: «Hech bir yaxshi amal yo‘qki, maxfiratga sabab bo‘lmoqg‘a ochiq chehrilik va shirinzabonliqdan ziyoda».

Uning fikricha shirinsuxanlik va bosiqlik odobli insonni odobsizdan ajratuvchi meyordir. Zero odobsizlik badxulqlikka, badxulqlik axloqsizlikka olib keladi. Yomon insonlarning yomonligi aynan muomaladan kelib chiqadi. YA’ni yomonga yomonlik bilan qilingan muomala vaqtincha bo‘lsa ham o‘sha yomonning yo‘lida yurishga chorlaydi.

“Muomala shaxslararo munosabatning shunday ko‘rinishiki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan axloqiy, estetik, madaniy, siyosiy va ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, ta’sir o‘tkazadilar va ta’sirlanadilar”.

**Etiket** keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u ma’lum ma’noda, umumbashariy miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o‘z ichiga oladi. Ulardan bizga odat bo‘lib qolgan ko‘rishish etiketidir.

Salom berish kundalik hayotimizda eng ko‘p qo‘llaniladigan odat bo‘lib, hushmuomalalikni talab qiladi. Salomlashish kishilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, muomala munosabatlarining avval boshi bo‘lgani uchun uning bajarilishining ham alohida qoidalar bor. Salomlashganda aytildigan so‘zlarga «Assalomu aleykum», «salomatmisiz», «omonmisiz», «yaxshimisiz», «salomat bo‘ling» deyiladi. Bu so‘zlarda, insonlarning bir-biriga hurmat ehtiromi, xayriholik izhori bilan birga bu so‘zlarda chuqur mazmun va mulohaza bor. Kundalik xayotimizda ishlatib turadigan “marhamat qiling”, “baraka toping”, “raxmat”, “behad minnatdorman”, “uzr”, “avf etasiz”, “kechiring” va shu kabi iboralar borki, ularning barchasi mulozamatni, insonlarga bo‘lgan kamoli ehtiromni bildiradi. Shunga e’tibor berish kerakki, insonga qo‘yiladigan talab bilan unga ko‘rsatilayotgan iltifot bir-biri bilan bevosita bog‘lanib ketganligidan ular orasiga chegara qo‘yib bo‘lmaydi. Masalan, birovning eshigini taqqillatib ruxsat so‘rab kirish, boshqa insonni noqulay vaziyatga solib qo‘yishni oldini oladi.

**Qo‘l berib so‘rashish qoidalari.** Qo‘l berib salomlashish muloqot etiketining bir qismi sifatida shakllagan jarayondir. Qo‘l berib so‘rashish odatda erkaklarga xos xususiyat hisoblansada, hozirda u barcha yoshdagи va jinsdagi insonlar uchun ham birdan amal qilmoqda. Chunki, qo‘l berib so‘rashish orqali inson insonning kayfiyatini, sog‘ligini, xatto fe’l-atvorini ham bilib olishi mumkin. Qo‘l berib salomlashishning ushbu xususiyatlari ikkitomonlama muloqotning boshlanish belgisidir. Qo‘l berib so‘rashish asosan tanishish va tanishtirish marosimida, shartnomha va bitim imzolaganda, g‘oliblik va mag‘lublikni tan olganda, minnatdorchilik izhor etganda, tabriklaganda, xayrlashganda va hokazo xolatlarda qo‘llaniladi. **Quyida e’tiboringizga havola qilinadigan tavsiyalar qo‘l berib so‘rashishning odobiga tegishlidir:**

- uzatilgan qo‘l albatta muallaq qolmasligi kerak, bu – insonni yerga urish bilan barobar bo‘lib qoladi.
- ikki qo‘l bilan qo‘lni siqib so‘rashish haddan tashqari xursand holatda, minnatdorchilik belgisi sifatida qabul qilinadi.
- ikki qo‘l berib so‘rashish paytida albatta so‘z bilan ifodalanadi, bunda minnatdorchilik so‘zлari va boshqa iliq so‘zлar qo‘llash mumkin.
- qo‘l berib so‘rashish tez va qisqa bo‘lishi lozim.
- qo‘l berib so‘rashish davomida ozgina egilib qo‘yish, so‘rashayotgan

insonga nisbatan hurmatni belgilaydi.

- ostonada, stol ustidan qo‘l berib so‘rashish xunuk ko‘rinadi.
- tanishini ko‘rib qolgan taqdirda ham binoning boshidan bu boshiga qo‘lni cho‘zib kelish insonni kulgili xolatga solib qo‘yadi.
- ayol kishi bilan uchrashib qolganda, ayol birinchi bo‘lib qo‘l uzatmaguncha erkak qo‘l uzatmaydi.
- ayol kishini qo‘lini ko‘p ushlab turish mumkin emas, bu uni noqulay vaziyatga solib qo‘yishi mumkin.

**Salomlashganda** jargon, ko‘cha so‘zlarini, buzib talaffuz etiladigan “privetik”, “salyutik”, “chao”, “poka” kabi so‘zlarni ishlatmaslik maqsadga muvofiq. Odatda, ro‘paradan keluvchi kishiga u yetib kelguncha, ya’ni orada 3-4 qadam qolgach salom beriladi.

Sizga mutlaqo tanish bo‘lmagan kishi salom bersa, albatta “alik” olish va uning yanglishganligini sezdirmaslik kerak. Bunday xolatda yelka qisish yoki hayron bo‘lib qarash odobsizlik hisoblanadi.

Umuman, o‘zbekchilikda salomlashishni o‘zi hamsuhbatingizing sizga bo‘lgan munosabatni shakllantiradi. G‘arb odatiga ko‘ra yoshi katta ayollar bilan ko‘rishayotganda o‘rnidan turib, tavoze’ bilan boshni silkitib salomlashiladi. Bizda esa bu nafaqat katta yoshlilar, balki umuman xotin-qizlarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Zero har bir qiz yoki ayol o‘sha xonadon egasining nomusi hisoblanadi. Bu bilan erkak boshqa bir erkakni oriyati va hurmatini o‘z joyiga qo‘yayotgan hamda boshqalardan ham o‘ziga nisbatan shuni talab qilayotgan bo‘ladi. Agar ayollar qurshovida bo‘lsangiz, unda umumi ravishda bir marta salomlashib qo‘yiladi. Etiketni buzilishi ko‘rishuvning shovqinli tarzi hisoblanadi. Odamlar oldida hozir bo‘lishingiz bilan salomlashuvningiz u daraja o‘zingizga qaratadigan tarzda bo‘lmaslik lozim. Salomlashuv, tanishuv yoki suhbatdoshlik uchun eng qulay madaniyatli usuli hisoblanadi.

Odob qoidalari (oddiy xavfsizlik nuqtai nazardan ham) notanish odamlar bilan ko‘chada, transportda, restoran, teatr hamda boshqa jamoat joylarida tanishishni taqozo etmaydi. Bir tarafdan, o‘zingizni notanish odamga bog‘lashga harakat qilish odobsizlikdir. U siz bilan muloqot qilishni istamayotgan bo‘lishi mumkin. Boshqa tarafdan, birinchi uchragan odam bilan tanishuv, layoqatsizlik, ba’zida esa xavflidir ham! Xudo biladi u odam kim bo‘lib chiqadi.

**Unda qanday tanishish lozim?** Odob qoidalariiga binoan, turmush mezonlari bo‘yicha ham, tanishuv uchun o‘rtada ikki taraf uchun ham tanish bo‘lgan vositachi orqali ro‘y beradi. Siz unga tanishishni istagan odam bilan ko‘rishish uchun murojaat qilishingiz mumkin. Tanishtirganlaridan so‘ng, uning bunga javoban ta’siridan uning qanchalik siz bilan aloqa qilishni istashini bilib

olish mumkin. Agar uning sovuqqonligini his qilsangiz, davomiy aloqani ta'kidlashga urinmagan ma'qul.

Tanishtirish yangi uchrashgan kishi bilan gaplashish huquqini beradi. Odatda, tanishtirish uchun vositachi kerak bo'ladi. Umumiy tanish shunday vositachi bo'la oladi. Tanishtirish yoki tanishish tanishuvchilarning yoshiga, jinsiga va tanishtirish joyiga bog'liq bo'ladi.

**Qayerda va qachon tanishish zarur?** Birinchi navbatda, sharoitga qarab kelgusida tez-tez uchrashib turishga to'g'ri keladigan shaxs bilan tanishiladi yoki tanishtirish iltimos qilinadi. Asosiy qoidalari quyidagicha so'zlar bilan ifodalanadi: «Sizni tanishtirsam...», «Tanishtirishga izn bersangiz...», «Gulnora, tanishing...»

**Tanishtiruvchi kishi har ikkala tamonning** ism, familiyalarini mulozamatlik bilan ochiq-oydin aytib ularni tanishtiradi. Bu yerdagi asosiy qoida: yosh kishi – katta yoshdagি kishiga, erkak – ayolga, xodim – rahbarga tanishtiriladi. Tanishtiruvchi kishi avvalo yosh kishining, keyin kattaning, avval erkakning keyin ayolning, avval xodimning, so'ngra rahbarning ismi va familiyasi aytildi.

**Yoshlarni katta yoshdagи insonga tanishtirishda**, odatda savolomuz murojaat qilinadi; M: Ustoz, magistr Abdullayevni siz bilan tanishtirishga ruxsat bersangiz?, yoki Hurmatli rektor iqtidorli talaba Komilovni sizga tanishtirmoqchi edim? Bu xollarda tanishtirilayotgan kishi ustoz hamda rektorning ismini aytmaydi.

**Erkak kishini ayol kishiga tanishtiradilar.** Yoshiga qarab yoshlarni kattalarga tanishtiriladi. Hamma vaqt ham, beistisno, erkak kishi ayolga tanishtiriladimi? Yo'q, hamma vaqt shunday qilinmaydi. Eri o'z rafiqasini yordostiga tanitishi o'z xohishiga bog'liq: "Do'stim Sardor, tanishing – bu mening rafiqam" qabilida. Odatda, yaqin qarindoshlarning ismlari avval, tanishbilishlarning ismlari esa keyin aytildi.

Oila a'zolarini tanitganda ularning ismlari aytilmaydi. Masalan, «turmush o'rtog'im», «opam», «singlim» yoki «ukam» deyiladi.

Uy bekasi mehmonlarni kutib olar ekan, ularni bir-birlari bilan tanishtiradi, uy bekasi o'rniga uning sohibi tanishtirsa ham bo'ladi. Kechroq kelgan mehmonlarni vaqtliroq kelganlarga tanishtiradilar. Agar mehmonlar ketma-ket kirib kelishsa-yu, siz ularni tanishtirishga ulgurmasangiz, unda yordamchi sifatida yaqinroq qarindoshingiz yoki do'stingizni chaqiring. Mehmonni uuga taklif qilgach, avval u yerda o'tirganlarga kelgan mehmonning ismini tanishtiriladi, so'ng bir chekkadan boshqalarning ismlarini aytib tanishtirib chiqiladi. Mehmonlar unchalik ko'p bo'lмаган taqdirda, alohida tanishtiriladi. Erkaklar o'rinlaridan turib tanishadilar. Ayollar joylarida o'tiraveradilar, ammo katta mavqega ega bo'lgan yoki yoshi kattalarni tanishtirishsa, o'rinlaridan turishlari mumkin. Agar turli

yoshdagi ikki ayol tanishayotgan bo‘lsalar, yoshi katta ayolga: «Ruxsatingiz bilan sizga falonchini tanishtirsam» – deb yoshroq ayolni ismi-sharifini aytib, keyin yoshi kattaroq ayolni tanishtirish mumkin. Boshqacha ham mumkin: «Do‘stim Akmal – xirurg, bu esa Begzod – kursdoshim». qilib aytadigan bo‘lsak, ayni paytda yosh va mavqe muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaqinlaringiz, tanishingiz yoki do‘stingizni tanishtirayotganda ismiga qo‘shib, ma’lumotlarni aniqlashtirishingiz Tanishtirayotganda ularning ismlarini aniq va tushunarli tarzda aiting. «bu kishi Valijon – mashhur akter Mahkamning akasi» degan aniqliklarning umuman keragi yo‘q. Odamlarning ismlarini yaxshi yodda tuta olishiga ishonchi bo‘lmagan tanishtiruvchilar «Tanishing, marhamat janob ...» bunda siz ismni egasiga aytishiga qo‘yib berasiz. Bunday usulni qo‘llash mumkin. Agar endigina yig‘ilgan jamoatga yangi odam qo‘shilsa, uning ismini baralla ovozda aytib tanishtirsa bo‘ladi, qolganlar o‘zlarini tanishtiradilar.

Jamoat transportida yondia sherik bilan ketayotgan vaqtida transportga tanishingiz chiqib qolsa, agarda bir-ikkita so‘z aytib uzoqlashsa, tanishtirish shart emas, ammo, agar suhbat umumiyl xususiyat kasb eta boshlasa, uni do‘stingiz bilan tanishtirganingiz ma’qul.

Oila a’zolaringizdan biri ishxonangizga ishga kirdi. Hamkasabalarga uni tanishtirasizmi? Agar sizda u bilan sof kasbiy munosabatlar bo‘ladigan bo‘lsa, shart emas.

**Ishxonada.** Yangi xodimni kollektivga rahbar tanishtiradi. Eski xodimlar yangi kasbdoshlarni ishning jarayoni bilan tanishtiradilar, va o‘zlarini to xodim «joylashib» olguncha sharoit yaratishga harakat qiladilar. Ba’zi bir xodimlar o‘rtasidagi barcha og‘ir munosabatlar, hamda o‘zaro arazlar haqida yangi xodimga «yetkazish» shart emas. Bir kollektiv munosabatining shakli ularning o‘zaro do‘stona layoqati hamda oldindan mavjud rusmlarni ushslash darajasiga bog‘liq. Ammo har qanday holatda ham do‘stingiz familiyasini aytib murojaat qilishingiz noto‘g‘ri. Ish vaqtida xizmatga doir vazifalarni bajarayotganda o‘zingizni idorangiz nomidan tanitasiz, shunga ko‘ra hamma vaqt ham ism, familiyani aytish shart emas.

O‘zini boshqalarga tanitish ham bir san’atdir. Bunday vositachisiz tanishish qiyinroq bo‘lib, juda odob saqlashni talab qiladi. Odobli kishi istagan vaqtida o‘zini tanita oladi. Tanishi uchun yo‘l ochib beradigan vositalar juda ko‘p. Tanishish mulozamat bilan eshik ochish, tushirib yuborilgan narsani olib berish va shu kabilardan boshlanishi mumkin. Shuning o‘zi gaplpshib ketishga va keyinchalik tanishishga sabab bo‘ladi.

Ismi-shariflar haqida gap ketadigan bo‘lsa, bu borada yaxshi xotiraga ega bo‘lish odamni vaziyatdan olib chiqib ketadi. Bir ko‘p yillardan so‘ng biz tezda yodga olgan ismning egasi xursand bo‘ladi. Ammo begona ismlar tezda xotiradan

uchib ketadigan vaziyatlar juda ko‘p. Bunday holatda nuqsonni bildirmaslikka harakat qiling. Ammo agar siz bu vaziyatdan chiqish yo‘lini topa olmasangiz: «Uzr yodimdan ko‘tarilibdi» deb tan olishga to‘g‘ri keladi. Bunda vaziyatdan hazil yoki ishonchlilik orqali chiqib ketish mumkin. Yomon xotirada qayta tanishishga to‘g‘ri keladi. Bunda «Biz tanishmiz» degan javobni eshitmaslik uchun o‘z ismi-sharifini aytib so‘rashmagan ma’qul. Boshqa tarafdan, bizni tanimay hayron bo‘layotgan yaqinimizga quvonch va ehtiros bilan tashlanar ekanmiz: «meni taniyapsizmi?» deb uni qiynamaganimiz ma’qul. Bundan u noqulay bo‘lishi mumkin. Ammo «biz falon joyda tanishgandik» degan ma’noda so‘z orasida silliq qilib eslatib ketganimiz durust. Bu uni kim bilan gaplashayotgani haqida eslashga y’ordam beradi.

Ishxonada ham ayol ayolligini yo‘qotmaydi. Odobli erkak ayol kishiga joy beradi va turli xil achchiq hamda qo‘pol so‘zlardan o‘zini tiyadi. Ammo barcha mulozamat turlari asosiy narsaga – ishni borishiga halaqit bermaslik lozimdir. Erkak ishlayotgan bo‘lsa, ayol uchun o‘rnidan turib paltosini olib berishi shart emas. Ammo garderobda birga bo‘lib qolishsa, kiyishga yordam berishi shart. Ayol kishi ham o‘z o‘rnida, agar ishxonada erkak kishi o‘zini og‘irroq tutsa, shikoyat qilmasligi, erkak kishi ishlab o‘tirgan bo‘lsa, faqat ayol turgani uchun o‘rnidan turishni talab qilmasligi lozim.

**O‘zini boshqalarga tanitish.** Vositachisiz tanishish qiyinroq bo‘lib, odob nuqtai nazardan noziklikni talab qiladi. Tarbiyali kishi istalgan vaqtida o‘zini tanita oladi. Tanishish uchun yo‘l ochib beradigan vositalar juda ko‘p. Tanishish mulozamat bilan eshik ochish, tushirib yuborilgan narsani olib berish va shu kabilardan boshlanishi mumkin. Shuning o‘zi gaplashib ketishga va keyinchalik tanishishga sabab bo‘ladi. Ko‘chada ketayotib, do‘konda, transportda, yoki muassasada biror kishini tez-tez uchratib tursangiz, hatto u bilan ikki og‘iz gaplashgan bo‘lsangiz, zarurat bo‘lsa, unga o‘zingizni bemalol tanishtirish mumkin. Lekin unda tanishish istagi yo‘qligini sezsangiz, tanishish shart emas.

Agar tanishishni istamagan inson bilan tanishtirishsa, buni bildirmagan ma’qul. Shunday vaziyatda ham sipolikni qo‘ldan bermay, muloyim muomalada bo‘lish maqsadga muvofiq.

**Murojaat qilish etiketi.** Murojaat qilish – insondan ko‘p narsani talab qilmaydi. U kishini tarbiya ko‘rganligidan dalolat beruvchi harakatlar majmuasidir. Aslida murojaat qilish har – hil kechib, bu insonni qayerda, kim bilan, qay paytda, suhbatdosh bilan o‘zaro munosabatdan kelib chiqqan xolda bildiriladi. Murojaat qilib aytilayotgan so‘zlar nafaqat unga bo‘lgan hurmat balki, maqsadga muvofiqlikda ham qo‘llanadi. Murojaat qilib aytilayotgan so‘zlar nafaqat hurmat belgisi, balki, maqsadga erishish vositasi hamdir. Murojaat vaziyatga, sharoitga, jamoaga, muhitga qarab yakka shaxsga yoki jamoaga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Biroq,

barcha murojaatlar axloq meyorlariga bo‘ysingandagina ijobiy natija berishi mumkin.

Insoniy munosabatlarda aytilayotgan so‘zlar faqat axloqiy meyorlarga tayanadi. Bu esa qarindoshlar, sevishganlar, er-xotin, do‘stu-birodar, mansabdor shaxs va xodim o‘rtasidagi munosabatlarda qo‘llaniladigan so‘zlar turlicha bo‘lishini anglatadi. . Murojaat ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan munosabat turi bo‘lib, ular og‘zaki yoki yozma ko‘rinishga ega.

Murojaat qilish ham bir necha turlarga bo‘linadi: ular – rasmiy, ishonchli, intim va egasiz.

Rasmiy murojaatlarda «xonimlar va janoblar» deb jamoatga murojaat qilinadi. Rasmiy murojaatlар mehnat jamoasida rahbarga, ishlab chiqarish korxonalarida yetakchi mutaxassisiga, ta’lim muassasalarida ta’lim beruvchi ustozga, harbiy va huquq tartibot organlarida unvoni katta zabitlarga, davlat ahamiyatiga molik tadbirda jinsga qarab yoki barchaga rasmiy murojaat qilinadi. M: Yakka shaxsga nisbatan janob Toxirov deb murojaat qilish mumkin. Agar familiya ishlatilmasa janob direktor, direktor xonim deb murojat qilish maqsadga muvofiq. O‘rtoq Abdullayev, o‘rtoq general, ya’ni “o‘rtoq” so‘zi harbiylar qo‘llaydilar. Elchilar hamda yuqori martabali insonlarga nisbatan “Janobi oliylari” deb murojaat qilinadi. Rasmiy munosabatda faqat sizlab gaplashiladi. Rahbarning qo‘l ostidagi barcha kishilar bilan bo‘lgan munosabatida ham, 9 yoshdan yuqori bo‘lgan maktab o‘quvchilardan tortib, talabalar bilan bo‘lgan munosabatda ham, notanish insonga murojaat qilganingizda ham sizlab murojaat qilinadi.

Ishonchli munosabatlarda yaqin insonlar, qarindosh urug‘, hamqishloq, vatanishlarga qilinadigan munosablarga aytildi. Bunday munosabatlarda «Sen» deb faqat oilada yoki yaqin munosabatlarda murojaat qilish mumkin. «Amaki», «xola», «tog‘a», «opoqi», «kelinoyi» va boshqa qarindoshlar o‘rtasida shevadan kelib chiqqan xolda murojaat qilish mumkin. «Yaxshi yigit» yoki «yaxshi qiz» degan so‘zlar yoshlarga qarata qo‘llaniladi. Jamoat joylarida kasbi kor darja hamda yoshga qarab shofyor, doktor, o‘quvchilar, talabalar, yo‘lovchilar, qizlar, yigitlar, bolalar kabi nomlarni ishlatish mumkin. Intim, ya’ni yaqin munosabatlarda «azizim, jonim, begin, oyim, yulduzim» kabi murojaatlarni uchratamiz. Egasiz murojaatlarz munosabatda – “Kechirasiz falonchi ko‘cha qayerda?”, “Aytib berolmaysizmi soat necha bo‘ldi?”, “Ruxsat bersangiz kirsam” va boshqalar.

Intim murojaatlarda shaxsga nisbatan chiroyli, yoqimli, erkalash ma’nosidagi so‘zlardan foydalangan xolda murojaat etiladi: “Azizim”, “Mehribonim”, “Jonim”, “Begin” kabi so‘zlardan o‘rinda va samarali foydalanish zarur. Murojaatning bu turi insonning didli va farosatli ekanligini ham belgilaydi. Biroq, ushbu so‘zlarni bemavrid ishlatish insonni bachkanalikka olib keladi.

Ayniqsa, «jonim» so‘zini barchaga nisbatan ishlatish aslo mumkin emas, bu so‘z faqatgina nikohdan o‘tgan, hayotini bir-biri bilan bog‘lagan kimslarga nisbatan ishlatilsa maqsadga muvofiq.

Nomsiz murojaatlarda shaxsni kim ekanligini yaqindan bilish katta ahamiyatga ega emas. Bunday murojaat qisqa mazmunda bo‘lib, biror noma’lum obyekt yoki subyektni aniqlash, u haqda muayyan ma’lumot olish uchun qo‘llaniladi. Masalan, “Kechirasiz, Olmazor ko‘chasini ko‘rsatib yuborsangiz?” “Hurmatli yo‘lovchilar yul haqini o‘z vaqtida to‘lashni unutmang” “Doktor bolamni ko‘rib qo‘ysangiz, issig‘i tushmayapti.” singari murojaatlarda shaxsning aniq ismi ko‘rsatilmasada, u haqdagi ma’lumotlar va aytiladigan fikrlar tushunarli bo‘ladi.

### **3. Notiq shaxsiga qo‘yiladigan talablar. Nutq odobi.**

Aslini olganda, O‘zbekistonda murojaatning aniq bir shakli yo‘q. Ko‘p holatlarda har bir joyning o‘zidan kelib chiqib, shevaga hamda urf-odatga asoslangan xolda murojaat qilinadi.

#### **Suhbatlashish etiketida notiqlik.**

Etiket bo‘yicha muomala qilishni bilish – avvalambor suhbatni olib bora olish qobiliyatidir. Bu yerda ham umumqabul qilingan qoidalar mavjud. Suhbatlashish muomala madaniyatini shakllantirishning muhim vositalaridan biri sanaladi. Har qanday suhbat avvalo ma’lumotlar almanishuvadir. Suhbatlashish orqali insonlar bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar, bir-birlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar, bir-birlarini tushunib boradilar, shu bilan birga muomala madaniyatlaridagi ayrim bo‘shliqlarni to‘ldiradilar. Suhbatdoshni gapini bo‘imasdan uni oxirigacha tinglay olish muhim xususiyat kasb etadi. Zero diqqat va sabr-toqat bilan eshita olish qobiliyati suhbatdoshga nisbatan hamdardlik, layoqatlilik, hayrixohlikni ko‘rsatadi. Lekin bu qobiliyat faqatgina tug‘ma xususiyat kasb etmaydi – har bir inson uni o‘zida hamda farzandlarining tarbiyasida mujassam etib, takomillashtirish mumkin. Bunda axloqiy tarbiya – axloqiy meyorlar katta ahamiyat kasb etadi.

Suhbat olib borish mahoratini o‘rganish mumkin, buning uchun qadimgi notiqlar kabi sizga zarur bo‘lgan bilimlarni egallash lozim. Ammo bu degani do‘stona uchrashuvlarni notiqlik san’ati bo‘yicha musobaqaga aylantirish shart emas. Barcha holat va narsalarga yuzaki qaraydigan jamiyatga bir oz hazil va yengillik bilan ishonchli so‘zlash – bu iste’dodli odamlar ham tan beradigan qobiliyatdir. Har kimga ham aqlii gaplarni osonlik bilan yetkazish qobiliyati berilmaydi. Suhbat san’atida sergaplikka yo‘l qo‘ymay mashq qilish lozim, hamsuhbat ruhiyatini hisobga olish kerak va bu yetarli darajadagi tajribani talab qiladigan faoliyatdir. Avvalambor biz o‘zimizning «men» lashimizdan qochishimiz

lozim. O‘z shaxsiyligini berkitib, o‘zgalarning qiziqishiga e’tibor bermoq – bu har bir suhbatning asosiy afzalligidir. Yaxshi ohang suhbatdoshiga ko‘ngilsiz yoki uni tushkunlikka tushiradigan suhbatlardan qochishni talab qiladi. Jamoatga yoqish uchun suhbatdoshingizga yaqin bo‘lgan va uni ko‘proq qiziqtiradigan suhbat mavzularini tanlashingiz lozim. Jamiyatning yoqimsiz a’zolariga doimo hamma narsadan noliyveradigan va ayb qidiraveradigan odamlar kiradi. Ammo, muloqot qilish meyori va tajribasiga ega haqiqiy tarbiyalı inson hamisha o‘z talabalari darajasida kamtarin, mulohazalarida esa notakabbur va bag‘ri kengdir. Agar jamoat sizga notanish bo‘lsa, suhbatda mavjud odamlar borasida gaplashmagingiz ma’qul, avval ularning o‘zaro munosabatlarini kuzatib, shu asosda biron bir narsa deyish mumkin.

So‘z bu o‘zingizga qarshi quroqla aylanuvchi kuchdir. Yaqin kishini ayblashdan oldin, o‘ylab ko‘rgan ma’qul. Hasadgo‘ylik eng yomon illat. U barcha axloqiy xususiyatlarni yo‘qqa chiqaradi. Mardlik yoki ochiqlik bahonasida ko‘rolmaslik hissini ochiqchasiga ko‘rsatishni odat qilgan kishiga bo‘lgan munosabat hech qachon ijobiy o‘zgarish kasb etmaydi. Bu faqat munosabatlarni yomonlashishiga olib keladi. Bundan hech kim yaxshi natijaga erishmaydi. Atrofdagilar uchun notanish bo‘lgan tilda biror bir odam bilan suhbatlashish madaniyatsizlikdir.

Suhbatdagi har bir so‘z suhbatdosh uchun aniq va tushunarli bo‘lmog‘i lozim. Agar sizning nutqingizni tinglayotgan odam biror-bir so‘zni qaytarish uchun gapingizni bo‘lsa, tez orada suhbatdosh sizga bo‘lgan qiziqishini yo‘qotadi, deganini anglatadi. Bunda nutq o‘ta baland ohangda bo‘lmasligi lozim, aks holda o‘zni noqulay ahvolga solib qo‘yish mumkin. Sizning suhbatingizga uchinchi suhbatdosh qo‘silsa-yu, mavzu esa o‘ta nozik xususiyat kasb etsa, o‘zingizni iltifotli va xushmuomali jihatdan ko‘rsatganingiz ma’qul. Jamoatda barcha narsalar haqida gap ketadi, savollar chuqurlashib ketilmaydi, bir narsani har taraflama ko‘rib chiqilmaydi, balki qisqacha mulohaza yuritiladi, ammo yuzaki emas. Boshqalar bilan gaplashish istagi borligini yoki suhbat zerikali ekanligini ko‘rsatmaaslik, suhbat chog‘ida atrofga alanglab, qo‘lga tushgan biron narsani o‘ynab, yoki soatga qarayverish suhbatdoshni jig‘iybiron qilib qo‘yish mumkin.

Suhbat chog‘ida o‘zini ko‘klarga ko‘tarib, o‘z faoliyati, izlanishlari, mulki o‘z tanishlari doirasi bilan yoki kimnidir ismini ro‘kach qilish bilan maqtanish va yaxshi emas – bunday iboralar suhbatdosh aqlini qanchalik tor ekanligi haqida guvohlik beradi. Munozara qilinayotgan muammolar doirasi keng bo‘lishi mumkin, biroq nima bo‘lganda ham o‘zingizni ishonchli his qiladigan, o‘zingizga mos bo‘lgan mavzularda suhbat olib borishingiz maqsadga muvofiqdir.

Suhbatdoshni sog‘liqdan nolish bilan obhavo haqidagi so‘zlar bilan charchatish ham etiketga to‘gri kelmaydi. Suhbat haqiqatan ham qiziqarliroq

bo‘lish uchun barcha qobiliyat va imkoniyatlarni yordamga chaqirish lozim. **Shujihatdan ham suhbatlashish etiketi bir necha qoidalarni taqozo etadi:**

- Suhbatdoshingizga og‘ir botadigan, xafa qiladigan, noqulay vaziyatga solib qo‘yadigan, gapirishni xohlamaydigan mavzu bo‘yicha suhbatlashish vaziyatni og‘irlashtiradi.
- Suhbatdoshingizga o‘zingizga ta’rif-tavsif berishdan, o‘z muammo va yutuqlar haqidagi ma’lumotlarga e’tiborni kuchaytirishdan qochish, suhbat chog‘ida o‘z “men” ini markaziy joyga qo‘ymaslik lozim. Bunda axloqning kamtarinlik va bosiqlik meyorlari qo‘l keladi.
- O‘z fikrini uqtirishdan avval, noqulay vaziyatga tushib qolmaslik uchun suhbatdoshning ijtimoiy kelib chiqishi, shaxs sifatida, aytيلayotgan masala yuzasidan qanday ma’lumotga ega ekanligini bilib olgan yaxshi.
- Suhbatdosh hurmat qilishga, hatto uni fikrini noto‘g‘ri deb hisoblaganda ham oxirigicha eshitish bilan shaxsning so‘z erkinligini ta’minalashga intilish lozim.
- Boshqa insonlarini g‘iybat qilishdan, ularning shaxsiy hayoti, muammosi haqida suhbat qurish ham odobsizlik sanaladi.
- Har qanday suhbat birinchi navbatda ma’lumotlar almanishuvidir. Suhbat jamoat joylarida yoki ko‘chada bo‘lsa, boshqalarni o‘ziga jalb qilmagan xolda, ovoz past ohangda gaplashish lozim. Tez yoki haddan tashqari cho‘zilib gapirish ham ma’lumotni o‘zlashtirishga xalaqit beradi.
- Kam muomala qilinadigan, yaxshi tanimaydigan insonlar bilan muloqotda bo‘lishda barchaga tushunarli yengil mavzu tanlanib olinadi. M: Futbol, seriallar, qo‘sliqlar, teleko‘rsatuvarlar v.x.k. Hech qachon oilaviy muammolar, shaxsiy xayotdagи kelishmovchiliklar, o‘zi tushunmagan va ma’lumotga ega bo‘lмаган tor mutaxassislikka oid mavzular haqida gaplashish nojoiz.
- Barcha hursand holatda suhbatlashayotgan vaqtida, kayfiyatni tushuruvchi, qo‘rqinchli voqealar, ko‘ngilsiz holatlar haqida gapirish boshqalarni kayfiyatini tushirib yuboradi.
- Bemorni ko‘rgani borganda o‘lim haqida, uning kasal tarixi, mayda-chuyda jihatlari haqida gapirish yaxshi emas. Uning o‘rniga yolg‘on bo‘lsa ham ko‘rinishini yaxshiligi, albatta yaxshi bo‘lib ketishi mumkinli haqida suhbat qurish lozim.
- Dasturxon atrofida ishtahani bo‘g‘uvchi mavzular xaqida gapirilmaydi. Ovqatni yomonlash, kamchilik axtarish yomon odat. Aksincha, uni tayyorlagan insonni ko‘nglini ko‘tarish lozim.
- Tarbiyali va madaniyatli inson tanishi haqida umumiyl fikr bildirayotganda yolg‘on ishlatmaydi, uni g‘iybat qilmaydi. Bir inson haqida (hatto

u yomon inson bo‘lganda ham) fikr bildirayotgan paytda to‘satdan kirib qolgan mavzu «qahramoniga», ko‘pchilik ta’sirida miyg‘ida kulib, sinchkov nigoh bilan piching hamda qochiriqlar qilish ba’zida betga aytilgan haqiqatdan ham kuchliroq dilga ozor beradi.

Suhbatlashish jarayoni nafaqat suhbatlashish balki, tinglash holatiga ham bog‘liq. Tinglash faqat eshitib o‘tirishi kerak degani emas. Yaxshi suhbatdosh hamsuhbat fikrini mantiqiy tugatgandan so‘ng, o‘z fikrini to‘liq bayon qilib beruvchi insonga aytildi. Juda ham kerak bo‘lib qolgan vaqtida uzr so‘rab, M: Kechirasiz, menimcha shu fikringiz...., yoki Fikringizni bo‘lganim uchun uzr so‘rayman, menimcha... degan iboralarni qo‘llagan ma’qul. Bu vaqtida ushbu iboralarning egasi suhbatdoshiga so‘zlashga imkoniyat berishi lozim. Bunda dunyoqarash ham katta ahamiyat kasb etadi. Insonning dunyoqarashi haqida gap ketganda, albatta yoshlар bilan kattalar o‘rtasida tushunmovchiliklar bo‘ladi Shunday paytlarda yoshlар o‘zlarini fikrlarini yoqlamasdan xo‘p deb, mavzuni boshqa yoqqa burib yuborishlari kattalarni dilini og‘ritib qo‘yishdan asraydi.

Muomalada gapning ohangi har-xil bo‘lishi mumkin bular: takabburlik bilan, sovuq, o‘ziga qaratgan xolda, achchiq-tirziq tarzdagi ohanglar. Bir xil ya’ni monotonli gapirish ham boshqalar nazdida zerikarli bo‘lib, qiziqarli ma’lumotni ham xazm qilish qiyin bo‘ladi.

Muomala madaniyatining yana asosiy tavsifnomasi shundan iboratki, bu insonning manerasi, ya’ni xatti – harakatining ohang bilan uyg‘unligi. Bularga qomatni turishi, qo‘l harakati, yuzdagи imolalar kirib ketadi.

Hayotimizni ko‘p qismini bizga notanish bo‘lgan odamlar bilan birga – ko‘cha-kuy, transport, turli xil jamoat joylarida o‘tkazamiz. Nafaqat o‘zimizning kayfiyatimiz, balki atrofimizdagi odamlarning kayfiyati ham jamoatda o‘zimizni qanday tutishimizga bog‘liqdir. Uydan ko‘chaga chiqayotganingizda kerakli bo‘lgan narsalarni: hujjalilar, dastro‘molcha, pul solingan karmon, taroq va boshqa zarur bo‘lgan mayda-chuyda narsalarni o‘zingiz bilan olganingizga ishonch hosil qilib olganingiz ma’qul. Kiyim bosh, oyoq kiyim, soch turmagи, xullas, boshdan-oyoq o‘zimizga razm solib, so‘ng tashqariga chiqishimiz kayfiyatni ko‘tarib, uyda tashqarida o‘zimizga bo‘lgan ishonchni yanada kuchaytiradi. Ko‘chada o‘zini tutishning eng asosiy qoidasi – bu atrofdagilarning o‘zini noqulay va noxush sezishiga sabab bo‘lmaslidir.

Davrada erkak kishi ayol kishi bilan yumshoq munosabatda bo‘lishi shart, ammo oshirib yubormasligi lozim. Haddan ziyod mulozamatlarga vaqtliroq va bosiqroq javob bermoq lozim. Bunday vaziyatlarda «Kechirasiz, hazillarga unchalik xushim yo‘q», «Qaytaryapsiz», «Ko‘rsatuvni oxirigacha ko‘rib olmaymizmi?»a – taxminan shu asnoda javob bergen ma’qul. Gapirayotganda munozaraga berilmasdan, aniq, baland bo‘Imagan ohangda, hotirjamlikni ushlab

turmoq zarur. Mulozamatga «rahmat» deb qisqacha javob beriladi. Odatda, o‘zini haddan tashqari erkin, aqlli qilib ko‘rsatishga intilgan va diqqat markazida bo‘lishini istagida qattiq uringanlar, aksincha noqulay vaziyatga tushib qoladilar. Bunday odamlarga, boshqalarining ismisharifiga, bo‘yiga, millati va turar joyiga, sochining rangi, ma’lumoti va avtomobil halokatiga doir hazillar qilish mumkin emasligini hamisha yodda tutishlari kerak.

O‘xshamagan mutoyiba hazilga, dilxiralikka qanday javob berish kerak? Omadsiz bunday tarzdagi ifodadan so‘ng, jim bo‘lib qolishdek hech qanday holat kuchli ta’sirga ega emas. Keyin kimdir biron boshqa mavzuda gap boshlagani yaxshi. Agar «o‘tkir fikrli» shaxsning tinglovchilarni g‘ashiga tegishida davom etishi to‘xtamasa, unda uy egasi unga qarab: «Bugun sen negadir o‘zingdamassan» deb to‘xtatishi lozim. Odamlarni o‘ziga kelmasdan avval hazillarga ko‘mib tashlash kerakmas. Hazil joyida bo‘lgani yaxshi. Hozirjavob hazilning ma’nosiga yetib borishda so‘zlovchining qattiq kulgusi halaqit beradi.

Davrada achchiq so‘zlarni suiste’mol qilmagan ma’qul. O‘zini aqlli deb biladigan bunday odamlar davrada «qurban» topib olib, uni mazax ostiga olish maqsadida turli savollar yoki vaziyatlarga solishga intilishi o‘zini axmoq qilib ko‘rsatishdan o‘zga narsani bermaydi. Bunda tinglovchilar gapiroayotgan odamning aybini qidirishga ko‘proq e’tibor beradilar. Erix Fromm ta’limotida bunday odamlarning ruhiyatida sadizm – zolimlik borligini – «zul qilyapmanmi demak mavjudman» degan shior yashaydigan kishilarga nisbat beradi. Agarda bunday odamlarning harakati tashqaridan juda xunuk ko‘rinishini, mazlumi emas, o‘zini butun bir tuban xususiyatlarini ko‘rsatayotganini va undagi o‘ta omilikni tashqariga chiqarayotganini bilganida edi hech qachon bunday harakatlarni qilmagan bo‘lar edi. Zigmund Froyd jamoada o‘zini bunday salbiy tutayotgan shaxs hatti-harakatlari aslida hasadgo‘ylikdan ekanligi, bunga guvoh bo‘layotgan jamoat ham aksariyat holatda bunga to‘sinqilik qilmasa-da, ushbu shaxs to‘g‘risida xuddi shu xulosaga kelishini ta’kidlagan. Bu bilan Froyd jamoada inson o‘zini erkinroq tutadi, va badxulqlik bilan bo‘lgan barcha harakatlardan tiyilishi qiyin bo‘ladi, degan xulosaga keladi. Tahliliy ruhshunoslik asoschisi Karl Gustav Yung esa jamoada ushbu ruhiy holatni arxetipler bilan bog‘lab, unga «trikster» degan nomni beradi. «Trikster u bu odamlar tabiatidagi eng tuban illatlar majmui, jamoaviy onglanmaganlikning tuban ruh – obrazidir». Demak, jamoatda boshqalar ta’siridan o‘z salbiy illatlariga erk berish havfi kuchliroq ekan, inson bunday paytda o‘zini yo‘qotmasligi, axloqiy masalalarda mustaqil fikrga ega bo‘lishi kerakligini unutmasligi lozim ekan.

Muomala etiketida hozirjavoblik juda katta o‘ringa ega. Aksariyat hollarda insonlar davraga kirib kelgan kishini sergakligi va hozirjavobligiga juda katta e’tibor beradilar. Ayniqsa etiketda ko‘rishish va so‘rashish jarayoni o‘zaro

kuzatuvchanlik bilan amalga oshiriladi. Agar ulardan biri bu borada “soddalik” qilsa, odamlar orasida buni bildirishning har qanday yo‘lidan foydalanishga intilishni ko‘rish mumkin. Buning ruhiy-axloqiy jihatni shundaki, o‘z vaqtida berilmagan “javob” yoki “soddalik” boshqarilishga loyiq kishi sanalishi, boshqalar oldida “kulgi” bo‘lish havfi bir tomondan jamiyat qo‘ygan etiket qoidalarini o‘z vaqtida amalga oshirishga intiltirsa, ikkinchi tomondan o‘ng‘aysizlikni yengish uchun hozirjavoblikni qo‘llash orqali badiiy ijodiylikka intiltiradi. Bu borada Froyd «Hozirjavoblik va uning onglanmaganlikka munosabati» asarida hozirjavoblikning vujudga kelishi va uning qabul qilinishdagi ruhiy holatlar talqinini berish bilan birga Froyd kulgililikka ham alohida to‘xtalib, uning boshqa turlarini, ular orasidagi o‘zaro farqlarni tushuntirishga harakat qiladi. Davradagi odam boshqaga murojaat qilganda yoki munosabatga kirishganda, beixtiyor suhbatdoshiga so‘zlayotgan so‘zlaridan birining unli yoki undosh harflarini almashtirib yuborish orqali kulgililikni vujudga keltiradi. Agar bu so‘z o‘yini atayin, ongli tarzda amalga oshirilgan taqdirda ham so‘zlovchi ijodiy jarayondagi ijodkor kabi onglanmaganlikka keng yo‘l qo‘yib beradi. Zero bu jarayon san’atkorona mahoratni talab qiladi. Muallif so‘zlardagi unli va undosh, so‘zlarga qo‘shiladigan qo‘shimchalarni o‘zgartirish bilan juda chiroqli tarzda o‘z maqsadi yo‘lida foydalanarkan, bir jihatdan so‘zlovchining ruhiyatidagi ziddiyatlarni kulgililik orqali o‘zini dovdir qilib yoki bilmasdan gapirib yuborgan qilib ko‘rsatish bilan tashqariga, suhbatdoshiga zimdan uyushtirilgan hujum sifatida amalga oshiradi. Ikkinchi jihatdan esa, dilini og‘ritmagan holda, ochiqdan-ochiq kurashlarsiz, kulgililik orqali suhbatdoshini «silliqlik» bilan «haqiqatga» yetkazib qo‘yadi. Bunday jarayon muomala etiketida to‘satdan paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘pol munosabatlarni oldini oladi. Biroq, ortiqcha xajviya, hozirjavoblik doimo to‘g‘ri kelavermasligini unutmaslik lozim.

**Shirinsuxanlik** ham katta san’at. Shirin so‘z bilan kishining ishonchi va qalbini egallash mumkin. Unda yuz ifodasi tilning ko‘rki hisoblanadi. Muomala madaniyatida so‘z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo‘lsa ham “suyakka tegishi” mumkin.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiy meyoriy talablarini bajarishni taqazo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko‘zga ko‘rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorkin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo‘lishi so‘z, nutq vositasida ro‘y beradi. So‘zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati – muomalaning muhim jihatlarini tashkil etadi. Shu bois, muomala odobi o‘zini, eng avvalo, shirinsuhanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, hushfe’llilik singari axloqiy meyorlarda namoyon qiladi. Muomala odobining yana biri bu – insoniy nigoh. Ma’lumki, odamning nigohida, yuz ifodasida, qo‘l harakatlarida uning qay-

sabablardandir tilga chiqmagan, so‘zga aylanmagan hissiyoti, talablari o‘z aksini topadi. Chunonchi, suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qo‘l siltab ketishi yoki fikrini bo‘lib, qo‘pol muomalada bo‘lishi madaniyatsizlikni anglatadi. Suhbatdoshni fikrini noto‘g‘ri deb bilgan taqdirda ham tarbiyalı va kamtar inson “Menimcha adashdingiz?” “Uzr, men boshqa fikrdaman”, “Kechirasiz, men sizning fikringizga qo‘shilmayman” degan iboralar bilan murojaat qiladi. Hech qachon “umuman noto‘g‘ri”, “bu to‘g‘rida hech narsani tushunmaysiz”, “bu narsani yosh bola ham biladi” degan iboralarni ishlatish mumkin emas.

Gapirayotgan insonni fikrini bo‘lib, “Bo‘lishi mumkin emas”, “O‘zingiz ishonasizmi?” tarzidagi iboralar bilan chalg‘itish ham odobsizlik sanaladi.

Xushmuomalalik va xusufe’llilikning mug‘ombirlikdan va qalbaki tortinchoqlikdan kelib chiqmasligi, samimiyligi, tabiiy va beg‘araz, har qanday mug‘ombirlik va soxta tortinchoqlikdan xoli bo‘lishi kerak.

Hamma davrlarda suhbat, muloqot inson muomalasining asosini tashkil qilgan. Suhbat – bu insonlar o‘rtasidagi fikrlar almanishuvi bo‘lib, u aqlilik va chiroysi so‘zlashdan ibora bo‘la olmaydi. Ba’zi insonlar qanday qilib gap boshlashni bilishmaydi, gapirganda o‘zlarini yo‘qotib qo‘yadilar. Juda ko‘p keraksiz so‘zlarni, ishlatadilar. Bugungi kunda ba’zi yoshlarimiz nutqidan mammun emasmiz. Chunki ularning nutqi umuman yo‘q hisob, gaplari faqat jargon va xunuk so‘zlardan iborat. Agar suhbatdoshingizning nutqi jargon so‘zlar bilan to‘lib, toshgan bo‘lsa, o‘zi qiynalib poyma-poy gapirsa, talaffuzi yaxshi bo‘lmasa, ohangi quloqqa yoqmasa, eng mazmundor suhbat ham o‘z qimmatini yo‘qotadi. Hamma vaqt aniq-ravshan, hovliqmasdan, muloyimlik va mayin ovoz bilan gapirishga harakat qilish kerak. Hovliqib aytilgan so‘zni tushunish qiyin bo‘ladi, juda cho‘zib, sekin gapirish esa kishining sabr-kosasini to‘lib toshiradi. Talaffuz etilgan har bir so‘z, bo‘g‘in va ohang aniq va ravshan jaranglashi lozim. Juda nozlanib gapirish ham xunuk odat.

#### **4. Tashqi ko‘rinishning inson faoliyatidagi ahamiyati.**

**Tashqi ko‘rinish** – insonning kim va qanday ekanligi haqida dastlabki ma’lumotni beradi hamda uning turmush tarzi va hayotida muhim ahamiyatga ega. Tashqi go‘zallik insonning ichki dunyosini to‘liq aks ettirmaydi, lekin inson haqida uning tashqi ko‘rinishisiz to‘liq tasavvurga ham ega bo‘la olmaymiz.

Tashqi ko‘rinish va etiket ayollar uchun ham, erkaklar uchun ham ahamiyatlidir. Kiyinish insonning didi, dunyoqarashini, qay darajada tartibli ekanligini ochib beradi. Sizning tashqi ko‘rinishingiz – muvaffaqiyatga erishishingizdagи muhim omillardan biri. Siz yaxshi notiq sifatida nom qozonishni istasangiz, demak, avvalo, imijingizni o‘zgartiring.

Kuchli notiq birinchi navbatda, o‘zi tegishli bo‘lgan tashkilot yoki ijtimoiy guruh, qolaversa, o‘zining obro‘sini saqlashi, shu maqsadda qayg‘urishi lozim.

## **Kuchli notiqlarning tashqi ko‘rinishiga quyidagi asosiy talablarning qo‘yilishi maqsadga muvofiq:**

- kiyinish uslubi odmi hamda nutq uslubiga monand bo‘lishi zarur;
- kiyim toza, dazmollangan, atrofdagilarni o‘ziga jalb qiladigan turli xildagi bezaklarsiz bo‘lishi lozim;
- tanlangan poyafzal notiqning kiyimiga mos bo‘lishi kerak.

### **Tashqi ko‘rinishga e’tibor – bu :**

- dastlabki tasavvur tashqi ko‘rinish orqali bo‘lishini anglashdir
- tashqi qiyofaga yetarli e’tibor bermaslik natijasida ko‘zlangan maqsadga erishish qiyin kechishini bilishdir
- kiyimga e’tibor bermaslik o‘z imkoniyatiga yetarli baho bermaslik kayfiyatini paydo qilishini ko‘ra olishdir
- palapartish kiyinish ijobiy natijaga erishishdagi g‘ov ekanligi his qilishdir
- kiyinoshda insonning madaniyatlilik darajasi, didi, dunyoqarashi namoyon bo‘lishiga befarq bo‘lmaslikdir

### **Mavzu bo‘yicha savollar:**

1. Notiq imiji tushunchasiga ta’rif bering.
2. Notiq imijini shakllantirishda qanday omillar asosiy rol o‘ynaydi?
3. Axloqiy madaniyatning notiq nutqida namoyon bo‘lish xususiyatlari.
4. Etiket va notiq imijining o‘zaro bog‘liqligi nimada?
5. Imijning nutq sifatiga ta’siri qanday?

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Muhammadjonova L.A. Ritorika. T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2019.
2. Muhammadjonova L.A., Ortigova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K.. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018 у.
3. Мухаммаджонова Л.А. Давлат хизматчиси этикаси ва имижи. Ўқув қўлланма - Т.: Университет, 2017.
4. Ҳусанов Б. Бошқарув этикаси. Ўқув қўлланма. Т.: Университет. ЎзМУ, 2017.
5. Мухаммаджонова Л.А., Абиджанова Ф.Ш. Этикет. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ЎзМУ, 2018.

## TESTLAR

### **1. “Nutq madaniyati” deganda nima tushuniladi?**

- a) Qo‘yilgan maqsadga muvofiq va vaziyatni aniq his etgan holda tinglovchi(lar)ga ko‘proq ta’sir o‘tkazishga yordam beruvchi sifatlar jamlamasи;
- b) Adabiy til normalariga rioya etgan holda fikrlarni bayon etish;
- c) O‘zga bilan so‘zlashganda odob-axloq normalariga rioya qilish.
- d) O‘z fikrini mutlaqo ona tilida gapirish tushuniladi

### **2. Nutq madaniyatining zarur shartlari:**

- a) Nutqning tozaligi, aniqligi, ifodaliligi, uslubiy sayqaldorligi, badiiy jozibadorligi, yorqinligi;
- b) Suhbatdosha hurmat hissi, adabiy til normalariga qat’iy amal qilish;
- c) Adabiy til normalariga qat’iy rioya qilish, qisqa va lo‘nda so‘zlash.
- d) Badiiy tilda so‘zlashish va fikrni erkin bayon etish

### **3. Adabiy tilga to‘g‘ri ta’rif berilgan qatorni toping.**

- a) umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma’lum me’yorga solingan shakli;
- b) badiiy asar tili adabiy til hisoblanadi;
- c) qadimgi turkiy til adabiy til deb ataladi;
- d) ilmiy asar tili adabiy tildir.

### **4. Nutq haqida tushuncha qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) Nutq so‘zlovchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, ruhiyat va nafosat hodisasi hisoblanadi;
- b) Muomala va muloqot, fikrlar, g‘oyalari, oliy maqsad, munosabatlar tizimining eng ta’sirli ifoda vositasidir ;
- c) ichki hatti-xarakat, xis tuyg‘u, xoxish iroda, ifoda vositasidir ;
- d) Hamma javoblar to‘g‘ri

### **5. Nutq madaniyatining asosiy maqsadi – bu.....**

- a) muloqot vositasini o‘rnatishdan iborat.
- b) chiroli gapirishni o‘rgatishdan iborat.
- c) muloqotda murosa yo‘lini tanlashdan iborat.
- d) jamiyat a’zolari nutqini madaniylashtirishdan iborat.

### **6. Notiqlik san’ati ko‘proq qaysi fanlarga asoslanadi?**

- a) Matematika va siyosatshunoslikka.
- b) dinshunoslik va estetikaga.
- c) Mantiq va psixologiyaga.
- d) pedagogika va sotsiologiyaga.

### **7. Xushmuomilalik – bu ..**

- a) insonlar bilan munosabatlarda shirinso‘z, chiroli muomalali bo‘lish demakdir.
- b) o‘zgalarga fikrini lo‘nda bayon etish demakdir.
- c) Birovlarning qalbiga yo‘l topish demakdir.

d) O‘zgalar fikrini chiroyli tushuntirish demakdir.

**8. Nutq madaniyatiga to‘liq ta’rif berilgan qatorni aniqlang.**

- a) lug‘aviy me’yorlarga rioya qilish;
- b) mantiqiy izchillika va adabiy til me’yorlariga rioya qilingan holda to‘g‘ri aniq va yoqimli so‘zlash;
- c) to‘g‘ri talaffuz me’yorlariga rioya qilish;
- d) yoqimli so‘zlash.

**9. Adabiy tilning faqat yozma shakli uchun xos bo‘lgan me’yorlar qaysi qatordagi javobda ifodalangan?**

- a) lug‘aviy va grammatik me’yor;
- b) orfografik me’yor;
- c) punktuatsion me’yor;
- d) uslubiy me’yor.

**10. Ma’lum hududdagina ishlatilib, faqat shu yerda yashovchi kishilarga tushunarli bo‘lgan so‘zlar qanday nomlanadi?**

- a) Kasb-hunarga oid so‘zlar;
- b) shevaga xos so‘zlar;
- c) terminlar;
- d) atamalar.

**11. Notiqlik san’ati fan sifatida nechta qismga bo’linadi?**

- a) 4
- b) 3
- c) 5
- d) 2

**12. O‘rta asrlarda yashagan allomalarimiz orasida kuchli notiq sifatida e’tirof etilgan shaxslarning nomi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) Muin Voiz, Qozi O’shiy;
- b) Umar Hayyom, Sa’diy Sheroziy;
- c) Abu Rayxon Beruniy; Ibn Sino;
- d) Abduraxmon Jomiy va Mavlono Lutfiy.

**13. Amir Unsurulmaoniy Kaykovusning “Qobusnama” asarida notiqlik san’atiga bag‘ishlangan maxsus bobning nomi nima deb ataladi?**

- a) “Suxandonlik bila tanilmoq zikrida”.
- b) “Suxandonlik bila ilmli bo‘lmoq zikrida”.
- c) «Suxandonlik bila baland martabali bo‘lmoq zikrida».
- d) “Suxandonlik bila amal egallamoq zikrida”.

**14. «Haq vaqtiki so‘zlar aytursizlar yaxshi so‘zdin bo‘lakni aytmangizlar va ko‘p so‘zlamak ko‘ngilni qaro qilur, xor aylar», degan hikmat qaysi alloma tomonidan aytilgan?**

- a) Qozi O’shiy.
- b) Mavlono Muin.
- c) Husayn Voiz Koshifiy.

d) Abu Abdulloh Rudakiy.

**15. «Til shirinligi - ko‘ngilga yoqimlidir, muloyimlik esa foydali. Shirin so‘z sof ko‘ngillar uchun asal kabi totlidir», - deydi....**

a) Mavlono Jaloliddin Rumiy.

b) Mir Alisher Navoiy.

c) Abu Homid al-G‘azzoliy.

d) Amir Unsurulmaonoy Kaykovus.

**16. O‘rta asrlardagi voizlik san’atining uchta shakli qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

a) dabirlik, xatiblik, muzakkirlik.

b) dabirlik, xatiblik, voizlik.

c) xatiblik, muzakkirlik, jihodiya.

d) jihodiya, dabirlik, suhandonlik.

**17. Notiqlik san’ati qayerda va qachon fan sifatida shakllangan?**

a) m.a. V asrda Yunonistonda

b) m.a. I asrda Rimda

c) m.a. X asrda Misrda

d) VII asrda Arabistonda

**18. Yunon tilidan tarjima qilinganda “usta”, “mohir” deb tarjima qilinuvchi, “Donishmandlik” va “fasohat” muallimlari sifatida voizlik qiluvchi qadimgi yunon faylasuflari kimlar edi?**

a) Attika maktabi vakillari

b) Sofistlar

c) Epistemiologlar

d) Ritorlar

**19. Yunon notiqlig’ida fikrni qisqacha, lo‘nda qilib ifodalash uslubi qanday atalgan?**

a) ritorika

b) diskussiya

c) sofistika

d) lakonizm

**20. Qaysi yunon notig’i o‘zi nutq so‘zlamagan, balki notiqlikdan saboq bergen va Yunoniston bo‘ylab tarqatilgan nutqlarni yozgan. Isokrat uslubi o‘z hashamadorligi bilan ajralib turadi?**

a) Gorgiy

b) Isokrat

c) Demosfen

d) Lisiy

**21. Qaysi mashhur faylasuf nutqda ishontirishning usullarini ikkiga: “texnikaviy” va “notexnikaviy”ga bo’ladi?**

- a) Arastu
- b) Aflotun
- c) Sitseron
- d) Demosfen

**22. Qadimgi Rim maktabida ritorika 2 usulga bo’lingan bo’lib, ushbu usullar qanday nom bilan atalgan?**

- a) Osiyo usuli va Attika usuli
- b) Osiyo usuli va Lakonika usuli
- c) lakonizm va sofizm
- d) Attika usuli va Makedoniya usuli

**23. Sitseronning bizgacha yetib kelgan merosi nimalardan iborat bo’lgan?**

- a) 58 ta nutq, 900 ta xat
- b) 75 ta nutq, 900 ta xat
- c) 58 ta nutq, 350 ta xat
- d) 88 ta nutqi, 909 ta xat

**24. Qadimgi Yunonistonda kim notiqlikni 3 ga bo’lib tasniflagan edi?**

- a) Aflotun
- b) Arastu
- c) Demokrit
- d) Solon

**25. Arastu nutqning uch tarkibiy qismini ajratib, bu qismlar bir-biriga muvofiq kelishi kerakligini ta’kidlagan. Bu qanday qismlar edi?**

- a) Notiq, Matn, Tinglovchilar.
- b) Nutq mavzusi, Tinglovchilar, Muhit.
- c) Siyosat, Saylov, Sud
- d) Notiq, Nutq mavzusi, Tinglovchilar.

**26. Qanday nutqda (yaqin yoki uzoq) kelgusi vaqtida yuz beradigan voqealar muhokama qilinadi?**

- a) Kengashuv nutqi
- b) Hakamlik nutqi
- c) Epidektiv nutq
- d) Sudlov nutqi

**27. Quyidagi fikr kimga tegishli: “insonni oliv darajaga ko’taruvchi ikki san’at bor: biri yaxshi harbiy sarkardalik san’ati, ikkinchisi yaxshi notiqlik san’ati?”**

- a) Arastu
- b) Sitseron

- c) Katon
- d) Beruniy

**28. Qachondan boshlab musulmon Sharqida hukmdor siyosati, xalqaro ahvolni gapirish kabi muhim ish xushovoz, ta'sirchan gapiradigan, ishontira oladigan maxsus kishilar — voizlarga topshirilgan?**

- a) IX asr
- b) XI asr
- c) XIII asr
- d) X asr

**29. Davlat maqomidagi yozishmalarni yozma bayon etish va qiroat bilan o'qib berish nutqning qanday turi bo'lgan?**

- a) Dabirlik
- b) Xatiblik
- c) G'aribona
- d) Muzakkirlik

**30. Juma kunlari, hayit va boshqa tantanali kunlardagi anjumanlarda xatibdan keyin diniy, axloqiy, huquqiy masalalarni sharhlab berish bilan bog'liq notiqlik turi bu?**

- a) Dabirlik
- b) Xatiblik
- c) G'aribona
- d) Muzakkirlik

**31. Zamonaviy notiqlikning nechta turkumi mavjud?**

- a) 4
- b) 3
- c) 5
- d) 6

**32. Qaysi nutq turi kollektiv xarakterga ega bo'ladi, notiq faqat o'zining emas, balki butun tizim, tashkilot yoki korxonaning faoliyatiga oid ma'lumotlarni yetkazadi?**

- a) ijtimoiy-siyosiy
- b) Hisobot
- c) Diplomatik
- d) Harbiy-vatanparlik

**33. "Qisqa va tushunarsiz qilib gapir" fikri kimga tegishli?**

- a) Aristid Brian
- b) Napoleon Bonapart
- c) Esxil
- d) Demosfen

**34. Suhbat samaradorligining asosiy shartlari qaysi qatorda keltirilgan?**

- a) tilning umumiyligi, suhbat uchun mavzuning mavjudligi;
- b) ikki va undan ortiq suhbatdoshning mavjudligi;
- c) suhbatdoshlarning o‘z fikrida qat’iy turishi va uni har qanday sharoitda yoqlashga harakat qilish.
- d) qisqa va lo‘nda gapirish

**35. Muomala madaniyatidagi asosiy vosita nima?**

- a) matn.
- b) so‘z.
- c) nigoh.
- d) til.

**36. Mantiqiy fikrlashning qanday usullari mavjud?**

- a) solishtirish, analiz, sintez, ayniyat
- b) solishtirish, inkorni inkor etish, abstraklash va umumlashtirish
- c) solishtirish, analiz, sintez, abstraklash va umumlashtirish
- d) solishtirish, analiz, sintez, umumlashtirish

**37. Qaysi mantiqiy fikrlash uslubining yordami bilan biz buyumlarni, hodisalarni fikran qismlarga bo‘lib, ularning ayrim qismlarini, belgilarini, xususiyatlarini ajratamiz?**

- a) solishtirish
- b) analiz
- c) sintez
- d) umumlashtirish

**38. Fikrlashning qanday asosiy formalari mavjud?**

- a) tushuncha, muhokama va aqliy xulosalar
- b) analiz, sintez, abstraklash va umumlashtirish
- c) ayniyat, inkorni inkor, nozidlik
- d) hukm va xulosa

**39. Fikr xususiyidan xususiyga qarab boradigan aqliy xulosa shakli?**

- a) analogiya
- b) deduksiya
- c) induksiya
- d) abstraklashtirish

**40. Ma’lum bir mavzu, masala yuzasidan diolog (yoki polilog) tarzida ikki yoki bir necha kishi o‘rtasida bo‘lib o‘tgan nutqiy muloqot bu?**

- a) munozara
- b) murojaat
- c) muzokara
- d) suhbat

**41. Murojaat qilishning nechta turi mavjud?**

- a) 2
- b) 3
- c) 4
- d) 5

**42. Shaxsga nisbatan chiroyli, yoqimli, erkalash ma‘nosidagi so’zlardan foydalangan holda murojaat etish murojaatning qaysi turiga xos?**

- a) rasmiy
- b) ishonchli
- c) intim
- d) egasiz

**43. Qanday murojaatlarda shaxsni kim ekanligini yaqindan bilish katta ahamiyatga ega emas?**

- a) rasmiy
- b) ishonchli
- c) intim
- d) egasiz

**44. Debatlarning nechta asosiy tamoyili mavjud?**

- a) 4
- b) 5
- c) 6
- d) 3

**45. Taqdimot sifatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni qanday turlarga ajratamiz?**

- a) muhim va nomuhim
- b) ichki va tashqi
- c) yuqori, o'rta, quyi
- d) qaytarib bo'ladigan va qaytarib bo'lmaydigan

**46. Quyidagi qaysi omil taqdimot sifatiga to'siq bo'luvchi ichki omillar turiga kirmaydi?**

- a) Auditorianing taqdimotga tayyor emasligi
- b) Fikrda xatolikka yo'l qo'yish
- c) Tayanch iboralarni noto'g'ri talqin etish
- d) Muhim masalalarni nazardan chetlashtirish

**47. Quyidagi qaysi omil taqdimot sifatiga to'siq bo'luvchi tashqi omil hisoblanadi?**

- a) Auditorianing taqdimotga tayyor emasligi
- b) Fikrda xatolikka yo'l qo'yish
- c) Tayanch iboralarni noto'g'ri talqin etish

d) Muhim masalalarini nazardan chetlashtirish

**48. Muloqot jarayonida sizni auditoriya bilan ajratib qo‘yadigan omillardan biri bu?**

- a) nutqni mavzusini bilmaslik
- b) auditoriya
- c) minbar
- d) vaqt

**49. Taqdimotni maksimal qancha vaqt uchun rejalashtirish kerak?**

- a) 1 soat
- b) 20 daqiqa
- c) chegaralanmagan
- d) 2 soat

**50. Taqdimot slaydida ma’lumotni uzatish uchun qanday vizual elementlardan foydalanish mumkin?**

- a) rasm, jadval
- b) grafika, video
- c) infografika
- d) hamma javob to’g’ri

**51. Taqdimot slaydini tayyorlashda quyidagi matn shriftlaridan qaysi birini ishlatalish tavsiya etilmaydi?**

- a) Arial
- b) Calibri
- c) Verdana
- d) Tahoma

**52. Quyidagi qaysi rang birikmalarini taxminan 10 foiz odam umuman ajrata olmaydi?**

- a) oq-pushti
- b) sariq-qora
- c) qizil-ko’k
- d) qizil-yashil

**53. Taqdimot so’nggida savolning bo’lmasligiga nima sabab bo’lishi mumkin?**

- a) Taqdimot hech kimga foyda bermaganligi
- b) Taqdimotdagi muammolar bir-biri bilan bog‘lanmaganligi va fikrlar cho‘zilib ketganligi
- c) Siz tinglovchilarning “og‘riq nuqtalari”ga tegib ketganligingiz va ular bu og‘riqni qaytalanmasligini xohlaganlari
- d) hamma javob to’g’ri

**54. Qanday turdagи taqdimotda olimlar o‘zlarining ilmiy g‘oyalarini, tadqiot o‘tkazishga oid ilmiy zahiralar manbaini taqdimot qiladilar?**

- a) PR va reklama taqdimoti
- b) Ilmiy taqdimot
- c) Ijtimoiy-siyosiy taqdimot
- d) Boshqaruvchi taqdimoti

**55. Qanday turdag'i taqdimot davra suhbati, debat, breyn-ring, yuzma-yuz muloqot hamda matbuot konferensiyasi ko'rinishida o'tkazilishi mumkin?**

- a) PR va reklama taqdimoti
- b) Ilmiy taqdimot
- c) Ijtimoiy-siyosiy taqdimot
- d) Boshqaruvchi taqdimoti

**56. Hozirgi adabiy til meyorlariga rioya qilib tuzilgan nutq bu - ..... .**

- a) Yuqori madaniyatli nutq
- b) To'g'ri nutq
- c) So'zlashuv nutqi
- d) Noto'g'ri nutq

**57. Tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli qanday ataladi?**

- a) Til
- b) Notiqlik
- c) Nutq
- d) Maktub

**58. «Ixyou ulumid-din» asari muallifi to'g'ri berilgan qatorni toping?**

- a) Xorazmiy
- b) G'azzoliy
- c) Beruniy
- d) Ibn Sino

**59. Kundalik hayotimizda o'zaro muomala jarayonida ishlataladigan nutq qanday nomlanadi.**

- a) Oddiy so'zlashuv nutqi
- b) Adabiy so'zlashuv nutqi.
- c) Muomila madaniyati
- d) To'g'ri javob yo'q

**60. ..... - bu ot tojik tilida "nutq" ma'nosini anglatadigan suxan otiga "bil" ma'nosini anglatadigan donistan fe'lining don hozirgi zamon asosini qo'shib hosil qilingan bo'lib, "gapga chechan", "notiq" ma'nosini anglatadi**

- a) Notiq
- b) Voiz
- c) Suhandon

d) Ritor

**61. .... — radio va televideniye da mikrofon oldida, telekamera qarshisida tayyor matnni o‘quvchi shaxs.**

- a) Notiq
- b) Voiz
- c) Suhandon
- d) Ritor

**62. Bu usul leksikasi, fonemasi, morfologiyasi va sintaksisi bilan xalqning oddiy so‘zlashuv tilini o‘zida aks ettiradi. Bu qanday uslub?**

- a) So‘zlashuv uslubi
- b) Publisistik uslub
- c) Badiiy uslub
- d) Rasmiy uslub

**63. Bu usul rasmiy xujjatlar til xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi-e’lonlar, qonunlar, sud va davlat idoralari xujjatlari shu uslubda yoziladi.**

- a) So‘zlashuv uslubi
- b) Publisistik uslub
- c) Badiiy uslub
- d) Rasmiy uslub

**64. Ushbu uslub nutqning boshqa uslublaridan dastlab o‘zining obrazliligi, estetikligi va ta’sir etish vazifasi bilan ajralib turadi. Badiiy nutqda til leksikalarining hamma qatlamlari ishtiroy etadi.**

- a) So‘zlashuv uslubi
- b) Publisistik uslub
- c) Badiiy uslub
- d) Rasmiy uslub

**65. Ushbu uslub fanning turli soxalariga aloqador so‘z va atamalarni ko‘proq tasarruf qilish, bayonning ko‘proq mantiqiy dalillarga suyanish bilan boshqa uslublardan aniq, qoidalar, formulalar, asosida ifodalanishi bilan farqlanadi.**

- a) So‘zlashuv uslubi
- b) Publisistik uslub
- c) Badiiy uslub
- d) Rasmiy uslub

**66. ....— so‘zi lotincha so‘z bo‘lib, ijtimoiy yoki xalq, ijtimoiy xalqchil degan ma’nolarni bildiradi**

- a) So‘zlashuv uslubi
- b) Publisistik uslub
- c) Badiiy uslub
- d) Rasmiy uslub

**67. - bu oddiy nutq emas, balki fikrni soda va chiroyli ifoda eta olishdir. Shu bois nutq madaniyati notiqlik bilan bevosita aloqador bo'lsa ham, ular aynan bir tushunchalar emas. San'at ma'nosidagi notiqlik nutq madaniyatining eng yuqori nuqtasidan boshlanadi.**

- a) Nutqiy mahorat
- b) Nutq madaniyati
- c) Nutq tozaligi
- d) Nutq tasirchanligi

**68. U nutqdagi fikr ta'sirini kuchaytiradi. Notiq o'z tinglovchilariga nima deyayotganligi bilangina emas, balki uni qanday ifoda etayotganligi bilan ham ta'sir etadi. Bu nutqning qanday qismi.**

- a) Imo-ishora
- b) Intonatsiya
- c) Stilistika
- d) Ilmoqli gaplar

**69. .... - deganda, dastaval uning adabiy til meyorlariga mos kelishi tushuniladi. Busiz boshqa aloqaviy sifatlar bo'lishi mumkin emas.**

- a) Nutq tozaligi
- b) Nutq tasirchanligi
- c) Nutq to'g'riliqi
- d) Nutq madaniyati

**70. .... - deganda unda til elementlarining ishlatalishida adabiy til me'yorlariga amal qilish-qilmaslik tushuniladi. Yaxshi, namunaviy nutq hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda shakllangan bo'lishi, turli g'ayriadabiy va g'ayriaxloqiy til elementlaridan xoli bo'lishi kerak.**

- a) Nutq tozaligi
- b) Nutq tasirchanligi
- c) Nutq to'g'riliqi
- d) Nutq madaniyati

**71. *nu, tak, vot, Sovsem, voobuuye, tolko, tolko tak, yestestvenno, ob'yazatelno, konechno, uje, pochti, tak chto, znachit, kak raz, neujeli, tem boleye, dokument, oformit qilmoq, organizovat qilmoq, prinimat qilmoq, razresheniye olmoq, podpis qo'ymoq, bo, akun, soni kabi so'z va birikmalarning ishlatalishi qanday nomlanadi?***

- a) Vulgarizm
- b) Varvarizm
- c) Jargon
- d) Dialektizm

**72. Qanday so'z va iboralarni so'zlashuv va badiiy nutq uslubida ishlatish**

**matnga putur yetkazishdan boshqa narsa emas.**

- a) Tildagi konselyarizm
- c) Sheva
- d) Dialektizm
- c) Nutq tozaligi

**73. Ular asosan so'zlashuv nutqida ko'p ishlatilib, notiqning o'z nutqini kuzatib bormasligi, e'tiborsizligi natijasida paydo bo'ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. Masalan, ayrim kishilar o'zlarini sezmagan holda *demak*, xo'sh kabi so'zlarni qaytaraverishga o'rganib qolganlar. Bu qanday so'zlar?**

- a) Shevadagi so'zlar
- b) Vulgarizmlar
- c) Varvarizmlar
- d) Parazit so'zlar

**74. Og'zaki nutqda ba'zan uchrab qoladigan so'kinish, haqorat so'zlarni ishlatish axloq me'yorlariga, sharqona muomala madaniyatimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan ishdir. Ammo badiiy adabiyotda personajlarning kuchli hayajonini, g'azabini ifoda etish maqsadida qanday so'zlarga e'tabor qaratiladi?**

- a) Shevadagi so'zlar
- b) Vulgarizmlar
- c) Varvarizmlar
- d) Parazit so'zlar

**75. Ushbu nutqda nutqning ijro etilishida unga ma'lum bir voqyea-hodisa haqida ma'lumot berishdan tashqari yana bir maqsad – tinglovchi ongiga va ruhiyatiga ta'sir etish vazifa qilib qo'yiladi.**

- a) Nutq tozaligi
- b) Nutq tasirchanligi
- c) Nutq to'g'riliqi
- d) Nutq madaniyati

**76. Bu - har bir voqelikni izchil, haqqoniy aks ettira bilishlik, nutq ko'rkamligi, nutq ta'sirchanligi ishontirish quvvatining manbaidir.**

- a) Nutq tozaligi
- b) Nutq tasirchanligi
- c) Haqqoniylig
- d) Nutq madaniyati

**77. Bu - xalq diliga kirib borish, uning tilida sodda va tushunarli gapirish.**

- a) Ilmiylik
- b) G'oyaviylik
- c) Haqqoniylig

d) Xalqqa yaqinlik

**78. Uzoq-uzoqlarda – o‘z orzulari va tasavvurlarida sayr qilib yurgan inson uchun «bo‘sliqqa yo‘nalgan nigoh» xos. Bu nigoh ma’nosiz va tarqoq bo‘ladi. Bu qanday manoni anglatadi?**

- a) Xayol suryapman.
- b) Qiziqish.
- c) Hurmat.
- d) Xijolat bo‘lish.

**79. Ba’zan inson yuz berayotgan jarayonga shunchalik berilib ketadiki, oqibatda o‘z tanasini nazorat qilmay qo‘yadi. U og‘zini yopishni unutib qo‘yishi yoki ko‘zlarini katta ochib olishi mumkin – bular mimik belgilar bo‘lib, inson hayron, mahliyo bo‘lib qolgani qanday manoni anglatadi?**

- a) Qiziqish.
- b) Xayol suryapman.
- c) Hurmat.
- d) Xijolat bo‘lish.

**80. .... - bildiruvchi imo-ishoralarning eng keng tarqalgalari – qo‘llarning va oyoqlarning chalishtirilgan holati. Inson bu bilan siz berayotgan ma’lumotni qabul qilmasligini bildiradi. Suhbatdosh quloqlarini qimirlatishi mumkin – ramziy ma’noda u bu bilan siz unga ilayotgan «lag‘mon»larni tushirmoqda.**

- a) Ishonchsizlik.
- b) Xayol suryapman.
- c) Hurmat.
- d) Xijolat bo‘lish.

**81. Beparvo, hissiz nigoh, loqayd tana holati, hafsalasiz chehra, bo‘sashgan jag‘, biroz solingan qovoqlar bu nimning alomati?**

- a) Zerikish
- b) Xayol suryapman.
- c) Hurmat.
- d) Xijolat bo‘lish.

**82. Bu odamning ongsiz ravishda xavfsizlik holatiga qaytishga urinishidir, bu odatda go‘daklik va xuddi shu ko‘krakni so‘rib olish bilan bog‘liq.**

- a) Og‘izdagи barmoqlar
- b) Xayol suryapman.
- c) Hurmat.
- d) Xijolat bo‘lish.

**83. .... - bu nutqning ritmik va melodik tarkibiy qismlarining birikmasi: melodika, intensivlik, davomiylik, nutq tempi va tembr.**

- a) Intonatsiya
- b) Ritmika
- c) Intensivlik
- d) Tembr

**84. ... - nutqning kuchli yoki zaifligi (mitingda va xonada nutqning har xil intensivligi);**

- a) Hajm
- b) Ritmika
- c) Intensivlik
- d) Tembr

**85. ... nutqi - stressli va unstressiya qilingan, uzun va qisqa bo'g'irlarni muntazam ravishda takrorlash. Nutq ritmi she'riy va nasriy matnlarni tartibga solishga xizmat qiladi;**

- a) Ritm
- b) Hajm
- c) Intensivlik
- d) Tembr

**86. ..... nutq - nutqning ovozli ranglanishi, uning hissiy-ekspressiv soyalarini etkazish (masalan, ishonchsizlik intonatsiyasi, o'ynoqi intonatsiya va boshqalar).**

- a) Tembr
- b) Hajm
- c) Ritmika
- d) Intensivlik

**87. ..... - intonatsiya gapning to'liq yoki to'liq emasligini, savol yoki javobda so'rov yoki buyruq mavjudligini bildiradi;**

- a) Kommunikativ
- b) Hissiy
- c) Mantiqiy
- d) Ilmiy

**88. ..... - ma'lum bir tuyg'u, har qanday intonatsiyada, ma'ruzachining so'zga munosabati Modallik. Intonatsiya har doim modaldir. Ingliz intonatsiyasi tizimiga xosdir.**

- a) Hissiy
- b) Kommunikativ
- c) Mantiqiy
- d) Ilmiy

**89. Oldiga kelganin yemak xayvonning ishi,**

**Og'ziga kelganni demak nodonning ishi**

**Ushbu misralar muallifi kim?**

- a) A.Navoiy
- b) Bobur
- c) Bedil
- d) Kaykovus

**90. .... boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy meyoriy talablarini bajarishni taqazo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorkin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi.**

- a) Muomila odobi
- b) Axloqiylik
- c) Nutq
- d) Intonatsiya

**91. U keng qamrovli tushuncha bo'lib, u ma'lum ma'noda, umumbashariy miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi.**

- a) Etiket
- b) Notiqlik
- c) Axloq
- d) Muomila

**92. Odatda kim kimga tanishtiriladi?**

- a) Yoshlarni yoshi kattalarga tanishtiradilar
- b) Ayol kishi erkak kishiga tanishtirladi
- c) Yoshlarga kattalarni tansihtiradilar
- d) Barchasi to'g'ri

**93. Odatda kim kimga tanishtiriladi?**

- a) Erkak kishini ayol kishiga tanishtiradilar
- b) Ayol kishi erkak kishiga tanishtirladi
- c) Yoshlarga kattalarni tansihtiradilar
- d) Barchasi to'g'ri

**94. Odatda kim kimga tanishtiriladi?**

- a) Yangi hodimni kollektivga raxbar tanishtiradi.
- b) Ayol kishi erkak kishiga tanishtirladi
- c) Yoshlarga kattalarni tansihtiradilar
- d) Barchasi to'g'ri

**95. .... – insondan ko'p narsani talab qilmaydi. U kishini tarbiya ko'rganligidan dalolat beruvchi harakatlar majmuasidir. Aslida u har – hil kechib, bu insonni qayerda, kim bilan, qay paytda, suhbатdosh bilan o'zaro munosabatdan kelib chiqqan holda bildiriladi.**

- a) Murojaat qilish etiketi
- b) Salomlashish
- c) Suhbatlashish
- d) To'g'ri javob yo'q

**96. U ham katta san'at. U bilan kishining ishonchi va qalbini egallash mumkin. Unda yuz ifodasi tilning ko'rki hisoblanadi. Gap nima haqida bormoqda?**

- a) Shirinsuxanlik
- c) Murojaat qilish etiketi
- d) Salomlashish
- c) Suhbatlashish

**97. .... – insonning kim va qanday ekanligi haqida dastlabki ma'lumotni beradi hamda uning turmush tarzi va hayotida muhim ahamiyatga ega. U insonning ichki dunyosini to'liq aks ettirmaydi, lekin inson haqida uning tashqi ko'rinishisiz to'liq tasavvurga ham ega bo'la olmaymiz.**

- a) Tashqi ko'rinish
- b) Muomila
- c) Nutq
- d) Notiqlik

**98. Nutq madaniyatiga to'liq ta'rif berilgan qatorni aniqlang.**

- a) lug'aviy me'yordagi rioya qilish;
- b) mantiqiy izchillika va adabiy til me'yordariga rioya qilingan holda to'g'ri aniq va yoqimli so'zlash;
- c) to'g'ri talaffuz me'yordariga rioya qilish;
- d) yoqimli so'zlash.

**99. Adabiy tilning faqat yozma shakli uchun xos bo'lgan me'yordar qaysi qatordagi javobda ifodalangan?**

- a) lug'aviy va grammatik me'yor;
- b) orfografik me'yor;
- c) punktuatsion me'yor;
- d) uslubiy me'yor.

**100. Ma'lum hududdagina ishlatalib, faqat shu yerda yashovchi kishilarga tushunarli bo'lgan so'zlar qanday nomlanadi?**

- a) Kasb-hunarga oid so'zlar;
- b) shevaga xos so'zlar;
- c) terminlar;
- d) atamalar.

## GLOSSARIY

**NOTIQLIK SAN'ATI.** Notiqlik san'ati nazariyasi, chiroyli so'zlash haqida ta'limot, real vaziyatda maksimal darajada to'g'ri va chiroyli gapira olishni o'rgatuvchi fan. Qadimgi Yunonistonda miloddan avvalgi V asrda vujudga kelgan. Ushbu fan ritorika degan nom bilan ham atalgan. Ushbu fanga daxldor bo'limgan birorta soha, birorta kasb, jamiyatning biror qatlami yoki ijtimoiy guruh mavjud emas. Mashhur yunon faylasufi Aristotel ritorika faniga umumqamrovli fan deya bejizga ta'rif bermagan edi. Rus mutafakkiri Nikolay Koshanskiy "Ritorika - o'ylab topish, fikrlash va fikrlarni ifoda etish ilmidir" degan fikrida ham ayni haqiqat aks etgan edi. Notiqlik san'ati – amaliy jihatdan chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til me'yorlari, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan nuqsonlar va talaffuzga doir muammolarni hal etish yuzasidan bahs yuritadi.

**NOTIQLIK SAN'ATINING QISMLARI.** Fan sifatida notiqlik san'ati 4 qismdan iborat: 1. Notiqlik san'ati tarixi; 2. Notiqlik san'ati nazariyasi; 3. Notiqlik san'ati amaliyoti; 4. Notiqlik san'ati texnikasi.

**NUTQ.** Bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining bog'lash, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan muhim munosabatda namoyon bo'lishidir. Nutq jarayoni - tilning o'z vazifasini bajarish hamda amalga oshirish jarayonidir.

**ODDIY SO'ZLASHUV NUTQI.** Insonlarning kundalik muloqot nutqi hisoblanib, uning til bazasini adabiy til tashkil etmaydi. Shuning uchun oddiy so'zlashuvdan biz talqin qilayotgan nutq madaniyati talab qilinmaydi. Oddiy so'zlashuv oldiga qo'yiluvchi nutqiy talablar aniq lahja va shevalarning tabiiy me'yorlari bilan bog'liq bo'ladi.

**ADABIY SO'ZLASHUV NUTQI.** Bu adabiy til madaniyatiga, ya'ni adabiy til me'yorlariga amal qilgan xolda gapirishdir. Adabiy tilda so'zlash adabiy tilda yozishga nisbatan ancha qiyinchilik bilan erishiladigan jarayondir.

**TIL.** Notiqlik san'ati nazariyasida til me'yori markaziy tushunchalardandir. Til madaniyatining asosiy tekshirish obyekti adabiy til me'yorlari, ushbu me'yordagi ikkilanishlarni bartaraf etish kerak. Til me'yori tushunchasi murakkab muammolardan bo'lib, ko'p o'lchovli, ko'p rejali, ya'ni obyektiv-tarixiy, madaniy-sotsiologik va sof lingvistik hodisadir.

**XUSHMUOMALALIK** insonlar bilan munosabatlarda shirinso'z, chiroyli muomalali bo'lish demakdir. Bunday fazilatga ega bo'lish kishini madaniyatli va chiroyli xulqqa ega ekanligidan dalolat beradi. Xushmuomalalik suhbatdoshlarning dilini ravshan qilish, kayfiyatini hushnud qilish, ko'ngliga taskin berish uchun xizmat qiladi: manzur va ma'qbul muomila samimiylikning ifodasidir.

**SOFISTIKA.** yunon. sophists – usta, mohir. “Donishmandlik” va “fasohat” muallimlari sifatida voizlik qiluvchi qadimgi yunon faylasuflarining yo’nalishi. Sofistlar notiqlik san’atini ilk bor adabiy janr darajasiga ko’targan hamda notiqlikka ilmiy yondoshgan kishilar hisoblangan. Ular o’zlaridan oldin o’tgan notiqlarning faoliyatlarini nazariy asoslashga kirishib, ritorika ilmini yaratganlar. Dastlab ijobiy ma’noda ishlatilgan sofistika keyinchalik yetarli argumentlarsiz bahsga kirishuvni, munozarada chalg’ituvchi, xato ma’lumotlarni ishlatuvchi, qanday usuldan foydalanib bo’lsada bahsda g’olib bo’lishni anglatuvchi salbiy tushuncha sifatida ishlatiladi. Sofistlarning asosiy mafkurasi tinglovchilarni manipulyatsiya qilish, o’z fikrlarining to’g’ri ekanligiga ishontirishdan iborat bo’lgan. Sofistlar so’z va tilning nazariy asoslarini ham ishlab chiqdilar. Ularning ilmiy izlanishlari asosida tilshunoslik fanining ikki sohasi – orfoepiya (grammatika) va ritorika (notiqlik nutqlarini tuzish haqidagi ta’limot) shakllandi.

**«ILLIADA» VA «ODISSEYA» DOSTONLARI.** Qadimgi yunon shoiri Gomerning dostonlari bo’lib, ularda miloddan avvalgi XII asrda yunonlarning Kichik Osiyo yarimorolining g’arbiy qismida joylashgan Troya shahriga amalgalashgan harbiy yurishlari she’riy usulda bayon etilgan. «Illiada» va «Odisseya» dostonlari antik notiqlik rivojidagi eng asosiy manbalardan hisoblanadi. Bu asarlari bizga Yunonistonning birinchi notiqlari haqida ma’lumot beradi. Taniqli Rim notig’i, nazariyachi va pedagog Kvintellian Gomer asarlarida chiroli gapirish va nutq so’zlashning dastlabki namunalarini qayd etgan.

**LAKONIZM** – «lakoniya» so‘zidan kelib chiqqan bo’lib asli bu so’z qadimgi grek davlatlaridan Spartadagi bir tumanining nomi bo’lgan. Bu yerning aholisi o’z fikrlarini ravshan va qisqa shaklda aytishga layoqatlari bo’lganlar. Shundan «lakonchasiga» so’zlash usuli – lakonizm kelib chiqqan. Fikrni qisqa, lo’nda qilib ifodalash hozirgi vaqtida ham og’zaki va yozma nutqning muvoffaqiyatli tomoni hisoblanadi. Bu uslubdagi nutqni Gomerning “Illiada” dostonidagi Menelay obrazida ko’rishimiz mumkin.

**NOTIQ** – nutq so‘zlovchi; gapga chechan, gapga usta, so‘zamol.

**VOIZ** (arab.) — jamoat oldida nutq so‘zlovchi, voizlik bilan shug’ullanuvchi kishi, professional notiq.

**SUXANDON** – bu ot tojik tilida “nutq” ma’nosini anglatadigan suxan otiga “bil” ma’nosini anglatadigan donistan fe’lining don hozirgi zamon asosini qo’shib hosil qilingan bo’lib, “gapga chechan”, “notiq” ma’nosini anglatadi.

**DIKTOR** (lot. dictor — so‘zlovchi) — radio va televide niye da mikrofon oldida, telekamera qarshisida tayyor matnni o’quvchi shaxs. Diktor xushovoz bo’lishi, diksiyasi kuchli va til nor-malarini puxta bilishi zarur. Diktorlikka nutqi, ovozi, qobiliyatiga qarab tanlov yo’li bilan qabul qilinadi.

**VOIZLIK SAN'ATI** - jamoat oldida nutq so‘zlash, notiqlik san’ati; ilmiy-siyosiy ma’ruza, bahs, munozara, targ‘ibot va tashviqotning asosiy vositasi sifatida keng ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan san’at. Qadimda Sharq mamlakatlarida hukmdor shaxsan o‘zi jamoat oldiga chiqib, o‘z siyosati, xalqaro ahvol va boshqalar haqida nutq so‘zlagan. El oldiga chiqish, ayniqsa juma namozi, hayit, navro‘z kunlari va boshqalarda, mamlakatlararo urush boshlangandagi yig‘inlarda odat tusiga kirgan. 9-asrga kelib, bu muhim ishni xushovoz, ta’sirchan gapiradigan, ishontira oladigan maxsus kishilar — voizlarga topshirganlar. Voizlik san’ati ijtimoiy va badiiy jihatdan muhimligi tufayli asrlar davomida rivojlana bordi. O‘rta asrlarda voizlik san’atining nazariyasi va talqin uslublarini yorituvchi ilmiy, uslubiy va xrestomatik asarlar yaratildi. Voizlik san’atini o‘rgatuvchi maxsus soha — kalom ilmi, balog‘a ilmi yuzaga keldi. Voizlik san’ati o‘tmishda katta ijtimoiy qudrat kasb etgan, hozirgi notiqlik san’ati rivojida muhim rol o‘ynagan.

**PERIKL.** Perikl – Afinaning miloddan avvalgi V asrda strategi bo‘lgan siyosatchi. U yirik siyosiy arbobgina bo‘lib qolmay, ko‘zga ko‘ringan notiq ham edi. Perikl nutqlarining birorta matni ham bizgacha yetib kelmagan. Lekin uning usta, ko‘zga ko‘ringan notiq bo‘lganligi haqida yunon tarixchisi Fukidid ma’lumot beradi. Perikl nutqi fikrning chuqurligi, formaning soddaligi, samimiyligi bilan, tinglovchilar psixologiyasini e’tiborga olganligi bilan xarakterlanadi. Periklning tajribasicha, yaxshi notiq faqat yaxshi gapirish bilan kifoyalanmay, balki ayditoriyani ham o‘ziga jalb eta biladigan kishi bo‘lishi kerak.

**PROTAGOR** (eramizdan avvalgi 481-411) - Sofistlar ichida eng mashhuri bo‘lgan Abderlik Protagor insonga bo‘lgan yangicha qarashni ilgari suradi. “Inson, - deydi u, - barcha narsalarning o‘lchovidir”. Bunday qarash asosida sofistlarning asosiy nuqtai nazari shakllanadi: “har qanday narsa haqida ikki bir-biriga qarshi fikrni aytish mumkin”. Protagor baxsda o‘z oldiga faqat yagona maqsadni ko‘yish – auditoriyani notiqning xaq ekanligiga ishontirish; va shu maqsadni amalgalash oshirishda har qanday yo‘ldan foydalanish lozim, deb hisoblar edi.

**GORGİY** (taxminan m.a. 483 - 376). Gorgiy m.a. 427-yili o‘z shahri Leotina uchun harbiy yordam so‘rab maxsus elchi sifatida Afinaga keladi va xalq majlisida gapirgan nutqi Afina yoshlarida juda kuchli taassurot qoldiradi. Ko‘p o‘tmay Gorgiy butunlay Afinaga ko‘chib keladi va shu yerda ritorika maktabini ochadi. O‘z shogirdlariga so‘z san’atini o‘rgatish barobarida notiqlik bilan shug‘ullanadi. Gorgiyning aytishicha, notiqning eng muhim vazifasi tinglovchini ishontirish, uni maftun etish, rom qilishdir.

**ISOKRAT.** Tantanali notiqliknинг eng yorqin vakillaridan biri Gorgiyning shogirdi Isokrat (eramizdan avvalgi. 436-338) bo‘lib, Afinada ritorika maktabiga asos solgan. Aytish lozimki, bu maktabda ritorika faqat notiqlik san’atiga o‘rgatuvchi fan bo‘libgina qolmay, balki haqiqatni anglash va tarqatish vositasi

vazifasini o'tagan. Isokrat o'zi nutq so'zlamagan, balki notiqlikdan saboq bergen va Yunoniston bo'ylab tarqatilgan nutqlarni yozgan. Isokrat uslubi o'z hashamadorligi bilan ajralib turadi. U nutqning ohangiga, chiroyli shakliga alohida e'tibor qaratadi. Isokrat maktabining tajribasi IV asrdagi ommaviy notiqlikka katta ta'sir o'tkazdi. Bu davrda notiqlar ijtimoiy hayotda yetakchi o'rinni egalladi. Notiq xalq yig'inlarida nutq so'zlar, o'z qaror loyihamalarini muhokamaga qo'yar va shu tariqa davlat (polis)ning siyosiy yo'lini belgilab berardi. Davlatni boshqarish ana shunday siyosiy arboblar – "demagoglar" (xalq sardorlari) qo'liga o'tdi.

**DEMOSFEN** (eramizdan avvalgi 384 - 322). Mashhur yunon notig'i. Afina shahrida badavlat xonadonda dunyoga kelgan. Biroq yetti - sakkiz yoshlarida otasi vafot etadi. Uning bor mol-mulki unga va besh yoshli singlisiga qoldiriladi. Voyaga yetganida unga otasidan qolgan meros deyarli qolmaydi. Demosfen merosni qaytarib olish maqsadida notiqlik san'atini o'rganishga kirishadi. U notiqlik san'atini o'rganish uchun o'z davrining meros ishlari bo'yicha advokati Isey mакtabida ta'lim oldi. Unga notiqlik san'ati sohasidagi faoliyatida sharaf keltirgan narsa ulkan siyosiy nutqlaridir. Notiqlik san'atidan dars bergen, sud mahkamalarida, yig'ilishlarda nutq so'zlagan (61 nutqi, 56 ma'ruzasi saqlanib qolgan). Butun umri davomida Afinaning mustaqilligi va Yunoniston polislarining Makedoniyaga qarshi birlashishi uchun kurashgan. Makedoniya podshosi Filippga qarshi qaratilgan bir qancha nutq so'zlagan (bu nutklar "filippik" nomi bilan mashhur). Hayotining so'nggida, dushmanlari ta'qibiga uchrab, Afinadan qochgan va zahar ichib o'lgan.

**LISIY** (m.a. 459-380). Eramizdan avvalgi V asr oxiri va IV asr boshlarida yashab o'tgan Afinadagi ko'zga ko'ringan sud notiqlaridan biri Lisiy edi. Lisiyning notiq sifatidagi xususiyatlaridan biri, hamma notiqlar uchun zarur bo'lgan usul – fikrni yangicha shaklga solishni juda oson egallaganligidir. U gapisishi lozim bo'lgan kishinining xarakterini, ijtimoiy ahvolini juda ham aniq tasvirlab beruvchi nutq matnini ishlab chiqishga usta ediki, bu nutq faqat o'sha so'zlovchigagina xos bo'lardi.

**ARASTU** (m.a. 384-322). Chiroyli so'zlash san'atiga katta uslubiy hissa qo'shgan buyuk faylasuf Arastudir. Arastu o'zining "Tonika" asarida dialektika, falsafa, mantiq fanlarining notiqlik bilan bog'liq xususiyatlarini ko'rsatgan. Arastu notiqlik san'ati nazariyasi haqidagi yaxlit asar – "Ritorika" asarini yaratdi. "Ritorika" asarida u butun diqqat e'tiborini bevosita notiqlikka, notiqlik mahorati va san'atiga, notiqning o'zini tutishi hamda davlat va jamiyat hayotidagi o'rniga qaratadi.

**OSIYO USULI.** Qadimgi Rimdagi ikki notiqlik uslubidan biri bo'lib, Rimda m.a. I asrning 50-yillariga qadar hukmronlik qilib kelgan. Bu usulning namoyondalari o'z chiqishlarini yorqin hamda ehtirosga to'la teatr tomoshasiga

aylantirar edilar, ularning yordamida o‘z g‘oyalarini ommaga unumli tarzda yetkazganlar.

**ATTIKA USULI.** Qadimgi Rimdagagi ikki notiqlik uslubidan biri bo‘lib, Rimda respublika tizimining qulashi hamda jamiyatda demokratik chiqish erkinligi udumlarining yo‘qolishi davrida ustunlikka ega bo‘lgan usulga aylandi. Attika usuli bir maromlilik va asoslarning qiyin masalalariga sodda yo‘l bilan yondashuvi, notiqning xatti-harakati va imo-ishorasi, ifodali o‘qishi bilan farqlanadi. Notiq o‘z nuqtai nazarini auditoriyaga hech qanday e’tibor bermagan holda, bepisandlik, xotirjamlik va vazminlik bilan ifodalar edi.

**MARK TULLIY SITSERON.** Eramizdan avvalgi 106 – 43-yillarda yashagan. Rim yaqinidagi Arpina qishlog’ida badavlat suvoriy xonadonida tug’ilgan. Ilk bolaliligidanoq yunon tilini to’la-to’kis o’rganadi. Sitseron Rim notiqlarining yalovbardoridir. Sitseron mukammal bilim oldi va notiqlik san’atining muhim maktabini bitirdi. Yunonistonda ta’lim olgan vaqtlarida ustozи “Afsuski, Yunonistonning so’nggi shuhrati rimliklar tomonga ketadi” degan ekan. Sitseron ijodida ikki an’ana asosiy rol o‘ynadi. Bulardan biri, grek so‘z ustalari maktabi keng bilim maydoni bo‘lsa, ikkinchisi, eski Rim notiqlari tajribasi, birinchi navbatda Katon tajribasi edi. Sitseronning notiqlik san’atidagi muvoffaqiyatida uning tabiiy qobiliyati – ta’sirchanlik, hayotiy idrok, chuqr sezgirlik muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

**ABU NASR FAROBIY.** (873, Forob shahri — 950, Damashq) — O‘rta Osiyoning ulug Turkiy mutafakkiri va qomusiy olimi. Yunon falsafasini chuqr bilgani, unga sharxlar bitganligi va jahonga targ‘ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o‘zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo‘shgani uchun "al Muallim assoniy" ("Ikkinchi muallim", Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" nomlariga sazovor bo‘ldi. Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida fozil shahar hukmdori egallashi zarur bo‘lgan 12 muhim sifatini ko‘rsatadi va shundan beshinchisi sifatida tilga olingan notiqlik haqida gapirib: "so‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin", – deydi. Farobiyning chiroyli, tartibli, ta’sirchan qilib so‘zlash masalalari haqidagi mulohazalari ritorika, poetikaga oid asarlarida uchraydi. Farobiyning o‘zi ham, manbalarda zikr etilishicha, shirinso‘z, hozirjavob, har qanday qiyin masalalarni ham bir zumda hal etib beruvchi faylasuf - notiq bo‘lgan.

**ABU RAYHON BERUNIY.** (4-sentabr, 973, Kat, Xorazm, — 11-dekabr, 1048, G‘azna) — XI asr qomusiy olimi. Notiqlik san’atida Beruniy nutqning ikki hil nasr, nazm ko‘rinishi borligini ko‘rsatadi. Nutqning bu turlari ma’lum qoidalari asosida shakllanadi. Nazm naxv qonun-qoidalari, nazm aruz talablariga binoan tuziladi. Aruzga qaraganda naxvning ta’sir doiralari keng, u nasr uchun ham, nazm uchun ham zarur. Beruniy yozadi: “Naxv (grammatika) nasrda va aruz (she’r

o'lchovi) nazmda (aytilgan) so'zning me'yorini o'lchovchi va xatosini aniq ikkita mezon bo'lib qoladi, lekin naxv bular ikkisining umumiyrog'idir, chunki u nasrni ham, nazmni ham birgalikda o'z ichiga qamrab oladi".

**KAYKOVUS.** Kaykovus (1021—98) — fors yozuvchisi. Fors tilidagi birinchi nasriy asar — "Qobusnom" asarining muallifi. Kaykovusning Sharq pedagogikasi tarixida g'oyat qimmatli asarlar qatorida turuvchi «Qobusnom»sida ham notiqlik sharxlari uchun alohida bob ajratilganligi bu san'atga bo'lgan, uning san'atkoriga bo'lgan qiziqishning orta borganligini ko'rsatadi. «Qobusnom»ning «Suhandonlik bilan baland martabaga ega bo'lish haqida» deb nomlangan yettinchi bobida va hunarni egallahsga bag'ishlangan oltinchi bobida notiqlik sirlariga doir o'gitlar bildiriladiki, bu fikrlar o'sha davrda ham hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan.

**ALISHER NAVOIY.** (1441-yil, 9-fevral 1501-yil, 3-yanvar) – ulug' o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi bo'lgan. G'arbda chig'atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi, sharqda „nizomi millati va din“ (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug'lanadi. Navoiy notiqning so'zi bilan ishi bir bo'lmos'i lozimligini uqtiradi. Aks xolda nutqning ta'siri bo'lmaydi. «Ulki buyurib o'zi qilmag'ay, hech kimga foyda va asar aning so'zi qilmag'ay». Alisher Navoiy davrida ham notiqlik yuksak darajaga ko'tarildi. U "Mahbub ul qulub" asarining 24-bobini asosan voizlikka bag'ishlagan edi. Alisher Navoiy notiqlikda qisqalik va ravshanlikni yoqtiradi. Bu jihatdan uning «Mahbubul qulub»idagi 60 tanbehi o'rinnlidir. «Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muhtasar. Ko'p deguvchi mumil, muqarrar deguvchi loya'qil» (Ya'ni: Chin so'z e'tiborli, yaxshi so'z qisqa bo'ladi. Ko'p so'zlovchi zeriktiruvchi, qayta gapiradigan – aqldan ozgan), - deydi.

**VOIZ IRSHOD.** Fahriddin Safiyning shohidlik berishicha, Voiz Irshod minbarga chiqib, shunday mahorat va ehtiros bilan nutq so'zlar ekanki, uning nutqlari jome masjidiga yig'ilganlarni yig'latib yuborar, o'rni kelganda vaziyatni tezdan boshqa mazmunga burib, kuldirib ham yuborar ekan. Uning nutqidan ta'sirlanib ho'ng-ho'ng yig'laganlar. Shunda u o'z nutqining jozibador, maftunkor yana bir qirrasini namoyish qilgan: u o'z ma'ruzasi jarayonida shunday bir burilish yasaganki, yig'lab o'tirganlarning barchasi beihtiyor qahqaha otib yuborganlar. Irshod o'z bilimining kengligi, siyosiy ongining teranligi hamda nutqining ta'sir kuchi bilan o'sha davning mohir diplomati darajasiga ko'tarila olgan.

**QOZI O'SHIY.** Tarixchi Muhammad Majdiyning "Ziynat ul-majolis" asarida ta'kidlanishicha, O'shiy voizlik san'atida mislsiz mahorat sohibi sifatida dong taratgan va el nazariga tushgan. Qozi O'shiy "Miftoh un Najoh" ya'ni "So'z kaliti" risolasida voizlik san'atining sir-asrorini mohirona ochib bergen. Bu esa uning o'tkir voizgina emas, balki nutq madaniyati bo'yicha yetarli bilim sohibi ekanligidan ham dalolat beradi.

**HUSAYN VOIZ KOSHIFIY.** U taxminan 1440-yillarda Xuroson viloyatidagi Sabzovor shaxrining Bayxaki kentida tug‘ilgan. Yoshligidanoq voizlik – so‘z san’ati bilan mukammal shug‘ullanadi. Natijada Sabzavorda o‘zi yosh bo‘lsada ko‘zga ko‘ringan voiz bo‘lib taniladi. Uning o‘g‘li Faxriddin Ali Safiy ham olim, shoir, yozuvchi, islom dinining targ‘ibotchisi sifatida butun Xuroson muzofatida mashhur bo‘lgan. Koshifiyning nutqlari o‘zining jozibadorligi bilan har qanday kishini jalb qila olgan. Aytishlaricha, uning bunday so‘z san’atidagi mahoratini Navoiy bilan birga Sulton Husayn Bayqaro ham yuksak baxolagan va ular o‘z asarlarini axoli o‘rtasida rasmiy ijro etish lozim bo‘lgan paytlarda, bu ishga Husayn Voizni munosib ko‘rganlar.

**KENGASHUV NUTQI (SIYOSIY NOTIQLIK)** – qadimgi yunon notiqligidagi notiqlik san’atining birinchi turi bo‘lib, Arastu tomonidan tasniflangan. Kengashuv nutqining maqsadi, vazifasi – tinglovchilarga biror taklifni tasdiqlatishi yoki rad ettirish (Notiqning tinglovchilarga biror taklifni tasdiqlatish ko‘proq uchraydi).

**HAKAMLIK NUTQI (HUKM CHIQARUVCHI, SUDLOV NOTIQLIGI)** - qadimgi yunon notiqligidagi notiqlik san’atining ikkinchi turi bo‘lib, Arastu tomonidan tasniflangan. Adliya, sudlov nutqining vazifasi, maqsadi – (biror nojo‘ya ish qilgan odamning qilmishini) ayblash yoki oqlashdan iborat. Bu xil nutq shunga xizmat qiladi.

**EPIDEKTIV NUTQ (TANTANALI NUTQ)** - qadimgi yunon notiqligidagi notiqlik san’atining ikkinchi turi bo‘lib, Arastu tomonidan tasniflangan. Epidektiv – tantanavor nutqlarda (biror bo‘lib o‘tgan voqeа, qahramonning qilmishi) maqtaladi yoki (dushmanlarning qilmishi) qoralanadi.

**DABIRLIK.** Davlat maqomidagi yozishmalarni yozma bayon etish va qiroat bilan o‘qib berish. Ushbu ko‘rinishdagi notiqlik ham davlat yozishmalari orqali yozma, ham ushbu nutqlarni yetkazish bilan bog‘liq og‘zaki shaklda olib borilgan. Hukmdor saroyidagi mirzalar hamda xalq yetkazish bilan shug‘ullanuvchi jarchilar dabirlik nutqlari bilan shug‘ullangan. Bugungi kunda Prezidentning bayram munosabati yoki erishilgan muvaffaqiyat uchun xalqqa yo‘llaydigan tabrigiga mos nutq turi bo‘lgan.

**XATIBLIK.** Juma kunlari peshin namozi oldidan xutba o‘qish bilan bog‘liq bo‘lgan diniy notiqlik. Ushbu notiqlik diniy-siyosiy mayldagi notiqlik bo‘lib, musulmon mamlakatlarida hukmdorning ismi juma namozidagi xutbagaga qo’shib aytilishi uning qonuniy hukmdor ekanligini anglatgan. Shuning uchun mamlakatning bosh masjidida imom-xatib bo‘lish, xutba o‘qish katta sharaf hisoblangan.

**MUZAKKIRLIK.** Juma kunlari, hayit va boshqa tantanali kunlardagi anjumanlarda xatibdan keyin diniy, axloqiy, huquqiy masalalarni sharhlab berish

bilan bog'liq notiqlik turi. Bu mazmundagi nutqlar ham diniy, ham dunyoviy manbalar bilan asoslantirilgan. Muzakkirlik nutqi namoyondalari doimo xalq tomonidan qadrlangan, ular xalq uchun ustoz maqomida qabul qilingan.

**SULTONIYOT.** Yuqori tabaqa a'yonlari va zodagonlar uchun mo'ljallangan nutq. Bu turdag'i nutqlar davlat majlislari, mashvaratlar, saroy bazmlari, turli davlat elchilarini qabul qilish bilan bog'liq marosimlar va boshqa shu mazmundagi saroy yig'inlarida qo'llanilgan. Sultoniyotda hukmdorlar sha'niga hamd-u sanolar aytilgan, ular ko'klarga ko'tarib maqtalgan.

**JIHODIYA.** Jang ishtirokchilar uchun mo'ljallangan nutq. Jihodiyada jangovarlik, yalovbardorlik, botirlik, qahramonlik, jasurlik, fidoiylik, vatanparvarlik ulug'langan. Bu turdag'i nutq qadimiyligi ildizlarga ega bo'lib, musulmon sarkardalari ham ajoyib notiq sifatida tarix zarvaraqlarida qolgan. Masalan, ulug' ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur 1526-yil 21-aprelda Dehli sultoni Ibrohim Lo'diy bilan bo'lган Panipat jangidan oldin ruhlantiruvchi nutq so'zlaganligi, bu esa ushbu jangda Boburning g'alabasini ta'minlagan omillardan biri bo'lганligi ta'kidlanadi. Boburning bu nutqi jihodiya nutqiga misol bo'lsa oladi.

**G'ARIBONA.** Unda mehnat ahlini itoatkorlikka, bo'ysunishga chaqiruvchi nutq mazmuni ustuvor bo'lган. G'aribona nutqi raiyat uchun mo'ljallangan, ularning dunyoqarashi, turmush tarsi, faoliyatidan kelib chiqib misollar bilan boyitilgan. Xalqni shukur qilishga yo'naltirish, soliq yoki shu kabi majburiy pul yig'imlarini yig'ishga ko'ndirish g'aribona nutqlarining asosiy maqsadi bo'lган.

**NUTQ TURKUMLARI** – bir-biriga yaqin bo'lган, umumiyligi mazmun, uslub yordamida birlashtirib turiluvchi nutq turlarining yig'indisi. Nutq turkumlari nutq turlaridan kengroq tushuncha bo'lib, u nutq turlarini o'zida birlashiradi. Zamonaviy notiqlikning quyida 5 turkumi mavjud: 1. Ijtimoiy-siyosiy notiqlik; 2. Akademik notiqlik; 3. Sud notiqligi; 4. Ijtimoiy-maishiy notiqlik; 5. Diniy notiqlik.

**NUTQ TURLARI** – mazmun, tuzilish, auditoriya jihatidan bir-biriga yaqin bo'lган nutqlarni tasniflash uchun ishlatiluvchi tushuncha.

**IJTIMOIY-SIYOSIY VA SIYOSIY-IQTISODIY NUTQ** – shu mavzuga oid muayyan axborotlarni yoritib, tinglovchilarni ulardan xabardor qilish va siyosiy-ijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy masalalarda keng fikr yuritishdan iborat. Bunday turdag'i nutqlarga Oliy Majlisga Prezidentning murojaatnomalari, xalqaro maydonidagi chiqishlar misol bo'la oladi. Unga keng ko'lamlilik va konkret faktlar xos.

**HISOBOT NUTQLARI** esa mamlakatimizda vazirlar, mansabdor shaxslarning Oliy Majlisdagi hisobot nutqlari misol bo'la oladi. Hisobot nutqlari kollektiv xarakterga ega bo'ladi, notiq faqat o'zining emas, balki butun tizim,

tashkilot yoki korxonaning faoliyatiga oid ma'lumotlarni yetkazadi. Bu nutq turi rahbar shaxsning biror tashkilot, jamoaning ma'lum bir muddat orasidagi faoliyatiga oid rasmiy hisoboti hisoblanib, bunday hisobot, ko'zlangan reja, amalda bajarilgan ish hajmi va mazmuni, erishilgan yutuqlar, nuqsonlar va istiqbolda ko'zlanadigan rejalarining real faktlar asosida qilinadigan tahlilidan iborat.

**DIPLOMATIK NOTIQLIK** – ijtimoiy-siyosiy notiqlikning shunday turi hisoblanadiki, u davlat ahamiyatidagi rasmiy nutq bo'lib, xalqaro mavqega ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Faqatgina diplomatik faoliyat olib borish huquqiga ega bo'lgan shaxslar, davlat va xalq nomidan so'zlay olish vakolatidagi shaxslargina diplomatik notiqlikni taqdim etishlari mumkin. Butun jahonda azalazaldan mamlakatlar diplomatiyasida ajoyib notiqlarga ehtiyoj mavjud bo'lgan.

**SIYOSIY SHARH** - biror ekspert (notiq) ning muayyan davrda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni sharhlab, xulosalashtirib, bayon etib berishidan iborat. Siyosiy sharhlarni televideniye va radioda maxsus ko'rsatuvlar orqali ko'rishimiz mumkin. Bunday nutqlarda ham tashqi, ham ichki siyosatga oid bo'lgan voqealar sharhanadi. Siyosiy sharh mamlakatning siyosiy bilimlarini oshirishga xizmat qiladi, ma'lum ijtimoiy-siyosiy jarayon haqida mutaxassis nuqtai nazarini bayon etadi.

**HARBIY-VATANPARVARLIK NOTIQLIK** - eng qadimgi nutq turlaridan biri hisoblanib, jangovar ruhi, siyosiy keskin xarakteri va yuksak pafosi bilan ajralib turadi. Yaxshi sarkarda, qo'shin yoki harbiy qism boshlig'i aksariyat holatda doim yaxshi notiq bo'lishi talab etiladi. Umuman olib qaraganda, harbiy notiqlik askarlarning jangovorligini oshirishga xizmat qiladi.

**TARG'IBOT NOTIQLIGI** – nutqning bu ko'rinishi o'zining sodda, oddiy suhbatga yaqin, har bir auditoriyaning sharoiti va talabiga mosligi bilan xarakterlanadi. Bu nutqda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni xalq ongi va qalbiga yetkazishga yo'nalgan bo'lib, ushbu turdag'i notiqlik hukumat va xalqni o'zaro yakdil maqsad yo'lida jipslashtirishga yordam beradi. Bu turdag'i notiqlik agitatorlik nutqi yoki propaganda nutqi deb ataladi. Targ'ibot-tashviqot nutqi tinglovchilarni u yoki bu harakatni amalga oshirishga undaydi, pafos bilan xarakterlanadi, unda lozunglar (shiorlar) ga, hayotiy misollarda ko'proq e'tibor qaratiladi

**AKADEMIK NOTIQLIK.** Bu barcha turdag'i ilmiy konferensiyalardagi, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyasi himoyalalaridagi ma'ruzalar, bakalavr talabalari uchun bitiruv malakaviy ish hamda magistr talabalari uchun magistrlik dissertatsiyalari yuzasidan qilingan ma'ruza (axborot) larni qamrab oladi. Akademik notiqlik ilmiy nutq, ilmiy-ommabop nutq, ilmiy axborot va auditoriya notiqligi kabi nutq turlariga ajratiladi.

**ILMIY NUTQ** - ilmiy eksperimentlar va tadqiqotlarning xulosalari, gipotezalar bayoni bo'lib, ilmiy konferensiya, simpozium, ilmiy kengashlar, ilmiy seminarlarda nutqlar ilmiy nutqqa misol bo'ladi. Ilmiy notiqlikda tegishli fan yoki ilmiy yo'naliш doirasida ilmiy tortishuvlar ham bo'lishi mumkin.

**ILMIY-OMMABOP NUTQ** – fanning u yoki bu tarmog'idagi yutuqlarni keng ommaga yetkazish uchun qo'llaniladigan nutq turi bo'lib, u ilmiy bilimlar va notiqlik mahoratini umumlashtirishni talab qiladi. Ilmiy-ommabop nutqlar muayyan talablarga javob berishi, ya'ni har bir ma'ruza ilmiy asosga va g'oyaviy yo'naliшha ega bo'lishi, aniq dalil va hujjatlarga asoslanishi masalani tarixiy jarayonga bog'liq holda yoritishi, qiziqarli va ixcham bo'lishi shart.

**AUDITORIYA NOTIQLIGI** – universitet, institut, kollej talabalari hamda litsey va maktab o'quvchilari uchun dars ma'ruzalarini o'z ichiga oladi. Auditoriya notiqligi tarkibiy tuzilishiga ko'ra ilmiy-ommabop uslubga yaqinroq bo'lishi talab qilinadi. Bunday notiqlik turiga o'qituvchi-professorlar, olimlarning darslari misol bo'la oladi. Auditoriya notiqligida har bir nutq ta'sirchan, mazmunan yuksak bo'lishi zarur.

**ILMIY AXBOROT** – akademik notiqtikning bu ko'rinishi avval qilinayotgan ishlar haqida muayyan darajadagi mutaxassis, javobgar va rahbar shaxslarni xabardor qilishni ko'zda tutadi.

**SUD NOTIQLIGI.** Sud notiqligi notiqlik san'atining qadimgi turlaridan hisoblanadi. Qadimgi yurist (faqih)lar orasida o'z nutqi, notiqlik mahorati bilan mashhur bo'lgan so'z san'atkoriлari ko'p bo'lgan. Mashhur sharq faqih notiqlaridan biri qozi al-Harbavayxiy shu qadar katta e'tiborga ega bo'lganki, hatto yurting amiri har kuni ertalab kelib uni ziyorat qilib ketgan.

**QORALOVCHI NUTQI** o'zining muayyan shaxs yo bir guruh kishilarining aybini bo'yniga qo'yish, o'zi xizmat qilayotgan ijtimoiy tuzum manfaatini yoqlab, shu tuzum yo davlat siyosatiga qarshi bo'lgan, qonun-qoidalarga rioya qilmagan fuqarolarni qoralash ruhi bilan xarakterlanadi.

**JAMOATCHI QORALOVCHI NUTQI.** Agar davlat prokurori chetdan kelgan kishi sifatida bu ishga aralashsa, jamoatchi qoralovchi jinoyat ishtirokchilari bilan yonma-yon turib, bir jamoada ishlagan bo'lishi mumkin. Jinoyatchi tarjimai holini jamoatchi-qoralovchi prokurorga qaraganda ko'proq bilishi tabiiy. Shu yo'l bilan uning jinoyatini oydinlashtirishi mumkin.

**OQLOVCHI NUTQI.** Oqlovchi chinakam begunoh odamni emas, balki aybi bo'lgan jinoyatchini oqlashga urinadi. Uning gunohidan o'tishni talab qiladi.

**JAMOATCHI-OQLOVCHI NUTQI.** Sudlanuvchining gunohini yengillatish, ularning to'g'ri yo'lga tushib olishlari uchun ko'maklashishga qaratilgan bo'ladi. Bu toifadagi notiqlar muayyan jamoa nomidan so'zlaydilar.

**O‘Z-O‘ZINI HIMOYA QILISH NUTQI** – sud notiqligining tarkibiy qismi. O‘z-o‘zini himoya qilish nutqi siyosiy mavqega ega bo‘lgan jarayonlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday jarayonlarda o‘z-o‘zini himoya qilish nutqi ko‘pincha siyosiy hukm chiqarish, ijtimoiy illatlarni ro‘y-rost ochib tashlash darajasiga ko‘tarilib ketadi.

**IJTIMOIY-MAISHIY NOTIQLIK** – bunga turli tadbir va yig‘inlarda, yubiley tantanalarida so‘zlanadigan qisqa va lo‘nda nutq yoki suhan so‘zlar kiradi. Kundalik turmush bilan bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p yig‘in va marosimlar borki, ularda notiqlik san‘atining o‘ziga xos ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-maishiy notiqlik notiqlikning xalqqa eng yaqin ko‘rinishi hisoblanadi. Ijtimoiy-maishiy notiqlik madhiya yoki yubiley-maqtov nutqlari, ta’ziya va motam nutqi, o‘rtakashlar nutqi, sahna nutqi, teleradiojurnalistlar nutqi, qadah so’zi (tost) kabi notiqlik turlarini o‘zida birlashtiradi.

**MADHIYA YOKI YUBILEY-MAQTOV NUTQLARI.** Bu nutqning bir ko‘rinishi muayyan shaxslar xizmatini tavsiflashga bag‘ishlansa, boshqa biri obyekt madhiyasiga bag‘ishlanadi. Birinchi ko‘rinishdagi madhiyalar jumlasiga tarixiy siymolar (Navoiy, Jomiy, Shekspir, Nyuton) davlat arboblari haqidagi ta’riflar kirsa, ikkinchisiga Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyi yoki shu kabi yuzlab obyektlar bilan bog‘liq nutqlar kiradi.

**TA’ZIYA VA MOTAM NUTQI** ham jahonning ko‘pchilik xalqlariga mansub bo‘lgan nutq ko‘rinishlaridan biridir. O‘rta Osiyo xalqlari orasida ta’ziya nutqlarning saj’ (qofiyali nasr) va she’riy shakllari mavjud. Ular o‘zining yozilishi, ta’ziya bildiruvchi shaxslarning fazilatlarini yorqin ocha olishi kabi xususiyatlari tufayli go‘zal va dilkash hisoblanadi.

**SAHNA NOTIQLIGI** (kino, teatr aktyorlari, konsert boshlovchilar yoki konsertni olib boruvchi aktyorlar nutqi) – bu og‘zaki notiqlikning alohida turi hisoblanib, tinglovchi tomoshabinlar uchun umumtushunarli bo‘lgan adabiy tilda, chiroyli talaffuz orqali amalga oshiriladigan nutqdir.

**TELERADIOJURNALISTLARI NOTIQLIGI** – bunda ko‘rsatuv yoki eshittirish olib borayotgan jurnalist adabiy tilda omma uchun tushunarli bo‘lgan zaylda nutq so‘zlashi, so‘zlarni aniq va ravshan ohang bilan talaffuz etishi muhim. Shuningdek, fakt va voqealarni bayon etishda, o‘z nutqida qaytariqlarga yo‘l qo‘ymasligi uchun oldidagi matndan foydalanishi yoki uni mukammal o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim.

**TO‘Y, “O‘RTAKASH”LARI NOTIQLIGI** – bu holatda “o‘rtakash”ning notiqligi uning bilim saviyasi bilan bog‘liq. Bu notiqlikning asosiy xususiyatlari bazmning mazmunidan kelib chiqishi, tadbirni mohirlik bilan boshqarish zaruriyati, “bayram ruhiyati”ni ushlab turish kabilar hisoblanadi. Ba’zi

“o’rtakash”larning gaplari tuturuqsiz, ba’zilari ma’noli notiqlik bilan to’yni boshqaradi.

**DINIY VA’ZXONLIK (NOTIQLIK)** – bunga namoz jum’ada, amri-ma’rufda imom tomonidan qilinadigan ma’ruzalar kiradi. Diniy notiqlik islom dinida xutba hamda va’z, xristian dinida propoved va sobordagi nutq deb aytildi. Islom dini bilan bog’liq bo’lgan notiqlikning juma namozida imom vazxonligi (xutba) va amri ma’rufdagi notiqlik kabi turlari farqlanadi.

**XUTBA** musulmon sharqida keng tarqalgan diniy nutq ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, uzoq tarixga ega. Xutba nutqi juma va hayit namozlarida, shuningdek, boshqa katta marosimlardagi nutqdir. Shu rasmiy nutqni so‘zlovchi notiq-arbob xatib deb ataladi. Xutba nutqining diniy, axborot xususiyatlaridan tashqari axloqiy jihatni ham mavjud. Xutba nutqlari quruq rasmiy tilda emas, hikoyat, rivoyat, sarguzasht va boshqa inobatli, ayni paytda qiziqarli, ko‘rgazmali materiallar bilan asoslangan holda so‘zlanadi. Bu esa xutba nutqlarining ritorik va estetik-badiiy qiymatini oshiradi.

**AMRI MA’RUF VA’ZLARI** diniy notiqlikka mansub ikkinchi nutq ko‘rinishidir. Va’zlar asosan keng ommaga mo‘ljallanganiigi uchun xutbaga ko‘ra ancha erkin. Badiylik va estetik emotsiyonal tasirchanlik, tilining sodda va ravonligi bilan xutbadan farq qiladi.

**SUHBAT** - ma’lum bir mavzu, masala yuzasidan diolog (yoki polilog) tarzida ikki yoki bir necha kishi o’rtasida bo‘lib o’tgan nutqiy muloqot.

**MUROJAAT** ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lgan munosabat turi bo‘lib, ular og’zaki yoki yozma ko‘rinishga ega. Murojaat qilib aytileyotgan so’zlar nafaqat hurmat belgisi, balki, maqsadga erishish vositasi hamdir. Murojaat vaziyatga, sharoitga, jamoaga, muhitga qarab yakka shaxsga yoki jamoaga yo’naltirilgan bo’ladi. Biroq, barcha murojaatlar axloq me‘yorlariga bo’ysungandagina ijobiy natija berishi mumkin. Murojaat qilish ham bir necha turlarga bo’linadi: ular – rasmiy, ishonchli, intim va egasiz.

**DEBAT** – biror bir voqeа, hodisaga yoki mavzuga nisbatan odamlarning turli xil qarashlarni himoya qilishi. Debatlar – bu dolzarb muammo yuzasidan ikki tarafning aniq tarkiblashtirilgan va maxsus tashkillashtirilgan ommaviy o’zaro fikr almashinuvidir. Bu turdagи ommaviy bahs-munozaralar bir-birlarini emas, balki uchinchi tarafni o’zining haq ekanligiga ishontirishga qaratilgan.

**NUTQ STRUKTURASI YOKI NUTQ KOMPOZITSIYASI** – nutqning ma’lum bir tartibga solingan, ketma-ketlikda joylashtirib chiqilgan ichki tuzilishi.

**YUQORI NUTQ MADANIYATI** - fikrlarni til vositalari bilan to‘g’ri, aniq va ta’sirchan qilib bera olish mahorati. Notiqlik esa og’zaki nutq madaniyatining yuqori darajasi, yetuk nutqiy san’atdir. Nutq madaniyati aslida,

adabiy til mezonlari asosidagi, nutqiy faoliyat, nutqiy malaka, nutqiy ko‘nikma birligidan iborat.

**NUTQNING TO‘G‘RILIGI** – nutqning adabiy til meyorlariga mos kelishi.

**NUTQNING TOZALIGI** deganda unda til elementlarining ishlatalishida adabiy til me’yorlariga amal qilish-qilmaslik tushuniladi.

**NUTQNING TA’SIRCHANLIGI** deganda, asosan og’zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e’tiborga olish ham muhim sanaladi.

**TAQDIMOT** – nimadir (mavzu, mahsulot, xizmat va h.k.) haqidagi ma’lumotlarni kimgargadir (xaridorlar, tinglovchilar, talabalar va b.) qandaydir maqsadda (mahsulot yoki xizmatni sotish, darsni sifatli o‘tish kabi) maksimal samaradorlikda yetkazish. Taqdimot – bu o‘zlashtirish, ma’lumotlarni ko‘pchilik oldida ochiq taqdim etishdir. Taqdimot turlari hisobot, ma’lumotnomma, press-relliz, dayjest, axborot, reklama shaklida bo‘lishi mumkin. Ochiq taqdimot deganda odatda, loyiham, mahsulotlar, dasturlarning ommaviy axborot vositalari orqali taqdim etilishi va taqdim etilayotgan narsaning u yoki bu ko‘rinishda foydalilik mezonlarini ko‘rsatib berish tushuniladi. Aslida taqdimot bugungi kunda tijorat va siyosatda, ma’rifat va madaniyatda, ta’lim va tarbiyada keng qo‘llanilayotgan marosimlardan biridir.

**MUOMALA ODOBI** boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiy meyoriy talablarini bajarish.

## MUNDARIJA

KIRISH -----	3
NOTIQLIK SAN'ATINING MAQSADI, VAZIFALARI VA AHAMIYATI-----	4
NOTIQLIK SAN'ATI SHAKLLANISHINING TARIXIY ILDIZLARI-----	15
NOTIQLIK TURLARI VA KO'RINISHLARI-----	31
NOTIQNING NUTQ MADANIYATI-----	40
NUTQNING MANTIQIY ASOSI, MAZMUNI VA TUZILISHI-----	52
NUTQNI KUCHAYTIRUVCHI VA SALBIY TA'SIR ETUVCHI OMILLAR-----	63
NOTIQ NUTQIDA IMO-ISHORA VA XATTI-HARAKAT- LARNING AHAMIYATI-----	77
TAQDIMOT MAROSIMIDA NOTIQLIK SAN'ATINING AHAMIYATI-----	96
NOTIQLIK SAN'ATINING AXLOQIY TAMOYILLARI. NOTIQ IMIJI-----	106
TESTLAR-----	122
GLOSSARIY -----	138

## **СОДЕРЖАНИЕ**

ВВЕДЕНИЕ-----	3
ЦЕЛИ, ЗАДАЧИ И ЗНАЧЕНИЕ ОРАТОРСКОГО ИСКУССТВА-----	4
ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРАТОРСКОГО ИСКУССТВА-----	15
ВИДЫ И ТИПЫ ОРАТОРСКОГО ИСКУССТВА-----	31
КУЛЬТУРА РЕЧИ ОРАТОРА-----	40
ЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РЕЧИ, СОДЕРЖАНИЕ И СТРУКТУРА-----	52
ФАКТОРЫ, КОТОРЫЕ УСИЛИВАЮТ И НЕГАТИВНО ВЛИЯЮТ НА РЕЧЬ-----	63
ЗНАЧЕНИЕ ЖЕСТОВ И ДВИЖЕНИЙ В РЕЧИ ОРАТОРА-----	77
ВАЖНОСТЬ ИСКУССТВА ОРАТОРСТВА В ПРЕЗЕНТАЦИИ-----	96
ЭТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОРАТОРСКОГО ИСКУССТВА. ИМИДЖ ОРАТОРА-----	106
ТЕСТЫ-----	122
ГЛОССАРИЙ-----	138

## **CONTENT**

INTRODUCTION-----	3
THE PURPOSE, OBJECTIVES AND IMPORTANCE OF THE ART OF ORATORY-----	4
THE HISTORICAL ROOTS OF DEVELOPMENT OF THE ORATORY-----	15
THE TYPES AND FORMS OF ORATORY-----	31
SPEECH CULTURE OF SPEAKER-----	40
THE LOGIC BASIS, ESSENCE AND STRUCTURE OF SPEECH-----	52
FACTORS THAT ENHANCE SPEECH AND NEGATIVELY AFFECT SPEECH-----	63
THE IMPORTANCE OF GESTURES AND BEHAVIOR IN SPEECH-----	77
THE IMPORTANCE OF ORATORY AT THE PRESENTATION CEREMONY-----	96
THE ETHICAL PRINCIPLES OF THE ORATORY. THE IMAGE OF SPEAKER-----	106
TESTS-----	122
GLOSSARY-----	138